

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**MUHAMMADJONOVA LA'LIXON ASHURALIYEVNA  
ORTIQOVA DILBAR ORTIQOVNA  
OBIDJANOVA FERUZA ABDULLAYEVNA  
MASHARIPOVA GULARAM KAMILOVNA**

**PROFESSIONAL ETIKA VA ETIKET**  
**Toshkent to'qimachiligi va yengil sanoati instituti**  
**56610600 – Xizmat ko'rsatish texnikasi va texnologiyasi (yengil sanoat), xizmat**  
**ko'rsatish texnikasi va texnologiyasi (paxta sanoati), xizmat ko'rsatish**  
**texnikasi va texnologiyasi (to'qimachilik sanoati)**  
**mutaxassisligi talabalari uchun darslik**

UDK 174.395(075.8)

KBK 87-75

M-96

**L.A. Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Obidjanova, G.K.Masharipova**

Talabalarga mo‘ljallangan “**Professional etika va etiket**” nomi bilan ilk marta taqdim etilayotgan ushbu darslik professional etika va etiketning axloqiy-estetik mohiyati, vujudga kelishi, insoniy munosabatlardagi o‘rnii professional etika, marosimlar etiketi, hamda oila etiketi, er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar etiketi, oiladagi muomala madaniyati, biznesmen etiketi, taqdimot marosimi etiketi, telefondan to‘g‘ri foydalanish etiketi, oilaning yoshi kattalar bilan bo‘lgan etiketiga doir zamonaviy mavzularning ilmiy asoslari tahlil qilingan. Muomala va muloqot madaniyati, kundalik turmush tarzi odobi, milliy va umuminsoniy axloq ko‘rinishlariga doir qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Bugungi kundagi global tarmoqdagi etiket normalari ham o‘z aksini topgan.

### **TAQRIZCHILAR:**

**F.f.n., B.Isroilov** – “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, dotsent

**S.f.d. M.Bekmurodov** – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi “Boshqaruv sotsiologiyasi va psixologiyasi” kafedrasi mudiri, professor

Mazkur o‘quv darslik Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti Uslubiy kengashida ko‘rib chiqildi va nashrga tavsiya etildi.

KBK 87-75 (O’zb)

M-96

ISBN-978-9943-5257-3-3

© L.A. Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Obidjanova, G.K.Masharipova. “Professional etika va etiket” o‘quv darsligi. “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti - T., 2018 y.

## KIRISH

Globallashuv asri kishisining jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlaridagi har qanday faoliyatiga beriladigan baho avvalambor, uning tashqi jihatlariga e’tibordan boshlanadi, ya’ni har bir kadrni malakali mutaxassis bo‘lib yyetishishda axloqiy madaniyat hamda turmush estetikasi borasidagi nazariy hamda amaliy ko‘nikmalarlarni egallashi lozim ekanligi bizda sir emas. Shu sababli ham etiketning insonda qat’iy odob qoidalaringin go‘zal hatti-harakatlar bilan uyg‘unlashtiruvchi sohalardan biridir. Zero, kishilarning o‘zaro munosabati agar u ijobiy tus olsa, jamiyat va shahs ravnaqi uchun muvaffaqiyatli kechadi.

Ma’lumki, estetik va axloqiy madaniyat kishilik jamiyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning asosini jamiyatda inson o‘zini qanday tutishi kerakligini belgilab beruvchi axloqiy me’yorlar tashkil etadi.

“Etiket” atamasi dastlab Fransiyada Lyudovik XIV davrida paydo bo‘lib, O‘rta asrlarda Yevropada nafaqat madaniyat belgisi, balki kiborlar (aristokrat) va oqsuyaklarni oddiy xalqdan ajratib turuvchi odob qoidalari sifatida xizmat qilgan. Biroq, dastlab olmon mumtoz falsafasining namoyondalari, keyinroq esa ruhiy tahlil axloqShunoslari bu kabi “odob qoidalari” inson erkinligi va ruhiy salomatligi uchun zararli ekanligini ta’kidlaydilar. Chunkio‘ta sertakalluflik, faqatgina jamiyat oldidagi obro‘si uchun qilinadigan yuzaki odoblar ikkiyuzlamachilik sifatida mulozamatni me’yordan chiqargan va uni qabul qilgan insonga ham ruhiy jihatdan aksil ta’sir ko‘rsatadi, deydilar. Bunday fikrlar bugungi kunga kelib etiket yoki zamonaviy odob qoidalariiga nisbatan bir tomonlama yondaShuv ekanligi tushunib yetilmoqda.

Ma’lumki, xalqimiz azal-azaldan odob qoidalarini o‘rganish, o‘zlashtirish va unga amal qilishni komillikka yyetishishning muhim yo‘li sifatida e’tirof etadi. Shuning uchun axloq, axloq ilmi, muomala madaniyati va go‘zal turmush tarzini shakllantirish masalalariga jiddiy e’tibor berib kelganlar. Ayniqsa, bugungi globallaShuv va axborotlaShuv davriga kelib insonlararo axloqiy munosabatlar tizimi yangi ko‘rinish oldi. Endilikda odamlarda turmush tarzini go‘zallashtirishga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Taraqqiyot qanchalik tezkor bo‘lmisin, hozirda muloyim tabassum, iliq qo‘l olishish, chin yurakdan olib borilgan suhbatning ilgaridan ham ko‘proq qadri oshmoqda. Madaniy muomala - bu oila baxti, hayot go‘zalligi va ilhombaxsh mehnat garovidir. Aytilishicha, «qilish oson bo‘lgan, lekin yuqori baholanadigan narsa - muloyim iliq muomaladir». Muloyim, iliq so‘z kishiga najot, tetiklik bersa, qo‘pol so‘z esa kishini izdan chiqaradi.

Albatta, muloyim muomala, sof qalb, chiroyli xulq-atvorni o‘rganib bo‘lmaydi. Ichki madaniyatni rivojlantirish yuksak insoniy sifatlarni shakllantiruvchi tarbiyaviy ishlar

majmuasidan o‘rin olishi kerak Insonning xulq-atvori uning ko‘zgusi, - deyiladi. Shunday ekan, kishining har bir ishida qalbining go‘zalligi, sof tuyg‘ulari, yuksak g‘oyasi va madaniyati ko‘rinib turishi lozim. Shuningdek, har bir soha egasi professional etiketga ega bo‘lishi zarur.

Axloq - inson va jamiyat o‘rtasidagi ob’yektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, Shahsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir Shabsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq-atvor, odob, hatti-harakat normalarning majmuidir. “Axloq normalari iborasi odatda oldindan so‘z, yaxshi yoki yomon, ijtimoiy jihatdan ko‘rsatilgan xulq-atvor, har bir madaniyat uchun turli xulq-atvorlar yig‘indisini tashqil etadi”<sup>1</sup>.

**Kasb axloqi** - jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha’n, or-nomus, qadr-qimmat kabi hatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o‘ziga xos ko‘rinishidir.

**Professional etika**- har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, prinsip va sifatlarni o‘rganadi,hayotga tatbiq etadi. Jamiyatda mutloq, abadiy va o‘zgarmas axloq yo‘q. Axloq tarixan o‘zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Yillar o‘tishi bilan ishlab-chiqarish, fan va texnika rivojlanib, ijtimoiy mehnat taqsimoti yanada chuqurlashadi. Bu jarayonning uzluksiz davom yetishi esa o‘z navbatida, har biri muayyan ijtimoiy funksiyani bajaradigan yangidan-yangi faoliyat sohalari paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ularning sohiblari esa shunga ko‘ra muayyan ijtimoiy burchlarni bajara boshlaganlar. Mazkur burch va majburiyatlar muayyan axloqiy qoidalar va xulq-atvor normalarida o‘z aksini topdi. Shunday qilib, professional etikaning paydo bo‘lish uzluksiz mehnat taqsimotining mahsuli, uning axloqiy dasturi, axloqiy bahosi sifatida faoliyat ko‘rsata boshladи.

Xalqimiz azal-azaldan odob qoidalarini o‘rganish, o‘zlashtirish va unga amal qilishni komillikka yetishishning muhim yo‘li sifatida e’tirof etadi. Shuning uchun axloq, axloq ilmi, muomala madaniyati va go‘zal turmush tarzini shakllantirish masalalariga jiddiy e’tibor berib kelganlar. Ayniqsa, bugungi globallaShuv va axborotlaShuv davriga kelib insonlararo axloqiy munosabatlar tizimi yangi ko‘rinish oldi. Endilikda odamlarda turmush tarzini go‘zallashtirishga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

“Professional etika va etiket” nomi bilan taqdim etilayotgan ushbu darslikda etiketning vujudga kelishi va rivojlanishi, kasbiy etikaning kategoriyalari, muomala madaniyati, etiket turlari, oila va turmush etiketi, marosimlar, mezbon va mehmon etiketiga doir zamonaviy mavzularning ilmiy asoslari tahlil qilingan.

---

<sup>1</sup>Richerson and Boyd, "The Evolution of Human Ultra Sociality", In press: I. Eibl-Eibesfeldt and F. Salter, eds. Ideology, Warfare, and Indoctrinability, 1997.

## **1-MAVZU. “PROFESSIONAL ETIKA VA ETIKET”FANIGA KIRISH, FANNIO‘RGANISHNING MAQSADI, PREDMETI VA VAZIFALARI**

Inson kamoloti ko‘p qirralidir. Uning buyukligi ma’naviy kamolot darajasi bilan belgilanadi. Yetuk ma’naviyatga ega bo‘lgan insongina jamiyat muammolarini aqli va zakovati bilan yechishga harakat qiladi. Chunki inson o‘z atrofidagi odamlar ta’sirida kamolotga erishadi. Zotan, inson jamiyatda yashar ekan, undan chetda turolmaydi. Insonlarga xos bo‘lgan axloq me’yorlari jamiyat taraqqiyoti va hayotiy ehtiyojlar ta’sirida o‘zgarib turadi. Ta’lim-tarbiya, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi insonlarning hatti-harakatlarini, ular o‘rtasidagi munosabatlarni ma’naviyat bilan bog‘lanmagan tabiiy ehtiyojlar va imkoniyatlar chegarasidan tobora uzoqlashtirib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, davlat boshqaruvining asosiy yo‘nalishi umume’tirof etilgan tamoyillar, xalqaro huquqiy hujjatlar hamda demokratik standartlar asosida huquqiy davlat qurishni belgilab oldi.

Huquqiy davlatning shakllanishi va jamiyat ishlari boshqaruvining takomillashuvi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik kuchayib borayotgan hamda erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod Shahsni shakllantirish masalasi oldimizdagi muhim vazifaga aylanib borayotgan hozirgi paytda davlat boshqaruvi qat’iy qonunlar asosida amalga oshishini taqazo etmoqda. Bu esa bevosita davlat xizmatchidagi xodimdan yuksak fazilatlarni o‘zlashtirishni talab qiladi.

Davlat xizmatidagi xodimlarning huquqiy va axloqiy madaniyati bir-biriga mutanosib bo‘lishi kerak. Shu munosabat bilan mansabdor shahslarda siyosiy xislatlar bilan bir qatorda axloqiy fazilatlarni shakllantirish zaruriy holdir. Axloqiy barkamollik davlat xizmatidagi xodimlarning ishbilarmonlik sifatlaridan biri hisoblanadi.

Jamiyatda mutloq, abadiy va o‘zgarmas axloq yo‘q. Axloq tarixan o‘zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Uning bu xususiyatlari umumiyligi axloqning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan **Professional etikada** ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Jamiyat rivojining tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo‘lishi mehnatning bir turi bilan band bo‘lgan kishilar guruhlarining kasb – hunar jihatidan ajralib chiqishiga va shunga muvofiq ravishda turli xil mutaxassisliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu esa harbir insonning qilayotgan mehnat tarziga, mehnatni tashkil qilish usullariga qarab, ulardan muayyaan turdagи harakatlar va ruhiy quvvatlarni sarflashni talab etadigan qaytarilmas, o‘ziga xos ko‘nikmalarni vujudga keltiradi. Inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach o‘z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo‘ladi.

**Professional etika tushunchasi va ahamiyati.** Xalqimiz farovonligi maqsadida davlatchilik va qonunchilik yanada rivojlanib borayotgan bir paytda «Professional etika» fanining o‘qitilishi zarurligini isbotlab o‘tirishning o‘zi ortiqchadir. Ya’ni kasb madaniyatini egallah, madaniy gapirishga intilish, fikr mahsulini matnga to‘laqonli tushira olish mahorati barcha kasb egalarining orzusi bo‘lmog‘i lozim. Bu shubhasiz, bundan tashqari, hozirgi kunda professional etika muammosini kun tartibiga hayotning o‘zi qo‘ymoqdaki, kishilik jamiyatining madaniy-ma’rifiyligini busiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababli kasb madaniyati, qonuniy «kasb ehtiyoji» hayotiy talabga aylanishi aniq.

Har bir fanning o‘zining predmeti bo‘lgani kabi professional etika fanining ham o‘z predmeti mavjuddir. Professional etika fanini axloq tashkil qiladi. Etika axloqning kelib chiqishi, mohiyati, xususiyatlari, jamiyatda tutgan o‘rnii taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rganuvchi va haqiqatini amalda isbotlagan olimlar majmuidan iboratdir. Axloq aslida, lotincha “maralis” so‘zidan kelib chiqib axloqli degan ma’noni bildiradi.

Jamiyatning axloqiy hayoti deb kishilarning ishlab chiqarish jarayonini tashkil yetishda, ularning ijtimoiy – siyosiy va huquqiy faoliyatda, oilasida va kundalik turmushida yuzaga keladigan munosabatlar; ularning xulq atvori, yurish – turishi; adolat, sadoqat, burch, baxt kabi munosabatlarining majmuiga aytildi. Shunday kelib chiqqan holda, jamiyatning ko‘p qirrali va murakkab axloqiy hayotini aks ettiruvchi “axloq” tushunchasini kategoriya sifatida quyidagicha ta’riflash mumkin.

Axloq inson va jamiyat o‘rtasidagi ob’yektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, shahsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir Shahsning hayotiva faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq-atvor, odob, hatti-harakat prinsip va normalarning majmuidir.

Axloq ijtimoiy hodisa bo‘lib, insoniyat jamiyat vujudga kelishi bilan bir vaqtida jamoalar bilan shahslar o‘rtasidagi ehtiyoj va manfaatlarga xizmat qiluvchi ijtimoiy munosabat tariqasida vujudga kelgan. U o‘zining tarixiy taraqqiyotida quyidagi vazifalarni bajargan:

- umuminsoniy madaniyatning inson tabiiy xislatlarini o‘zganrtiruvchi faoliyat shaklidagi tarkibiy qismi;
- jamiyatda yashovchi har bir shahsni har tomonlama kamol toptiruvchi ma’naviy-ijtimoiy omil asoslaridan biri;
- kishilarning ichki tuyg‘ularini, hissiyotlarini takomillashtirib, umuminsoniy moddiy va ma’naviy qadriyatlarni anglab yetish, ularni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazib berish yo‘llaridan eng afzali;

- axloqshunoslik – insonlarga axloq-odob, burch, qadr-qimmatni shunchaki aks ettirmaydi, balki ularni tanqidiy baholaydi, tahlil etadi.<sup>1</sup>

Ma’naviyatni harakatga keltiruvchi kuch, uning ijodkori *shahs ma’naviyati* hisoblanadi. Shahs ma’naviyati qanchalik yuksak bo’lsa, umuminsoniy va milliy ma’naviyat ham shunchalik umrboqiy bo‘ladi. Shahs ma’naviyati - har bir kishining o‘zini insoniyat farzandi, muayyan *millat vakili, davlat fuqarosi* deb bilgan holda o‘z vatani tuprog‘ini, suvini, havosini va jamiki boyliklarini ko‘z qorachig‘iday asrashlari, uning ozodligi-obodligi, ravnaqi, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, izzatini joyiga qo‘yish yo‘lida chin vijdon, imon, e’tiqod, sadoqat, ishonch, halollik, dovyuraklik, beg‘arazlik, hurmat, katta fidoyilik va aqliy teranlik bilan faoliyat olib borishga qaratilgan ichki ruhiy va aqliy olamining majmuiga aytildi.

Shunday qilib, shahs ma’naviyati: *birinchidan*, hissiy va aqliy jihatdan o‘zining kimligini, ya’ni o‘zligini anglash, aniqrog‘i, qaysi odamning, millatning, Vatanning farzandi ekanligini idrok yetish; *ikkinchidan*, o‘zi mansub bo‘lgan oila, millat, Vatan bilan faxrlanish, g‘ururlanish; *uchinchidan*, oilasi, millati, Vatanining ravnaqi yo‘lida ilm olish, tarbiya topish hamda unga sadoqat, imon-e’tiqod bilan xizmat qilish; *to‘rtinchidan*, har qanday insonning haq-huquqlarini hurmatlash; beshinchidan, ilm-fanni insoniyat rivojini ta’minlovchi, jafokash mehnat ahlining og‘irini yengil qiluvchi vosita deb bilish, shuningdek, ajdodlar xotirasiga chuqur hurmat bajo keltirish kabi bir qator ichki ruhiy va aqliy his-tuyg‘ular, qarashlar, teran bilimlar va hatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Shahs avvalo inson, odam bolasi sifatida eng oliy qadriyat hisoblanadi. Uning ma’naviy kamoloti hozirgi kunda ko‘p jihatdan umuminsoniy, milliy va shahsiy qadriyatlarning ta’siriga, aks ta’siriga bog‘liq.

Axloq va axloqiy normalar kishilar faoliyatining muayyan sohasigagina taalluqli bo‘lmay, balki xalq hayotining hamma jabhalariga kirib boradi. Axloqiy xislatlar sohasi ko‘plab masalalarni, ya’ni fuqarolik jamiyatining axloqiy mezonlariga, bozor iqtisodiyoti sharoitining axloqiy qarashlariga bo‘lgan munosabati va boshqalardan tortib to zamonaviy turmush qoidalari, shahsiy xulq-atvorgacha bo‘lgan masalalarni o‘z ichiga oladi. Bu esa ongni qayta qurishda axloqiy tarbiyaning imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ma’lumki, insonning botiniy go‘zalligi bevosita axloqiy fazilatlar va axloqiy munosabatlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Chunki axloq, avvalo, ijtimoiy-ma’naviy hodisa sifatida inson kamolotida muhim ahamiyatga ega. Bu xususda akademik E.Yusupov: «Axloq insonning konkret sharoitlarda bo‘layotgan voqeа va hodisalarga mustaqil baho berishi, ularga nisbatan o‘z munosabatini bildirishi hamdir,

---

<sup>1</sup>Muhammadiev N.E. Ichki ishlар idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati. - T.,2005, 5-8 bet.

- deydi. - Umuman, axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida Shabs sifatida mavjud bo‘lgan insonlarning o‘z-o‘zini idora qilish shakllari va me’yori, o‘zaro muloqot va munosabatda ularga xos bo‘lgan ma’naviy kamolot darajasining namoyon bo‘lishidir. Axloq yo‘q joyda inson ijtimoiy shahs sifatida shakllanmaydi. Faqat yetuk axloq zaminidagina kishilarda hayotning mazmuni va maqsadi, jamiyat oldidagi burchi va mas’uliyati, baxt, diyonat, yaxshilik va yomonlik, yovuzlik, haqlilik va nohaqlikka nisbatan muayyan munosabat shakllanadi»<sup>2</sup>.

Ana shu jihatdan xulq tushunchasi axloqning tarkibiy qismi sifatida inson kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, xulq ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. **Birinchisi-** yaxshi, chirolyi xulqlar. Bunga shirinsuxanlik, muloyimlik, halollik, iffat, diyonat, or-nomus, nafsni tiyish, vijdon, shijoat, sabr, ilmlilik, g‘ayrat, riyoza, qanoat, sabr, intizom, munislik, haqiqatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik va shu singari ijobiy tuyg‘ular kiradi. Bular o‘z navbatida insonda xulqiy go‘zallikni namoyon qiladi va insonni axloqiy jihatdan kamolotga etkazadi.

**Ikkinchisi-** yomon, xunuk xulqlar. Unga xudbinlik, hasadgo‘ylik, ta’magirlilik, ikkiyuzlamachilik, firibgarlik, ig‘vogarlik, tuhmatchilik, badnafslik, badniyatlik, badjaxllik, bachkanalik, dilozorlik, andishasizlik, bevafolik, berahmlik, tovlamachilik, behayolik singari illatlar kiradi. Bular insonni tubanlik sari yetaklaydi va ma’naviyatini qashshoqlashtiradi. Mazkur illatlarni odat qilgan kishilar umum tasavvurida jirkanch taassurot qoldiradi. Bu xususda ma’rifatparvar alloma **Abdulla Avloniyshunday** degan edi: «Bu sanagan yomon xulqlarning fanoliqlarini, yuqorida sanagan yaxshi xulqlarning go‘zalligini insof muvozanasi ila o‘lchab, vijdon muhokamasi ila ta‘qilab, yaxshilarini tinglab amal qilmak, yomonlarini anglab, hazar qilmak, lozimdir. Zero, insonning izzati, dunyoning lazzati yaxshi so‘zlarni eshitub va ko‘rub hissa olmak, yomon va zararliklarini o‘qub, bilub, o‘zini tiymak, qo‘ldan kelgancha xalq va millat foydasiga tirtishmak va bu fano dunyodan yaxshilik otini olub ketmadadur»<sup>3</sup>.

Sharq odobida «Ulug‘lar huzurida sergak bo‘ling va o‘zingizga loyiq so‘z so‘zlang» deyilishi bejiz emas. Bu umumiyligi tilni asrash barobarida o‘z og‘zimiz orasidagi tilni «ehtiyyot» bo‘lib, o‘ylab ishlatish kerak demakdir. Chunki, so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini ko‘rsatadigan me’zon bo‘lib, aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so‘zlagan so‘zidan biladilar. Zero, so‘z insonning qiymati qadar qadrlidir. Shirin so‘z ilonni inidan chiqarganidek, muloyim so‘z vahshiylarni ulfatga aylantiradi. Shuning uchun do‘sstu dushman bilan muomalada ehsan yo‘lini tutish lozimki, bunda do‘srlarning mehru-muhabbati ortadi, dushmanlarning adovati kamayadi.

<sup>2</sup>Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. - T. Yangi asr avlodи. 1998. 116-bet.

<sup>3</sup>Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 томлик. Т.2. –Toshkent: Ma’naviyat, 1998. – 71 b.

*Sharq hikmatlari durdonalarida yaxshi xulqning o'nta belgisi alohida ko'rsatib o'tiladi.* Bular:

1. Bo'lar-bo'lmasga odamlar bilan janjallahshmaslik.
2. Insoflilik.
3. Birovning aybini qidirmaslik.
4. Biror kishidan noloyiq ish sodir bo'lsa uni yaxshilik yo'liga solib yuborishlik.
5. Agar aybdor o'z aybini bo'yniga olsa uni kechirish.
6. Muhtojlarning hojatini chiqarish.
7. Boshqalarga yordam qo'lini cho'zish.
8. O'z nafsi ni tiya bilishlik.
9. Boshqalarga ochiq chehra bilan muomala qilishlik.
10. Doimo yaxshi so'zlash.

Ushbu yaxshi xulqlar ichidagi uchta belgi ya'ni, «Bo'lar-bo'lmasga odamlar bilan janjallahshmaslik», «Boshqalarga ochiq chehra bilan muomala qilishlik», «Doimo yaxshi so'zlash» insonning hatti-harakati bilan emas, balki chiroyli, shirin so'zi natijasida amalga oshadigan axloqiy hodisalardir. Shuningdek, boshqaruvda, muloqotda so'zga ayniqsa, shirinso'zga e'tibor sharq odobining ziynati sanaladi. Bu borada «Qobusnomá»dagi fikrlar diqqatga sazovordir: «Har so'zni xaloyiqqa zohir qilsang, yaxshi yuz bila zohir qil, toki maqbul bo'lsun va haloyiq sening so'z bila baland martabaga egalig'ingni bilsunlar. Nedinkim kishining martabasini so'z bila bilurlar, ammo so'zning martabasini kishi bila bilmashlar, chunki har kishining ahvoli o'z so'zining ostida pinhondur, ya'ni bir so'zni bir iborat bila aytса bo'lur, eshitg'on kishining esa ko'ngli undin to`la bo'lg'ay va yana o'shal so'zni bir ibrat bila aytса bo'lurkim, eshitg'on kishining oni undin rohatda bo'lg'ay»<sup>4</sup>. Shuning uchun odamlarga achchiq va dag'al so'zlamaslik lozim. Zero, dag'allik misli olov, kuydirguvchi yo'ldir.

Umuman olganda, sharq xalqlari pandnomalarida, hikmatlarida shirinso'zlikning inson hayotidagi o'rni beqiyos ekanligi mutafakkirlar nazaridan chetda qolgan emas. Biz ana shu an'analarni davom ettirishimiz, ulardan tegishli xulosalar chiqarishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Inson ma'naviy madaniyatining asosiy mezoni – axloqiy yetuklik hisoblanadi. Axloqiy yetuklik esa o'zida – halollik, insoflilik, vijdoniylik, sahovatpeshalik, shafqatlilik, mehribonlik singari axloqiy fazilatlarni mujasaam etadi. Shunday ekan, muomala madaniyatining asosiy mezonini yaxshi xulq va go'zal fazilat uyg'unligi tashkil etadi.

---

<sup>4</sup>Kaykovus. Qobusnomá. –Toshkent:O'qituvchi. Matbaa ijodiy uyushmasi, 2006. – 98 b.

Shuni qayd yetish lozimki, insonni hayvondan farq qiladigan eng muhim xususiyatlaridan biri, uning o‘zini yashashi, turmush uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga ega ekanligidir. Bu malaka insonning insonlararo muomala madaniyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

**Xulqiy go‘zallikning estetik-axloqiy mohiyatiga ikki xil nuqtai nazardan yondashish mumkin.**

1. Mayjudligimuayyan ichki va tashqi ta’sirlarga, vositalarga bog‘liq bo‘lmagan go‘zallik. Bu ko‘proq insonning tashqi qiyofasiga daxldor xususiyat; insonning chinakam go‘zal chehrasi har qanday soxta bejamalikdan, «yasama go‘zallikdan» ustun turadi.

2. Muayyan ijobiy faoliyatlar, hatti-harakatlar, amallar, botiniy tuyg‘ular orqali paydo bo‘ladigan go‘zallik. U ezgulik vositasida xulqiy go‘zallikni takomillashtiradi.

Davlat xizmatidagi xodimlarning ishi – og‘ir yumush. Uni sharaf bilan ado etmoq uchun, kishi o‘zi rahbarlik qiladigan sohani bilishigina emas, balki yana bir qator sifat va fazilatlarga ega bo‘lmog‘i kerak. Ular ichida avvalo til va nutq imkoniyatlarini ishga sola bilishni ajratib ko‘rsatish darkor.

Nutqiy muloqotga kirishgan kishining maqsadlari doirasini umumlashgan holda quyidagilar bilan belgilish mumkin:

- o‘zga(lar)ga, muayyan jamoaga o‘z g‘oya va fikrlarini yetkazish orqali hamfikrlar doirasini kengaytirish;
- ma’naviy (ruhiy) hayotini uzaytirish orqali hayotda iz qoldirish;
- hukmronlikka bo‘lgan intilishni amalga oshirish;
- shartnomaga asosan o‘z xizmat doirasida muayyan (siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy) masalani hal yetish;
- e’tibor qozonish;
- jamiyatda tutgan baland mavqeini saqlab qolish va h.k.

Davlat xizmatidagi xodimlarning axloqiy sifatlarining quyidagi jihatlarini tavsiflash mumkin:

- xulqiy nuqtai nazardan xodimning axloqiy tutgan yo‘li, uning did-farosati va yashashdan maqsadi yo‘nalishi;
- adolat, vijdon va burch davlat xizmatchisi faoliyatidagi yuksak axloqiy fazilat sifatida;
- axloqiy me’yorlarga bo‘ysinish;
- etiket qoidalariga rioya qilish.

Shuningdek, davlat xizmatidagi xodimlarga qo‘yiladigan axloqiy talablar huquqiy asosga ega bo‘lib, ular qonunlar, nizomlar va yo‘riqnomalar tarzida rasmiylashtiriladi: ularni buzgan xodimlar intizomiy jazoga, qonunga zid ish ko‘rganlar esa jinoiy javobgarlikka tortiladi. Shuning uchun davlat xizmatidagi

xodimlarning professional etika, jasurlik, shijoat, adolat va sadoqatlilik kabi axloqiy me’yorlarga tayangan holda har bir ishga beg‘araz va xolis yondashishni taqozo etadi.

Davlat xizmatchisi professional etikaning normalari insonni qadr – qimmatini hurmat qilish va qonunni buzganlarga nisbatan qonunda belgilangan talablar asosida ish ko‘rishga asoslanadi. Ular hokimiyat va qonun vakili sifatida ish ko‘rar ekan, uning axloqi tarbiyaviylik xususiyatga ega bo‘lishi lozim. Ularning axloqi qanchalik yuqori bo‘lsa, xalqning davlatga, qonun kuchiga ishonchi ham shunchalik kuchli bo‘ladi.

Professional etika bo‘yicha mutaxassis **Leandro Valente** o‘zining “**Etiketning oltin qoidasi**” asarida quyidagilarni keltiradi:

1. Har doim yaxshi narsalarga qarab intilish kerak, bu birinchi qoida. Yaxshilik deganda, yaxshi xizmat, jamoat va rahbar tasarrufida siz haqingizda yaxshi fikr qoldirish kerak.
2. Sadoqat bilan xizmat qilish. Har sohaning mas’uliyati bor, unga amal qilish zarur.
3. Kasbdoshlar orasida o‘zaro hurmat va ishonch qozonish, bir-biriga do‘stona va yaxshi muomalada bo‘lish. Jamoani va o‘z-o‘zini hurmat qilish har bir mutaxassis uchun kerak.
4. Kasbdoshlaringiz bilan do‘stona munosabatda bo‘lishingiz kerak.
5. Haqqoniy,adolatli bo‘lish – har bir insonning ma’naviy aspekti. Bu xususiyatni ish jarayonida har bir insonda ijobiy jihatlarini namoyon bo‘lishida kuzatish mumkin.
6. Bilimli, hissiyotli, xulq atvorli bo‘lish va boshqalarga namuna bo‘lish ish jarayonining eng yaxshi xislatlaridan biridir.
7. Har bir inson odob-axloqli va namunali xulqli bo‘lishi, etiket qoidalariiga amal qilishi doimo kerak.
8. Har doim har bir inson saxiy, ko‘ngli toza, shahsiy hayotda xushxulqli bag‘rikeng bo‘lishi talab qilinadi.
9. Har qanday axborotni (sirni) har bir inson saqlay bilishi, shundagina jamoa oldida hurmat qozonishi va karyeraga ega bo‘lishi va jamoat oldida katta hurmat qozonishi lozim.
10. Barchaga siz yaxshi xulq-atvoringiz va kasbiy mahoratingiz bilan namuna bo‘lishingiz zarur<sup>5</sup>.

Etiket axloqiy madaniyatning yaqqol ko‘zga tashlanadigan munosabatlar ko‘rinishlaridan biri sifatida ko‘proq insonning tashqi madaniyatini, o‘zaro munosabatlardagi o‘zini tutish qonun-qoidalarning bajarilishini boshqaradi.

---

<sup>5</sup> Leandro Valente 10 Golden Rules To Professional Ethics In The Workplace.<https://www.linkedin.com/in/leandrovalente/>.

## **O‘QUV FANINING MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDAGI O‘RNI VA TA’LIM YO‘NALISHIDAGI BOSHQA FANLARI BILAN BOG‘LIQLIGI**

Bo‘lajak mutaxassislarning ijtimoiy va siyosiy dunyoqarashlarini, ma’naviy qiyofasini, hamda mutaxassisligilik bo‘yicha muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan nazariy bilimlarini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun bakalavriat davrida talabalar mutaxassis fan materiallarini o‘zlashtirishlari lozim. O‘quv rejalarida fanlar gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematika va tabiiy ilmiy, umumkasbiy hamda maxsus fanlar guruhlariga bo‘linib ko‘rsatiladi. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar guruhi bo‘lajak mutaxassislarning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashlarini hamda ma’naviy qiyofasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Matematika va tabiiy ilmiy fanlar guruhi yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. Umumkasbiy hamda maxsus fanlar guruhlari yoshlarda mutaxassisligi bo‘yicha zaruriy nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar majmuini shakllantiradi.

### ***Kasb egalari quyidagilarni bilishi lozim hisoblanadi:***

1. Har qanday kasb egasi qasamyodini buzmasligi va unga amal qilishi va kasbiy mohir ustasi bo‘lishi zarur.
2. XVI asrda: har bir soha mutaxassisi o‘z sohasi bilan bir qatorda uchta kasbga - diniy, tibbiyot va qonunlarni bilishi lozim bo‘lgan.
3. XIX asrda: yangi kasblar paydo bo‘lgan va eski kasb mutaxassislariga kattaroq hurmat qilishgan.

Professional etika va etiket fani umumkasbiy fanlar guruhiga kiritilgan. Bu fan bo‘lajakda har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu fan materiallari bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislar muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish uchun zaruriy umumiylar va kasbiy axloqiy qoidalarni va me’yorlarni o‘rganadilar. Ushbu fanning mutaxassislar tayyorlashdagi o‘rni ana shulardan iborat.

Tabiatda bironta voqeа o‘z-o‘zidan sodir va bironta narsa o‘zicha paydo bo‘lmaydi. Voqealarning sodir va narsalarning paydo bo‘lishi bir-birlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Fanlar ham o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi. Bir fan boshqa fandan ajralib chiqishi yoki bir nechta fanlar o‘rtasida paydo bo‘lishi mumkin. Shuning uchun Professional etikava etiket o‘quv fani o‘quv rejasining boshqa fanlaridan ajratilgan holda o‘qitiladi deyish xato bo‘ladi, chunki u dinshunoslik falsafa, ruhshunoslik (psixologiya), sotsiologiya, madaniyatshunoslik iqtisodiy geografiya va ekologiya, sayyohlarga xizmat ko‘rsatish hamda servis xizmatlarini tashkil yetish kabi fanlar bilan o‘zaro bog‘liq. Ushbu darslikda Professional etikava etiket fanining dinshunoslik, psixologiya, falsafa, madaniyatshunoslik iqtisodiy geografiya va ekologiya hamda sayyohlarga xizmat ko‘rsatishni tashkil yetish fanlari bilan asosiy bog‘liqlik joylari ko‘rib chiqiladi.

Etikaning shakllanishida va rivojlanishida dinning ahamiyati juda ham katta. Masalan, Islom dinida va uning muqaddas kitobi bo‘lgan Qur’oni Karimda axloqiy qoidalarga alohida e’tibor berilgan va uning eng muhim tushunchalari ta’riflangan va insoniyatni ularga amal qilishga undalgan. Bu axloqiy qoidalalar quyidagilardan iborat: yaxshilik qilish, kechirimli bo‘lish, sabr-qanoatli bo‘lish, aldamaslik, shirinsuxanliq ota-onani,o‘zidan katta yoshlilarni hurmat qilish, or-nomusli, sadoqatli bo‘lish va boshqalar. Boshqa dinlar ham jamiyatning axloqiy qoidalaring shakllanishida va rivojlanishida katta rol o‘ynagan.

Professional etika va etiket falsafa fani bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lib, ular bir xil masala, ya’ni axloq bilan Shug‘ullanadi. Agar falsafa axloqning kelib chiqish tarixini va uning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rgansa, professional etika va etiket esa uning amaliy tomonlarini o‘rganadi. Shunday qilib, falsafa axloqning nazariy masalalari bilan shug‘ullanadi, professional etika va etiket esa jamiyatda qo‘llaniladigan axloqiy qoida va me’yorlarni o‘rganadi.

Psixologiya va professional etika va etiket fanlari o‘rtasida ham ma’lum bog‘liqlik mavjud. Agar ruhshunoslik fanining mehnat psixologiyasi bo‘limi mehnat turiga xos xossalarning odamga ruhiy ta’sirini o‘rgansa, professional etika va etiket fani esa turli kasb egalarining qanday axloqiy qoidalarga rioya qilish kerakligini o‘rganadi.

Professional etika va etiket iqtisodiy geografiya va ekologiya fanining ekoliya qismiga aloqador. Ekoliya va etikaning bir-birlari bilan chambarchas bog‘liqligi, ayniqsa oxirgi yillarda, tasdiqlanmoqda. Ma’lumki, jamiyat a’zolarining tabiat qonunlariga rioya qilmasligi va undan yovuzlarcha foydalanishlari natijasida oxirgi yillarda ekologik fojiali holatlar vujudga kelmoqda. Ulardan biri dunyoda o‘rtacha yillik haroratning oshib borishi va uning natijasida muzliklarning erishi,yoki ba’zi bir mintaqalarda, masalan, Orol dengizi ko‘rfazida qurg‘oqchilikning yuzaga kelishi va boshqalar. Kelib chiqishi mumkin bo‘lgan fojiyalarning oldini olish va tabiatdan oqilona foydalanish uning qoida va me’yorlarni zudlik bilan amalga tadbiq yetishni talab qiladi. Amaliy me’yor va qoidalarni ishlab chiqish professional etika va etiket fanining asosiy masalalaridan hisoblanadi.

Hozirgi kunda tirik organizm, o‘simplik va hayvonlarning ko‘pgina turlari jisman yo‘q bo‘lib kyetish arafasida turibdi. Ayniqsa, joy topolmay, okean bo‘ylab kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilar yoki ularning kimsasiz go`zal orollarga ko‘mib tashlanishi, kislota yomg‘irlarining ko‘payib borishi singari hodisalar bag‘oyat xatarli. Afsuski, inson ko‘ra-bila turib, o‘zi o‘tirgan shoxga bolta urishni to‘xtatmayotir.

Nemis olimi V.Derngols kishilarda umuman tabiatga, xususan, suvga nisbatan ekologik va gigiyenik munosabat madaniyatnishakllantirishni hayotiy zaruriyat tarzida qarab: «Yerda suvning tozaligini saqlash - inson qonining sofligini

ta'minlashning zaruriy shartidir...Inson suvni ifloslantirishi bilan o'z umrini qisqartiradi»,<sup>6</sup>- degan edi.

Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimiyoiy zahardan ekologik tozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global ma'noda, XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaxaridan forig'lantirishni taqozo etadi. Ya'ni ular insoniyat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom ma'nodagi axloqiy muammolar sifatida ko'ndalang bo'lib turibdi. Mashhur avstriyalik etnolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad Lorensning: «Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan sivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to'poslik aybdordir»<sup>7</sup> - degan so'zlari shu nuqtai nazardan diqqatga sazovordir.

Madaniyatshunoslik va etika fanlarining o'rtasida ham uzviy bog'liqlik mavjud, chunki etika fani odamlarga hamda kasb guruhlariga axloqiy qonun-qoidalarni o'rgatish orqali ularning,qolaversa jamiyatning umumiy madaniyatini oshirishga yordam beradi.

Etika fani maxsus fanlar, chunonchi «Sayyoohlarga xizmat ko'rsatishni tashkil yetish» fani bilan ham bevosita aloqador. Uning boisi shundan iboratki, sayyoohlarga va aholiga xazmat ko'rsatishda ovqatlanish korxonalari xodimlari etika qoidalariiga qat'iy rioya qilishlari shart. Shundagina mehmonlar kayfiyati buzilmaydi va iste'mol qilingan taom yaxshi hazm bo'ladi.

### **Tayanch tushunchalar:**

Qadr-qimmat, odob, axloq, milliy qadriyatlar, muomala madaniyati, mayllar, onglanmaganlik, ruhiy tahlil, Etiket, zamonaviy etiket, milliy etiket, axloqiy madaniyat.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

- 1) Professional etika va etiketning kelib chiqishidagi omillarni izohlab bering.
- 2) Etiket tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
- 3) "Odob" tushunchasini ta'riflang?
- 4) Etiket axloqiy madaniyat sohasi sifatidagi mazmunini tushuntiring.
- 5) Axloq bilan etiket o'rtasidagi farq nima?
- 6) Etiketning zamonaviy ahamiyati qanday ko'rinishda namoyon bo'ladi?
- 7) Etiketning axloqiy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati nimada?

<sup>6</sup> Dernqolts v. Berlin. 1975. WWW. Neture. P. 213.

<sup>7</sup> Конрад Лоренц. "Оборотная сторона зеркала". - Электронная библиотека royallib.com.

- 8) Nemis olimi V.Derngols kishilarda umuman tabiatga, xususan, suvganisbatan ekologik va gigiyenik munosabat madaniyatni shakllantirish haqidagi firkini eslang.
- 9) Nobel mukofoti laureati Konrad Lorens jonli tabiatdan begonalashish nimada, deb ta'kidlagan.
- 10) Sayyoohlarga va aholigaxizmat ko'rsatishda ovqatlanish korxonalar xodimlariga qanday etika qoidalariga rioya qilish tavsiya etiladi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-T., Ma'naviyat, 2008.
- 2) Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 томлик. Т.2.-Т., Ma'naviyat, 1998.
- 3) Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. - T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
- 4) Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. – T., Falsafa va huquq instituti, 2009.
- 5) Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy. Kimiyoi saodat. Ruh haqiqati. – T., Adolat. 2005.
- 6) Kaykovus. Qobusnomalar. - T., O'qituvchi. Matbaa ijodiy uyushmasi, 2006.
- 7) Komilov N. Komil inson haqida to'rt risola. - T. Ma'naviyat. 1997.
- 8) Muhammadiyev N.E. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati - T., 2005.
- 9) Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. - T., Yangi asr avlod. 1998.
- 10) Richerson and Boyd, "The Evolution of Human Ultra Sociality", In press: I. Eibl-Eibesfeldt and F. Salter, eds. Ideology, Warfare, and Indoctrinability, 1997.

## **2-MAVZU. PROFESSIONAL ETIKA VA KASBIY ETIKETNING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI ETIKETNING KELIB CHIQISHI, MAQSADI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI**

Professional etika axloqiy madaniyat tizimida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o‘z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro‘y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o‘rni yuksak.

Har bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko‘pchilik jamiyat a’zolarining hayot-mamotlari, sog‘ligi, ma’naviy sog‘lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo‘lishi kabi omillar huddi shunday imtiyozli kasb egalarining o‘z kasbiy burch mas’uliyatini qay darajada his yetishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko‘rishlariga bog‘liqligi hammaga ma’lum.

Shuningdek, sharqning buyuk notig‘i Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati” nomli kitobida Professional etika va kasbiy odob muammolariga atroflicha to‘xtalib o‘tadi. Xususan, kitobning beshinchi bobining o‘n to‘rtinchi, o‘n beshinchi va o‘n oltinchi fasllari turli kasb egalari odobiga bag‘ishlangan. Masalan, o‘n to‘rtinchi fasl «Kasb-kor va savdo-tijorat odobi haqida» deb nomlanadi va umuman kasb egasi, ayni paytda, savdo-tijorat ahli odobi qonun-qoidalarini o‘zi ichiga oladi. Koshifiy yozadi:

«Bilgilkim, hamma kasblarga birday taalluqli qisqacha qoida-adablar mavjud, Shuningdek, har bir kasb uchun alohida odob ham bor.

Agar barcha kasblar uchun zaruriy odoblar xulosasi nechta, deb so‘rasalar, sakkizta deb aytgil: birinchidan, o‘z kasbini haromdan, shubhali mol-mablag‘dan pok saqlasin. Ikkinchidan, rizq-ro‘zi zarurati uchungina kerakli kasb bilan shug‘ullansin, kasbni mol-dunyo to‘plashga sarflamasin. Uchinchidan, kasbni obro‘y olish, yaxshi nom chiqarishning sababi, deb bilsin. To‘rtinchidan, moli harom odamlar (amaldorlar, poraxo‘rlar, qaroqchilar, o‘g‘rilar, qimorbozlar, kazzob do‘kondorlar) bilan muomala qilmasin...»<sup>1</sup>.

Koshifiy sotuvchi odobi, xaridor odobi, xodimlar (xizmatkorlar) odobi, maddohlar odobi singari masalalarda ham xuddi shunday asosli fikrlar bildiradi.

<sup>1</sup>Husayn Voiz Koshifiy.Futuvvatnomai Sultoniy/H.Komilov tarjimasi.- Toshkent:A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,1994.-B 6970.

Garchand, «Futuvvatnomai Sultoniy» javonmardlik (jo‘mardlik) tariqati darveshlariga atab yozilgan bo‘lsa-da, unda ilgari surilgan axloqiy tamoyillar va g‘oyalar umummintaqaviy, umuminsoniy qamrovga ega. Zero, buyuk forsigo‘y o‘zbek shoiri Pahlavon Mahmud ma’lum ma’noda yangilagan bu tariqat darveshlik xirqasini kiygan, lekin zarur bo‘lsa, barcha qurollar turini ishga solib, Vatan himoyasiga otlanishni birinchi gal dagi vazifasi deb bilgan erkparvar insonlar sulukidir. Shu bois mazkur kitobda diniylik dunyoviylikdan ajratilmaydi, ular bir-birini to‘ldirishi bilan inson hayotini axloqiylashtiradigan, go‘zallashtiradigan hodisalar sifatida talqin etiladi. Javonmardlikning harbiylashtirilgan nasroniylar ritsarlik ordenlaridan farqi ham shunda.

Koshifiy ilgari surgan axloqiy g‘oyalar hozirgi kunda ko‘p jihatdan o‘z ta’sir kuchini yo‘qotgan emas. Ayniqsa, uning tijoratchi, sotuvchi va xaridor odobiga doir qoidalarni zamonaviy bozorlarimiz, tijorat markazlarimiz va do‘konlarimiz devorlariga yozib qo‘yish ayni muddao bo‘lur edi.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, kasb etikasida burch asosiy mezoniy tushuncha hisoblanadi. Chunki, burch mohiyatan jamiyat, davlat va shahslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyatdir. U vijdon, e’tiqod, mas’uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog‘liq. Umuman, hayotda insonning har bir hatti-harakati zamirida burch tushunchasi - burchga sadoqat yoki xiyonat yotadi.

Burchning insonlik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, fuqarolik burchi, otalik burchi, onalik burchi, farzandlik burchi singari keng qamrovli, barcha davrlar uchun umumiyoq bo‘lgan tushunchalari ham, jurnalistlik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud. Bu borada mashhur olim, akademik Andrey Saxarovning taqdirini olaylik. U buyuk nazariyotchi, fizik, termoyadro sohasida tengi yo‘q mutaxassis, vodorod bombasining asosiy kashfiyotchisi, Vatan mudofaasini mustahkamlashdagi xizmatlari uchun o‘nlab orden va medallar sohibi. U o‘zi yashagan davrda barcha unvon, lavozim, mansab va moddiy ne’matlarga erishdi. Biroq u hammasidan kechishga - ommaviy qirg‘in qurollari, jumladan, o‘zi yaratgan vodorod bombasi sinovlariga ochiq bayonotlar bilan qarshi chiqishga ahd qildi. Natijada qatag‘onlarga asoslangan sho‘rolar tuzumi uni ilmiy jamoatchilikdan ajratib, poytaxtdan olisdagi Rossiya shaharlaridan biriga badarg‘a qildi, uning nomini matbuotda yoki kitoblarda qayd etilishini ta’qiqladi. Vaholanki, u hammadan izzatliroq yashay olishi mumkin edi. Saxarov yuksak axloq yo‘lini tanladi - olimlik burchi, o‘z kasbining odobi talablarini bajarishni har qanday boylik, izzat-ikromdan baland qo‘ydi.

Buyuk olim o‘z kashfiyoti insonning eng oliy huquqi bo‘lmish - yashash huquqiga rahna solishi mumkinligi va qisman solayotgani uchun uni amalda qo‘llanilishiga qarshi kurashdi. U sho‘rolar hukumati va mafkurachilari tomonidan

o‘zining Vatan mudofaasi quvvatini susaytirishga harakat qilgan salkam xiyonatkor fuqaro deb e’lon etilishiga, boshiga behisob tuhmatlar, ta’na-dashnomlar yog‘dirilishiga sabot bilan chidadi, ahididan qaytmadi, yovuzlik sultanati qo‘lida o‘z olimlik iste’dodining qo‘g‘irchoq bo‘lishiga, harbiy muruvvatga aylanishiga yo‘l qo‘ymadi. Oxir-oqibatda u inson huquqlarining jahon tan olgan eng buyuk himoyachilaridan biri sifatida butun insoniyat tahsiniga sazovor bo‘ldi. Bunday misollarni o‘zbek xalqining munosib farzandlari misolida ham ko‘plab keltirish mumkin.

Etiket tushunchasining kelib chiqishi eramizdan avvalgi 2,5-3 ming yillikda Qadimgi Misrda paydo bo‘lgan. Etiket (étiquette) atamasi esa XVII asrning oxirida vujudga kelgan. Ammo qadimgi manbalar etiket qoidalari ta’b, rasm-rusm hamda odatlar shaklida azaldan ibridoiv davrdayoq, qabilalarda mavjud bo‘lganligini asoslaydi. Bunday qoidalarni to‘liq bajarmaslik o‘zi yashayotgan jamoat yoki qabilaga xiyonat qilish bilan barobar bo‘lgan. Avvalida bunday qoidalari nafaqat axloqiy, balki huquqiy, iqtisodiy, diniy hamda qon-qarindoshlik munosabatlarni ham qamrab olgan edi. Jamoatning har bir a’zosi unga so‘zsiz bo‘ysunar edi. Shu tariqa etiket bu davrda mustaqil qoidalari ega bo‘lmagan, asosan jamoatning ijtimoiy muammollariga bog‘liq holda tatbiq etilgan. Ya’ni bu qoidalari tabiiy jamoatning talabi bilan vujudga kelgan. Bunday talablarning bajarilishi qabila yoki jamoatning kattalari tomonidan nazorat qilinari edi.

Keyinchalik esa bu qoidalari mustaqil ravishda ajralib chiqib, faqatgina axloqiy me’yorlar darajasida ko‘rla boshlandi. Qadimgi Sharqda, jumladan, Somir alqovlarida inson hatti-harakatlarini tartibga soluvchi yozma yodgorliklarida – giltaxtalarda o‘z aksini topgan. Qadimgi Misrda esa bu tartib qoidalari qonunlar majmui sifatida emas, balki badiiy adabiyotlar orqali namoyon bo‘lgan. Bunday qoidalari, ayniqsa Somirda ilohiylik bilan yo‘g‘rilgan. Ularni bajarmaslik Xudoning qahri bilan qaytarilishi ta’kidlangan. Qadimgi skandinaviya adabiy yodgorligi “Edda” eposida nafaqat dasturxon atrofida o‘tirish qoidalari, balki hatto mezbon sharafiga tilak aytish me’yorlarini o‘zida mujassam etganini asoslaydi.

Bu kabi hatti-harakatlar me’yorlari jamiyat taraqqiyotining yo‘nalishini belgilab berar edi – yashash tarzi, odamlar dunyoqarashi, jamiyatdagi darajalarni farqlardi. Bu esa keyinchalik turmush etiketi, balki siyosiy etiketni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. U butun bir jamiyat bilan birga o‘zaro davlatlarning tashqi munosabatlarni ham belgilari edi.

Siyosiy etiketning vujudga kelishiga 1278 yilda Qadimgi Misr fir’avni hamda Xett qiroli Xattush III bilan kumushga bitilgan yozma kelishuv asos bo‘la oladi. Garchi Misr bunda mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsada, qirol uchun Misr kabi davlat bilan hamkorlik qo‘l kelar edi. Shu tarzda kelishuvning imzolanishi diplomatik etiketning (siyosiy etiket) boshqa etiket turlaridan ancha avvalroq paydo bo‘ldi,

desak, adashmagan bo‘lamiz. Zotan, davlatlararo munosabatlardagi qabullar qadimgi Misr uchun katta ahamiyat kasb etgan. Zero, bunday qablullar juda katta dabdaba va va haddan ziyod qoidalar va rusmlar bilan amalga oshirilar edi. Keyinchalik bunday qabullar boshqa davlatlarda ham amalga oshirila boshlandi.

Qadimgi Yunonistonda esa elchilar maxsus “Germes nishonlari” deb nomlangan vakillik nishonlarini o‘zлari bilan olib yurganlar. Elchilar xalqaro etiketning bilimdonlari sifatida, ushbu yurtda qabul qilingan siyosiy qonun-qoidalarni qay darajada bilishlari kelishuv bitimining taqdirini hal qilgan. Qadimgi Rimda esa siyosiy etiket yanada ustunlikka ega bo‘lgan. Misol uchun, elchilar qabulining avvali ziyofatlar bilan boshlanib, tashrifni tugallanishida esa ikkiomonlama sovg‘a hadya qilish bilan yakunlangan.

Shu tarzda oqsuyaklarni oddiy fuqaro va ulardan pastroq darajada bo‘lgan insonlarni farqlay bilish uchun alohida odamlarni o‘zini a’lo jamoatda tutishning tartib qoidalari paydo bo‘ldi. 1207 yilda ispaniyalik Petrous Alfonsi muallifligida ilk bor “O‘zini tutish qoidalari” deb nomlangan kitob paydo bo‘ldi. Albatta, bu izlanishlar qadimgi Turon hamda Eronzaminda bunday yodgorliklar bo‘lmagan, degan fikrni bildirmaydi. Zotan, bunda pandnomalarning o‘rni beqiyos. Ammo shuni aniqlash zarurki, milliy o‘zligimizni anglash bilan bog‘liq bu ilmiy atamalar juda ko‘p chalkashtirilib tushunilishi yoki targ‘ib qilinishi natijasida ko‘pgina noaniqliklarni vujudga keltiradi. Aytaylik, axloq bilan xulq va odobni, odob bilan etiketni bir ma’noda tushunish hollari uchraydi. Aslida bu tushunchalar bir-biridan ham nazariy, ham amaliy, ham qo‘llanish jihatidan farqlanadi.

Qadimgi Sharqda, jumladan, Somir alqovlarida inson hatti harakatlarini tartibga soluvchi yozma yodgorliklarida – giltaxtalarda o‘z aksini topgan. Qadimgi Misrda esa bu tartib-qoidalari qonunlar majmui sifatida emas, balki badiiy adabiyotlar orqali namoyon bo‘lgan. Bunday qoidalari, ayniqsa Somirda ilohiylik bilan yo‘g‘rilgan. Ularni bajarmaslik Xudoning qahri bilan qaytarilishi ta’kidlangan. Qadimgi skandinaviya adabiy yodgorligi “Edda” eposida nafaqat dasturxon atrofida o‘tirish qoidalari, balki hatto mezbon sharafiga tilak aytish me’yorlarini o‘zida mujassam etganini asoslaydi.

Bu kabi hatti-harakatlar me’yorlari jamiyat taraqqiyotining yo‘nalishini belgilab berar edi – yashash tarzi, odamlar dunyoqarashi, jamiyatdagi darajalarni farqlardi. Bu esa keyinchalik turmush etiketi, balki siyosiy etiketni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. U butun bir jamiyat bilan birga o‘zaro davlatlarning tashqi munosabatlarni ham belgilar edi.

### **Profesional etika beshta tamoyilga asoslanadi:**

1. Yaxlitlilik. Siz barcha sohaning ishchan munosabatlarida sodiqlik va to‘g‘rilik xususiyatiga ega bo‘lishingiz kerak

2. Ob'yektivlik. Ish jarayonida boshqalarga kasbiy va xizmat yuzasidan ob'yektiv bo'lish, hamkasblaringizning ishiga tahdidlar bo'lishi kerak emas.
3. Kasbiy kompetentlik va ish haqida qayg'urish.
4. Konfedetsiallik, ya'ni o'z kasbiy sohangizdagi ma'lumotlardan o'z manfaatlaringiz uchun foydalanish tavsiya etilmaydi.
5. Kasbiy xulq-atvor. Har qanday sohada o'z kasbingizga sodiq bo'lish darkor.

Etiketga keladigan bo'lsak, odob qoidalari etiket qoidalardan ustun hisoblangan.

Zero, odob rasm-rusmlar – asosan tashqi ta'sirga emas, balki ichki jihatlarga – insoniylikni, xulq va axloqiylik uchun asos sifatida qaratilgan. Ya'ni etiket “muhimi qandayligi emas, balki boshqalar uchun qanday ko'rinishda” shiori ostida o'zini yo'qtib qo'ymaslik, aslzodalikning mavjudligini ko'rsatishga intilish va shu bilan jamoatchilikda ijobiy taassurot qoldirish bilan bog'liq bo'lган. Odob insonlararo munosabatlarni axloqylashtirish hamda uni axloqiy anglash orqali takomillashadigan tashqi va ichki go'zallik uyg'unligi sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, “Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroylı hatti-harakatlarni o'z ichiga oladi”. Bundan tashqari, odob insonlarni ranjimaslik, Jan Pol Sartr aytganidek, erkin jamiyatda erkin bo'lish, ya'ni boshqalarni erkini ta'minlashga, odamlarni axloqiylikka, ular orasida munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan. Ushbu atamalarning ilmiy asosiga murojaat qilsak, ularning mazmun-mohiyati yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Shu ma'noda etiketbirinchidan, inson va jamiyat o'rtasida munosabatlarning qaysi axloqiy mezonlarga asoslanishini belgilasa, ikkinchidan, siyosat va ijtimoiy voqelikni bir-biri bilan “murosayu – madora” qilishga chaqiruvchi tarbiya vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Garchi bu ikki soha insoniy munosabatlarini go'zallashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, ularning rivojlanishi individual xarakterga ega. Chunonchi, insonlararo munosabatlarda Sharq e'tiborni odob va axloqqa qaratib, uni pandnomalar orqali rivojlantirgan bo'lsa, G'arbda esa etiket qoidalari diplomat munosabatlardagi hatti-harakatlarga asoslanadi. Bu borada 1716 yilda Hamburgda nashr etilgan Montesning “Yuqori tabaqali insonlar va ayollar bilan qanday mulozamat qilish hamda ayollarning bizga nisbatan o'zini qanday tutishi haqidagi kitob” deb nomlangan kitob misol bo'ladi. Unda turli tantanali qabullarning etiket bilan bog'liq barcha murakkabliklari tasnif qilingan.

O'rta asrlarga kelib etiket qoidalari cherkov talablari asosida belgilandi. Ruhoniylarning inson munosabatlarini boshqarishga bo'lgan intilishi boshqa sohalar kabi etiket qoidalari asosida munosabatlar tizimida turg'unlikni paydo qildi. Ammo yangi davrga kelib G'arbda etiket rivojiana boshladidi. Yuqori tabaqali kishilarning moliyaviy imkoniyatlarini yo'naltirish, ularning jamoatda o'z o'rniga ega bo'lishiga

doir etiketning qoidalari takomillashdi. Yigitlarning uylanishi va qizlarnig turmushga chiqishi yoki moddiy imkoniyatlari kam yigitning o‘z mavqeini tiklab olish uchun etiket juda katta ahamiyat kasb eta boshladi, hatto dasturxon atrofida o‘zini tutish etiketi siyosiy darajaga ham yetdi. Biroq bu kabi munosabatlarda me’yorning buzilishi G‘arb ziyolilarini g‘ashini keltira boshladi. Sharqda esa bu masalalarning barchasi axloqiy mezonlar asosida rivojlantirildi.

Misol uchun musulmon Sharqida taom tanovul qilish paytiga kelib qolgan mehmon mezbonni rad yetishi, Alloh bergan rizqdan voz kechish, o‘zini Xudodan ustun deb hisoblash deb tushunilar edi. Ya’ni taom tanovul qilish ham ma’lum ma’noda o‘ziga xos ibodat hisoblandi. Chunki inson kim ekanligini, hayotning mayda-chuyda tashvishlarini, muhimi asosiy maqsad – o‘z-o‘zini anglashni unutib qo‘ymaslik, tanovul paytida unga rizq bergan Zotning yerdagi ajoyibotlari, borliq borasidagi mushohadaga chorlashi lozim edi. G‘arbda esa, taomga taklif qilingan mehmon taklifni qabul qilishdan avval bashang va yuksak did bilan kiyangan bo‘lishi shart edi. Agar mehmon taklifni qabul qilsayu, yuqoridagi qoidani unutsa, bu holat mezbonga nisbatan haqorat tarzida qabul qilinishi mumkin edi. Ya’ni, kiborli jamiyatga “arziydigan” inson bo‘lishdan “toyilish” shu jamiyatga qarshi borish bilan barobar bo‘lgan.

Shuning uchun etiket qoidalari buzuvchi mayda-chuyda jihatlar, arzimagan xatolar kechirilmas va kelajakka qattiq ta’sir qilar edi. Bu esa Evropaning yuksak darajadagi kiborli jamiyatida yashab kyethish oson emasligini va faqatgina a’lo insonlargina bu borada ijobiy natijalarga erishadilar, degan ma’noni anglatar edi. Bunday talablar keyinchalik bir qator olimlarni yillar davomida etiketga qarshi borish va uni deyarli yo‘qqa chiqarishga intilishiga sabab bo‘ladi. Zero, o‘rta asrlarda cherkov aqidalari paydo qilgan turg‘unlik bu paytga kelib sekin-asta o‘z ta’sirini yo‘qota boshlagan, ijtimoiy munosabatlar tizimida sharqning axloqiy qadriyatlariga asoslana boshlagan edi. Shuning uchun axloqiy tarbiya masalasini etiket qoidalardan yuqori turishini nazariy jihatdan asoslashga harakat qilindi. Masalan, ruhiy tahlil falsafasi bu borada o‘ziga xos yondoShuvni vujudga keltirdi.

Bu borada Sigzmund Shhoma Froyd ta’limotiga ko‘ra, bolalik davrini boshidan o‘tkazgan inson o‘zi yashab turgan jamiyatning axloqiy hamda estetik mezonlari bilan hisoblashishga majburdir. Mayllarning o‘ziga xos kompensatsiyasi esa bolalikdan odamlarda xayol o‘yiniga berilishni kuchaytiradi, keyinchalik ular xayolotga, kuchli ishtiyooqqa aylanadi. Bu masalalarni Froyd «Shoir va xayolot» va «Ruhiy tahlilga kirish. Ma’ruzalar» degan asarlarida izohlab beradi. Uning nazdida xayolot manbai onglanmaganlikda mavjud, onglanmaganlik – inson ruhi quvvatining makoni. Inson bolalikdanoq tashqi olam cheklvlari hamda jamiyat ta’qiqlari bilan hisoblashishga majbur bo‘lar ekan, uning istaklari tufayli vujudga kelgan o‘zaro ziddiyatlardan qutulish yo‘li bu – xayolot va uning asosida vujudga keluvchi san’at.

Xayolotning paydo bo‘lishi nevroz va psixoz atalmish ruhiy kasallikka sharoit yaratadi, zero, u keyinchalik turli ruhiy kasalliklarga olib boruvchi onglanmaganlikni ongga kuchli ravishda yopirilishdan saqlaydi. Jamiyat inkor qiluvchi istak-mayllarning Shabs «men»idan siqib chiqarilishi albatta, uning ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa inson ixtiyor erkinligi, uning tanlovini hurmat qilishga, erkinlikni vasf qilishga olib keldi hamda etiket avvalgidek nufuzdagi hayot-mamot darajasidagi amal emas, balki jamiyatda Shunchaki xulq-atvorni to‘g‘ri yo‘lga solishga intiladigan soha darajasiga tushdi.

Etiketning mohiyatini tushuntirar ekan, faylasuf Abdulla Sher “Etiket – takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobjiy, kishining ko‘zini quvontiradigan muomala hodisasi. Lekin ayni paytda, u asl axloqiy asosini yo‘qotgan majburiy mulozamat tarzida ham namoyon bo‘ladi: etiket qoidalari bajarayotgan kishi aslida o‘z xohish-ixtiyoriga qarshi ish ko‘rayotgan bo‘lishi ham mumkin”, - degan fikrni bildiradi.

Axloq-odob qoidalari majmuiga, pandnomalarga ega bo‘lgan Sharq kishisida “bizga etiketni o‘rganishning nima zaruriyati bor”, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu borada etiketni fan sifatida o‘rganish, qolaversa, ijtimoiy-maishiy turmush tarzi sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan metodologik, axloqiy, iqtisodiy asoslar mavjud. Shuningdek, etiketning muhim ahamiyati shundaki, diplomatik, biznesmen, rasmiy qabullar va tashriflar kabi zamonaviy etiketlardan tashqari, milliy etiket ko‘rinishlari ham mavjud. Ular milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ularga nisbatan hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lishga chorlaydi. Bu o‘ziga xos axloqiy- estetik xususiyat kasb etadi. Ya’ni, unda odob bilan go‘zallikning uyg‘unligini ko‘rishimiz mumkin, qat’iy odob qonun-qoidalari chiroyli hatti-harakatlar vositasida amalga oshiriladi.

Avvalo, etiket mumtoz etika fanining axloqiy madaniyat ruknidagi sohasi sifatida o‘tib kelinadi. Ammo axloqiy tafakkur rivoji axloqiy muammolarning zamonaviy masalarini tadqiq qilishi natijasida kengaya boshladi. Bu holat natijasida etiketni etika fanining alohida qismi sifatida tadqiq etishni taqozo qilmoqda. Qolaversa, o‘tgan asrning oxiriga kelib dunyo ijtimoiy-ma’naviy manzarasining o‘zgarishi va axloqiy qadriyatlarga munosabatdagi “zamonaviylik” ba’zi axloqiy qadriyatlarni noto‘g‘ri tushunilishi yoki ularga mensimaslik bilan munosabatda bo‘lish kabi salbiy holatlarni vujudga keltirmoqda. Ayniqsa, insonlararo muomala va muloqotdagi qo‘pollikni – to‘g‘rilik, kibr va riyoni – qadr-qimmat, odobsizlikni – erkinlik, nomardlik, hiyla va haromni – uddaburonlik, kattalarga nisbatan hurmatsizlikni – mustaqil fikrga egalik, madaniyatsizlikni – dangallik deya qabul qilish achinarli holdir. Bundan tashqari, yuqoridagi salbiy holatlar har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish, iqtisodiy jihatdan barqarorlikka ega bo‘lish, axloqiy munosabatlarni tartibga solish, o‘z sohasining ustasi sifatida jahon mutaxassislari

bilan bemalol raqobatlasha oladigan kadr bo‘lib yetishish yo‘lida olib boriladigan ishlarga ham monelik qiladi.

Shuni ta’kidlash zarurki, axloqiy tafakkur etiketni o‘z-o‘zicha axloqiy anglashning muhim xususiyatlariga hamda axloqiy tamoyillar, me’yorlar, tushunchalarsiz qabul qilib uni ijtimoiy hayotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash bilan kutilgan natijani bermaydi. Chunki hozirgi zamon etiket mezonlari, qoidalari va talablari barcha ijtimoiy hayot sohalarni qamrab olmoqda. Bugungi etiket inson axloqiy munosabatlarini himoyalaydi. Biroq etiketning axloqiy talabi hisoblangan nazokat, takalluf, iltifotda samimiylilik, ya’ni botiniy axloqning bo‘lmasligi yoki sustligi amalga oshirilgan harakatlarni oqlamaydi. Shu ma’noda, bu yo‘lda yuksak axloqiy bilim va dunyoqarashga ega bo‘lmay turib, kutilgan natijaga erishish qiyin. Zero, ulug‘lar aytganidek, “Vaqtiki ma’lum bo‘ldi, har kishiga ul ilmni bilmak vojibdurkim, qilur amalida ul ilmga hojatmand bo‘lg‘ay. Bas, bilgilki, omi(lar) hamisha xatardadurlarkim, agar bir amalni qilmoqni xohish qilsalar, ul amal ilmini bilmagay...”

Etiketning qoidalari – odobga, odob – xushxulqqa, xushhulq - axloqiylikka olib boradi. Binobarin, axloq – jamiyat, zamon, ba’zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy hatti-harakatlar yig‘indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisa sifatida nafaqat shahsni, balki butun bir jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois etiketni bugungi kunga kelib texnika asri kishisining zamon talablariga javob beradigan madaniy maishiy turmush tarzini go‘zallashtirishga, o‘zaro munosabatlar tizimini madaniylashtirishga xizmat qiluvchi fanning yangi tarmog‘i deyish mumkin.

### **Tayanch tushunchalar:**

Qadr-qimmat, odob, sotuvchi odobi, xaridor odobi, xodimlar (xizmatkorlar) odobi, maddohlar odobi, axloq, milliy qadriyatlar, muomala madaniyati, mayllar, onglanmaganlik, ruhiy tahlil, etiket, zamonaviy etiket, milliy etiket, mumtoz etiket, axloqiy madaniyat, Qadimgi Misr, Qadimgi Yunoniston, “Germes nishonlari, profesional etikaning beshta tamoyili, yaxlitlilik, ob’yektivlik, kasbiy kompetentlik va ish haqida qayg‘urish, konfedetsiallik, kasbiy xulq-atvor

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Etiketning kelib chiqishidagi omillarni izohlab bering.
2. Etiket tushunchasi qanday mazmuni qanday ma’noni anglatadi?
3. “Odob” tushunchasini ta’riflang?
4. Etiket axloqiy madaniyat sohasi sifatidagi mazmunini tushuntiring?

5. Qadimgi Misr va Yunonistonda etiket bilimdonlari asosan nimalarga e'tior qaratishgan?
6. Profesional etikaning beshta tamoyili haqida nimalarni bilasiz?
7. Sharq etiketida asosan nimalarga e'tibor qaratiladi?
8. G'arbda esa etiket qoidalari nima uchun diplomatik munosabatlardagi hatti-harakatlarga asoslanadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T., Ma'naviyat, 2008.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. - T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
3. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. - T., Falsafa va huquq instituti, 2009.
4. Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy. Kimiyoi saodat. Ruh haqiqati. - T., Adolat. 2005.
5. Komilov N. Komil inson haqida to'rt risola. - T., Ma'naviyat. 1997.
6. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy/N.Komilov tarjimasi. – T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – B. 69-70.

### **3-MAVZU. PROFESSIONAL ETIKANING KATEGORIYALARI**

Etika kategoriyalari jamiyat va uning a'zolarining axloqiy, ya'ni ma'naviy boyligini o'zida to'liq ifoda qiladigan tushunchalar majmuiga aytildi. Kategoriya grekcha «kategoria» so'zidan olingan bo'lib, etikaning asosiy tushunchalari hisoblanadi, axloqning muhim tomonlarini hamda elementlarini o'zida ifoda qiladi<sup>5</sup>. Demak, etika kategoriyalari jamiyat farovonligiga va uning a'zolarining ma'naviy madaniyati bilan bog'liq bo'ladi. Kategoriylar tabiatda ob'yektiv mavjud bo'lib, jamiyatning rivojlanishi va odamlar madaniy hamda ma'rifiy saviyasining oshib borishi bilan ularning jamiyat uchun ahamiyati oshib, mazmuni esa chuqurlashib boradi. Kategoriyalarning zaruriyligining va mazmunining jamiyat tomonidan anglanishi ma'naviy hamda ma'rifiy tarbiyaviy ishlar bilan bevosita bog'liq.

**Burch.** Shuni alohida ta'kidlash zarurki, kasb etikasida burch asosiy tushuncha hisoblanadi. Chunki, burch, mohiyatan, jamiyat, davlat va shahslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U vijdon, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog'liq. Umuman, hayotda insonning har bir hatti-harakati zamirida burch tushunchasi - burchga sadoqat yoki xiyonat yotadi. **«Burch - ado etilishi, bajarilishi majburiy bo'lgan vazifa, majburiyatdir».** Demak, burch - qilinishi shart bo'lgan ish, vazifa. Burch - biror hatti-harakat uchun javobgarlik hissidir. Avvalo, bu tushunchalar axloqiy va shu bilan birga huquqiy tushuncha hamdir. Axloqiy nuqtai nazardan qaraganda burch ijtimoiy-insoniy vazifalarni bajarishda keng namoyon bo'ladi. Burch eng avvalo oilaviy – munosabatlarda mujassamlashadi. Ota-onalik burchi. Siyosiy va huquqiy burch, Vatan oldidagi burch Shular jumlasidandir. Davlat, jamiyat va xalq oldidagi burch aytish joiz bo'lsa har bir inson-fuqaro hayot mazmun-maqsadi bo'lishi kerak. Bugungi kunda Vatan oldidagi burch millat oldidagi burch bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Vatan oldidagi burch haqida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida shunday deyilgan: **“52-modda.** O'zbekiston Respublikasini himoya qilish, O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir”<sup>6</sup>. Burch manbaini, asosini ijtimoiy manfaatlar tashkil etadi. Burchda manfaat buyruq shaklida namoyon bo'ladi. Demak, burchni anglash degani axloqli, tarbiyali, odobli, to'g'ri, mehnatsevar, vijdonli, xalqparvarlik hamdir. Boshqacharoq qilib aytganda burch va mas'uliyat bu - axloq-odobli bo'lishdan tashqari Vatanga sodiqlik, Vatan yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'qish va shu yo'l bilan davlat va jamiyatni taraqqiyotga olib chiqish. Burch va

<sup>5</sup> Золотухина - Аболина Е.В. Курс лекций по этике: Ростов на Дону: «Феникс». 1999, стр. 78.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi. – T., O'zbekiston, 2014, 8-bet.

mas’uliyat muhim axloqiy fazilatlardir. Ayniqsa Vatan va xalq oldidagi burch va mas’uliyatni chuqur tushunib unga amal qilish kishidan katta iroda talab qiladi.

**Kamtarlik.** Kamtarlik bu – avvalo, o‘z–o‘ziga talabchanlik, o‘z harakatlariga, ishiga, bilimiga tanqidiy qarash, o‘ziga, kuch–quvvatiga ortiqcha baho bermaslikdir. Kamtarlik kishilarga bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladi. Inson odobli bo‘lsa, kishilar bilan shunchalik sodda va kamtarlik bilan muomala qiladi, o‘z ishlariga va harakatlariga kamtarlik bilan baho beradi. O‘zgalarga shirinso‘z bo‘ladi, boshqalardan o‘zini ustun qo‘ymaydi, soxta shuhrat ketidan quvmaydi, yutuqlaridan esankiramaydi.

Kamtarinlik Arastuning fikricha: “uyatsizlik va tortinchoqlik o‘rtasidagi xislatdir. Bu xislat odamlarning qilmishlarida va gap so‘zlarida ko‘rinadi. Uyatsiz, shaloq odam hammaga, har qanday vaziyatda har narsani gapiraveradi. Tortinchoq odam esa zarur gapni zarur vaqtida aytmaydi, zarur ishni bajarishga ham jur’ati yetishmaydi. Kamtarin odam esa, uyatsiz odam kabi, har vaqt, har yerda, har qanday gapni aytavermaydi; va o‘ta tortinchoq odam kabi, zarur vaqtda zarur gapni aytishga jur’atsizlik ham qilmaydi”<sup>7</sup>.

Kamtarinlik tortinchoqlik va andishalilikdan farq qiladiki, ular insonning qadr-qimmatini tushirib qo‘yish ehtimoli bor. Kamtarlik xokisorlik va samimiylidkan kelib chiqadi. U kishilarga bo‘lgan munosabatda ham yaqqol ko‘rinadi. Kamtarlik inson ichki ma’naviy dunyosining tashqi ifodasi hisoblanadi. Tarbiya ko‘rgan, odobli kishini uning kamtarligidan ham bilib olish mumkin. Barcha insoniy fazilatlar ichida eng e’zozlisi kamtarlikdir. Kamtarlikning qarama-qarshi tomoni takabburlikdir. Ularning biri insonni insonga yaqinlashtiradi, ikkinchisi esa uni odamlardan uzoqlashtiradi. Xitoy maqoliga ko‘ra “dono bo‘lmay turib, kamtar bo‘lish mumkin, ammo kamtar bo‘lmay turib dono bo‘lish qiyin”.

**Vijdon** etikaning nihoyatda ta’sir doirasi keng kategoriyalardan biridir. U insonning o‘z faoliyati, qilgan ishlari va belgilagan maqsadlarini ruhiy tahlil eta olish imkoniyatidir. Inson ma’naviyatining kuchi, qudrati ham, o‘z qilmishiga o‘zi xolisona baho bera olish darajasi bilan belgilanadi. Vijdon, Zigmund Froyd ta’biri bilan aytganda, a’lo men, men ustidan nazorat o‘rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog‘liqligidan kelib chiqsa, vijdon uning ichki o‘z-o‘ziga bog‘liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog‘liqlik tashqi bog‘liqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma’lum bir vaqt ichida odamning o‘z nojo‘ya harakati tufayli yuzaga kelgan o‘ng‘aysizligi bo‘lsa, vijdon azobi bu - oddiy o‘ng‘aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagи odamiylikka e’tiqodning faryodi, talabi. Uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to‘xtamaydi. Uyat bilan vijdonni, shu bois, dengizdagи muz tog‘i –

<sup>7</sup>Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –Toshkent: Yangi asr avlodи, 2004. – 128 b.

aysbergga o‘xshatish mumkin: yuzaga uyat tarzida chiqib turgan qismi teranlikdagi qismidan yuz, balki ming barobar kichik.

Арасту. Поэтика. Ахлоқи Кабир. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – 128 б

Birinchi Prezident I.A.Karimov ham vijdonga shunday baho beradi: “Vijdon pokligi va bedorligi asrlar, zamonlar osha inson ma’naviyatining ustunlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Jamiyat hayotida adolat va haqiqat, mehr-shafqat, insofu diyonat kabi tushunchalarni qaror toptirishda aynan mana shu omilning o‘rni va ta’siri beqiyosdir”<sup>8</sup>. Vijdon – shahsning faqat o‘zigagina xos bo‘lgan ruhiy tahlil imkoniyatidir. Lekin shahsning vijdoni umuminsoniy, milliy, ma’naviy qadriyatlar zaminida shakllanadi, uning o‘ziga xos ehtiyoji va manfaatlari, dunyoqarashi va madaniyati hamda ma’naviy kamoloti darajasi bilan aralashib, faoliyatiga baho berishga imkon yaratadigan ruhiy mezonga aylanadi. Shu sababli vijdonlilik darajasi hammada bir xil bo‘lishi mumkin emas. Vijdon asosida o‘z qilmishimizgagina emas, balki boshqalarning faoliyatiga, jamiyatdagи voqeа va hodisalar va ijtimoiy vaziyatga ham baho beramiz.

**Qadr-qimmat** - tushunchasi inson o‘z qadrini, bu dunyoda uning hayoti oliy qadriyat ekanligi, o‘z shahsi oldida o‘zi ma’sul ekanligini anglash uchun xizmat qiladigan hissiyot. U nomus, g‘urur tushunchalari bilan bog‘liq, bir tomondan insonning o‘z qadrini har qanday holatda ham yerga urmasligini taqozo etadi. Qadr-qimmat insonning jamiyatda, insonlar orasida tutgan o‘rni, topgan obro‘sni, hurmati va nufuziga aytiladi. Qadr-qimmat o‘z-o‘zini anglash va nazorat qilishni ifodalaydi. Qadr-qimmat o‘z qadrini anglash shakli bo‘lib, insonni kamsitadigan, xo‘rlaydigan va shu bilan uning boshqa kishilar ko‘z o‘ngida qimmatini yo‘qotishiga sabab bo‘ladigan qiliqlarga yo‘l qo‘ymaydigan to‘siq hisoblanadi. Inson qadr-qimmatining mezoni unda mavjud bo‘lgan eng adolatli va insonparvar axloq nuqtai nazaridan insoniylik darajasidir.

**Nomus** - mohiyatan shahsning o‘z qadr - qimmatini anglab yetishi, shu qadr - qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo‘ladigan munosabatidir. Biroq, bu - nomus qadr-qimmat tushunchasi bilan bir xil ma’noga ega, degani emas. Chunki qadr-qimmat shahsdan o‘zining boshqa odamlarga nisbatan kamsitilmasligini, atrofdagilardan barcha insonning teng huquqliligi tamoyilini o‘ziga nisbatan qo‘llashlarini talab qiladi. Nomus esa o‘z qadr-qimmatini bilishdan tashqari, har bir Shahsning jamiyatda alohida, o‘ziga xos tarzda egallagan mavqeи va shu mavqeni dog‘ tushirmay saqlash-saqlamasligi bilan bog‘liq. Bu mavqe esa, Shubhasiz, o‘sha shahsning ijtimoiy hayotdagи o‘rni, kasbi, yoshi va unga nisbatan beriladigan axloqiy daraja bilan muayyanlashadi.

---

<sup>8</sup>Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 27 b.

**Xushmuomalalik** - So‘z kundalik hayotda fikr almashuv quroli hisoblanadi. Odatda o‘zimiz aytayotgan yoki eshitayotgan so‘zlarning butun mohiyati haqida ko‘p o‘ylab o‘tirmaymiz. Bunga hojat ham yo‘q. Bizni gap zamiridagi natija qiziqtiradi, xolos. Darhaqiqat, so‘z ham jonli narsa. Uning qudrati insonda hayajon qo‘zg‘ab, yuragida ezgu xislar tug‘dirishida. Xalq bunday so‘zlarni ardoqlab kutib oladi: u endi ma’naviy boylikka aylanadi. Oilada yoki jamiyatda sodir bo‘ladigan katta–kichik janjallarni diqqat bilan kuzatilsa, barchasining sababi, ko‘pincha, qo‘pol so‘z yoki yomon muomalaga borib taqalishi muqarrar. Bir kishi o‘ylamasdan gapirib qo‘ysa, boshqasiga shu gap yoqmaydi va natijada bekordan bekorga janjal kelib chiqadi. Shirinso‘z ko‘pgina muvaffaqiyatlarning omilidir, aytish joiz bo‘lsa, u taraqqiy etgan jamiyat tashkil yetishning asoslardandir. Shuning uchun ham bu narsaga barcha tarbiyachilar va islochchilar katta ahamiyat beradilar. Ular doimo boshqalarga yaxshi so‘zlarni aytish, muloyim gaplarni tanlashga undaydilar. Yaxshi, muloyim gapni ishlatish insonning obro‘sini orttiradi, do‘stlarini ko‘paytiradi, hammaning hurmatiga sazovor qiladi.

Insonning muomalasiga qarab, axloqiga ham baho beriladi. So‘z orqali insonlarning tafakkuri, fikri anglashiladi, muomala madaniyati orqali u kishining odobi, kelib chiqishi, naslu–nasabi, ota–onasi va ustozining bergen ta’lim tarbiyasi namoyon bo‘ladi. Til - inson tafakkurining mahsuli. U inson madaniyati, fikriy go‘zalligini, yaxshi, ibratli, havas qilsa arziydigan fazilatlarni yuzaga chiqaruvchi vositadir. Uning insonga ta’siri ham shunga yarasha. Har bir so‘zni o‘z vaqtida so‘zlash, so‘zlashdan oldin puxta o‘ylab ko‘rish kerak.

Demak, shirin so‘zli bo‘lish tarbiyalanganlik belgisidir. Kuch bilan erisha olmagan narsaga so‘z bilan erishish mumkin.

Muomalada asosiy vosita til hisoblanadi. Shuning uchun ham til aloqa quroli deyiladi. Insonning tili shirin, muomalasi madaniyatli bo‘lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro‘-e’tibor topadi. Aksincha, sergaplik hech qachon kishiga obro‘ keltirmaydi. Ayniqsa, mahmadonalik yosh bolaga xos xususiyat bo‘lib, kattalar uchun bu qusur insonni doimo obro‘sizlantirgan. Shuning uchun ham o‘tmishda yashab o‘tgan mutafakkirlarimiz tilga, so‘zga hurmat bilan yondashishni ta’kidlaganlar. Demak, xushmuomalalik - ko‘ngildagi ardoqli fikrlarni, eng noyob his – tuyg‘ularni, eng ezgu niyatlarini insonlar bilan baham ko‘rish, osoyishtalik, vazminlik, xotirjamlik bilan ish tutish demakdir.

**Odoblilik.** Bu tushuncha -kundalik hayotda axloq qoidalariiga rioya qilishdir. Odob axloqiy fazilatlar insonning kundalik faoliyatiga singib borayotganini ko‘rsatuvchi mezondir. Odob – jamiyat qabul qilgan axloq normalarini inson faoliyatida, hatti–harakatida, muomala va muloqotida namoyon bo‘lishidir. Muayyan odob doirasida bo‘lish, yaxshi nom qoldirishga intilish insoniyat paydo bo‘libdiki, mavjud. Insonning eng yaxshi fazilatlari nasl–nasabi, bilimi bilan emas, balki odobi

bilan belgilanadi. Bejizga mutafakkir Abu Mansur as Saolibiy : “Har bir kishi o‘ziga qarab ta’rif qilinsa, ishiga qarab tavsiflanadi, maqtaladi. Fazilat nasl–nasab bilan emas, aql – adab bilandir”<sup>9</sup>, - deb bejiz aytmagan. Davlat xizmatidagi xodimlarning odobi ularning obro‘sinioshiradi va ularga nisbatan xalqning ishonchini kuchaytiradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda davlat xizmatchisi xodimlari o‘z xizmat vazifalarini kasb axloqi normalariga asoslangani holda ado yetishlari shubhasizdir.

### **Tayanch tushunchalar:**

Kategoriya, etika kategoriyalari; burch va kasbiy burch; O‘zbekiston fuqarolarining fuqarolik burchlari; ofitsiant, metrdotel, shveysar, barmen va garderobchi, vijdon, ichki sudya, posbon, or–nomus va kasbiy etika, mezon, obro‘, sifatli ado yetish, aldamaslik, kasb axloqi normalari.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Professional etikaning asosiy kategoriylariga nimalar kiradi?
2. Kasbiy axloqiy kategoriya deganda nimani tushunasiz?
3. Kamtarinlik tortinchoqlik va andishalilikdan nimesi bilan farq qiladi?
4. Vijdon nimani anglatadi?
5. Or-nomus nimadan iborat?
6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 52-moddasida nimalarga e’tibor berilgan?
7. Mezon deganda nimani tushunasiz?
8. Milliy o‘z-o‘zini anglash deganda nimalarga e’tibor qaratish zarur?
9. Mansur as-Saolibiy fazilat va uning xususiyatlariga qanday baho bergen?
10. Kasb axloqi normalari nimalarga asoslanadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T., O‘zbekiston, 2017.
2. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T., Ma’naviyat, 2008.
3. Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliy. Kimiyoi saodat. - T., Adolat. 2005.
4. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. - T., Yangi asr avlod, 2004.
5. Komilov N. Komil inson haqida to‘rt risola. - T. Ma’naviyat. 1997.
6. Sharq donishmandlari hikmatlari. –T., Sharq, 2006.

---

<sup>9</sup>Sharq donishmandlari hikmatlari. –Toshkent: Sharq, 2006 . – 134 b.

## **4-MAVZU. MUOMALA MADANIYATI, TANISHISH VA TANISHTIRISH ETIKETI. MUOMALADA YUZAGA KELADIGAN ZIDDIYATLAR VA ULARNI BARTARAF YETISH YO'LLARI**

Donishmandlarning “Yuziga boqma, so‘ziga boq” – degan hikmatlari ayni haqiqatdir. Til – inson tafakkuri mahsuli U inson madaniyati fikriy go‘zalligini yaxshi, ibratli, havas qilsa arziydigan fazilatlarini yuzaga chiqaruvchi vositadir. Muomala esa insonlarni bir – biriga bog‘lovchi, yaqinlashtiruvchi, katta – kichik xayrli ishlarga undovchi fazilatdir. Insonning go‘zal hayot kechirishida, jamiyat orasida o‘z o‘rnini topa olishida, boshqalarning hurmat extiromiga erishishda muomalaning o‘rni kattadir. Insonning shirinso‘zligi kishining tarbiyalangan-ligidan guvohlik bersa, so‘zga boyligi, chechanligi, ma’nodorligi uning o‘qimishli, bilimdonligini ko‘rsatadi. Go‘zal muomala inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha achchiq so‘z, qo‘pol muomala inson qalbini larzaga soladi. Shirin muomalada bo‘lish ham katta san’at. Shirin so‘z bilan kishining ishonchi va qalbini egallash mumkin. So‘z, yuz va ko‘z, tilning ko‘rki hisoblanadi.

Insonning boshqa inson bilan muloqotiga qarab, uning axloqiga ham baho beriladi. So‘z orqali insonlarning tafakkuri, fikri anglashiladi, muomala madaniyati orqali u kishining odobi, kelib chiqishi, naslu–nasabi, ota–onasi va ustozining bergen ta’lim tarbiyasi namoyon bo‘ladi. Insonning ichki dunyosi, shahsi, aqli va his–tuyg‘ulari uning tashqi qiyofasi – ko‘zlari, chehrasi, shuningdek qaddi-qomati va yurish-turishida to‘la aks etadi. Insonning ichki dunyosi qanchalik mukammal bo‘lsa, yurish–turishi ham shunchalik madaniyatli bo‘ladi.

Muomala madaniyatida so‘z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo‘lsa ham suyakni tebratadi. Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy me’yoriy talablarini bajarishni taqazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon yetishi, ko‘zga ko‘rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo‘lishi so‘z, nutq vositasida ro‘y beradi. So‘zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarini tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o‘zini, eng avvalo, shirinsuxanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe’llilik singari axloqiy me’yorlarda namoyon qiladi.

Ayniqsa, bu axloqiy madaniyatda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uni ko‘proq namoyon qiladigan eng muhim unsurlaridan biri – muomala odobidir. Bu borada mutasavvif olimlarimizdan Imom G‘azzoliy bir qancha o‘rinli fikrlarni bildiradilar: «Hazrati Rasul alayhissalom aytibdurlar: «Haq subhonahu va taolo ochiq

yuzlilarni do'st tutar». Va yana aytibdurlar: «Hech bir yaxshi amal yo'qki, maxfiratga sabab bo'lmoqg'a ochiq chehralik va shirinzabonliqdan ziyoda»<sup>10</sup>.

Uning fikricha shirinsuxanlik va bosiqlik odobli insonni odobsizdan ajratuvchi me'yordir. Zero, odobsizlik badxulqlikka, badxulqlik axloqsizlikka olib keladi. Yomon insonlarning yomonligi aynan muomaladan kelib chiqadi. Ya'ni yomonga yomonlik bilan qilingan muomala vaqtincha bo'lsa ham o'sha yomonning yo'lida yurishga chorlaydi.

Donishmandlarning “Yuziga boqma, so'ziga boq” – degan hikmatlari ayni haqiqatdir. Til – inson tafakkuri mahsuli. U inson madaniyatining fikriy go'zalligini yaxshi, ibratli, havas qilsa arziydigan fazilatlarini yuzaga chiqaruvchi vositadir. Muomala esa insonlarni bir – biriga bog'lovchi, yaqinlashtiruvchi, katta-kichik xayrli ishlarga undovchi fazilatdir. Insonning go'zal hayot kechirishida, jamiyat orasida o'z o'rnini topa olishida, boshqalar tomonidan hurmat ehtiromga eriShuvida muomalaning o'rni kattadir. Insonning shirinso'zligi kishining tarbiyalanganligidan guvohlik bersa, so'zga boyligi, chechanligi, ma'nodorligi uning ziyliligi, bilimdonligini ko'rsatadi. Go'zal muomala inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha achchiq so'z, qo'pol muomala inson qalbini larzaga soladi.

“Muomala shahslararo munosabatning shunday ko'rinishiki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan axloqiy, estetik, madaniy, siyosiy va ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, ta'sir o'tkazadilar va ta'sirlanadilar”<sup>11</sup>.

Etiket kengqamrovli tushuncha bo'lib, u ma'lum ma'noda, umumbashariy miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. Ulardan bizga odat bo'lib qolgan ko'rishish etiketidir.

Salom berish kundalik hayotimizda eng ko'p qo'llaniladigan odat bo'lib, xushmuomalalikni talab qiladi. Salomlashish kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, muomala munosabatlarining avval boshi bo'lgani uchun uning bajarilishini ham alohida qoidalar bor. Salomlashganda aytiladigan so'zlarga «Assalomu aleykum», «salomatmisiz», «omonmisiz», «yaxshimisiz», «salomat bo'ling» deyiladi. Bu so'zlarda, insonlarning bir-biriga hurmat ehtiromi, xayriholik izhori bilan birga chuqur mazmun va mulohaza bor. Kundalik hayotimizda ishlatib turadigan “marhamat qiling”, “baraka toping”, “rahmat”, “behad minnatdorman”, “uzr”, “avf etasiz”, “kechiring” va shu kabi tushunchalar borki, ularning barchasi mulozamatni, insonlarga bo'lgan kamoli ehtiromni bildiradi. Shunga e'tibor berish kerakki, insonga qo'yiladigan talab bilan unga ko'rsatilayotgan iltifot bir-biri bilan bevosita bog'lanib ketganligidan ular orasiga chegara qo'yib bo'lmaydi. Masalan, birovning eshigini taqqillatib ruxsat so'rab kirish, boshqa insonni noqulay vaziyatga solib qo'yishni oldini oladi.

<sup>10</sup>Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati.- T.,Iqtisod – moliya.- 2009, B.8.

<sup>11</sup>Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati.- T.,Iqtisod – moliya.- 2009, B.17.

Salomlashish insonning insonga bildirgan hurmati, odamlarning o‘zaro muomala munosabatlarini boshlanishi, bir-biri bilan suhbatlashayotgan ikki dilning kalitidir. Salom berilganda sizga yoqimsiz qarab turgan inson ham alik oladi. Qo‘l berib ko‘rishayotgan vaqtida bir-birlarini qo‘llarini qattiq siqib, qo‘lini og‘ritib yoki qo‘lini uchinigina berib qo‘yish o‘ta odobsizlikka kiradi. Yoshlar o‘zidan katta odamlar bilan ko‘rishganlarida, albatta ikki qo‘lini berib ko‘rishadilar. Ayniqsa, yosh bolalarning katta yoshdagilarga qo‘lini uzatib ko‘rishishlari ham odobsizlik sanaladi. Kim birinchi bo‘lib so‘rashishi lozim? Buning ham etiketda o‘ziga yarasha qoidalari mavjud:

- yoshi kichiklar yoshi kattalarga;
- erkaklar ayollarga;
- xonaga kirgan inson u yerdagi barchaga umumiy;
- zinadan chiqayotgan inson yuqori pag‘onadagilarga;
- agar ikki oila uchrashib qolsa, ayollar birinchi bo‘lib so‘rashishlari keyin esa erkaklar so‘rashishlari lozim;
- qanday jamoat joylarida fikr bildirilishidan qat’iy nazar, salomdan boshlash kerak;
- yoshi va xizmat pog‘onasi teng insonlar uchrashib qolganlarida birinchi bo‘lib tarbiyali inson so‘rashadi;
- uyga kelgan mehmon eshikni ochgan inson salom berishi, keyin uyning kattalari va boshqa mehmonlar bilan so‘rashishi kerak;
- uy egalari hamma o‘tirganlar bilan bir xil so‘rashishlari lozim. Ulardan kimgadir alohida munosabat bilan so‘rashish odobsizlik hisoblanadi.
- biror bir insonga yuzlanishdan avval salomlashish lozim.
- kechga qolib kelgan inson jamoatga birinchi bo‘lib salom beradi.

### **Qo‘l berib so‘rashish qoidalari**

Qo‘l berib salomlashish muloqot etiketining bir qismi sifatida shakllagan jarayondir. Qo‘l berib so‘rashish odatda erkaklarga xos xususiyat hisoblansada, hozirda u barcha yoshdagi va jinsdagi insonlar uchun ham birdan amal qilmoqda. Chunki, qo‘l berib so‘rashish orqali inson insonning kayfiyatini, sog‘ligini, hatto fe‘l-atvorini ham bilib olishi mumkin. Qo‘l berib salomlashishning ushbu xususiyatlari ikkitomonlama muloqotning boshlanish belgisidir. Qo‘l berib so‘rashish asosan tanishish va tanishtirish marosimida, shartnomalar va bitim imzolaganda, g‘oliblik va mag‘lublikni tan olganda, minnatdorchilik izhor etganda, tabriklaganda, hayrlashganda va hokazo holatlarda qo‘llaniladi.

## **Quyida e'tiboringizga havola qilinadigan tavsiyalar qo'l berib so'rashishning odobiga tegishlidir:**

- uzatilgan qo'l albatta muallaq qolmasligi kerak, bu – insonni yerga urish bilan barobar bo'lib qoladi.
- ikki qo'l bilan qo'lni siqib so'rashish haddan tashqari xursand holatda, minnatdorchilik belgisi sifatida qabul qilinadi.
- ikki qo'l berib so'rashish paytida albatta so'z bilan ifodalanadi, bunda minnatdorchilik so'zлari va boshqa iliq so'zлar qo'llash mumkin.
- qo'l berib so'rashish tez va qisqa bo'lishi lozim.
- qo'l berib so'rashish davomida ozgina egilib qo'yish, so'rashayotgan insonga nisbatan hurmatni belgilaydi.
- ostonada, stol ustidan qo'l berib so'rashish xunuk ko'rindi.
- tanishini ko'rib qolgan taqdirda ham binoning boshidan bu boshiga qo'lni cho'zib kelish insonni kulgili holatga solib qo'yadi.
- ayol kishi bilan uchrashib qolganda, ayol birinchi bo'lib qo'l uzatmaguncha erkak qo'l uzatmaydi.
- ayol kishini qo'lini ko'p ushlab turish mumkin emas, bu uni noqulay vaziyatga solib qo'yishi mumkin.

Salomlashganda jargon, ko'cha so'zlarini, buzib talaffuz etiladigan "privetik", "salyutik", "chao", "poka" kabi so'zлarni ishlatmaslik maqsadga muvofiq. Odatda, ro'paradan keluvchi kishiga u yetib kelguncha, ya'ni orada 3-4 qadam qolgach salom beriladi.

Sizga mutlaqo tanish bo'lмаган kishi salom bersa, albatta "alik" olish va uning yanglishganligini sezdirmaslik kerak. Bunday holatda yelka qisish yoki hayron bo'lib qarash odobsizlik hisoblanadi.

Umuman, o'zbekchilikda salomlashishni o'zi hamsuhbatingizning sizga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. G'arb odatiga ko'ra yoshi katta ayollar bilan ko'rishayotganda o'rnidan turib, tavoze' bilan boshni silkitib salomlashiladi. Bizda esa bu nafaqat katta yoshlilar, balki umuman xotin-qizlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Zero, har bir qiz yoki ayol o'sha xonadon egasining nomusi hisoblanadi. Bu bilan erkak boshqa bir erkakni oriyati va hurmatini o'z joyiga qo'yayotgan hamda boshqalardan ham o'ziga nisbatan shuni talab qilayotgan bo'ladi. Agar ayollar qurshovida bo'lsangiz, unda umumiyl ravishda bir marta salomlashib qo'yiladi. Etiketni buzilishi ko'rishuvning shovqinli tarzi hisoblanadi. Odamlar oldida hozir bo'lishingiz bilan salomlashuvningiz u darajada o'zingizga qaratadigan tarzda bo'lmasligi lozim. Salomlashuv, tanishuv yoki suhbatdoshlik uchun eng qulay madaniyatli usuli hisoblanadi.

## **Tanishuv va tanishtiruv qoidalari**

Odob qoidalari (oddiy xavfsizlik nuqtai nazardan ham) notanish odamlar bilan ko‘chada, transportda, restoran, teatr hamda boshqa jamoat joylarida tanishishni taqozo etmaydi. Bir tarafdan, o‘zingizni notanish odamga bog‘lashga harakat qilish odobsizlikdir. U siz bilan muloqot qilishni istamayotgan bo‘lishi mumkin. Boshqa tarafdan, birinchi uchragan odam bilan tanishuv, layoqatsizlik, ba’zida esa xavflidir ham! Xudo biladi u odam kim bo‘lib chiqadi.

Unda qanday tanishish lozim?

Odob qoidalariiga binoan, turmush mezonlari bo‘yicha ham, tanishuv uchun o‘rtada ikki taraf uchun ham tanish bo‘lgan vositachi orqali ro‘y beradi. Siz unga tanishishni istagan odam bilan ko‘rishish uchun murojaat qilishingiz mumkin. Tanishtirganlaridan so‘ng, uning bunga javoban ta’siridan uning qanchalik siz bilan aloqa qilishni istashini bilib olish mumkin. Agar uning sovuqqonligini his qilsangiz, davomiy aloqani ta’kidlashga urinmagan ma’qul.

Tanishtirish yangi uchrashgan kishi bilan gaplashish huquqini beradi. Odatda, tanishtirish uchun vositachi kerak bo‘ladi. Umumiylashtirish uchun vositachi bo‘la oladi. Tanishtirish yoki tanishish tanishuvchilarining yoshiga, jinsiga va tanishtirish joyiga bog‘liq bo‘ladi.

Qayerda va qachon tanishish zarur? Birinchi navbatda, sharoitga qarab kelgusida tez-tez uchrashib turishga to‘g‘ri keladigan shahs bilan tanishiladi yoki tanishtirish iltimos qilinadi. Asosiy qoidalari quyidagicha so‘zlar bilan ifodalanadi: «*Sizni tanishtirsam...*», «*Tanishtirishga izn bersangiz...*», «*Gulnora, tanishing...*»

Tanishtiruvchi kishi har ikkala tamonning ism, familiyalarini mulozamatlik bilan ochiq-oydin aytib ularni tanishtiradi. Bu yerdagi asosiy qoida: yosh kishi – katta yoshdagи kishiga, erkak – ayolga, xodim – rahbarga tanishtiriladi. Tanishtiruvchi kishi avvalo yosh kishining, keyin kattaning, avval erkakning keyin ayolning, avval xodimning, so‘ngra rahbarning ismi va familiyasi aytildi.

Yoshlarni katta yoshdagи insonga tanishtirishda, odatda savolomuz murojaat qilinadi; M: *Ustoz, magistr Abdullayevni siz bilan tanishtirishga ruxsat bersangiz?*, yoki *Hurmatli rektor iqtidorli talaba Komilovni sizga tanishtirmoqchi edim?* Bu hollarda tanishtirilayotgan kishi ustoz hamda rektorning ismini aytmaydi.

Erkak kishini ayol kishiga tanishtiradilar. Yoshiga qarab yoshlarni kattalarga tanishtiriladi. Hamma vaqt ham, beistisno, erkak kishi ayolga tanishtiriladimi? Yo‘q, hamma vaqt Shunday qilinmaydi. Eri o‘z rafiqasini yor-do‘stiga tanitishi o‘z xohishiga bog‘liq: “*Do‘stim Sardor, tanishing – bu mening rafiqam*” qabilida. Odatda, yaqin qarindoshlarning ismlari avval, tanish-bilishlarning ismlari esa keyin aytildi.

Oila a'zolarini tanitganda ularning ismlari aytilmaydi. Masalan, «*turmush o'rtog'im*», «*opam*», «*singlim*» yoki «*ukam*» deyiladi.

Uy bekasi mehmonlarni kutib olar ekan, ularni bir-birlari bilan tanishtiradi, uy bekasi o'rniga uning sohibi tanishtirsa ham bo'ladi. Kechroq kelgan mehmonlarni vaqtiroq kelganlarga tanishtiradilar. Agar mehmonlar ketma-ket kirib kelishsa-yu, siz ularni tanishtirishga ulgurmasangiz, unda yordamchi sifatida yaqinroq qarindoshingiz yoki do'stingizni chaqiring. Mehmonni uyga taklif qilgach, avval u yerda o'tirganlarga kelgan mehmonning ismini tanishtiriladi, so'ng bir chekkadan boshqalarning ismlarini aytib tanishtirib chiqiladi. Mehmonlar unchalik ko'p bo'lмаган тақдирда, alohida tanishtiriladi. Erkaklar o'rinalidan turib tanishadilar. Ayollar joylarida o'tiraveradilar, ammo katta mavqega ega bo'lgan yoki yoshi kattalarni tanishtirishsa, o'rinalidan turishlari mumkin. Agar turli yoshdagagi ikki ayol tanishayotgan bo'lsalar, yoshi katta ayolga: «*Ruxsatingiz bilan sizga falonchini tanishtirsam*» – deb yoshroq ayolni ismi-sharifini aytib, keyin yoshi kattaroq ayolni tanishtirish mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ayni paytda yosh va mavqe muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu tarzda ayol kishiga erkak kishini, xodimni rahbarga tanishtiradilar. Agar ham mavqe jihatdan, ham yosh jihatdan o'zaro teng bo'lgan odamlarni tanishtirganingizda, bиринчи bo'lib, ulardan o'zingizga yaqinroq bo'lgan kishini tanishtirasiz. Agar mashhur odamni bir paytni o'zida ko'pchilikka tanishtiradigan bo'lsangiz, uning ismi-sharifini keltirib o'tmasa ham bo'ladi.

Yaqinlaringiz, tanishingiz yoki do'stingizni tanishtirayotganda ismiga qo'shib, ma'lumotlarni aniqlashtirishingiz ham mumkin: «*Do 'stim Akmal – xirurg, bu esa Begzod – kursdoshim*». Tanishtirayotganda ularning ismlarini aniq va tushunarli tarzda aiting. «*bu kishi Valijon – mashhur akter Mahkamning akasi*» degan aniqliklarning umuman keragi yo'q. Odamlarning ismlarini yaxshi yodda tuta olishiga ishonchi bo'lмаган танистирувчилар «*Tanishing, marhamat janob ...*» bunda siz ismni egasiga aytishiga qo'yib berasiz. Bunday usulni qo'llash mumkin. Agar endigina yig'ilgan jamoatga yangi odam qo'shilsa, uning ismini baralla ovozda aytib tanishtirsa ham bo'ladi, qolganlar o'zlarini tanishtiradilar.

Jamoat transportida yonidia sherik bilan ketayotgan vaqtida transportga tanishingiz chiqib qolsa, agarda bir-ikkita so'z aytib uzoqlashsa, tanishtirish shart emas, ammo agar suhbat umumiyl xususiyat kasb eta boshlasa, uni do'stingiz bilan tanishtirganingiz ma'qul.

Oila a'zolaringizdan biri ishxonangizga ishga kirdi. Hamkasabalarga uni tanishtirasizmi? Agar sizda u bilan sof kasbiy munosabatlar bo'ladigan bo'lsa, shart emas.

**Ishxonada.** Yangi xodimni jamoaga rahbar tanishtiradi. Eski xodimlar yangi kasbdoshlarni ishning jarayoni bilan tanishtiradilar va o'zlarini to xodim «*joylashib*» olguncha sharoit yaratishga harakat qiladilar. Ba'zi bir xodimlar o'rtasidagi barcha

og‘ir munosabatlar, hamda o‘zaro arazlar haqida yangi xodimga «yetkazish» shart emas. Bir jamoa munosabatining shakli ularning o‘zaro do‘stona layoqati hamda oldindan mavjud rusmlarni ushslash darajasiga bog‘liq. Ammo har qanday holatda ham do‘stingiz familiyasini aytib murojaat qilishingiz noto‘g‘ri. Ish vaqtida xizmatga doir vazifalarni bajarayotganda o‘zingizni idorangiz nomidan tanitasiz, shunga ko‘ra hamma vaqt ham ism, familiyani aytish shart emas.

Dam olish maskanidagi hayot tanishishning nisbatan oddiyroq shaklini taqozo etadi. «*Kitobingizni ko‘rsam maylimi?*» deb boshlangan murojaatning o‘zi yaqin munosabatga asos bo‘la oladi. Bunday holatda qo‘shni stol va hamxonaningizga o‘zingizni tanishtirishingiz maqsadga muvofiq. Umumiylar tanishuv hamda do‘stona kayfiyatni paydo qilishda ba’zi oromgohlarda bo‘lgani kabi «*tanishuv kechalari*» o‘tkazish yaxshi qo‘l keladi. O‘zaro tengdoshlar – qizlar va bolalarning tanishuvida ismning o‘zi yetarli.

Mana sizni tanishtirishdi. O‘zingizni endi qanday tutasiz? Agar sizni tanishtirayotgan kishi ismi-sharifingizni aytgan bo‘lsa, ko‘rishish uchun qo‘lingizni uzatayotib, buni qaytarishingiz shart emas. Birinchi bo‘lib tanishishga taklifni qabul qilgan odam uzatadi, ya’ni ayol kishi erkak kishiga, katta – kichikka, rahbar – xodimga. Tanishtirilgan Shahs to unga javoban ko‘rishishga qo‘l uzatmagunga qadar qo‘l uzatmaydi. 18 yoshgacha bo‘lgan qizlar kattalar ko‘rishayotganda turib ko‘rishadilar. Uy bekasi yoshi va jinsidan qat‘i nazar o‘rnidan turib ko‘rishishi lozim. Agar taklif qilinganlardan biri kechikib kelsa, mezbon birvarakay uni hamma bilan tanishtiradi va joyga o‘tkazadi. Kechikib kelgan odamning o‘zi keyinroq stol atrofdagilar bilan tanishib olishi mumkin.

Ko‘chada sizga notanish ayol bilan ketayotgan tanishingizni ko‘rib qolgan paytda, ayolga qarab bosh bilan ta’zim qilib, bir chetga o‘tasiz, ko‘rishishni esa tanishingizga qo‘yib bering – kerak bo‘lsa uning o‘zi sizni tanishtiradi.

O‘zini boshqalarga tanitish ham bir san’atdir. Bunday vositachisiz tanishish qiyinroq bo‘lib, juda odob saqlashni talab qiladi. Odobli kishi istagan vaqtida o‘zini tanita oladi. Tanishi uchun yo‘l ochib beradigan vositalar juda ko‘p. Tanishish mulozamat bilan eshik ochish, tushirib yuborilgan narsani olib berish va Shu kabilardan boshlanishi mumkin. Shuning o‘zi gaplashib kyetishga va keyinchalik tanishishga sabab bo‘ladi.

Ismi-shariflar haqida gap ketadigan bo‘lsa, bu borada yaxshi xotiraga ega bo‘lish odamni vaziyatdan olib chiqib ketadi. Bir ko‘p yillardan so‘ng biz tezda yodga olgan ismning egasi xursand bo‘ladi. Ammo begona ismlar tezda xotiradan uchib ketadigan vaziyatlar juda ko‘p. Bunday holatda nuqsonni bildirmaslikka harakat qiling. Ammo agar siz bu vaziyatdan chiqish yo‘lini topa olmasangiz: «*Uzr yodimdan ko‘tarilibdi*» deb tan olishga to‘g‘ri keladi. Bu vaziyatdan hazil yoki ishonchlilik orqali chiqib kyetish mumkin. Yomon xotirada qayta tanishishga to‘g‘ri

keladi. Bunda «*Biz tanishmiz*» degan javobni eshitmaslik uchun o‘z ismi-sharifini aytib so‘rashmagan ma’qul. Boshqa tarafdan, bizni tanimay hayron bo‘layotgan yaqinimizga quvonch va ehtiros bilan tashlanar ekanmiz: «*meni taniyapsizmi?*» deb uni qiynamaganimiz ma’qul. Bundan u noqulay bo‘lishi mumkin. Ammo «*biz falon joyda tanishgandik*» degan ma’noda so‘z orasida silliq qilib eslatib ketganimiz durust. Bu uni kim bilan gaplashayotgani haqida eslashga yordam beradi.

Ishxonada ham ayol ayolligini yo‘qotmaydi. Odobli erkak ayol kishiga joy beradi va turli xil achchiq hamda qo‘pol so‘zlardan o‘zini tiyadi. Ammo barcha mulozamat turlari asosiy narsaga – ishni borishiga xalaqit bermaslik lozimdir. Erkak ishlayotgan bo‘lsa, ayol uchun o‘rnidan turib paltosini olib berishi shart emas. Ammo garderobda birga bo‘lib qolishsa, kiyishga yordam berishi shart. Ayol kishi ham o‘z o‘rnida, agar ishxonada erkak kishi o‘zini og‘irroq tutsa, shikoyat qilmasligi, erkak kishi ishlab o‘tirgan bo‘lsa, faqat ayol turgani uchun o‘rnidan turishni talab qilmasligi lozim.

Ayollar! Ish sharoitida o‘z ayollik latofatingizni suiste’mol qilmang. Ish muammolarini ko‘z yoshi bilan hal qilishga intilmang. Va yana bir maslahat. Ish stolni chiroyli sumkalar, shlyapa va atir-upalar chiroyli ko‘rsatmaydi. Ular uchun boshqa joyni topgan ma’qul. Telefon go‘sagini ko‘tarayotib «*Bu kim?*» deb qiziqmang. Buni faqat kotiba muloyimlik bilish imkoniyatiga ega. «*Kim so‘rayapti?*» deb so‘rash mumkin. Ayni paytda telefon suhbatlariga doir bir narsani aytib o‘tiz joiz. Imkon qadar ishxonada telefonda kamroq va qisqaroq so‘zlashish lozim. Ammo agar iloji bo‘lmasa, buni yarim ovozda ham qisqaroq shaklda olib borish mumkin.

Ishxonadagilarni yo‘qotilgan kalit yoki tikuvchi bilan bo‘lgan uchrashuvga doir masalalar bilan boshlarini qotirmang. Ishxonadagi alohida jamoa o‘rtasida xodimlar tug‘ilgan kunlarini nishonlash rusmga aylanib qolgan. Rusm bo‘lgani o‘z-o‘zidan yaxshi, ayyom qanchalik tor doirada bo‘lsa, shuncha yaxshi. Tabriklar qabul qilayotgan ayyom sababchisi o‘rnidan turadi. Bunga javoban oddiy o‘tirishni taklif qilish mumkin: kofe, shirinlik. Haddan ziyod mehmondorchilikka berilmaslik ma’qul. Ish sharoitida bu noqulayliklarni tug‘diradi va keyingi tug‘ilgan kun egasini «*qiy nab*» qo‘yishi mumkin. Aynan mana shunday vaziyatlar chiroyli rusmlarni falokatga aylantiradi. Agar sovg‘a sifatida shirinlik olgan bo‘lsangiz, atrofdagilarni u bilan mehmon qiling. Rahbarning tug‘ilgan kunini mavjud muassasining rusmiga qarab nishonlanadi. Rahbarni tabriklashning eng mos shakli – uning ish stoliga gullarni qo‘ymoqdir. Lekin baribir xodimlar rahbarga sovg‘a qilishni istasalar, unda eng yaxshisi – o‘rtame’ yona, qimmat bo‘lmagan, masalan, shirinliklar, kamyob mevalar, kuldon yoki stol uchun mayda-chuyda narsalar, albom, kitoblar sovg‘a qilish mumkin. Yaxshi tashkillashgan, kirishimli jamoalarda karmon, portfel yoki qo‘lqop ham hadya qilish mumkin. Muassasa rahbari ayniqsa, yoshroq bo‘lsa, yoshi ulug‘ xodimlar va ayollar bilan birinchi bo‘lib ko‘rishadi. Bo‘limga kirib kelgan rahbar

birinchi bo‘lib so‘rashadi. Bu qoidada istisno jihatlar mavjud emas. Xodimlar javob beradi, ammo o‘rinlaridan turmaydilar. O‘zining xonasida rahbar oldiga bir masala bo‘yicha kelgan ayol xodim uchun o‘rnidan turmaydi. Suhbat uzoqqa cho‘zilgan taqdirda, rahbar xodimga o‘tirishni taklif qilishi mumkin.

**O‘zini boshqalarga tanitish.** Vositachisiz tanishish qiyinroq bo‘lib, odob nuqtai nazardan noziklikni talab qiladi. Tarbiyalı kishi istalgan vaqtida o‘zini tanita oladi. Tanishish uchun yo‘l ochib beradigan vositalar juda ko‘p. Tanishish mulozamat bilan eshik ochish, tushirib yuborilgan narsani olib berish va shu kabilardan boshlanishi mumkin. Shuning o‘zi gaplashib kyetishga va keyinchalik tanishishga sabab bo‘ladi. Ko‘chada ketayotib, do‘konda, transportda yoki muassasada biror kishini tez-tez uchratib tursangiz, hatto u bilan ikki og‘iz gaplashgan bo‘lsangiz, zarurat bo‘lsa, unga o‘zingizni bemalol tanishtirish mumkin. Lekin unda tanishish istagi yo‘qligini sezsangiz, tanishish shart emas.

Agar tanishishni istamagan inson bilan tanishtirishsa, buni bildirmagan ma’qul. Shunday vaziyatda ham sopolikni qo‘ldan bermay, muloyim muomalada bo‘lish maqsadga muvofiq.

### **Murojaat qilish etiketi**

**Murojaat qilish** – insondan ko‘p narsani talab qilmaydi. U kishini tarbiya ko‘rganligidan dalolat beruvchi harakatlar majmuasidir. Aslida murojaat qilish har – xil kechib, bu insonni qayerda, kim bilan, qay paytda, suhabatdosh bilan o‘zaro munosabatdan kelib chiqqan holda bildiriladi. Murojaat qilib aytileyotgan so‘zlar nafaqat unga bo‘lgan hurmat, balki maqsadga muvofiqlikda ham qo‘llanadi. Murojaat qilib aytileyotgan so‘zlar nafaqat hurmat belgisi, balki, maqsadga erishish vositasi hamdir. Murojaat vaziyatga, sharoitga, jamoaga, muhitga qarab yakka Shahsga yoki jamoaga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Biroq barcha murojaatlar axloq me’yorlariga bo‘ysingandagina ijobiy natija berishi mumkin.

Insoniy munosabatlarda aytileyotgan so‘zlar faqat axloqiy me’yorlarga tayanadi. Bu esa qarindoshlar, sevishganlar, er-xotin, do‘stu-birodar, mansabdor shahs va xodim o‘rtasidagi munosabatlarda qo‘llaniladigan so‘zlar turlicha bo‘lishini anglatadi.. Murojaat ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan munosabat turi bo‘lib, ular og‘zaki yoki yozma ko‘rinishga ega.

Murojaat qilish ham bir necha turlarga bo‘linadi: ular – rasmiy, ishonchli, intim va egasiz.

**Rasmiy murojaatlarda** «xonimlar va janoblar» deb jamoatga murojaat qilinadi.Rasmiy murojaatlar mehnat jamoasida rahbarga, ishlab chiqarish korxonalarida yetakchi mutaxassisiga, ta’lim muassasalarida ta’lim beruvchi ustozga, harbiy va huquq tartibot organlarida unvoni katta zabitlarga, davlat ahamiyatiga

molik tadbirlarda jinsga qarab yoki barchaga rasmiy murojaat qilinadi. M: Yakka Shahsga nisbatan janob Toxirov deb murojaat qilish mumkin. Agar familiya ishlatilmasa janob direktor, direktor xonim deb murojaat qilish maqsadga muvofiq. O'rtoq Abdullayev, o'rtoq general, ya'ni "o'rtoq" so'zi harbiylar qo'llaydilar. Elchilar hamda yuqori martabali insonlarga nisbatan "*Janobi oliylari*" deb murojaat qilinadi. Rasmiy munosabatda faqat sizlab gaplashiladi. Rahbarning qo'l ostidagi barcha kishilar bilan bo'lgan munosabatida ham, 9 yoshdan yuqori bo'lgan maktab o'quvchilardan tortib, talabalar bilan bo'lgan munosabatda ham, notanish insonga murojaat qilganingizda ham sizlab murojaat qilinadi.

*Ishonchli munosabatlarda* yaqin insonlar, qarindosh urug', hamqishloq, vatanishlarga qilinadigan munosabatlarga aytildi. Bunday munosabatlarda «Sen» deb faqat oilada yoki yaqin munosabatlarda murojaat qilish mumkin. «Amaki», «xola», «toga», «opoqi», «kelinoyi» va boshqa qarindoshlar o'rtasida shevadan kelib chiqqan holda murojaat qilish mumkin. «Yaxshi yigit» yoki «yaxshi qiz» degan so'zlar yoshlarga qarata qo'llaniladi. Jamoat joylarida kasbi kor daraja hamda yoshga qarab shofyor, doktor, o'quvchilar, talabalar, yo'lovchilar, qizlar, yigitlar, bolalar kabi nomlarni ishlatish mumkin. Intim, ya'ni yaqin munosabatlarda «azizim, jonim, begin, oyim, yulduzim» kabi murojaatlarni uchratamiz. Egasiz murojaatlar munosabatda – “*Kechirasiz falonchi ko'cha qayerda?*”, “*Aytib berolmaysizmi soat necha bo'ldi?*”, “*Ruxsat bersangiz kirsam*” va boshqalar.

*Intim murojaatlarda* shahsga nisbatan chiroqli, yoqimli, erkalash ma'nosidagi so'zlardan foydalangan holda murojaat etiladi: “Azizim”, “Mehribonim”, “Jonim”, “Begin” kabi so'zlardan o'rinda va samarali foydalanish zarur. Murojaatning bu turi insonning didli va farosatli ekanligini ham belgilaydi. Biroq ushbu so'zlarni bemavrid ishlatish insonni bachkanalikka olib keladi. Ayniqsa, «jonim» so'zini barchaga nisbatan ishlatish aslo mumkin emas, bu so'z faqatgina nikohdan o'tgan, hayotini bir-biri bilan bog'lagan kimsalarga nisbatan ishlatilsa maqsadga muvofiq.

*Nomsiz murojaatlardashahsni* kim ekanligini yaqindan bilish katta ahamiyatga ega emas. Bunday murojaat qisqa mazmunda bo'lib, biror noma'lum ob'yekt yoki sub'yeektni aniqlash, u haqda muayyan ma'lumot olish uchun qo'llaniladi. Masalan, “Kechirasiz, Olmazor ko'chasini ko'rsatib yuborsangiz?” “Hurmatli yo'lovchilar yo'l haqini o'z vaqtida to'lashni unutmang” “Doktor bolamni ko'rib qo'ysangiz, issig'i tushmayapti “singari murojaatlarda Shahsning aniq ismi ko'rsatilmasada, u haqdagi ma'lumotlar va aytildigan fikrlar tushunarli bo'ladi.

Aslini olganda, O'zbekistonda murojaatning aniq bir shakli yo'q. Ko'p holatlarda har bir joyning o'zidan kelib chiqib, shevaga hamda urchodatga asoslangan holda murojaat qilinadi.

Yangi tanishgan odam bilan munosabatda tushunmovchilikdan saqlanish uchun tashrifnomasi juda qulaydir. Chet mamlakatlarda tashrifnomasi juda keng qo'llaniladi.

Ularning raqamlari hamda o‘lchamlari qat’iy qoida bilan cheklanmagan. Inson o‘z tashrifnomasini tutqazar ekan, kelajakda shahsiy hamda ish bilan bog‘liq aloqani qo‘llab-quvvatlayotganini bildiradi.

## Suhbatlashish etiketi

Etiket bo‘yicha muomala qilishni bilish – avvalambor suhbatni olib bora olish qobiliyatidir. Bu yerda ham umumqabul qilingan qoidalar mavjud. Suhbatlashish muomala madaniyatini shakllantirishning muhim vositalaridan biri sanaladi. Har qanday suhbat avvalo ma’lumotlar almanishuvidir. Suhbatlashish orqali insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar, bir-birlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar, bir-birlarini tushunib boradilar, shu bilan birga muomala madaniyatlaridagi ayrim bo‘shliqlarni to‘ldiradilar. Suhbatdoshni gapini bo‘lmasdan uni oxirigacha tinglay olish muhim xususiyat kasb etadi. Zero, diqqat va sabr-toqat bilan eshita olish qobiliyati suhbatdoshga nisbatan hamdardlik, layoqatlilik, xayrixohlikni ko‘rsatadi. Lekin bu qobiliyat faqatgina tug‘ma xususiyat kasb etmaydi – har bir inson uni o‘zida hamda farzandlarining tarbiyasida mujassam etib, takomillashtirish mumkin. Bunda axloqiy tarbiya – axloqiy me’yorlar katta ahamiyat kasb etadi.

Suhbat olib borish mahoratini o‘rganish mumkin, buning uchun qadimgi notiqlar kabi sizga zarur bo‘lgan bilimlarni egallash lozim. Ammo bu degani do‘stona uchrashuvlarni notiqlik san’ati bo‘yicha musobaqaga aylantirish shart emas. Barcha holat va narsalarga yuzaki qaraydigan jamiyatga bir oz hazil va yengillik bilan ishonchli so‘zlash – bu iste’dodli odamlar ham tan beradigan qobiliyatdir. Har kimga ham aqlii gaplarni osonlik bilan yetkazish qobiliyati berilmaydi. Suhbat san’atida sergaplikka yo‘l qo‘ymay mashq qilish lozim, hamsuhbat ruhiyatini hisobga olish kerak va bu yetarli darajadagi tajribani talab qiladigan faoliyatdir. Avvalambor biz o‘zimizning «men» lashimizdan qochishimiz lozim. O‘z shahsiyligini berkitib, o‘zgalarning qiziqishiga e’tibor bermoq – bu har bir suhbatning asosiy afzalligidir. Yaxshi ohang suhbatdoshiga ko‘ngilsiz yoki uni tushkunlikka tushiradigan suhbatlardan qochishni talab qiladi. Jamoatga yoqish uchun suhbatdoshingizga yaqin bo‘lgan va uni ko‘proq qiziqtiradigan suhbat mavzularini tanlashingiz lozim. Jamiyatning yoqimsiz a’zolariga doimo hamma narsadan noliyveradigan va ayb qidiraveradigan odamlar kiradi. Ammo, muloqot qilish me’yori va tajribasiga ega haqiqiy tarbiyali inson hamisha o‘z talabalari darajasida kamtarin, mulohazalarida esa notakabbur va bag‘ri kengdir. Agar jamoat sizga notanish bo‘lsa, suhbatda mavjud odamlar borasida gaplashmagingiz ma’qul, avval ularning o‘zaro munosabatlarini kuzatib, shu asosda biron bir narsa deyish mumkin.

So‘z bu o‘zingizga qarshi qurolga aylanuvchi kuchdir. Yaqin kishini ayblashdan oldin, o‘ylab ko‘rgan ma’qul. Hasadgo‘ylik eng yomon illat. U barcha axloqiy

xususiyatlarni yo‘qqa chiqaradi. Mardlik yoki ochiqlik bahonasida ko‘rolmaslik hissini ochiqchasiga ko‘rsatishni odat qilgan kishiga bo‘lgan munosabat hech qachon ijobjiy o‘zgarish kasb etmaydi. Bu faqat munosabatlarni yomonlashishiga olib keladi. Bundan hech kim yaxshi natijaga erishmaydi. Atrofdagilar uchun notanish bo‘lgan tilda biror bir odam bilan suhbatlashish madaniyatsizlikdir.

Suhbatdagi har bir so‘z suhbatdosh uchun aniq va tushunarli bo‘lmog‘i lozim. Agar sizning nutqingizni tinglayotgan odam biror-bir so‘zni qaytarish uchun gapingizni bo‘lsa, tez orada suhbatdosh sizga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotadi, deganini anglatadi. Bunda nutq o‘ta baland ohangda bo‘lmasligi lozim, aks holda o‘zni noqulay ahvolga solib qo‘yish mumkin. Sizning suhbatningizga uchinchi suhbatdosh qo‘silsa-yu, mavzu esa o‘ta nozik xususiyat kasb etsa, o‘zingizni iltifotli va xushmuomali jihatdan ko‘rsatganingiz ma’qul. Jamoatda barcha narsalar haqida gap ketadi, savollar chuqurlashib ketilmaydi, bir narsani har taraflama ko‘rib chiqilmaydi, balki qisqacha mulohaza yuritiladi, ammo yuzaki emas. Boshqalar bilan gaplashish istagi borligini yoki suhbat zerikali ekanligini ko‘rsatmaaslik, suhbat chog‘ida atrofga alanglab, qo‘lga tushgan biron narsani o‘ynab, yoki soatga qarayverish suhbatdoshni jig‘iybiron qilib qo‘yish mumkin.

Suhbat chog‘ida o‘zini ko‘klarga ko‘tarib, o‘z faoliyati, izlanishlari, mulki o‘z tanishlari doirasi bilan yoki kimnidir ismini ro‘kach qilish bilan maqtanish va yaxshi emas – bunday tushunchalar suhbatdosh aqlini qanchalik tor ekanligi haqida guvohlik beradi. Munozara qilinayotgan muammolar doirasi keng bo‘lishi mumkin, biroq nima bo‘lganda ham o‘zingizni ishonchli his qiladigan, o‘zingizga mos bo‘lgan mavzularda suhbat olib borishingiz maqsadga muvofiqdir.

Suhbatdoshni sog‘liqdan nolish bilan ob-havo haqidagi so‘zlar bilan charchatish ham etiketga to‘g‘ri kelmaydi. Suhbat haqiqatan ham qiziqarliroq bo‘lish uchun barcha qobiliyat va imkoniyatlarni yordamga chaqirish lozim. Shu jihatdan ham suhbatlashish etiketi bir necha qoidalarni taqozo etadi:

➤ Suhbatdoshingizga og‘ir botadigan, xafa qiladigan, noqulay vaziyatga solib qo‘yadigan, gapirishni xohlamaydigan mavzu bo‘yicha suhbatlashish vaziyatni og‘irlashtiradi.

➤ Suhbatdoshingizga o‘zingizga ta’rif-tavsif berishdan, o‘z muammo va yutuqlar haqidagi ma’lumotlarga e’tiborni kuchaytirishdan qochish, suhbat chog‘ida o‘z “men” ini markaziy joyga qo‘ymaslik lozim. Bunda axloqning kamtarinlik va bosiqlik me’yorlari qo‘l keladi.

➤ O‘z fikrini uqtirishdan avval, noqulay vaziyatga tushib qolmaslik uchun suhbatdoshning ijtimoiy kelib chiqishi, shahs sifatida, aytilayotgan masala yuzasidan qanday ma’lumotga ega ekanligini bilib olgan yaxshi.

➤ Suhbatdosh hurmat qilishga, hatto uni fikrini noto‘g‘ri deb hisoblaganda ham oxirigicha eshitish bilan shahsning so‘z erkinligini ta’minlashga intilish lozim.

➤ Boshqa insonlarini g‘iybat qilishdan, ularning shahsiy hayoti, muammosi haqida suhbat qurish ham odobsizlik sanaladi.

➤ Har qanday suhbat birinchi navbatda ma’lumotlar almanishuvidir. Suhbat jamoat joylarida yoki ko‘chada bo‘lsa, boshqalarni o‘ziga jalb qilmagan holda, ovoz past ohangda gaplashish lozim. Tez yoki haddan tashqari cho‘zilib gapirish ham ma’lumotni o‘zlashtirishga xalaqit beradi.

➤ Kam muomala qilinadigan, yaxshi tanimaydigan insonlar bilan muloqotda bo‘lishda barchaga tushunarli yengil mavzu tanlanib olinadi. M: *Futbol, seriallar, qo’shiqlar, teleko’rsatuvlar v.x.k.* Hech qachon oilaviy muammolar, shahsiy hayotdagi kelishmovchiliklar, o‘zi tushunmagan va ma’lumotga ega bo‘lmagan tor mutaxassislikka oid mavzular haqida gaplashish nojoiz.

➤ Barcha xursand holatda suhbatlashayotgan vaqtda, kayfiyatni tushuruvchi, qo‘rquinchli voqealar, ko‘ngilsiz holatlar haqida gapirish boshqalarni kayfiyatini tushirib yuboradi.

➤ Bemorni ko‘rgani borganda o‘lim haqida, uning kasal tarixi, mayda-chuyda jihatlari haqida gapirish yaxshi emas. Uning o‘rniga yolg‘on bo‘lsa ham ko‘rinishini yaxshiligi, albatta, yaxshi bo‘lib kyetishi mumkinligi haqida suhbat qurish lozim.

➤ Dasturxon atrofida ishtahani bo‘g‘uvchi mavzular haqida gapirilmaydi. Ovqatni yomonlash, kamchilik axtarish yomon odat. Aksincha, uni tayyorlagan insonni ko‘nglini ko‘tarish lozim.

➤ Tarbiyali va madaniyatli inson tanishi haqida umumiy fikr bildirayotganda yolg‘on ishlatmaydi, uni g‘iybat qilmaydi. Bir inson haqida (hatto u yomon inson bo‘lganda ham) fikr bildirayotgan paytda to‘satdan kirib qolgan mavzu «qahramoniga», ko‘pchilik ta’sirida miyg‘ida kulib, sinchkov nigoh bilan piching hamda qochiriqlar qilish ba’zida betga aytilgan haqiqatdan ham kuchliroq dilga ozor beradi.

Suhbatlashish jarayoni nafaqat suhbatlashish balki, tinglash holatiga ham bog‘liq. Tinglash faqat eshitib o‘tirishi kerak degani emas. Yaxshi suhbatdosh hamsuhbat fikrini mantiqiy tugatgandan so‘ng, o‘z fikrini to‘liq bayon qilib beruvchi insonga aytiladi. Juda ham kerak bo‘lib qolgan vaqtda uzr so‘rab, M: *Kechirasiz, menimcha shu fikringiz...., yoki Fikringizni bo‘lganim uchun uzr so‘rayman, menimcha...* degantushunchalarni qo‘llagan ma’qul. Bu vaqtda ushbu tushunchalarning egasi suhbatdoshiga so‘zlashga imkoniyat berishi lozim. Bunda dunyoqarash ham katta ahamiyat kasb etadi. Insonning dunyoqarashi haqida gap ketganda, albatta yoshlardan kattalar o‘rtasida tushunmovchiliklar bo‘ladi. Shunday paytlarda yoshlardan o‘zlarini fikrlarini yoqlamasdan xo‘p deb, mavzuni boshqa yoqqa burib yuborishlari kattalarni dilini og‘ritib qo‘yishdan asraydi.

Muomalada gapning ohangi har-xil bo‘lishi mumkin bular: takabburlik bilan, sovuq, o‘ziga qaratgan holda, achchiq-tirziq tarzdagi ohanglar. Bir xil ya’ni

monotonli gapisirish ham boshqalar nazdida zerikarli bo‘lib, qiziqarli ma’lumotni ham xazm qilish qiyin bo‘ladi.

Muomala madaniyatining yana asosiy tavsifnomasi shundan iboratki, bu insonning manerasi, ya’ni hatti-harakatining ohang bilan uyg‘unligi. Bularga qomatni turishi, qo‘l harakati, yuzdagagi imolalar kirib ketadi.

Hayotimizni ko‘p qismini bizga notanish bo‘lgan odamlar bilan birga – ko‘chakuy, transport, turli xil jamoat joylarida o‘tkazamiz. Nafaqat o‘zimizning kayfiyatimiz, balki atrofimizdagi odamlarning kayfiyati ham jamoatda o‘zimizni qanday tutishimizga bog‘liqdir. Uydan ko‘chaga chiqayotganingizda kerakli bo‘lgan narsalarni: hujjatlar, dastro‘molcha, pul solingan karmon, taroq va boshqa zarur bo‘lgan mayda-chuyda narsalarni o‘zingiz bilan olganingizga ishonch hosil qilishingiz ma’qul. Kiyim bosh, oyoq kiyim, soch turmag, xullas, boshdan-oyoq o‘zimizga razm solib, so‘ng tashqariga chiqishimiz kayfiyatni ko‘tarib, uyda tashqarida o‘zimizga bo‘lgan ishonchni yanada kuchaytiradi. Ko‘chada o‘zini tutishning eng asosiy qoidasi – bu atrofdagilarning o‘zini noqulay va noxush sezishiga sabab bo‘lmasligidir.

Davrada erkak kishi ayol kishi bilan yumshoq munosabatda bo‘lishi shart, ammo oshirib yubormasligi lozim. Haddan ziyod mulozamatatlarga vaqtliroq va bosiqroq javob bermoq lozim. Bunday vaziyatlarda «*Kechirasiz, hazillarga unchalik xushim yo‘q*», «*Qaytaryapsiz*», «*Ko‘rsatuvni oxirigacha ko‘rib olmaymizmi?*» – taxminan Shu asnoda javob bergen ma’qul. Gapi rayotganda munozaraga berilmasdan, aniq, baland bo‘lмаган ohangda, xotirjamlikni ushlab turmoq zarur. Mulozamatga «*rahmat*» deb qisqacha javob beriladi. Odatda, o‘zini haddan tashqari erkin, aqli qilib ko‘rsatishga intilgan va diqqat markazida bo‘lishini istagida qattiq uringanlar, aksincha, noqulay vaziyatga tushib qoladilar. Bunday odamlarga, boshqalarning ismi–sharifiga, bo‘yiga, millati va turar joyiga, sochining rangi, ma’lumoti va avtomobil halokatiga doir hazillar qilish mumkin emasligini hamisha yodda tutishlari kerak.

O‘xshamagan mutoyiba hazilga, dilxiralikka qanday javob berish kerak? Omadsiz bunday tarzdagi ifodadan so‘ng, jim bo‘lib qolishdek hech qanday holat kuchli ta’sirga ega emas. Keyin kimdir biron boshqa mavzuda gap boshlagani yaxshi. Agar «*o‘tkir fikrli*» shahsning tinglovchilarni g‘ashiga tegishida davom yetishi to‘xtamasa, unda uy egasi unga qarab: «*Bugun sen negadir o‘zingdamassan*» deb to‘xtatishi lozim. Odamlarni o‘ziga kelmasdan avval hazillarga ko‘mib tashlash kerakmas. Hazil joyida bo‘lgani yaxshi. Hozirjavob hazilning ma’nosiga yetib borishda so‘zlovchining qattiq kulgusi xalaqit beradi.

Davrada achchiq so‘zlarni suiste’mol qilmagan ma’qul. O‘zini aqli deb biladigan bunday odamlar davrada «*qurban*» topib olib, uni mazax ostiga olish maqsadida turli savollar yoki vaziyatlarga solishga intilishi o‘zini axmoq qilib

ko'rsatishdan o'zga narsani bermaydi. Bunda tinglovchilar gapi rayotgan odamning aybini qidirishga ko'proq e'tibor beradilar.

Erix Fromm ta'limotida bunday odamlarning ruhiyatida sadizm – zolimlik borligini – «zulm qilyapmanmi demak mavjudman» degan shior yashaydigan kishilarga nisbat beradi. Agarda bunday odamlarning harakati tashqaridan juda xunuk ko'rinishini, mazlumni emas, o'zini butun bir tuban xususiyatlarini ko'rsatayotganini va undagi o'ta omilikni tashqariga chiqarayotganini bilganida edi hech qachon bunday harakatlarni qilmagan bo'lar edi.

Zigmund Froyd jamoada o'zini bunday salbiy tutayotgan shahs hatti-harakatlari aslida hasadgo'ylikdan ekanligi, bunga guvoh bo'layotgan jamoat ham aksariyat holatda bunga to'sqinlik qilmasa-da, ushbu shahs to'g'risida xuddi shu xulosaga kelishini ta'kidlagan. Bu bilan Froyd jamoada inson o'zini erkinroq tutadi, va badxulqlik bilan bo'lgan barcha harakatlardan tiyilishi qiyin bo'ladi, degan xulosaga keladi.<sup>12</sup> Tahliliy ruhshunoslik asoschisi Karl Gustav Yung esa jamoada ushbu ruhiy holatni arxetipler bilan bog'lab, unga «trikster» degan nomni beradi. «Trikster u bu odamlar tabiatidagi eng tuban illatlar majmui, jamoaviy onglanmaganlikning tuban ruh – obrazidir».<sup>13</sup>

Demak, jamoatda boshqalar ta'siridan o'z salbiy illatlariga erk berish xavfi kuchliroq ekan, inson bunday paytda o'zini yo'qotmasligi, axloqiy masalalarda mustaqil fikrga ega bo'lishi kerakligini unutmasligi lozim ekan.

Suhbat olib borish jarayonida tashvishlari bilan band, ma'nosiz nigohlarni ko'rsatmaslikka harakat qilgan ma'qul. Suhbatdoshga qiziqish bilan, uning so'zlarini tushunayotganini bildirish uchun ba'zi-ba'zida savol berish yoki aniqliklar kiritib turish zarur. Agar hikoyani eshitgan bo'lsangiz, hikoyani o'rtasiga kelganda birdan gapni bo'lishdan ko'ra darhol «*Ha, aytib bergen edingiz*» qabilida gapirib qo'ygan ma'qul. Odobli odam, garchi hikoyani avval eshitgan bo'lsa ham, so'zlayotgan odamni bo'lmaydi. Tasodifan eshitib qolgan narsalarga chuqur sho'ng'ib ketib, munozara qilinmaydi.

Bunda axloqiy tarbiyaning ba'zi vositalarini yoki unga yaqin yo'llarni tanlash qo'l keladi. “Axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi – san'at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shahslarni qamrab oladi”.<sup>14</sup> Zero, zamonaviy ruhshunoslik insonning jamiyat va borliq bilan bo'lgan turli munosabatlarini nafaqat yo'nga qo'yadi, balki uni mustahkamlaydi ham. Misol uchun, ruhiy tahlil falsafasi asoschisi Froyd ta'limotga ko'ra, madaniy ijod bilan birqalikda badiiy ijod jamiyat faoliyatida shahvoniy qudrat va nafsning ular o'rnini bosadigan ijobiy hodisalarga aylanish orqali, (sublimatsiya) ya'ni, tubanlikdan ulug'vorlikka o'tish natijasida

<sup>12</sup> Фрейд З. «Психология масс и анализ человеческого «Я». -СПб, Азбука классика.-М., 2008.-76c.

<sup>13</sup>O'sha manba. -35 b.

<sup>14</sup> Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. - T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010, 312-b.

vujudga keladi. Ijodkor jamiyatdagi muammolarning yechimini san'at asarlari orqali obrazli tarzda jamiyatning o'ziga taqdim yetish bilan topishga intiladi. Ammo shunisi muammoliki, barchaga ham iste'dod va daholik berilavermaydi. Shu jihatdan ham ruhiy tahlil bu masalaning yechimni ikki yo'l bilan hal qilishni taklif etdi. Ilmiy tadqiqotlar natijasi insonning axloqiy munosabatlarida estetik faoliyatning muhim ekanligini ta'kidlay boshladi. Zotan, san'at asarini idrok yetish insonda ijodiylik va hozirjavoblik qobiliyatini o'stiradi.

Muomala etiketida hozirjavoblik juda katta o'ringa ega. Aksariyat hollarda insonlar davraga kirib kelgan kishini sergakligi va hozirjavobligiga juda katta e'tibor beradilar. Ayniqsa, etiketda ko'rishish va so'rashish jarayoni o'zaro kuzatuvchanlik bilan amalga oshiriladi. Agar ulardan biri bu borada "soddalik" qilsa, odamlar orasida buni bildirishning har qanday yo'lidan foydalanishga intilishni ko'rish mumkin. Buning ruhiy-axloqiy jihatni shundaki, o'z vaqtida berilmagan "javob" yoki "soddalik" boshqarilishga loyiq kishi sanalishi, boshqalar oldida "kulgi" bo'lish xavfi bir tomondan jamiyat qo'ygan etiket qoidalarini o'z vaqtida amalga oshirishga intiltirsa, ikkinchi tomondan o'ng'aysizlikni engish uchun hozirjavoblikni qo'llash orqali badiiy ijodiylikka intiltiradi. Bu borada Froyd «Hozirjavoblik va uning onglanmaganlikka munosabati» asarida hozirjavoblikning vujudga kelishi va uning qabul qilinishdagi ruhiy holatlar talqinini berish bilan birga Froyd kulgililikka ham alohida to'xtalib, uning boshqa turlarini, ular orasidagi o'zaro farqlarni tushuntirishga harakat qiladi.<sup>15</sup>

Davradagi odam boshqaga murojaat qilganda yoki munosabatga kirishganda, beixtiyor suhbatdoshiga so'zlayotgan so'zlaridan birining unli yoki undosh harflarini almashtirib yuborish orqali kulgililikni vujudga keltiradi. Agar bu so'z o'yini atayin, ongli tarzda amalga oshirilgan taqdirda ham so'zlovchi ijodiy jarayondagi ijodkor kabi onglanmaganlikka keng yo'l qo'yib beradi. Zero, bu jarayon san'atkorona mahoratni talab qiladi. Muallif so'zlardagi unli va undosh, so'zlarga qo'shiladigan qo'shimchalarni o'zgartirish bilan juda chiroli tarzda o'z maqsadi yo'lida foydalanarkan, bir jihatdan so'zlovchining ruhiyatidagi ziddiyatlarni kulgililik orqali o'zini dovdir qilib yoki bilmasdan gapirib yuborgan qilib ko'rsatish bilan tashqariga, suhbatdoshiga zimdan uyushtirilgan hujum sifatida amalga oshiradi. Ikkinchi jihatdan esa, dilini og'ritmagan holda, ochiqdan-ochiq kurashlarsiz, kulgililik orqali suhbatdoshini «silliqlik» bilan «haqiqatga» yetkazib qo'yadi. Bunday jarayon muomala etiketida to'satdan paydo bo'lishi mumkin bo'lgan qo'pol munosabatlarni oldini oladi. Biroq ortiqcha hajviya, hozirjavoblik doimo to'g'ri kelavermasligini unutmaslik lozim.

---

<sup>15</sup> Фрейд З. Остроумие и его отношение к бессознательному. – Минск. Попурри , 1999.-5 с.

**Shirinsuxanlik ham katta san'at.** Shirin so‘z bilan kishining ishonchi va qalbini egallash mumkin. Unda yuz ifodasi tilning ko‘rki hisoblanadi. Muomala madaniyatida so‘z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo‘lsa ham “suyakka tegishi” mumkin.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy me’yoriy talablarini bajarishni taqazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon yetishi, ko‘zga ko‘rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo‘lishi so‘z, nutq vositasida ro‘y beradi. So‘zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati – muomalaning muhim jihatlarini tashkil etadi. Shu bois, muomala odobi o‘zini, eng avvalo, shirinsuxanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe’llilik singari axloqiy me’yorlarda namoyon qiladi. Muomala odobining yana biri bu – *insoniy nigoh*. Ma’lumki, odamning nigohida, yuz ifodasida, qo‘l harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so‘zga aylanmagan hissiyoti, talablari o‘z aksini topadi. Chunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo‘l siltab kyetishi yoki fikrini bo‘lib, qo‘pol muomalada bo‘lishi madaniyatsizlikni anglatadi. Suhbatdoshni fikrini noto‘g‘ri deb bilgan taqdirda ham tarbiyalı va kamtar inson “*Menimcha adashdingiz?*” “*Uzr, men boshqa fikrdaman*”, “*Kechirasiz, men sizning fikringizga qo‘shilmayman*” degan tushunchalar bilan murojaat qiladi. Hech qachon “*umuman noto‘g‘ri*”, “*bu to‘g‘rida hech narsani tushunmaysiz*”, “*bu narsani yosh bola ham biladi*” degan tushunchalarni ishlatish mumkin emas.

Gapirayotgan insonni fikrini bo‘lib, “*Bo‘lishi mumkin emas*”, “*O‘zingiz ishonasizmi?*” tarzidagi tushunchalar bilan chalg‘itish ham odobsizlik sanaladi.

Xushmuomalalik va xushfe’llilikning mug‘ombirlikdan va qalbaki tortinchoqlikdan kelib chiqmasligi, samimiyligi, tabiiy va beg‘araz, har qanday mug‘ombirlik va soxta tortinchoqlikdan xoli bo‘lishi kerak.

Hamma davrlarda suhbat, muloqot inson muomalasining asosini tashkil qilgan. Suhbat – bu insonlar o‘rtasidagi fikrlar almanishuvi bo‘lib, u aqlilik va chiroyli so‘zlashdan ibora bo‘la olmaydi. Ba’zi insonlar qanday qilib gap boshlashni bilishmaydi, gapirganda o‘zlarini yo‘qotib qo‘yadilar. Juda ko‘p keraksiz so‘zlarni, ishlatadilar. Bugungi kunda ba’zi yoshlarimiz nutqidan mamnun emasmiz. Chunki ularning nutqi umuman yo‘q hisob, gaplari faqat jargon va xunuk so‘zlardan iborat. Agar suhbatdoshingizning nutqi jargon so‘zlar bilan to‘lib, toshgan bo‘lsa, o‘zi qiynalib poyma-poy gapirsa, talaffuzi yaxshi bo‘lmasa, ohangi qulqoqqa yoqmasa, eng mazmundor suhbat ham o‘z qimmatini yo‘qotadi. Hamma vaqt aniq-ravshan, hovliqmasdan, muloyimlik va mayin ovoz bilan gapirishga harakat qilish kerak. Hovliqib aytilgan so‘zni tushunish qiyin bo‘ladi, juda cho‘zib, sekin gapirish esa kishining sabr-kosasini to‘lib toshiradi. Talaffuz etilgan har bir so‘z, bo‘g‘in va ohang aniq va ravshan jaranglashi lozim. Juda nozlanib gapirish ham xunuk odat.

O‘z ona tilini hurmat qilgan inson uni buzilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Horijiy so‘zlarning aniq ma’nosini bilgan va ularni to‘g‘ri talaffuz eta oladigan kishi, zarurat bo‘lsa, ularni o‘z nutqida ishlatishi mumkin.

*Ovoz, ohang.* Suhbatning tavsifini belgilab berish uchun so‘z boyligi va so‘zning grammatik qurilishi etarli emas, bu erda gaplashish ohangi va intonatsiya muhim rol o‘ynaydi. So‘zlashish ohangi iroda va emotsiyonal ta’sirni, hissiyotni aks ettiradi. So‘zlashish ohangidan hatto kishining kayfiyatini bilish mumkin. Ohang ma’lum darajada kishining xulqini ham aks ettiradi. Yani suhbatdoshimizning tarbiyali yoki tarbiyasizligini ko‘rsatadi. Yurish-turish vaziyatlari qanchalik ahamiyatga ega bo‘lsa, so‘zlashish ohangi ham shunchalik ahamiyatga ega.

Bitta so‘z yoki iboraning o‘zi qanday qanday ohangda aytilganligiga qarab bizga har xil ta’sir yetishi mumkin. Ko‘pincha aytilgan so‘z emas, balki haqoratomuz ohang kishini ranjitadi. Ohangizning chiroyligi yoki ingichkaligi bilan siz bevosita atrofdagilarda og‘ir yoki yengil kayfiyat uyg‘otasiz. Ifodalanayotgan so‘zlarning ma’nosini umuman tinglovchilarga hech qanday ta’sir bermaydi. U suhbatdoshingizning javob berish imkoniyatini yaxshilash darjasida bo‘lsa bas. Haqiqiy ma’lumot so‘z ohangizdadir. Asosiy xavf shundaki na siz va na sizning suhbatdoshingiz nishonga teguvchi bu bevosita ifodalanuvchi ma’lumotni onglangan tarzda ham onglanmagan tarzda ham tahlil qila olmaysiz. Har bir zamonaviy inson o‘z ohangini o‘zgartirish imkoniga ega. Avvalambor, haqqoniy eslashga harakat qiladigan bo‘lsangiz, qachondir siz o‘z ohangizga nisbatan maqtovlar eshitganmisiz yo‘qmi buni bilib olasiz. Agar ohangizning yaxshiligiga ishonchingiz komil bo‘lsa, unda ovozingizni tasmaga yozib olib, uni eshitib ko‘ring. Birinchi eshitishdayoq ko‘pchilik o‘z ohangini hayrat bilan tanib qolishadi.

Yoqimli ohang – bunda biz ayollarni nazarda tutyapmiz – odatda nafis ohangdir, baland ham, past ham, tez ham sekin ham emas. Agar sizning ovozingiz boshqalarga yoqmasa, hayotingizdagи tutgan o‘rningizga ohangni mos kelmaganidan bo‘lishi mumkin. Ehtimol, siz gaplashayotganda charcharsiz. Boshqa nutqdagi qusurlar ham to‘g‘irlansa bo‘ladi. Ammo chiroyli nutq uchun faqat ohangning nafisligi etmaydi. Dunyoqarashning boyligi nutqni yanada go‘zallashtiradi. Zero, quruq so‘zlardan iborat chiroyli nutq odamlarda sizga nisbatan bo‘lgan kinoyani uyg‘otadi.

Buyuk mavlono Jaloliddin Rumiy «*Ichindagi ichindadir*» nomli asarida «So‘z – idrok qilishda so‘zga muhtoj bo‘lganlar uchundir. So‘zsiz idrok etganning so‘zga qanday ehtiyoji qoladi? Idrok eta bilgani uchun ko‘klarning, arning hammasi so‘zdir. Hafif bir sasni eshitganga baqirib-chaqirishning nima hojati bor? Dunyo ham Qur’ondagi «Bo‘l» (Uning amri bo‘l demak edi edi. U hamon bo‘ldi) so‘zidan bino bo‘lgandir»<sup>16</sup>, - degan fikrni bildirib ketadi. Shunday ekan, so‘zlarni mazmun bilan

<sup>16</sup>JaloliddinRumiy. Ichindagi ichindadir. Yangi asr avlod, - Toshkent, 2003. - 29 b.

boyitish ham muhimdir. Chiroyli nutq egasi o‘z nutqi bilan bir necha marotabagina odamlarni o‘ziga jalb qilishi mumkin. Lekin mazmunsiz chiroyli so‘zlar odamlarni me’dasiga tegadi. Ish, martaba, kechinmalar va kayfiyatning yomonligi, betoblik atrofdagilar bilan qo‘pol muomalada bo‘lish huquqini bermaydi. Hatto buyruqni ham muloyimlik, bosiq ohang bilan va Shu qatori bir vaqtida ishga doir qat’iyatlik bilan berish mumkin. Buyruq ohangidan faqat bajarilishi shart va majbur bo‘lgan soxalarda ya’ni harbiylar foydalanishi mumkin.

## Muomalada yuzaga keladigan ziddiyatlar

Taraqqiyot ziddiyatlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va bartaraf qilinishi jarayonidan iborat. Shunga ko‘ra, ziddiyatlarning ko‘rinishi ham har xil bo‘lib, ular narsa-hodisalarning harakati va rivojlanishida turlicha ahamiyat kasb etadi. Ziddiyatlar ichki, tashqi, asosiy, asosiy bo‘lmagan kabi ko‘rinishlarga bo‘linadi. Jumladan, *ichki ziddiyatlar* – narsa va hodisalardagi ichki jarayonlarning ifodasi, harakatlanishning manbai hamda rivojlanishning asosiy sababidir. *Tashqi ziddiyat* – narsa va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarning ifodasi hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishining mazmuni va mohiyati ham asosan ichki ziddiyatlarning xal qilinishi bilan belgilanadi. Biroq, rivojlanishda tashqi ziddiyatlarning ishtiroki kamroq bo‘ladi, degan fikrga bormaslik kerak. Zero, globallaShuv va integratsiya jarayonlarida tashqi ziddiyatlarning ham o‘z o‘rni bor. Narsa-hodisalarning mohiyatini, holatini, kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatlarini belgilovchi ziddiyatlar esa *asosiy ziddiyatlar* deb ataladi.

Muomala madaniyatida ziddiyatlar anglashilmovchilik, bir-birini tushunmaslik hamda o‘zaro manfaatlar to‘qnaShuvi natijasida kelib chiqadi. Shuningdek, ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarning xususiyalariga qarab tavsiflash mumkin. R.L.Krichevskiy o‘zining «Agar siz rahbarsiz» kitobida ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni 3 ta guruhga bo‘ladi:

- *Birinchi guruh* – mehnat jarayonidagi ziddiyatlar.
- *Ikkinci guruh* – insonlararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari, ya’ni impatiya va antipatiya, madaniy-etnik xilma-xillik, rahbar hatti-harakatlari, psixologik moslasha olmaslik va hokazo.
- *Uchinchi guruh* – jamoa a’zolarining o‘ziga xosligi. Masalan, o‘zini boshqara olmaslik, ehtiroslarga berilish, tajovuz, do‘q-po‘pisa, haqoratlash-so‘kinish, munosabatga kirisha olmaslik<sup>17</sup>.

Ziddiyatlar ma’muriy tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalari uchun ahamiyati hal yetish yo‘llariga ko‘ra farqlanadi, umumiylar ma’noda konstruktiv va

<sup>17</sup> Кричевский Р.Л. Если вы – руководитель. –Москва: Дело, 1993. – с. 39.

destruktiv ziddiyatlarga ajraladi. *Konstruktiv* ziddiyatlarga tashkilotning hayotiy muammolarini hamda ularni hal yetish orqali samarali taraqqiyotga olib chiqish xos. *Destruktiv* ziddiyatlar salbiy, vayronkor natijalarga olib keladi. Shuningdek, ayrim hollarda bu vaziyat janjallarga va tashkilot faoliyatining susayishiga olib keladi.

### **Ziddiyatli vaziyatlardan o‘zini tuta bilish qoidalari**

Rahbar ziddiyatlarni nafaqat ish sohasi, balki shahsiy emotsiyal sohada ham ishlata olishi zarur. Xo‘sh, ziddiyatli shahs bilan ishslash jarayonida o‘zini qanday tutish lozim:

- *Birinchidan* - bunday odamlarda ichki o‘tkinchi kechinmalar bilan bog‘liq ehtiyojlar mavjud bo‘lib, ular Shu orqali ehtiyojlarni qondiradi. Masalan, tajovuzkor o‘zining tajovuzi orqali qo‘rkoqligini yashirishi mumkin.
- *Ikkinchidan* - o‘z hissiyotlarini jilovlab, boshqaning hissiyotlarini ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishi kerak.
- *Uchinchidan* - bunday odamlarning qilayotgan harakatlarini jiddiy qabul qilmaslik.
- *To‘rtinchidan* - ziddiyatli holatlarda muvofiq keluvchi usulni tanlash uchun bunday usullar qaysi toifa odamlarga mos kelishini ajrata olishingiz zarur.

Robert Bremsen tarbiyasi qiyin odamlar bilan muomala qilishning bir necha turlarini ajratib ko‘rsatadi<sup>18</sup>:

**Tajovuzkor** - agar so‘ziga qulq solishmasa, kishilarga tojovuz qiluvchi qo‘pol va shallaqilar.

**Shikoyatchi** – qandaydir g‘oyani o‘zlashtirib olgan holda boshqalarni katta gunohda ayblovchi, biroq ushbu muammoni yechish uchun biror ish qilmaydigan kishi.

**“Darg‘azab bolakay”** – bu toifa kishilar tabiatan o‘zlarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fikrlarini o‘tkazishga hamda jarayonni to‘laligicha qo‘l ostida tutib turishga intiladilar.

**Maksimalist** – garchand zarurati bo‘imasada, biror-bir ishni ortga sudramaydigan kishi.

**Indamas (pismiq)** – barcha alamlarini ichiga yutib yuradigan, biroq payti kelganda birdan portlaydigan odam.

**“Sirli qasoskor” (ishkallar)** – biror-bir nayraglar yordamida noqulayliklarni yuza keltiruvchi, “noto‘g‘ri qilingan ish uchun o‘zini alolat o‘rnatuvchi” deb hisoblaydigan kishi.

---

<sup>18</sup> Бородкин Ф.М. Внимание конфликт! - Новосибирск. 1989.

**Ikkiyuzlamachi yoki “Yolg‘onchi g‘amxo’r”** – o‘zini sizga yaxshilik qilayotgan kabi ko‘rsatadi, biroq qalbida boshqalarga nisbatan adovat, ko‘rolmaslik mavjud bo‘lgan odam.

**“Surunkali aybllovchi”** – doimiy ravishda o‘zgalarning aybini qidiradigan (tirnoq orasidan kir qidiradigan), o‘zini doimo haq deb hisoblaydigan shahs.

Hayotda uchraydigan bu kabi odamlarning toifalari talaygina.

Shu munosabat bilan ziddiyatli holatlarda yoki tarbiyasi qiyin odamlar bilan muomala qilganingizda siz nafaqat do‘stlik degan tushunchaning ma’nosini anglaysiz, balki muomalaning yuksak sifatlarini ham o‘zlashtirib borasiz. Dialektikaning ahamiyati aynan mana shu jarayonda namoyon bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki, ziddiyatlar insonlararo muomala madaniyatida tez-tez hissiyotli holatlarni yuzaga keltiradi va ayni paytda munosabatlarni chigallashtirishga hamda murakkablashtirishga olib keladi. Ziddiyatli holatlarni yuzaga kelganda uning oldini olish uchun quyidagilarni tavsiya yetish mumkin:

1. Ziddiyatli holatlarda insonning hatti-harakatini aql emas, balki hissiyotlar boshqarishini unutmang. Zero, aql yon bergan paytda inson o‘zining so‘zi va hatti-harakatiga javob bera olmaydi.
  2. Muomalaning ko‘plab muqobil usullaridan foydalaning, suhbatdoshingizni “jerkib” tashlamang, o‘zingizga “Men ham yanglishishim mumkinku!?” degan savolni bering.
  3. Ziddiyatning mohiyatini to‘laqonli tushunishga harakat qiling va «Mabodo ziddiyat hal etilmasachi?» degan xavotirdan yiroq bo‘ling.
  4. Agar suhbatdoshingiz qattiq hayajonda yoki g‘azablanayotgan bo‘lsa, uni «sovutishga» intiling, zinxor undan baland kelishga urinmang: o‘zingiz jim bo‘lingda, undan buni talab qilmang.
  5. Suhbatdoshingizga o‘zini sizning o‘rningizga quyib ko‘rishini so‘rang, ya’ni «Agar siz mening o‘rnimda bo‘lganingizda qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?» degan savolni berib ko‘ring.
  6. Qilgan xizmatingizni haddan ziyod maqtayvermang va minnat qilmang.
  7. Ziddiyatni yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgan hamkoringizni hadeb ayblayvermang.
  8. Har qanday holatda ham o‘zaro munosabatni saqlab qolishga harakat qiling.
- O‘ylaymizki, ushbu maslahatlar sizning kelgusi faoliyatizingiz uchun zarur bo‘ladi.

### Bahslashish etiketi

Bahsning asosiy qoidasi Shundan iboratki, hatto juda qulay vaziyatlarda ham odamlarni fikrini o‘zgartirish juda qiyin masaladir. Agar o‘z qarashlaringizni boshqa birovga o‘tkazishni istasangiz, uning fikrini hurmat qiling. Hech qachon odamga

uning nohaqligini aytmang. Xato qilish ehtimolini o‘zingizda bo‘lishiga ham e’tibor bering. Bu barcha turdag'i bahslarga yakun yasaydi. Bu suhbatdoshni o‘zi ham siz kabi nohaq bo‘lishini tan olishiga imkon beradi.

Bahsni tug‘dirmaydigan Shunday tushunchalar ham mavjudki, ularni diqqat bilan eshitishga undaydi. Masalan: «*Sizni dilingizdan o‘tayotgan fikrlarga qarshi emasman, balki men ham xuddi shunday qilgan bo‘lar edim*». Bahs paytida «*Janjal bilan biron narsaga erishib bo‘lmaydi*» degan iborani eslashga harakat qilish lozim. Eng yaxshi natijaga eriShuvning yo‘llaridan biri bu – bahsdan qochishdir. Bahsdan qizishib o‘z g‘ururini erga urishni istamay, nohaqligini bilib turib ham tan olmaslik mumkin ekanligi ehtimoli bor. Bunga nisbatan o‘z fikrini aytib qo‘yishning o‘zi etarli. Balki bir oz vaqt o‘tib, hech qanday bosimning ta’sirisiz ham u to‘g‘ri xulosaga kelishi mumkin. O‘zining haqligini qaysarlik bilan isbotlash yoki bahslashish – ma’lum ma’noda zo‘ravonlik ham hisoblanadi, oqibatda, yagona kelishuvga olib kelmasligi mumkin. Anglashilmovchilikni madaniyat, munosabat, tavoze’lik va muloyimli aniqlik va sovuqqonlik hamda boshqani tushunishga harakat qilish orqali bartaraf qilish mumkin.

Bahs asosli va ishonchli bo‘lishi lozim. Bahsda asosan raqibni «**chaqib**» xafa qilish emas, balki undan qochishga harakat qilish shart. Bahsda keltirilgan asoslar mutlaqo to‘g‘ri bo‘lishi lozim. Kasbiy munozara doimo asoslar zanjirini talab qiladi. Tadqiqotchilarning gaplariga qaraganda, mantiqdan bexabar kishilarga nisbatan mantiqiy isbotlarning keltirish usullaridan boxabar kishilarni jamoatda bahsdan muvaffaqiyatli chiqib kyetishlariga imkoniyat darajasi balandroq bo‘lar ekan.

Kasbga doir bahsda o‘zni tutish uslubi doimo muloyimlik kasb yetishi zarur. Bosiq va mulozamatli odam doimo g‘olib keladi. So‘zamollik va diqqatli jimlik bilan almashishi lozim. Jizzakilik va asabiy lashishga o‘rin yo‘q. Individual bahsda asosiysi – asos, mantiq va dalillardir. Imo-ishoralar va hayqirishlarni qabul qilish mumkin emas. Cho‘zilib ketadigan bahslarda har ikkala taraf o‘zining axloqi haqida o‘ylab ko‘rishi lozim. Har holda gap bunday bahslarda singan kosa ustida ketmaydi. Janjallarga sababchi bo‘ladigan odamlar o‘zi haqida o‘ylab ko‘radigan bo‘lsa, odatda «*asablari hech narsaga yaramasligiga amin bo‘ladi*». Lekin bu degan sof vijdon bilan ochiqchasiga urishaverish kerak degani emas. Bunday odamlarga «*nima uchun men doimo asabiy lashaman?*» degan savolni o‘ziga bermoqlikka da’vat etamiz. Ko‘p holatlarda asabiy lashishning asl sababini anglab yetgandan so‘ng hayot o‘z yo‘liga tushadi. Harakat qilib ko‘rsa arziydi.

## **Tayanch tushunchalar:**

Muomala madaniyati, ohang, ovoz, tanishish, tanishtirish, salomlashish, qo‘l berib so‘rashish, mulozamat, bahslashish etiketi, murojaat, telefonda suhbatlashish, avtojavob xizmati etiketi, global tarmoq etiketi.

## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Muloqot etiketi haqidagi fikringiz.
2. Muomala madaniyatining qoidalari.
3. Tanishtirish va tanishishning qanday qoidalalarini bilasiz?
4. Murojaat qilish qoidalari haqida nimalarni bilasiz?
5. Salomlashish odobi.
6. Qo‘l berib so‘rashish zaruriyatları va qoidalari haqidagi fikringiz.
7. Ohang va ovoz.
8. Mulozamat haqida fikringiz.
9. Tanishtirish qoidalari haqida nimalarni bilasiz?
10. Baxslashish etiketi haqida nimalarni bilasiz?

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T., Ma’naviyat, 2008.
2. A.Sher. Axloqshunoslik. Darslik. - T., O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
3. Бородкин Ф.М. Внимание конфликт! - Новосибирск. 1989.
4. Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichindadir. Yangi asr avlod, - T., 2003.
5. Кричевский Р.Л. Если вы - руководитель. - Москва: Дело, 1993.
6. Максимов А. Искусство общения или ремесло общения. - М., 2006.
7. Фрейд З. Остроумые и его отношение к бессознательному. – Минск. Попурри, 1999.
8. Фрейд З. «Психология масс и анализ человеческого «Я» - СПб, Азбука классика. 2008.
9. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati. - T., Iqtisod-moliya. 2009
10. Etiket ot A do Ya. www. etiksite. ru. 11. KB.
11. Pravila etiketa. www. etiksite. org. 3 KB.

## **5-MAVZU. KIYINISH MADANIYATI**

Inson tug‘ilishidan boshlab yo‘rgaklanadi. Ammo hozirda dastlabki kunlardanoq kiyina boshlaydi. Kiyim insonning suratini emas, balki uning butun ichki dunyosini siyratini ham ko‘rsatadigan omildir. Madaniyatlilikning asosiy belgilaridan biri ham, bu – kiyinish etiketidir. Kimning qanday kiyinishiga qarab, uning estetik didi, farosati, oddiy va ma’naviy darajasini, hatto kasbini ham aniqlab olish mumkin. Kiyinish etiketi kiyinish odobi kishilarning o‘zaro muomalasiga, bir-biriga bo‘lgan munosabatiga, yurish-turishiga ham ta’sir qiladi.

Lekin kiyinish haqida aniq bir andoza mavjud emas. Kiyim uchun olinadigan turli narsalarning har biri kishining didi, bo‘y-basti, yoshi, moddiy imkoniyatlari hamda jamiyatda tutgan o‘rniga bog‘liq. Inson kerak bo‘lmagan xaridlardan o‘zini asrash uchun doimo o‘zini boshqarib turishi lozim va yangi narsalar uyingizda mavjud bo‘lgan kiyimlarning uslubiga, gazlamaning rangiga mos keladimi-yo‘qmi, uni boshqa narsalar bilan kiysa bo‘ladimi, va h.k. larga e’tibor berishi lozim.

Kiyinish shahsning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, hamma vaqt go‘zallik, uyg‘unlik, noziklik, odob, xushmuomalalik haqidagi tushuncha darajasining belgisidir.

Insonning tashqi go‘zalligi kiyim rangining bir-biriga mosligidir, tabiiyligi va soddaligidadir. Xushbichim va chiroqli kiyinishing ma’nosini nimada? Ko‘zga tashlanmaydigan hamda kishiga tabiiy go‘zallik beradigan va uning ayrim kamchiliklarini bilintirmaydigan ust-bosh, chiroqli, xushbichim, gavdaga, yoshiga va faslga mos kiyim kiyishdir.

Ammo bu faqat axloqiy tarbiya bilan bog‘liq emas. Balki estetik tarbiyaning qanday shakllaganligi bilan bog‘liq. Rivojlangan estetik did insonni nafaqat kiyinish, yashash umuman turmush tarzini go‘zallashtiradi, balki avvaldan qaysi andoza yoki qaysi ranglar rusm bo‘lishini ilg‘ash qobiliyatini paydo qiladi. Badiiy asarlar, san’at turlarini estetik idrok yetish, estetik anglashni shakllantirish didga juda yaxshi ta’sir qiladi. Bunda siz nafaqat boshqalar kabi chiroqli yashashingiz, balki o‘z uslubingizni yaratib, ularning tanloviga ta’sir qilishingiz ham mumkin.

***Erkaklar va ayollar uchun zamonaviylik.*** Kiyim ma’lum davr va ijtimoiy sharoitda kishilarning go‘zallik haqidagi qarashlari mujassamlashadigan moda – rusm bilan bog‘liq. Kishilik jamiyatni rivoji jarayonida bu qarashlar o‘zgara boradi, Shu munosabat bilan moda ham uzluksiz o‘zgarib turadi. O‘zbek xalqining milliy madaniyati, urf-odatlari asrlar davomida davr va sharoitga, jamiyat taraqqiyotiga moslashib o‘zgarib kelgan. Tarixga aylangan kiyim va liboslarni qanday kiyish urfi va qoidalari deyarli istisnoli jihatlardagina o‘z kuchini saqlab qolgan. Ammo odamlar kiyimlarni tanlashda va ixtiro qilishdan toyganlari yo‘q. Aksincha zamonaviylikka bo‘lgan talablar oldingi davrdagiga nisbatan ancha ilgarilab ketdi.

Yaxshi kiyinish o‘ziga xos san’at. Kishi bu san’atni egallashi uchun moda talablariga rioya qilibgina qolmay, o‘z didini ham taprbiyalashi kerak. Didni tarbiyalash uchun qonunlari me’yor, va o‘zaro mos tushunchalarga asoslangan san’atning barcha turlari bilan tanishib borishi lozim.

Zehn bilan tanlangan orasta libos uning egasinining didini yaxshiliginibildiradi. Ko‘ylak javoni to‘la bo‘lmasdan turib ham did bilan kiyinish mumkin. Yangi chiqqan zamonaviy libos ketidan quvish emas, balki siz uchun zarur bo‘lgan narsa haqida o‘ylab ko‘rgan ma’qul. Zamonaviy moda mato turlarining yangiligi, uning tusi bilan ham belgilanadi.

Jiddiy erkaklarga nisbatan ayollar zamonaviylik masalalarida ko‘proq qayg‘uradilar. Erkaklarga nisbatan ayollar modasi o‘zgaruvchanroqdir. Yubka va kamzullar bir kaltalashib ketsa, bir-ikki yildan so‘ng – uzunlashib ketadi. Ko‘ylakda ba’zida belni ko‘rsatib turadigan holatlari paydo bo‘lsa, ba’zida aksi bo‘ladi. Erkaklarga nisbatan matolarning rangdor tuslari va fakturasi turli-tumandir va, albatta turli xil zamonaviy ziynatlar ham ayollar uchundir. Ammo erkaklar umuman zamonaviylikdan yiroq desak noto‘g‘ri bo‘lar edi. Kuchli jins sohiblarining zamonaviylikka bo‘lgan qiziqishi – oxirgi yillar yetarli darajada salohiyatga ega.

**Oyoq kiyim qanday tanlanadi.** Jiddiy kostyumlarga to‘q jigarrang va qora rangdagi, qulay va sifatli oyoq kiyimlar mos keladi. Och jigarrang yoki jigarrang oyoq kiyimlar qora kostyumga umuman to‘g‘ri kelmaydi. Biroq qora oyoq kiyim jigarrang kostyumga mosdir. Qalin taglik, qo‘pol sportiv botinkalar tantanali chiqish uchun mo‘ljallangan kiyimlarga to‘g‘ri kelmaydi, faqatgina sportiv kiyimlar bilan yaxshi ko‘rinadi.

Ayollar kiyadigan jinsi matoli kiyimlarga baland poshnali yoki chiroyli tuflilar emas, faqat sport oyoq kiyimlar bilan yaxshi turishini bilishlari zarur. Biroq bashang shimplarga bashang oyoq kiyimlar bo‘lishi kerak.

**Ayollar haqida.** Jozibali ayol yoshi, o‘z darajasi, ma’lum holatlarga nisbatan doimo mos ravishda o‘zini tutadi va kiyinadi. Tashqi ko‘rinishda jozibalilikka erishish zamonaviylikka nisbatan zehn bilan yondaShuvdadir. Zamonaviy kiyungan ayol deganda o‘ta yorqin va qimmatbaho libos bilan o‘ziga jalb qiladigan ayol nazarda tutilmaydi ... Zero, bashanglik libosning qimmatbaholigidan emas, balki nafislik va yuksak diddan iboratdir.

Zargarlik do‘konidagi rastalarga o‘xshab, o‘zini qimmatbaho taqinchoqlarga ko‘mib tashlash kulgulilikdir. Ayolning kostyumi, uni kiya olish qobiliyati ayol kishining botiniy madaniyatiga, badiiy didning darajasiga bog‘liqdir. Bu uning iste’dodini zamonaviylikka harbiy buyruqqa kabi ko‘r-ko‘rona taqlid qilish qoidasi emas, balki xayolotni o‘yiniga turtki beruvchi shunchaki ijodiylik sifatida qabul qilishiga bog‘iqdir. Aqlli ayol o‘z tanlovingim koniyatlarini bir muncha kengaytirish maqsadida zamonaviylikdan bir oz qolib kyetishdan yoki undan o‘zib

kyetishdan qo‘rqlaydi. Va oxir oqibat u barcha mavjud imkoniyatlardan ayollik fazilatini yorqin ifodalay oladigan va illatlarini berkitadigan variantlaridan birida to‘xtaydi.

Barcha holatlarda ayollik fahm-farosatining qobiliyatini o‘sirish va uni tarbiyalash uchun modalar jurnalini doimiy ravishda kuzatib borish yetarli emas. Buning uchun badiiy ko‘rgazmalar, teatr kabi san’atga bog‘liq joylarda bo‘lib turish, ko‘chadagi turli-tuman odamlarni kuzatish, musiqa tinglash, odamlar orasida bo‘lish, xullas, ichki didni boshqalar didi bilan solishtirish va rivojlantirish zarur.

Bundan tashqari, ichki, ruhiy ayollik latofatini o‘zida rivojlantirmoq lozim. Buning uchun esa yuksak darajadagi badiiy kitoblarni o‘qishni, bolalarga hayrihohlik bilan jilmayishni, yoshlikdan uzoqlashayotgan qalbni qanday u ta’sirchan yoki qattiq bo‘lmisin, yumshatishni maslahat beramiz. Ayolga xos bo‘lgan nazokatni tabiatdan olishga harakat qiling: tabiatning rang–barang bo‘yoqlariyu, tizmali va uning ohangini ko‘ra bilishni o‘rganing. Va albatta ayol kishini muhabbat yanada go‘zallashtiradi. Hayotning ikir-chikir tashvishlariyu qiyinchiliklariga qaramasdan sevishni o‘rganing. Muhabbatsiz go‘zallik tez so‘nadi. Biz esa «*Go‘zallik dunyoni qutqaradi*» degan naqlni unutganimiz yo‘q.

Dunyoni saqlab qolish uchun doimo go‘zal bo‘lishga intiling. Bunga esa agar istasa, har qanday ayol tinimsiz o‘z ustida ishslash orqali erishishi mumkin. Agar u kunda o‘zining tabiatini tarbiyalab borsa. Agar u o‘ziga va qalbiga oz bo‘lsa ham erinchoqlikka yo‘l bermasa. Agar o‘z-o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lsa. Agar odamlarni hurmat qilishni, sevishni va ularga nisbatan rahm-shafqatli bo‘lishga o‘zini o‘rgatsa. Agar o‘z didini rivojlantirib, aqlini charxlasa. Agar yaqinlarini egovlab, ularni janjal bilan qiy namasa, o‘ziga o‘zi hadeb achinavermasa, va shikoyatchiga aylanmasa. Aynan mana shulardan keyingina ayol kishiga xos bo‘lgan latofat boshlanadi. Va hech qanday bashang liboslar uning aksini berkita olmasligini unutmang. Jizzakilik, g‘azab, surbetlik, qo‘pollik, hasad, xo‘jayinchilikka bo‘lgan ehtiros va boshqa inson gunohlarini (afsuskiy ayollarga xos bo‘lgan) qimmatbaho va yaltiroq lattalar bilan berkitib bo‘lmaydi.

*Uyda* ayniqsa ayol kishi uyda chiroyli kiyinishi lozim. Bunda rangi o‘chib ketgan, tor yoki osilib ketgan kiyimlar kiyish nojoizdir. O‘zimizga mos tarzda kiyinishimiz to‘satdan mehmonlarni kirib qolishini aytmagan holda, yaxshi kayfiyat bilan yurishga kerakdir, Ro‘zg‘or masalasini hisobga oladigan ayollar, eskirgan liboslarni yaxshi uyda kiyadigan kostyumga aylantirishlari mumkin. U nafaqat qulay, balki zamonaviy bo‘lmog‘i ham lozimdir. Ayol kishining shalviragan kiyimlarni kiyishi yoki eskirgan kiyimlarga qayta ishlov bergach, uni «*uy kiyimiga ko‘zi qiymay*» shkafga ilib qo‘yuvchilarni hech narsa bilan oqlab bo‘lmaydi.

**Bir qancha tajribadan o‘tgan maslahatlar.** O‘zimizga kiyim tanlar ekanmiz dugonalarni emas, o‘z didimizga tayanib ish tutganimiz ma’qul. Libosning rangi

nafaqat zamonaviy tusda, balki o‘ziga tushadigan rang bo‘lishi lozim. To‘q rangdagi kiyimlarni afzal ko‘rarkansiz, och rangdagilarda ham, to‘qda ham kirlik bir xil hajmga ega ekanligini yodda tutish lozim. Uning farqi faqat och rangdagi yubka ko‘zga tezroq tashlanishidadir. Kiyim tanlashda ansamblni ushslashga (birining ikkinchiga mosligi, monandligi) harakat qilish kerak. Kiyimni rangiga mos keluvchi jihatlar: sumka, tuqli, kamar va b. ni tanlashda o‘ta ideallikka erishishga harakat qilmagan ma’qul. Faqatgina bitta kiyim uchun qo‘sishmcha narsa olish – isrofgarchilik hisoblanadi.

Libosni yanada ko‘rkam qilib ko‘rsatuvchi mayda narsalar: sharf, bijuteriya va boshqa narsalar muhim hisoblanadi. Aynan libos bilan bir xil tusda bo‘lishi shart emas, bu bachkanalikni ham paydo qilish mumkin. Asosiy gap ranglarning uyg‘unligi, andozalarning mutanosibligida. Barcha davrlarda erkaklarning kiyimidan farqli o‘laroq ayollarning liboslarida odmi va jiddiylik kamroq, ularda o‘z kamchiliklarini berkitgan holda hamda o‘z afzallik jihatlarini alohida ta’kidlagan holda, o‘z didini yanada yorqinroq ifodalash mumkin. Va shu bilan bir qatorda ayollarga ozodalik va pardozning qoidalari erkaklarga nisbatan qat’iyroq qo‘yiladi.

Jozibadorlikning yana bir siri – kostyumning qulayligidir, unda u o‘zini erkin va o‘ziga nisbatan ishonch va tabiiylikni his qilish imkoniyatiga egadir. Libos tanlayotganingizda yoningizda sizni kuzatib yuruvchi erkakning ham kiyimini inobatga olgan yaxshi.

**Yodda saqlash lozim bo‘lgan bazi jihatlar:** tashqi ko‘rinishda mayda–chuyda narsalar bo‘lmaydi. Ularning hammasi ahamiyatga ega. Ziynatlar haqida bir necha so‘z. Afsuski, hamma ham kostyumini bezashda doimo taqinchoqlardan to‘g‘ri foydalana olmaydi. Ba’zilar haddan tashqari zeb–ziynatlarga ko‘milsa, ba’zilari esa o‘ta oddiyashib ketadilar. Avalambor hech qaysi ayol bu borada tejamasligi lozim, ammo ularni ko‘z–ko‘z qilish uchun chegaradan chiqib kyetish ham – «*me’yordan chiqish*» kabi didsizlikdir.

Did bilan kiyinish kishining o‘ziga tanqid bilan qaray olishini ham ifodalaydi. Inson o‘z tabiiy nuqsonlarini sezib, uni boshqalarga sezilmaydigan qilib kiyimog‘i kerak. Kiyim tanlanayotganda yoshni ham unutmaslik kerak. Yoshlar sport kiyimi bichig‘ida kiyinadilar. Ochiq rangli, guldor kiyimlar ularga ko‘proq yarashadi. O‘ttiz yoshdagi ayollar (shartli ravishda) didi modaga asos deb qabul qilingan. Bu yoshda ayol o‘z qiyofasini yaxshi bilmog‘i, husniga xusn qo‘shiladigan kiyimlarni tanlay olmog‘i lozim.

Qirq yoshdan keyin o‘tgan yillar oqibatida vujudga keladigan ayrim nuqsonlarni kiyim va pardoz bilan yashirish kerakligini unutmaslik lozim. To‘liqqina yosh ayollar juda ham odmi kiyimlar bilan kifoyalananmasliklari kerak, chunki odmi kiyim semizlik

bilan birga yoshlikni ham, latofatlikni ham yashirishi mumkin. Muhimi kiyimning shakli va rangi me'yorida bo'lsin.

Atir bo'yi ayol kishiga alohida bir latofatni beradi, uning chiroyini qandaydir sirli qadimgi ayollik nazokati bilan o'raydi. Ammo... Hamma joyda kabi bu yerda ham oshirib yubormaslik muhim. Kerak bo'lмаган joyda atirdan foydalanmaslik maqsadga muvofiq: transportga chiqqanda (agar siz u yerda tiqilinchda uzoq qolishingizni bilsangiz). Ba'zi bir iforlar kattalarda, ayniqsa, bolalarda allergiyani qo'zg'atishi mumkin. Buni yoddan chiqarmaslik lozim.

**Aksessuarlar.** Zamonaviy ayollarning kiyimlari uning hayot tarziga, yoshi va qiziqishiga mos bo'ladi. Libosni akssesuarlarlar – taqinchoqlar, sharf, bosh kiyim, sumkalar va oyoq kiyimlar «*ko'rsatadi*». Ularning turli-tumanligi mos variantlarning topilishi va uyg'unligini osonlashtiradi. Did bilan tanlangan jihozlar uning zamonaviy, bashang ko'rsatishga imkon berib, uning uslubini ta'kidlab turadi. Shubhasiz, tabiiylik va go'zallik doimo va bundan keyin ham eng zo'r bezak bo'lib qoladi. Ammo ayollik latofatini uning soch turmag'i va oyoq kiyiming o'zi ham baholaydi. Misol uchun, yeilib ketgan poshna – bashanglikning dushmanidir.

Yirik, ko'zga tashlanadigan aksessuarlar, katta sumkalar, kostyumning yirik ziynatlari, silliq va yorqin rangdagi kalta, yirik kashtalar, katta hajmdagi bosh kiyimlar – bu faqat yirik, «*qalin suyak*» ayollargadir. Sarvqomat, o'rta bo'ylik ayollar bunday xunuklashtiradigan narsalardan chetlab o'tgani ma'qul. Bu uni bachkalanishtirishi mumkin.

Kumushdan yasalgan ziynatlar, garchi ularda yarim-qimmatbaho toshlar bo'lsa ham, bashang zeb-ziynatlar hisoblanmaydi, agar ular zargarlik san'atining durdonasi bo'lsa, unda bu istisno. Bunday holatda ziynatni norasmiy yoki «uy» kiyimiga moslab tutish mumkin. Kumushdan yasalgan zargarlik buyumiga tog' billurining shaffof yoki tuslisi qo'yilgan bo'lsa, unda faqat rasmiy sharoitda tutib yurish mumkin. Bu qoida oltin yoki uning suvi yugrizilgan ziynatlarga taalluqli.

Kumush bilan oltin ziynatlarini baravar taqish mumkin, agar ular did va farosat bilan uyg'unlashgan bo'lsa. Masalan, oltin va kumush zanjirlar to'q rangdagi libosni go'zallashtirish mumkin, lekin kumush shodalar bilan oltin bilakuzuk taqish nojoizdir. Ziynatlar to'plami odatda sovg'a tarzida tuhfa qilinadi. Ular o'zida shodalar bilan uzukka qo'shib unga mos bo'lган rusmdagi bilakuzuk yoki uzukni taqozo etadi. Ularni birvarakay barchasini taqib olish didsizlikdan dalolat beradi. Muhimi ularning ko'pligi emas, balki sizni «ochishidir». Bunday ziynatlarni taqsimab ishlatgan ma'qul. Bo'yin shodasini uzuk bilan, ziraklarni bilakuzuk bilan taqing. Ular bilan siz nikoh uzugina taqib olishingiz mumkin. Agar ikki yoki uch uzukni taqib yurilsa bu didsizlik hisoblanadi.

Zamonaviylik doimo o'zgarib turadi, shu sababli uning injiqlariga qaramasdan bir qoidani yodda tutish lozim – hamisha oshirib yuborishdan saqlanish. Zero, kiyim

va ziynatlarda me'yorni saqlay olmaydigan odamdan ko'ra bir oz oddiyroq ko'ringan yaxshiroqdir. Ijodkor-modeler doimo sarvqomat, go'zal va yosh ayollarga mo'ljallab liboslar o'ylab topishini unutmangiz. Bunga isbot tariqasida moda jurnallarining sahifalarini keltirish mumkin.

Yoshi o'tgan, to'lishgan yoki semiz ayolning o'n sakkiz yoshli qizlarga o'xshab kiyinishga harakat qilishidek ayanchli holat yo'q. Oynaga qarar ekansiz o'zingizga nisbatan ob'ektivlilik bilan, o'zingiz istagan obrazning ilk shaklini talab qilgan holda baholash joiz. Bunda o'zini har tomondan diqqat bilan kuzatib chiqib, tanqidiy jihatdan yondashishga harakat qilmoq kerak. Qarshingizda turgan «notanish ayol» sizga yoqayotgan bo'lsa, demak tayyorsiz. Aks holda, hammasini boshqatdan boshlagan ma'qul.

**Pardoz.** Azal–azaldan ayollar o'zlarining ko'rinishlaridan ham ko'r kamroq bo'lishga intilib kelganlar, Shunda ular bu maqsad yo'lida turli xil usullardan foydalanishni boshlaganlar. Hozirgi davrda turli kosmetik mahsulotlarning butun bir aslahalariga egamiz. Ammo ularni qo'llash zamonaviy ayol uchun birdan-bir maqsadga ega bo'lib qolmasligi, aksincha, uning uslubini ta'kidlovchi hamda individuallikni namoyon qiluvchi vosita sifatida ish ko'rsatishi lozim.

Kosmetikadan foydalanish yuzni o'zgartirishni emas, balki uning ba'zi bir chiroyli jihatlarini ta'kidlashni taqozo etadi. Bo'yanishni ko'paytirish hoh u o'n besh yasharlik qiz bola, hoh o'ttiz yoshlardagi ayol bo'lsin – barchaning yoshini katta qilib ko'rsatadi. Ma'lum bir yoshga etgach ayollar pardozni kamaytirib, unchalik yorqin bo'lman ranglarga o'tishga harakat qilishlari maqsadga muvofiq. Kunduzgi pardoz kechki pardozga nisbatan tussizroq bo'lishni yodda tutish kerak.

Qo'llarga kelsak, ular – bizinng «tashrif qog'ozimiz», desak mubolag'a bo'lmaydi Qo'llarni parvarishda nafaqat ayollar, balki erkaklar ham avvalo tozalik va ozodalik nuqtai nazardan diqqatlilik bilan munosabatda bo'lishlari kerak. Lakning rangi lab bo'yog'i bilan uyg'un bo'lmog'i lozim. Lak qoldiqlari bilan yurishga yo'l qo'ymaslik hamda tirnoq lakini tozalash vositalardan foydalanishni unutmaslik joiz.

**Tantanali kechalarda ayollar.** Eng yaxshi tanlov – ko'ylak, kostyum, yoki yubka. U har qanday vaqtda, har qanday jamoatchilikka to'g'ri kelaveradi. Agar kostyum to'q tusda va hech bir koftasiz kiyilishi mumkin tarzda andozalangan bo'lsa, unga mos tarzda e'tiborni tortadigan zamonaviy taqinchoqlar bilan bezatilsa, unda bu libosni ko'ngilochar kechalarga ham kiysa bo'ladi.

Kokteyl libosi nomli ko'ylaklarni bayram kechalarida kiyish mumkin. Uni kechqurun yoshlar kechalarida yoki restoranlar uchun kiyish mumkin. Kechki uzun ko'ylaklar faqat dabbabali vaziyatlar uchun mo'ljallangani durust. Nisbatan odmiroq bo'lgan kechki libos, o'ta diqqatni o'ziga jalb qiluvchi kiyimlardan yaxshiroqdir, ayniqsa, qiz bolalar uchun.

**Soch turmagি.** Insonning eng go‘zal va eng tabiiy ziynati bu – sochlardir. Sochimizning chiroyi hamda salomatligi doimo berib qo‘yilmaganligini yoddan chiqarmasligimiz zarurdir. Sochlarni chiroyli va e’tiborga tortarlik ko‘rinishga ega bo‘lishi uchun biz ularni har kuni parvarish qilishimiz lozim. Ayol kishi o‘ta zamonaviy kiyingan, qimmatbaho taqinchoqlarga burkangan, yuz–qo‘llari go‘zal ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin, ammo sochlarning ko‘rinishi aytarli darajada yaxshi bo‘lmasa – oxir-oqibat u istalgandek baribir hech bashanglik kasb etmaydi.

Zamonaviy kosmetik ashyolar sochni sog‘lom ravishda parvarishlashga ulkan va boy imkoniyatlar yaratdi. Masalan, kalta sochlarni uzunga nisbatan ko‘proq e’tiborni talab qiladi. Bo‘yalgan sochlarni ham xuddi shunga o‘xshash talabga ega. Sochlarni to‘liq bo‘yadigan (och rangni to‘q tusga va to‘q rangni och tusga) ayollar, sochlarning holatiga diqqatli bo‘lish kerakligini unutmasliklari lozim, chunki tez o‘sadigan sochlarning tubi ko‘rinib xunuk ko‘rinish kasb qiladi.

**Erkaklar haqida.** Erkak kishining asosiy kiyimi – kostyum. Biroq doimo unda erkak kishi bashang ko‘rinavermaydi. Kostyum jussa o‘lchovlariga to‘g‘ri kelishi lozim, harakatlarni cheklab siqmasligi, yurganda xalaqit bermasligi, odmi rangda bo‘lishi kerak. Ko‘ylak, bo‘yinbog‘ va paypoq tanlashda ham diqqatli bo‘lish lozim. Bularning hammasi, oyoq kiyimni istisno qilmagan holda yoshingiz, sharoit va boshqa ma’lum bir holatga monand bo‘lishi zarur. Erkaklar bashang bo‘lib tug‘ilmaydilar. Bu avvalambor tarbiya va o‘z-o‘zni tarbiyalashdir. Bu kuzatuvchanlikdir. Bashang erkaklar kerakli darajada doimo batartibdirlar. U barcha tafsilotlarda diqqatlik va o‘tkir zehn egasidir.

### Bir qancha aniq maslahatlar:

- Alovida kiyimning qismlari bir-biriga uyg‘un bo‘lishi kerak.
- Sport kiyimlariga laklangan tuqli yoki galstuklar to‘g‘ri kelmaydi.
- Bayramda kiyiladigan ohorlik to‘q qora kostyum-shimni oq ko‘ylak, qora paypoq va qora tuqli bilan kiyiladi.
- Tashqi ko‘krak cho‘ntakdan oq dastro‘molning uchi chiqib turishi maqsadga muvofiq. Kombinatsiyalashgan kostyum bilan (kul rang chiviq-chiviq shim, qora ustki kiyim) ikkita manjetli oq ko‘ylak (manjetlar va yoqa kraxmallangan bo‘lishi lozim), kul rang galstuk, qora tuqli va to‘q paypoqlar bilan kiyiladi.
- Zamonaviy va qimmatbaho kiyimni o‘ziyetarli emas – bunga qo‘shimcha tarzda o‘zining yurishi va gavdasini tutishini doimo kuzatib yurish zarurdir.
- Yelkangizni doimo erkin tarzda, bo‘yningiz va boshingizni cho‘zmasdan tutganiz ma’qul. Bunda gavda va bo‘yin doimo to‘g‘ri bo‘lgani kishini yana ko‘rkam ko‘rsatadi. *Vigorlilik bilan o‘zni tutish, harakat va holatlardagi*

*tabiiylik har bir insonga zeb beradi va albatta, bashang ko‘rinishni istagan erkaklar uchun bu zarurdir.*

Shu sababli bunday maqsadga erishish yo‘li – bu sport bilan shug‘ullanishdir. Ertalabki jismoniy tarbiyaga erinchoqlik qilmaslik lozim. Ko‘proq harakatda bo‘lish zarur: yugurish, suzish, uzoq yo‘llarga chiqish, sport o‘yinlarini o‘ynash. Bunday holatda biz maxsus zo‘riqishlarsiz ham to‘g‘ri, tabiiy va chiroyli harakatlar qila olishga erishishimiz mumkin.

Biroq hattoki ideal darajadagi sportcha gavdada ham suhbat chog‘ida tavsiya etilmaydigan qoidalar mavjud:

- oyoqlarni chalishtirish;
- qimirlatish;
- tanishining tugmachalarida ushlab turish;
- qo‘lini kissasiga solib olish;
- o‘tirganda oyoqni yoyib olmoq;
- o‘rindiqqa cho‘zilib olish;
- o‘rindiqni u yoqdan bu yoqqa qimirlatib o‘tirish tavsiya etilmaydi.

**Bo‘yinbog‘ haqida.** Bo‘ynibog‘ doimo egasining didini aks ettirib kelgan. Umuman olganda, sport kiyimi yoki kostyum-shim bilan kiyish uchun ipak yoki sun’iy ipakdan bo‘lgan yoki sun’iy toladan hamda bir-ikkita jun matoli bo‘yinbog‘lar xarid qilib olish lozim. Bo‘yinbog‘ni tanlash kostyum fasoni va matosining rangi, rasmiga bog‘liq. Jiddiy kostyumga tabiiy hamda sun’iy ipakdan bo‘lgan bo‘yinbog‘lar to‘g‘ri keladi.

Kapalaksifat bo‘yinbog‘lar alohida vaziyatlar uchun mo‘ljallangan. Ular odmi va nafis tusda bo‘lishlari lozim. Mayda rasmli kostyumga har qanday bo‘yinbog‘ bo‘laveradi. Olachipor kostyumga bir tusdagi bo‘yinbog‘ mos tushsa yaxshiroq bo‘ladi. Ammo bunda ikkita qoidaga amal qilish lozim: yo bo‘yinbog‘ni tanlayotganda uni kostyum rangi bilan bir tusda, ammo sal ochroq yoki sal to‘qroq bo‘lishiga harakat qilish kerak. Chunki bu bilan ular bir-birini to‘ldirib turadi, yoki kostyum va bo‘yinbog‘ bir-biriga qarama-qarshi tusda (albatta, uyg‘unlashgan holda) bo‘lishi lozim. Lekin bundan qarama-qarshilik alohidalik kasb etmog‘i joiz.

**Dastro‘mol.** *Erkaklarga o‘zлari bilan ikkita dastro‘mol olib yurishni tavsiya etamiz:biri* – ustki kiyim yoki shim cho‘tagida, uni kerakli bo‘lganda o‘zi uchun ishlatiladi (ishlatib bo‘lgandan keyin g‘ijimlab tashlamang), ikkinchisi – mutlaqo tozasi – ustki kiyimning ichki cho‘ntagida, maxsus holatlar uchun (ko‘zoynakni artish uchun, bola yoki ayol kishiga kerak bo‘lib qolgan taqdirda berish uchun va h. k.). Bu ikkinchi dastro‘molni ustki kiyimning tashqi cho‘ntagida, sal uchini chiqargan holda olib yurish ham mumkin. Dastro‘molni dazmollangan holda shim cho‘ntagi yoki sumkada saqlash kerak. Aksirgandan so‘ng uni qoqib o‘tirish nojoiz, darrov olib qo‘yish lozim.

Erkakni kostyumini yoki ayolni nafis bezaydigan dastro‘mol – boshqa narsa. Erkaklarnikidan kichikroq bo‘lgan bu dastro‘mol jamoatda ko‘z-ko‘z bo‘lishga arziyi. Erkaklarning oq rangdagi dastro‘moli ustki kiyimning cho‘ntagida bir-ikki santimetr, yoki uchburchak shaklida chiqarib qo‘yiladi.

**Erkaklar kiyimi.** Kishining madaniyatini birinchi navbatda uning kiyimi ta’kidlab turadi. Did bilan tanlangan kiyim va orasta ko‘rinish odamni o‘ziga nisbatan ishonchli, batartib, tetik va oxir-oqibat atrofdagilarda yoqimli taassurot uyg‘otadi.

Hammasidan ham har bir erkak kishi kundalik kiyish uchun ko‘zga u darjada tashlanmaydigan, kostyum-shim va yana nisbatan jiddiyroq to‘q kul rang yoki to‘q ko‘k va qora tusdagi kostyum-shimlarni maxsus kechalar hamda mehmondorchiliklar uchun mo‘ljallangan garderobga ega bo‘lishi lozim. Agar bu ikki kostyumi mohirlik bilan bir-biriga uyg‘un bo‘lgan tusdagi ranglarda tanlab olinsa, unda ularni birini biriga moslashtirgan holda kiyib yurish mumkin.

Bundan tashqari bu ikki kostyumga sportiv turdag'i kombinatsiyalashgan kostyumi ham qo‘shib to‘ldirish mumkin. Bunday turdag'i kostyumi ishga kiyish urf bo‘la boshlamoqda. U bezak va ranglar bilan bir-biridan farq qiluvchi shim va ustki kiyimdan borat bu kostyum, uyg‘un va mos bo‘lgan holda bir-birini to‘ldirishi lozim. Masalan, mayda katakli kostyumga shim, mayda katakli shimga esa bir tusdagi ustki kiyim ko‘proq mos keladi. Sportiv usulni xush ko‘radigan erkakalarga kiyinishda bir qancha qulaylik mavjud: oq yoki rangli ko‘ylaklar bilan bir qatorda ular sportiv yoki mayda va nafis to‘qilgan ko‘ylaklarni ham kiyib yurishlari mumkin.

Yilning issiq kunlari uchun mo‘ljallangan yengil chitdan yoki sun’iy ipdan tikilgan kostyumlar erkaklarning kiyimlar javonida doimiy avtributga aylandi. Bunday turdag'i kostyumlarning matosining rangi bir xil yoki turli tusdagi rasmlari bilan och va to‘q tuslarda bo‘lishi mumkin – bu sizda mavjud bo‘lgan ko‘ylaklarga va unga mos tarzda uyg‘unlikni vujudga keltiradigan oyoq kiyimlarga bog‘liq. Shimni xarid qilayotgan vaqtda uning qanchalik sizning kostyumingiz, ustki kiyimlaringiz va ko‘ylaklaringizga mos kelishini nazardan chetda qoldirmaslik joiz. Vilvet shimga qalin yoki jun matodan ko‘ylaklar mos keladi (agar uning egasi to‘laroq bo‘lmasa).

Ammo orastalik birinchi o‘rinda – har qanday zo‘r bashang ko‘rinishni cho‘ntakdan chiqqan kir ro‘molcha bir pul qiladi. Sochlar doimo toza bo‘lishi va tiniq ko‘rinish kasb yetishi lozim. Erkaklar kunda soqolini olib turishi, kerak bo‘lsa, kechqurun mehmonga borish uchun to‘q kostyum kiygan bo‘lsa ham ikki martadan olishga to‘g‘ri keladi. Eng ahamiyatlisi, nafaqat ozoda bo‘lishi, balki kuyelagi tikilgan, dazmollangan bo‘lishi ham shart. Oyoq kiyimlarni hatto yomg‘ir kunlari ham tozalab chiqish kerak, zero, ular gohida egasini holatini «sotib» turadi.

Zamonaviylik unga asosiy xususiyatlarda individual tarzda moslaShuvni taqozo etadi. Aslida hech qanday moda xunuk yoki chiroyli bo‘lmaydi, u doimiy mezonga ega emas. Kecha qabul qilinmagan narsa, bugun tabiiy ko‘rinishi mumkin. Tabiatning

shu xususiyati tufayli biz ba’zida ko‘rinishimizni yangilab turish imkoniyatiga egamiz.

Yangi chiqqan zamonaviy liboslarga moslashish odatda sal qiyinroq kechadi. Deyarli hamma vaqt ko‘pchilikni hayratga soladi. Tajribadan shuni bilamizki, bir yildan so‘ng yangi chiqqan rusm bizga o‘z hukmini o‘tkazadi, keyin esa xuddi shu uslubga moslashib olgandan so‘ng, undan voz kechishdan bosh tortamiz. Zamonaviy narsalar odatda ayollar uchun uch yil, erkaklar uchun besh yil xizmat qiladi. Eski modani «ushlab» turishga intilib, yangisi bilan kurashishni to‘xtatgan ma’qul.

Zamonaviy narsani sotib olib, uni «ayash uchun» kamdan-kam ishlatib, shkafga qo‘yib qo‘yan odam qattiq adashadi. Ba’zida bunday narsalarni eski sarqit sifatida olib tashlashga to‘g‘ri kelib qoladi.

Rusm (moda) me’yor hisini, davr talabi, did va yoshga e’tiborni talab qiladi. Shunday odamlar borki, ular tezda zamonaviylikning ba’zi unsurlarini ilib oladi, boshqalarga esa «*maxsus moslaShuv jarayoni*» kerak. Bunda o‘zgaruvchan davrda tezda moslashib olganlar ularning asabiga tega boshlaydi. Bundaylarga bir oz sabrli bo‘lishni maslahat beramiz. A.Navoiyning “Mahbubul qulub” asarida “*O‘ziga bino qo‘yan odam – aqlsizdir, o‘ziga zeb bergen – beor , satangdir ...*”<sup>19</sup> deydi.

Zamonaviy kiyinish bilan bizni g‘ashimizga tekkan odam o‘rnakka arziydagani oila a’zosi va yaxshi odam bo‘lib chiqishi mumkin. Biz ham vaqt kelib, Shunday kiyinoshimiz mumkin.

Bashang zamonaviy qiyofa ko‘r-ko‘rona, modaning qulini qabul qilmaydi. Har qanday fasondagi ko‘ylak ham odamga yarashavermasligi mumkin. Ammo zamonaviylikning doirasi kengdir. Yoshi kattalar, yoshlari, to‘liqroq odamlar, ozg‘in, bo‘yi pastlar va balandlar uchun fasonlar mavjud. Bashang va zamonaviy kiyinish san’ati zamonaviylikning asosiy talablarini o‘ziga qo‘llay olish va ko‘proq mos keladiganlarini tanlab olishdan iboratdir.

Ammo bir narsani inobatga olish zarur. Bu moliyaviy imkoniyatni hisobga olish. To‘g‘ri hozirda hatto do‘konlarda ham sotuvchilar kiyimizga qarab xizmat ko‘rsatadi. Ammo kiyimni to‘g‘ri tanlash va kiyish bu muammoni hal qiladi. Estetik did bilan tanlangan u yoki bu libos nafaqat rusmga mos bo‘lishi, balki yangi rusmni vujudga keltirishi ham mumkin. Sizni yuqori darajadagi didingiz odamlar yoqqani sababli, ularni siz kabi kiyinoshga undashi mumkin. Kiyimingiz zamonaviymi yo‘qmi, bu faqat sizni didingiz darajasini ko‘rsatishini unutmaslik lozim. Buyuk olmon faylasufi Immanuel Kant qiynalgan vaqtlarida «men buyumlarni o‘zimga bo‘ysundirdim, o‘zimni ularga emas» deb e’tirof etadi<sup>20</sup>.

<sup>19</sup>Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2011. – 428 b.

<sup>20</sup> Гулыга А. Кант. Молод г-я.-М; 1981. Стр.68.

Sport maqsadida yo‘lga chiqishdan boshqa, deyarli hamma yerga ustki kiyim lozim. O‘zga tabiiy matodan qilingan kostyum yaxshi. O‘z yaqinlarigiz qabulida bo‘lganiningizda ustki kiyimingizni yechishni so‘rab, olib qo‘yishingiz mumkin, boshqa paytlarda uy egasini taklifini kutmoq afzal.

Kostyumga bo‘yinbog‘ zarur. U faqat rangli va sport ko‘ylaklariga nisbatan zaruriyat tug‘dirmaydi.

**Rasmiy holatlarda ustki kiyimning tugmalari qadalgan bo‘ladi.** Bunday holatlarda siz tanishlaringiz kvartirasiga, restoranlarga (ayniqsa ayollar oldida), majlislar xonasiga, teatrga kirishinigiz mumkin. Bunday tashqari tugmalarni prezidium stolida o‘tirganigizda va doklad bilan chiqish qilganingizda qadalgani lozim. Raqsga tushganingizda ham xuddi Shu holat uushlab turish maqsadga muvofiq.

*Qadalmagan tugmalar bilan siz o‘rindiqda teatr tomosha qilayotgan yoki kechki ovqat dasturxoni oldida o‘tirishingiz mumkin.* Ustki kiyimning eng quyi qismidagi tugma hech qachon qadalmaydi. Dissertatsiya himoyasi uchun kandidat to‘q kostyum kiyishi lozim. Uyda xalat va pijama faqatgina ertalab yoki kechqurun vannaga kirish uchun kiyiladi. Boshqa paytlarda to‘liq, batartib va qulay kiyinish lozim.

*Uyda* odatga ko‘ra erkaklar trikotaj mahsulotlaridan bo‘lgan sport kiyimlar yoki jinsi kiyadilar. Agar kvartira bo‘ylab yurgan erkakning kiyimi bir oz eskiroq, shimidagi naqshlar rangdor va ajoyib bo‘lsa, buning qo‘rqinchli joyi yo‘q. Hatto yaxshi ko‘rinadi. Asosiysi, eskirgan bo‘lsa ham ularni vaqtida yuvishga tashlab, tugmalarini mustahkam va dazmollangan holda tutish lozim.

Agar mehmon sizni pijamada ko‘rsa, ustingizga xalat tashlab olgan ma’qul. Xuddi shu narsani o‘zgalarning uyida yoki dam olish maskanida yashaganingizda qiling. Erkaklarda kabi ayollarning ham shippaklari toza va pachoqlanmagan bo‘lishi lozim.

Taklif qilingan mehmonlar hech qachon shippakda kutib olinmaydi, garchi uy egasi har safar yangi libosda chiqishi shart bo‘lmasa ham. Ayniqsa mehmon oddiy ko‘ylakda kelgan bo‘lsa.

Erkaklar uchun ko‘ngilochar kechalarda mo‘ljallangan ayollardagi kabi bunday darajada ta’sirchan kostyumni hali moda o‘ylab topmagan. Ammo nima qilsa ham mayda katakli ko‘ylak yoki to‘qilgan sviter bilan birga jinsi shim to‘g‘ri kelmaydi. Bunday kiyim faqat kundalik kiyinishga mos. Mehmonlarni qabuli uchun och tusdagি shim va ko‘ylak kiyib olgan ma’qul. U haddan tashqari ola-bula yoki odmi bo‘lishi zarur emas. To‘q rangdagi ko‘ylak haddan tashqari oddiy ko‘rinadi. Och rangdagi ko‘ylak ozodalik va yangilik kabi yoqimli hislarni uyg‘otadi.

Kiyim tanlash etiketi talablarida dam olish maskanlari va dala hovlilarda o‘tkaziladigan mehnat ta’tili, qishki yoki yozgi ta’tilda kiyiladigan kiyimlarni

kiyishda katta erkinlik beriladi. Bunda uydagi ilqliknii hamda shinamlik hissini uyg‘otadigan to‘qilgan, yumshoq, issiq va momiq kiyimlar kiyish mumkin.

So‘nggi yilning so‘nggi kunidagi yuqori kayfiyat sizning kiyimingizda aks ko‘rinadi. Yangi yilni siz yaqin do‘srlaringiz bilan nishonlaysizmi, yoki ularning uylarida, restoranda yo kafeda – yangi yil ziynatlari kundalik pardozlardan o‘zini yorqinligi bilan ajralib turishi lozim. Yangi yil kechasining o‘zgacha tarovatini faqatgina shu kun uchun mo‘ljallangan libosingizga yana yorqinlik ato eta oladigan ajabtovur ziynatlar va detallar bilan bezatish evaziga yanada kuchaytirishingiz mumkin.

Kiyimning o‘zi shunchaki chiroyli bo‘la olmaydi. Uning nafosati qayerga – ishxonaga, uyga, bayramga, shahardan tashqariga sayr uchun mo‘ljallanganiga bog‘liq. Bashang kiyim faqat qaddi-qomati kelishgan, yaxshi fazilatlarga va chiroyli nutqqa ega odam bilan «*chiqishadi*».

**Erkaklar – tantanali kechalarda.** To‘q tusdagi kostyumni – bir bortlik yoki ikki bortlik kiygan yaxshiroq. Rasmiy dabdabali uchrashuvlar yoki davlat miqyosidagi qabullarga odatda aynan shunday tusdagi kostyum kiyiladi. Faqatgina kechki chiqishlar uchun xizmat qiladigan frak va smoking hali bizda rusm bo‘lgani yo‘q. Diplomat qabullarida yokitantanali kechalarda kombinatsiyalashgan kostyum yoki fraklar kiygan odamlarni hali ham uchratish mumkin. Shunga qaramasdan, bunday kostyum va uning atributiga qo‘yilgan qat’iy talablar ham mavjudiligini unutmaslik lozim.

Diplomatlar, savdo uyushmalarining xodimlari hamda madaniy, iqtisodiy va ilmiy xususiyat kasb etgan xalqaro yirik uchrashuv qatnashchilari bunday turdagи kiyinislarni farqiga borishlari bilan birga ayni paytdagi talablarga oson ko‘nikishlari lozim. Tashrif kostyumi ila nomlanadigan kiyimni kunduzgi qabullar uchun, universitetdagи va ilmiy muassasalardagi dabdabali majlislar uchun xizmat qiladi. Frak hamda smoking agar taklifnomada kechki kostyum deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, kiyiladi. Bunday vaziyatlarda doimo frak yoki smoking nazarda tutiladi. Etiket bo‘yicha agar «*kichik kechki libos*» deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, unda smokingda, agar smoking bo‘lmasa, kombinatsiyalashgan kostyum kiyib borish ma’qul, ammo zinxor frakda bormagan ma’qul. Bugungi kunda bu bizda hali urf bo‘lmagan.

**Qaddi-qomatni tutish va chiroyli yurish.** Kiyimning orastaligi va ko‘rkamligi faqatgina kiyimning o‘ziga bog‘liq emas. Bunda qaddi-qomat katta ahamiyat kasb etadi. Insonning turishi, yurishi, o‘tirishidan qo‘l va oyoqlarining vaziyatidan uning atrofdagilarga bo‘lgan izzat-hurmatini yoki hurmatsizligini bilish mumkin. Gavdaning har bir vaziyatida baodoblik, tabiiy erkinlik ko‘rinib turishi va bu vaziyat Shu sharoitga zid bo‘lmasligi lozim. Hech kim yo‘qligida o‘zingizga yo‘l qo‘yishingiz mumkin bo‘lgan harakatlar boshqalar oldida joiz bo‘lmaydi.

Eng go‘zal chehra, kelishgan qaddi-qomat yoki chiroyli, nafis kiyim ham, agar yurish-turishga mos tushmasa, kishida hech qanday taassurot qoldirmaydi.

Inson hamma vaqt go‘zallikka va tartibga intilgan, shuning uchun ham avloddan-avlodga o‘tib kelgan va odatga aylanib qolgan udumlar hamda har bir xalqning an’analarida ajoyib tarzda o‘z ifodasini topgan. Yaxshilikka, go‘zallikka intilish insonga xos xislatdir, insonning xushmuomala va odobli bo‘lishga intilganligi bu oddiy holdir.

Insonda hamma narsa go‘zal bo‘lishi kerak. Uning tashqi ko‘rinishi, ichki qiyofasi, yurish-turishi ham go‘zal bo‘lishi lozim. Kishining samimiylar va sof bo‘lishi bilan birga chiroyli yurishi, qaddi-qomatini adl tutishi, chiroyli gapira olishi, erkin hatti-harakat qilishi yaxshi odat natijasidir. Atrofingizga qarang, siz odamlarning qanday yurishini ko‘rasiz: biri bukchayib, boshqasining qo‘llari osilib yuribdi, narigisini oyog‘i qiyshayib qadab bosadi, yana biri maneken ayollarga o‘xshab yoniga tashlab yuribdi. Ba’zilar, cho‘ntaklarga qo‘lini solib, olomonni yorib o‘tishga harakat qiladi. Har biri – «o‘zicha olam». Agar har bir kishi oynaga qarab o‘zini boshqalar oldida qanday yurishini ko‘rganda edi!

Har bir odamning yurishi uning xususiyatini keltirib chiqaradi: ba’zida esa bu kostyumga ham bog‘liqdir. Bo‘yi past to‘liq odamning yurishi boshqa, ozg‘in va uzun bo‘ylik – boshqa. Agar qiz bolaning oyog‘ida baland poshnali tufli-yu, kalta yubka bo‘lsa unda bir yurish uslubi, krossovka va djinsida esa – boshqacha ko‘rinadi.

Yurish o‘ta tabiiy bo‘lishi lozim. Ko‘chada boshni ko‘tarib yurish mumkin. Ammo bunda qo‘llarni harakati tashlanayotgan qadamning ritmiga mos bo‘lishi kerak: qo‘li osilib turishi va ularni u yoqdan buyoqqa marsh harakatiga o‘xshab tashlab yurish kerak emas. Yurayotganda oyoqni shunday qo‘yish kerakki, unda oyoqning uchi va tovoni bir tekis harakatga mos ravishda yo‘naltirilgan: oyoqni uchini sal ichkariga qiyshaytiribroq qo‘yish lozim. Oyoqlari qiyshiq odam qadamni to‘g‘ri qo‘yishga doimo e’tibor berishi kerak.

Agar siz sheringiz bilan ayniqsa, qo‘l ushlashib ketayotgan bo‘lsangiz, yoningizdagagi odamning qadam tashlashiga moslashib yurishga intiling. Agar ayol kishining yubkasi torroq bo‘lsa, unda qadamni maydalashtirib yuradi, erkak kishi esa, katta qadam tashlashiga qaramasdan, u bilan baravar yurishga harakat qilishi lozim.

Har bir odamning qo‘llari bor, ammo ba’zida ularni qayerga berkitishni bilmay qolamiz! Axir har doimo qo‘limizda sigaret yoki boshqa narsalarni ushlab turolmaymiz, qo‘lni kissaga solib turish esa odobsizlik sanaladi. Qo‘llarni har zamonda faqat paltoning cho‘ntagiga solish mumkin. Suhbatda esa fikringizni tasdiqlash uchun qo‘llanadigan harakatlardan tashqari, umuman, qo‘l ishlatilmaydi. Turib gaplashish ko‘pchilik uchun azobni o‘zginasi. Ayniqsa, agar qo‘llarida hech narsa bo‘lmasa. Ba’zilar qo‘llarini bellariga qo‘yadilar yoki chalishtiradilar, axir ularni bir nima qilish kerak-ku! Turgan bo‘lsangiz imkon qadar o‘zingizni to‘g‘ri

tuting, bukchayib olmang. Bunda stul yoki o‘rindiqqa tayangan yohud o‘ziga tayanch uchun biron narsa topgan ma’qul.

Lapanglab, bo‘sashib, chayqalib va bedana yurishdan saqlaning. Zarurat bo‘lmasa, zinapoyalarni tashlab – tashlab sakrab chiqmang. Qo‘llarni haddan tashqari siltab, yelkalarni tebratib yuradigan ayollar ham, erkaklar ham juda xunuk ko‘rinadi. Yurganda va bir joyda turganda boshni ichga olish yaxshi emas.

Gavdani to‘g‘ri tutib, yengil va ravon qadam tashlab yurish chiroyli ko‘rinadi. Qo‘llar oyoqlar bilan bir maromda harakatlanishi lozim. Ularni bo‘shgina osiltirib qo‘yish ham, haddan tashqari siltash ham yaramaydi. Yurganda oyoqlarning kafti bir-biriga paralel, panjalar esa salgina tashqariga kerilgan bo‘lishi lozim.

Sport poyafzali va sport kiyimidagi ayollarga qaraganda baland poshnali poyafzal va yubka kiygan ayollar yengilroq va rovonroq yuradi. Ba’zi qizlar, shim kiyib olib har qanday yurish va turish mumkin, deb o‘ylashadi. Ammo shalpayib yurish hech qachon va hech kimga go‘zallik bag‘ishlagan emas.

**Qo‘llar.** Ko‘pchilik o‘z qo‘llarini qanday tutishni bilishmaydi. Biror narsani yulish, barmoqlar bilan stol yoki stulni taqillatish, bosh yoki qulqoni qashish, qo‘lni qarsillatish, jag‘ni, peshonani yoki burunni ishqalash, tirnoqlarga hadeb qarayverish kabi odatlarni tashlab, bo‘sh qo‘llarni o‘z joyida tutish kerak. Ovqatlanish vaqtida qo‘l kaftlari stolda turadi. Boshqa inson bilan muloqotga kirishganda mumkin qadar qo‘l bilan turli imo-ishoralar qilmaslik kerak.

Kundalik turmishimizda so‘zlar va tushunchalarni ta’kidlash uchun ba’zidagina qo‘lni harakatlantirish mumkin. Masalan, “*Marhamat o‘tiring*”, “*marhamat tanishing*”, “*Siz bilan tanishtirsam maylimi?*” kabi tushunchalarni qo‘llash mumkin.

Rus xalqida shunday maqol bor: “O‘ng qo‘l – o‘ng qo‘l, chap qo‘l - yurak”<sup>21</sup>. Ayrim xalqlarda, masalan tojiklarda qo‘l berib so‘rashganda ikki qo‘li bilan so‘rashadi. Chunki bitta qo‘l bergenida hurmatsizlik belgisi hisoblanadi. Shuning uchun hurmat yuzasidan ikki qo‘l bilan so‘rashishadi<sup>22</sup>.

Suhbat vaqtida og‘izni qo‘l bilan berkitish, suhbatdoshning yelkasini qoqib qo‘yish, uning kiyim tugmasiga tegaverish, yengidan ushlab turish, qo‘l yoki tirsak bilan turtish odobsizlik hisoblanadi. Biror tanish kishining qiyshaygan yoqasini tuzatib qo‘yishda, kiyimiga yopishgan ip yoki qilni olib tashlashda ham undan ijozat so‘raladi.

Biror narsani qo‘lni nayza qilib ko‘rsatish odobdan emas.

Yo‘talganingizni, aksirganiningizni, burun qoqqaniningizni mumkin qadar kishiga sezdirmang, buning uchun albatta dastro‘mol tuting. Aksirgan kishiga “*sog‘*

<sup>21</sup>Максимов С.В. Русский человек в гостях// Задушевное слово. 1866, Т.12, стр. 417.

<sup>22</sup> Салибаев В.Х., Алиев С.Н. Об особенностях коммуникативного поведения таджиков// НКСР, стр. 130.

*bo'ling*"deb aytildi. Suhbatdoshingiz oldida aslo esnamang va xo'rsinmang, chunki bular zerikish alomatidir.

Og'izni katta ochib kulish yaramaydi. Qahqaha urib kulish ham yaxshi emas, chunki har qanday shovqin atrofdagilarni o'ziga jalb qiladi. Eng yaxshisi samimiyat bilan kulishdir.

Ko'r kam yurish, qaddi-qomat, nazokatli ishoralar ham ayolni, ham erkakni yanada ko'r kam ko'rsatadi. Juda ham kam holatlardagina biz nazokat bilan qaddi-qomatni tutish hamda yurishni tabiat ehsoni sifatida qaraymiz. Ko'proq bu sifatlar qiyinchilik bilan kasb qilinadi. Ularni o'zida tarbiyalash uchun sport, ritmika bilan shug'ullanish lozim. Bu qiz bolalar uchun juda foydalidir, buni ota-onalar yodda tutsinlar. Chiroli yurish, qaddi-qomatni tutish, yengil va go'zal ravishda zinapoyalarda chiqish yoki tushish hamda nafosat bilan o'tirishni o'rganish lozimdir. Ayniqsa ayol oynada qanday qilib divan, stul yoki o'rindiqda o'tirganini kuzatishi kerak.

Ba'zi holatlarda juda bunga pastlik qiladigan o'rindiqlarda o'tirgan ayollar oyoqlarini chalishtirib oladilar. Bunday vaziyatda ularni chalishtirmasdan, birlashtirib, tizzalarini bir tomonga sal og'dirib o'tirgan ma'qul. *Mashinaga o'tirayotgan ayol unga to'g'ri kirib ketmaydi, balki o'rindiqni uchiga omonat o'tirib, keyin oyoqlarini yig'ib oladi, chiqayotganda esa aksincha, avval oyoqlarini yerga qo'yib, so'ng ko'tariladi. Boshni haddan tashqari baland ko'tarmaslik, yoki aksincha egib o'tirmaslik lozim* – hamma joylarga zimdan alanglash-ku undan ham yomon. Yoshlar qo'lini qaerga qo'yishni bilmaydi.

Qizlar sumkalariga tayanishadi, o'g'il bolalar esa bu masalada bir muncha qiynalishadi. Yang yaxshisi – qo'lni cho'ntakda saqlash, lekin bu odobga to'g'ri kelarmikan? Juda bo'limganda, bir qo'lni ustki kiyim cho'ntagiga solib, ba'zi ba'zida uni chiqarib turmoq mumkin. Shimning cho'ntaklariga esa qo'lni faqat, zarur bo'lgan narsani olish uchun kirgiziladi. *Ikkala qo'lni ham shimning cho'ntagida saqlash umuman mumkin emas*. Buni hatto tengdoshlari o'rtasida ham bajarish nojoiz – bu ko'nikadigan yaxshi odat emas!

Qiz bolani ham qo'llarini shim cho'ntaklariga solib yurish, ayniqsa, suhbat chog'ida odobsizlikdir. Yo'lda qo'lni har yoqqa tashlab yurish yoki suhbat vaqtida qo'lni paxsa qilib so'zlashish xunuk ko'rinishi. Stolga musht urib gapirish so'zlarining nafaqat asos bo'lib xizmat qila olmaydi, balki qo'pol ko'rinish kasb etadi ham. Barcha imo-ishoralar bosiq hamda maqsadga muvofiq bo'lishi lozim.

O'rindiqning qo'l qo'yadigan ushlagichiga faqat eng yaqin do'stlar uyida bir oz o'tirish mumkin. Ammo bu o'rindiqda sizga yaxshi tanish bo'limgan ayol yoki kishi o'tirgan bo'lsa nojoizdir.

**O'tirish.** Azaldan bu narsaga katta e'tibor bilan qaralgan. Masalan, o'tirish qoidalari to'g'risida XVIII asrda Iogann Zulser tomonidan nashr etilgan ("Qiz

*bolaning baxti va taxti nimada").* Bu tajriba hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

«*To‘g‘ri o‘tirish – bu san‘at*». Bu quyidagini anglatadi: «Boshni o‘ta tikka yoki u yoqdan bu yoqqa osiltirib alanglayvergan holda tutmaslik lozim». So‘ng: "Qo‘llarni chalkashtirib ko‘krakka olib borish, belga qo‘lni qo‘yish, qo‘lini osiltirib o‘tirish, yelpig‘ichni o‘ynab o‘tirish, barmoqlarini o‘ynash, piyolani aylantirib o‘tirish, sochini yoki kiyimini to‘g‘rilab o‘tirish mumkin emas". Undan keyingga ko‘rsatma: "Qaddini tik tutish, o‘rindiqda yalpayib yotib olish, uchiga o‘tirib olish, likillab o‘tirish va oyoqlarni chalishtirib o‘tirish nojoizdir!.."

Stulda bukchaymasdan, kerilmasdan, tirsak bilan tayanmasdan to‘g‘ri va erkin o‘tirish tavsiya etiladi. Stulda o‘tirgan holda silkinish, stulning chetigagina ilinib o‘tirish, unga minib olish mumkin emas. Stulga o‘tirganda ham, undan turganda ham ovoz chiqmasligi kerak.

Stulni taraqlatib surmaslik, balki orqa suyanchig‘idan ushlab joyidan joyga ko‘chirish lozim. O‘tirgan stulni oyoq bilan taqqillatish insonning g‘ashiga tegadi. O‘tirganigizda tizzalaringiz juftlashtirilgan, oyoq kaftlaringiz bir-biriga mumkin qadar yaqin qo‘yilgan bo‘lishi lozim, bir oyoqni salgina oldinga chiqarib qo‘yish ham mumkin.

Oyoqlarni chalishtirib o‘tirish erkak va ayolga ham yarashmaydi hamda o‘ta madaniyatsizlik hisoblanadi. Erkaklarning oyoqlarini kerib, tizzasiga qo‘li bilan tayanib o‘tirishi ularning beso‘naqayligini va tarbiya ko‘rmaganligidan dalolat beradi.

Tarbiya ko‘rgan odam hech qachon va hech kimga orqa o‘girib o‘tirmaydi. Davrada hamma vaqt boshqalarga yuz o‘girib o‘tirishga, buning iloji bo‘lmasa, aqalli, yonni o‘girishga harakat qilish kerak.

Katta yoshdagi kishilar xonaga kirayotganida yoki chiqib ketayotganda yoshlar joyidan turishi shart.

Oyoqlar ko‘p e’tiborni talab qiladi. Jamoat transportida yo‘lovchilarning oyoqlarini tutish holatiga e’tibor bering. Biri yalpayib oyoqlarini cho‘zib, ikkinchisi oyoqlarini o‘rindiq ichkarisiga berkitib olgan. Qo‘shni oyoqlarini chalishtirib, yana kimdir oyoqlari bilan o‘rindiqni oyog‘iga ilashtirib olgan. Albatta bu individual, biroq maqtovga arzimaydigan xususiyatlardir.

Uyda o‘zingiznikilar oldida eng qulay vaziyatni tanlang. Biroq ko‘pchilik oldida to‘rt tomonga qarab oyoq-qo‘llarni cho‘zib o‘tirish yaxshi emas. To‘g‘risi – oyoqlarni to‘g‘ri va berkitganroq holda tutish kerak. O‘zbek udumlarida uyda imkon qadar erkaklar uchun keng shalvar, ayol-qizlar esa oyoqlariga lozim kiyishlari oyoqlarni imkon qadar berkitishga intilishdan dalolat beradi. «Zamonaviylik» ko‘proq ko‘chakuyda bo‘lgani yaxshi. Chunki tashqarida barcha u darajadagi e’tiborsiz narsalar – hoh u tartibsizlik, hoh kiyinish bo‘lsin – uyda ravshan ko‘rinishni unutmaslik lozim.

Har qanday reflektiv harakatlarni nazoratda tutmoq lozim. Esnayveradigan odamlar nafaqat notanish davrada, balki ishxona va uyda ham odamning g'ashini keltiradi. Madaniyatliroq kishi umuman odamlar oldida esnamaslikka harakat qiladi. Agar buni bildirmasangiz, ichingizga yutsangiz, unda esnash mumkin. Yo'taldan tiyilish mumkin emas. Yo'talayotganda boshni boshqa tomonga burib og'izni qo'l bilan yopiladi, qattiq yo'talda esa og'izga dastro'mol tutgan ma'qul. Sekinroq, ro'molchaga aksirish mumkin, bunda boshni chekkaga burmasa ham bo'ladi. Butun xonani «*to'ldirib*» aksirishga yo'l qo'y mang. Ammo aksirish sizdan kuchliroq kelsa, yuzingizni chetga burib aksiravering.

Hiqichoq – yoqimsiz hamda qiyinchilik tug'diruvchi holatdir. Agar bu boshlansa, unda oshxona yoki vannaxonaga kirib, quyidagi usulni qo'llaymiz: chap qo'l bilan burunni qisib, o'ng qo'ldagi suv idishidan mayda xo'plamlar bilan, tanaffussiz nafas olmay ichamiz. Qiynalsak, bu jarayonni to'xtatishimiz mumkin. Bu paytga kelib hiqichoq to'xtashi kerak.

Agar u yana davom etsa, yuqoridagi jarayonni faqat uzaytirib, takrorlaymiz. Bunga qo'shimcha ravishda bir osh qoshiq qand upasini yutib borishni tavsiya etamiz. Ammo birinchi usul – kuchliroq ta'sirga ega. Biroq, hiqichoq mast qiluvchi ichimliklarni ichish oqibatidan ham paydo bo'lishi mumkinligini e'tibordan soqit qilmang. Agar aynan mana shu holatdan so'ng hiqichoq paydo bo'lishiga ishonchingiz komil bo'lsa, unda ichishni tashlang.

*Ko'p hollarda biz aynan Shahsiy illatlarimiz tufayli jamoat bilan muloqot qilishdan o'zimizni mahrum qilamiz. Bu borada bir necha maslahatlar bor:*

- Ayol kishi uzuklari, taqinchoqlari, sumkasining zamogi bilan «o'ynamagani», sochini barmog'iga o'ramagani ma'qul; suhbatdoshning buyumlarini olib o'ynab turish ham yaxshi emas;
- Dasturxonni burama sochga aylantirmang, idishlarni o'ziga qo'ying, ularni jaranglatmang. Ammo agar siz o'zingizni tuta olmasangiz, cho'ntagingizda maxsus barmoqlar mashqi uchun mo'ljallangan rezinali kichik buyumlarni olib yurgan ma'qul. Qadimda bunda tasbehdan foydalanganlar.
- Qorinni qo'l bilan ushlab urish yoki suhbatdosh yoki yaqinda turgan odamga orqa qilib o'girish, garchi xusumatingiz bo'lsa ham – odobsizlikdir;
- Jamoada sochini qashlashga yo'l qo'yish mumkin emas (hatto barmoq uchida ham);
- Barmoqlarni qarsillatish yaxshi odat emas. Bu musulmon odobida qat'iy ta'qilangan edi. Keyingi yillarda esa shifokorlar barmoqlarni qarsillatishni odat qilgan insonlarning barmoq suyaklarida suv yig'ilish natijasida saraton kasalini paydo bo'lishni aniqlaganlar.

- Ming‘irlash, g‘o‘ng‘illash nafaqat hamkasabalarga, balki oila a’zolariga ham xush kelmaydi;
- So‘zlashayotganda elkani qisish ba’zida suhbatdoshiga bunday harakat qanchalik yomon ta’sir qilishini hatto tasavvur ham qila olmaydilar;
- Izhorlaringizni qattiq kulgu bilan tugatmang. Bu nevroz holati aksil ta’sirga ega, mutoyiba yoki xanda haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Shunday kishilar borki, har bir gapdan so‘ng xiringlab qo‘yishni odat qilib olganlar.

O‘zingizni kuzatib, agar shunday holat sizda ham bo‘lsa, undan voz kechishga harakat qilgan ma’qul.

### **Tasodifiy noqulay holatlar hamda ularni bartaraf yetishning axloqiy jihatlari**

Jamoatdagi har bir Shahs tasodifiy holatlar – ixtiyorsiz xatolardan xoliligidan kafolatlanmagan. Mana bir qancha bunday tanish vaziyatlar: kimdir bilan qayta ko‘rishish, qo‘lingizdagi qadahni to‘kib yuborish, yoningizda, stol atrofida o‘tirgan kishidan: «*Mana bu ketvorgan ayol kim?*» degan savolningizga qo‘sningiz: «*Mening ayolim*» deb javob berishi, tanishingizdan «*Rafiqangiz yaxshi bo‘lib qoldimi?*» deb hol so‘raganigizda, u sizga: «*O‘lganiga bir yil bo‘ldi*» yoki «*Ajrashdik*» deb javob bersa.

Eng yoqimsizi: adashib sochiq bilan burunni, terni artib yuborish yoki ehtiros kulgili bo‘lmagan anekdotni aytishdir. Bunday vaziyatlardan qolgan noxushlik uzoq muddatgacha sizni tark etmaydi. Albatta agar bunday vaziyatlar kamroq uchrasa, yaxshi bo‘lar edi; faqat atrofdagilar bunday holatga biz o‘ylagandan ko‘ra kam e’tibor qaratadilar. Bunday holatlarni boshdan kechirmagan odamning o‘zi bo‘lmaydi. Ammo noqulay vaziyatlar o‘zni oqlashni taqozo etmaydi. G‘arb odatiga ko‘ra shunchaki «*uzr*» deb qo‘yiladi. Sharqda aksincha, obdon uzr so‘rab, noqulay vaziyatdan chiqib kyetishga uriniladi.

Ammo bir shahs ataylab boshqa odamga o‘z salbiy munosabatini ko‘rsatish uchun ilmoqli gaplarni alohida ta’kidlashi va Shu asosda ongli ravishda noqulay vaziyatlarni vujudga kelishiga harakat qilishi umuman boshqa narsa. Bunda nafaqat inson o‘zini xudbinligini, madaniyatsizligini ko‘rsatishi, balki boshqalarni ham dilini og‘ritib qo‘yishi mumkin. Bunday vaziyatlarni oldini olish uchun quyidagi holatlardan voz kechmoq lozim:

- Barchaning oldida ko‘rishishga javoban qo‘l uzatmaslik;
- O‘z raqibiga deyarli haqorat tarzida ovoza bilan biron-bir so‘z qotish;
- Kelgan sovg‘ani orqaga qaytarish;

➤ Hamsuhbatning yaqinlari borasida hurmatsizlikni namoyon qiluvchi so‘zlarni ifodalash.

Ba’zida tasodifiy farosatsizlik kim uchundir o‘zni ko‘rsatishdek tuyuladi. Bu yerda ismi-sharifni buzib aytishini misol qilish qo‘l keladi. Bunday xatoni agar bundanda yomonroq natija bermagan taqdirda bo‘lmasa, xafagarchilikni keltirib chiqaradi. Ba’zida odamga orqa qilib o‘tirish qattiq uni ranjitishga sabab bo‘ladi. Odatiy e’tiborsizlik ham munosabatlarni murakkablashtirishi mumkin. Shu bois odamlar bilan muloqotda o‘zini qat’iy boshqara olishi kerak. Hech qachon qo‘pollikka javoban qo‘rslik bilan qaytarish kishini yomon ko‘rsatsa ko‘rsatadiki, yaxshi ko‘rsatmaydi. Janjal ikki tarafni ham yerga uradi.

Bundan tashqari, birovning sumkasini olib titkilash yoki ochiq qolgan sumkani tomosha qilish, qo‘l telefonini «o‘rganish» nafaqat xunuk ko‘rinish kasb yetishi, balki sizni unga bo‘lgan xusumatingiz yoki hasadingizni ko‘rsatib qo‘yadi. Begona kishilar portfelin yoki palto cho‘ntaklarini kavlash ham bundan istisno emas. Birovning qutisidagi narsalarni olish yoki uni joylashtirish uyda ham ishxonada ham odobsizlikdir. Birovning shkafini, bufeti yoki narsalar saqlanadigan joyni olib ko‘rish ham odobga to‘g‘ri kelmaydi.

### **Noqulay vaziyatlardan chiqishda uzr so‘rash hamda xushomadning o‘rni**

Kimnidir bezovta qilsangiz, yonidan o‘tib ketayotib «*Iltimos, uzr*», «*Kechirasiz*» deb uzr so‘rashingiz mumkin, ammo uning qisqa shakli «*Uzr*» so‘zi bunday holatlarga unchalik mos emas. Odamlarni turtib o‘tish noqulay vaziyatga solib qo‘yishi mumkin. Ayniqsa, teatr yoki san’at saroylarida qatorlaridagi o‘rindiqlardan o‘tayotganda oldin ruxsat so‘rab, sizga yo‘l berishga ulgurmay qolgan odamlarning oyoqlarini bosmasdan o‘tishga harakat qilmoq lozim.

**Xushomad** – insonning tashqi qiyofasi, chiroyli so‘zları, hatti-harakatidan ta’sirlanib, ma’qullashni ifodalash, maqtovning maxsus shaklidir. Nafis shaklga o‘rangan bu ifodadan hammamiz zavqlanamiz – har birimizda ozgina miqdorda bo‘lsa ham o‘zimizga nisbatan muhabbat hamda g‘urur mavjud. Xushomadlar jamoatda yoqimli kayfiyat uyg‘otadigan hissiyotda asos bo‘lib xizmat qiladi. Xushomad yengil, sho‘x, oddiy, tabiiy va asosiysi, haqqoniy bo‘lishi lozim. Agar xushomadlarni kam, ammo o‘tkir va nazokatli qilib aytilsa, unda ular suhbatga ajib bir tarovat qo‘shadi. Aksincha, agar xushomadlarda bir muncha tayyorgarlik, ta’ma, oshirib yuborishlik bo‘lsa, ular kulgilik va yoqimsiz xususiyat kasb etadi.

Qo‘pol xushomad doimo o‘rinsizdir va uni ifodalovchi odam yaxshi ko‘rsatmasligi aniq. Uni qabul qilish ham odamni kamsitadi. Xushomad o‘z vaqtida va joyida qo‘llanishi nur ustiga a’lo nurdir. Bunday nazokatga ko‘milgan xushomad hamisha odamga lazzat bag‘ishlaydi. U uyatchan odamga ishonch, odamovini ochiq

bo‘lishiga, xomush odamni kayfiyatini ko‘tarishiga sabab bo‘ladi. Ko‘pchilik xushomadlarni qanchalik joyida va mos kelishi haqida o‘ylamay mulozamat qilishga odathanib qolishgan.

Ayol kishiga nisbatan tez-tez: «*Bugun juda chiroylisiz?*» yoki “*Bugun juda ochilib ketibsiz?*” degan xushomadni eshitamiz. Endi tasavvur qiling, xushomadga javoban takalluf qilishni o‘rniga ayol kishi: «*Kecha mening ko‘rinishim yomonmidi?*» degan tabiiy savolni javob bersa-chi?! «*Bugun juda chiroylisiz?*» degan xushomadni aslida xushomad qatoriga kiritmasa ham bo‘ladi. Chunki u yuqorida aytganimizdek, ikki xil ma’noga egadir. Ammo «*Bugun juda yasanibsiz!*» degan so‘zlar ikki xil ma’noga ega emas. Xushomadda yorqin ko‘rinuvchi maqtov bo‘lmashligi lozim. Xushomad qilayotganingizda oshirib yuborishlar hamda ortiqcha hayratdan o‘zingizni tiying. Xushomadda aql o‘rgatadigan so‘zlardan saqlaning: «*Bu ko‘ylak sizga yarashibdi, ko‘proq shuni kiyding.*»

Qanday qilib xushomadni ifodalash mumkin? Ishonchli ohangda, jilmayib, ko‘ngilochiqlik bilan izhor qiling. Imo va ishoralar so‘zlarga mutanosib bo‘lmog‘i kerak. Xushomadda kinoyaga hatto ishora ham bo‘lmashligi lozim. Yo‘l-yo‘lakay va ish orasida xushomadni aytib ketmang. Xushomadga tayyorlanar ekansiz, unga bo‘lgan ta’sirni hisobga olish darkor. Agar siz aymoqchi bo‘lgan narsada aksil ta’sir holati bo‘lishi ham mumkinligini bilsangiz, o‘ylagan fikringizdan qayting. Bir ayolga xushomad qilar ekansiz, ikkinchisining eshitish imkoniborligini bilsangiz, ehtiyot bo‘lgan ma’qul. Ba’zi vaziyatlarda bu oxirgi ayolni, ayniqsa u agar yolg‘iz yoki notanish davrada bo‘lsa kayfiyatini buzib qo‘yishi mumkin. Erkaklarga qilinadigan o‘zaro xushomad nafaqat qabul qilinmagan, hatto odobsizlik ham sanaladi, bunday xushomadgo‘y kulgiga uchraydi. Ayollar, shu bilan bir qatorda yosh qizlar ham erkaklarga xushomad qilishdan tiyilganlari ma’qul. Aks holda ular noqulay va kulgilik vaziyatga tushib qolishlari mumkin va o‘zlari, hamda maqtov egasini ham obro‘sini tushirib qo‘yishlari mumkin.

Erkak kishidan latif xushomadni eshitgan ayollar hissiyotlariga ishonchli tarzda sho‘ng‘ib ketmaganlari ma’qul. Barcha turdag‘i xushomadlarni yaxshi qabul qilaverishda ehtiyot bo‘lmoq lozim, chunki ba’zi mulozamatlarda ikkiyuzlamachilik va soxta muhabbat berkingan bo‘lishi mumkin. Tanimagan-bilmagan odamning xushomadiga qilingan juda «quyuq» javob, nafaqat noo‘rin baho, tasavvurni paydo qilish mumkin, balki g‘aliz niyatli kishilarning o‘yini qurbaniga ham aylantirib ko‘yishi mumkin. Qanchalik zamonaviy olamda yashamaylik, insonning ori, nomusi, izzat-nafsi hamda qadr-qimmati birinchi navbatda turmog‘i lozimligini kishi unutmasligi joiz.

“*Boshqa odamlarning xotinlariga nisbatan iffatli bo‘linglar, shunda sizlarning xotinlaringizga nisbatan ham iffatli bo‘lurlar*”, - deyiladi sahib hadislarda. Iloji boricha begona ayolga xushomad qilishdan saqlangan ma’qul.

Qanday qilib samimiylar maqtovga javob berish lozim? Tashakkurni odatiy «rahmat» so‘zi bilan kifoyalanmay chin dildan bildirmoq darkor. Sizni maqtagan odamga «teginish»dan o‘zini tiygan ma’qul. Muloyim minnatdorchilik bilan cheklanib, izoh va savollarni o‘zimizda saqlaganimiz yaxshiroq. Xushomadni eshitib, qarshilik bildirish qadr-qimmatni tushirishi yoki riyokorlikni ko‘rsatib qo‘yishi mumkin. Agar sizning tashqi ko‘rinishingiz yaxshi ekanligidan shavq bilan gapirsalar, o‘zingizni noqulay his qilishingiz haqida aytish lozim.

**Jamoatjoylarida o‘zini tutish me’yorlari.** Jamoat joylarida o‘zini tuta bilish etiketi har bir kishi uchun ham, jamoat uchun ham muhimdir. Inson jamiyat oldidagi axloqiy burchini bir lahza ham unutmasligi va shunga munosib hatti-harakatlarda bo‘lishga intilishi kerak. Har bir inson jamoat joylarida bo‘lganida avvolo o‘zini inson ekanligini, atrofida o‘ziga o‘xshaganlar borligini unutmasligi zarur. “Assolomu aleykum”, “Kechirasiz”, “Uzr”, “Mumkinmi?”, “Aytib yuborolmaysizmi?”, “Xolajon”, “Amakijon”, “Opoqijon”, “Otaxon”, “Onajon”, “Akajon”, “Singlim”, “Do‘stim”, “Og‘ayni”, “Birodar” kabi so‘zlarni ishlatsishga o‘rganish kerak. Hayotimizni ko‘p qismini bizga notanish bo‘lgan odamlar bilan birga o‘tkazamiz: ko‘cha-kuy, transport, turli xil jamoat joylarida o‘tkazamiz. Nafaqat o‘zimizning kayfiyatimiz, balki atrofimizdagи odamlarning kayfiyati ham jamoatda o‘zimizni qanday tutishimizga bog‘liqdir. *Shungako rajamoat joylarida o‘zini tutishning me’yorlari mavjud.*

Uydan ko‘chaga chiqayotganda kerakli bo‘lgan narsalarni: hujjatlar, dastro‘molcha, pul solingan karmon, taroq va boshqa zarur bo‘lgan mayda-chuyda narsalarni o‘zingiz bilan olganingizga ishonch hosil qilib olish lozim. Kiyim bosh, oyoq kiyim, soch turmagi, xullas, boshdan-oyoq o‘zingizga razm solib, so‘ng tashqariga chiqqan ma’qul.

Hech qachon muzqaymoq bilan jamoat transportlarida: avtobus, trolleybus yoki metroga kirib bo‘lmaydi. Musiqani baland qilib quloqqa taqib eshitib ketayapman deb o‘yash ham befarosatlik yoinki atayinlab qilingan hurmatsizlikka kiradi. Undan ko‘ra baland hammaga eshittirib qo‘yan ma’qul, chunki quloqqa biriktirilgan moslamadan chiqayotgan tovush asabni «arralaydi». Juda zarurat tug‘ilsa bunday moslamaning «vakuumligi» yoki sifatlirog‘ini xarid qilish lozim. Jamoat transportida haddan ziyod o‘zini nozikta’bligi bilan yo‘lovchilarning asabiga tegadigan kishilar «bo‘lmasa, taksida yuring!» degan xitobga uchrab qolishlari mumkin.

Ko‘chada kimga uchrashuv tayinlagan bo‘lishingizdan va yoshidan qat’i nazar (xoh u ayol yoki erkak kishi bo‘lsin) kechikmaslik lozim. Aks holda sizni kutayotgan odam ko‘chada qolgandan o‘tib ketayotgan odamlardan o‘zini noqulay his qilishi mumkin. Shuning uchun ham, uchrashuv joyi odmi, yo‘lovchilarga xalaqit qilmaydigan va diqqat jalb etmaydigan bo‘lishi lozim.

## Jamoattransportlarida

- Avtobus, tramvay yoki trolleybus to‘xtamasdan oldin chiqishga shoshilmaslik lozim.
- Bekatda tushib qoluvchi yo‘lovchilarni chiqib olishlarini kutib turish lozim. Transportga kirayotgan yoki chiqayotgan odamlarni jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.
- Jamoat transportiga birinchi bo‘lib kirib olish maqsadida yo‘lovchilarni tirsagi bilan turtib yuborish u yerdagi odamlardan birini jarohatlashi, yoinki yo‘lovchilarni buyumlariga zarar keltirishi mumkin. Tarbiyali odam avvalo yoshi katta odamlarni, bemor, ayollar va bolalarni o‘tkazib yuboradi.
- Bo‘sh joy ilinjida odamlarni ikki tarafga irg‘itib oldinga harakat qilish juda xunuk ko‘rinadi. Bundan tashqari, joiz bo‘lsa, o‘tirgan vaqtingizda transportga qariya, homilador, nogiron, yoki go‘dakka darhol o‘rindan turib joy berish nafaqat odob, balki o‘ziga nisbatan ham hurmat belgisi ekanligini unutmaslik lozim.
- Boshqa tarafdan, agar sizga jamoat transportida joy berishsa, buni iltifot bilan qabul qilib, minnatdorchilik bildirish jamoat transportidagi odamlarda axloqiy ruhni paydo qiladi.
- Hattoki taklif qilingan o‘rinni rad qilgan taqdiringizda ham, (masalan, keyingi bekatda tushishingiz kerak bo‘lsa) tashakkur aytib, bir og‘iz shirin so‘zni ayamagan ma’qul.
- Yo‘l kira uchun hamma o‘zi uchun o‘zi to‘laydi.
- Erkak kishi faqatgina yaxshi tanish bo‘lgan ayolgagina yo‘lkira to‘lashlari mumkin. Biletni esa oson topiladigan joyda saqlash kerak.
- O‘rirlarni sumka va boshqa narsalar bilan band etmaslik kerak.
- Agar transportda gazeta yoki kitob o‘qib ketayotgan bo‘lsangiz, ularni yoningizdagiga xalaqit bermagan holda ushlagan ma’qul. Birovni o‘qiyotgan gazetasiga qarash to‘g‘ri emas. Bolalar bilan ketayotgan ota-onalar ularni yo‘lovchilarga xalaqit berishlariga yo‘l qo‘ymasliklari lozim.
- Transportda soch tarash, labini bo‘yash va pardoz qilish noo‘rindir. Ayniqsa avtobus, tramvaylarga kir, ifloslantiradigan kiyimlarda chiqish mumkin emas. Shu bilan birga qirqadigan, o‘tkir, bo‘yaydigan va boshqa odamlarga ozor beradigan narsalar bilan transportga chiqish yo‘lovchilarni qiyab quyishi mumkin. Chipta nazoratchilari ham bunga e’tiborni qaratmog‘i lozim.

Batartiblik jamoatda o‘zini tutish etiketining asosiy qoidasidir: konfet qog‘ozlari, sigaret qoldiqlar va boshqa narsalarni yo‘lma-yo‘lakay tashlab yurish tabiatingizni «sotib» qo‘yishi mumkin. Haddan ziyod baland ovoz bilan odamlarni diqqatini jalg‘orish lozim.

yetish, yo‘lovchilarning tashqi ko‘rinishi borasida tanbehtar berishdan tiyilgan ma’qul. Ayniqsa, bolalar oldida o‘zini madaniyatliroq tutish lozim – har qanday katta yoshdagi odam o‘zi istar-istamas yonida turgan bolalarga ta’sir qila olish xususiyatiga ega.

### **Tayanch tushunchalar:**

Kiyinish madaniyati, garmoniya, gardirob, aksessuar, did, rusm, bo‘yinbog‘, ro‘molcha, ayollar, erkaklar, oyoq kiyim, qaddi-qomat, to‘g‘ri yurish, to‘g‘ri o‘tirish, uzr so‘rash, texnik aloqa vositalari, o‘zini tutish, noqulay holatlar, xushomadlar.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Kiyinish madaniyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Erkaklar garderobi qanday bo‘lishi kerak?
3. Ayollar garderobida nimalarga e’tibor berish kerak?
4. Garmoniya haqida nimalarni bilasiz?
5. Qayerga qanday kiyinish lozim?
6. Oyoq kiyimini qaerga qanday tanlash kerak?
7. Chirolyi qomat va qadam tashlash etiketi haqida nimalarni bilasiz?
8. Uzr so‘rashning qanday usullarini bilasiz?
9. Telefon orqali qanday gaplashish lozim?
10. Jamoat joylarida o‘zini qanday tutish lozim?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T., Ma’naviyat, 2008.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami - T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2011.
3. A.Sher. Axloqshunoslik. Darslik. T., O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
4. Гулыга А. Кант. Молод г-я. – М., 1981.
5. Максимов А. Искусство общения или ремесло общения. - М., 2006.
6. Максимов С.В. Русский человек в гостях// Задушевное слово. 1866, Т.12.
7. Правила этикета. www. etiksite. org. 3 КБ.
8. Этикет от А до Я. www. etiksite. ru. 11. КБ.
9. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati. - T., Iqtisod-moliya, 2009.

## **6-MAVZU. BIZNESMEN ETIKETI**

Biznes iqtisodiy axloqiy asosga tayanadi. Kommersiyadagi tadbirbiznesida etiket nihoyatda muhim ahamiyatga ega, modomiki, u kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlikning davomiyligini va tuzilgan bitimning omadlilagini belgilab beradi. Hamkorlikning umumqabul qilingan qoidalarni buzish mumkin emas. Ishdagi qaltislik qonunni hatlab o‘tishdagi qaltislik bilan hech qanday aloqasi yo‘q. Muvaffaqiyatlari tadbirkorlikning asosiy muruvvati – tajriba natijalaridir: olingan daromadlar, kasbiy qoniqish, jamiyatda, sheriklar oldida ijobjiy nufuzga ega bo‘lish, firma yoki tashkilotning mustahkamlash uchun pul jamg‘armasini yaratish.

Tadbirkorlardagi axloqiy-ruhiy tayyorgarlikka ega emaslik, tezda pul topish ilinjida savodsiz intilishlar, pullarga noto‘g‘ri munosabat, firmaning raqobatbardoshligini oshirish va mustahkamlash uchun firmaning daromadidan foydalanishning muhimligini anglamaslikda namoyon bo‘lishi mumkin. Bular marketing ma’lumoti hajmining juda kamligi; firmalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning, sheriklarni topishdagi informatsion mexanizmlarning yo‘qligi; muvaffaqiyatsiz reklama; iste’molchi va xaridor talablari borasidagi ma’lumotlar to‘plamiga ega bo‘lmaslik; rivojlanmagan ish munosabatlarining texnologiyasi; ish bayonnomasi, savdo muomalasi odobiga rioya qilmaslik; sheriklarning milliy va hududiy ruhiyatining xususiyati borasida mo‘rt nishonga ega bo‘lish; atamalar va til masalasida qiyinchiliklar; chet tillarini bilmaslik; biznes, menejment, marketing, kommersiya, bank ishlari doirasida aniq tushunchalar asosiga ega bo‘lmaslik; hujjatlarni rasmiylashtirishdagi qiyinchiliklar; mutaxassislar va tadbirkorlar qo‘llaydigan ilmiy - texnik atamalarning eskirganligidir.

Hayot fazosi bo‘lmish bozor taraqqiyotini o‘zlashtirar ekanlar, tadbirkorlar bir narsani bilishlari lozim: bozor tuzilmasiga kirishga intiq bo‘lgan tadbirkorlardan faqat 10-15 foizigina muvaffaqiyatga erishadilar. Muvaqqiyatga faqat o‘zining ijodiy jihatdan iste’dodini ifodalash hissi kuchli bo‘lgan, doimo odamlarni, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini o‘rganadigan, odamlarning ishonchini qozonishga intiladigan, vijdonli va axloqli, tinimsiz ma’naviy hamda kasbiy komillikni o‘zida namuna sifatida ko‘rsatadigan, va oxir-oqibat, boshqaruv mahoratining yuqori ko‘rsatkichi bo‘lmish – odamlardagi intellektual faoliyatni ocha biladigan odamlargina erishadilar. Bu haqiqiy tadbirkorning xususiyatlaridir.

Oxirgi yillarda ko‘pgina tashkilot va muassasalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashqi bozorga chiqish huquqiga ega bo‘ldilar, savdo, iqtisodiy va ishlab chiqarishda turli mamlakatlarning firma va tashkilotlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilishga yangi imkoniyatlar ochildi, shu bilan birga ilmiy izlanishlar doirasida, tadqiqotlar va texnologiya almashinushi, professional kadrlarni tayyorlashda keng aloqalar yaratildi. Mamlakatlarning ba’zi miliy va ruhiy xususiyatlarini bilish tadbirkorlarga har bir

yerda uning qonunlariga mos tarzda o‘zini tutishiga yordam beradi va eng asosiysi – nazarda tutilgan tashkilotda muvaffaqiyat qozonadi.

### **80-yillarda biznes etiketi 3 ta asosiy yo‘nalishga ajralgan:**

- Filantropiya etiketi - yaxshi o‘tadigan va biznesni xayrli xarakatlarni amalga oshirishga turtki beradigan yaxshi natijalarga erishishini ta’minlaydi.
- Adolatlilik etiketi- firma hamkorlari o‘rtasida ishonchlilik va tenglikni ta’minlaydi.
- Shahsiy avtanomiya etiketi- boshqa sub’yektlar- biznes bo‘yicha hamkorlar, klient va konkurentlar huquqlarini hisobga oladigan asosiy axloqiy qoidalarga yo‘naltirilgan

Biznes – jiddiy hatti-harakatlar sferasi va u jiddiy va asoslangan bilimlarga Shuningdek, biznes-etiketga tayanadi. Biznes-etiket hamkorlarning suhbat chog‘ida yomon va noqulay vaziyatlardan asraydi.

“U yoki bu insonning uning iqtisod bilan bog‘liq ishlarining 15 foizi uning professional bilimlariga, 85 foizi esa odamlar bilan muloqot qila olish qobiliyatiga bog‘liq”, – deb hisoblaydi Deyl Kornegi.

Piter Koostenbaum “Biznes falsafasi” kitobida “Biznesning yuragi – etiket, hokimiyat va falsafa” deb yozgan edi. Va quyidagilar firmanın uzoq muddatli yutuqlarga erishishiga turtki bo‘ladi deb hisoblaydi.

- Foyda
- Odamlar (moral)
- Tovar va xizmatlar
- Prestij

### **Biznes olamida o‘zini tutishning 5 ta asosiy prinsiplari mavjud:**

➤ Pozitivlik – hamkorlar bilan muloqotda ko‘rinadi. Siz yaxshi taasurot qoldirishga harakat qilasiz. Pozitiv qiyofani shakllantirish hamma narsani o‘z ichiga oladi: qo‘l ushlashish, intonatsiya, kiyim, parfimer tanlash va b.q. Masalan; agar siz suhbat chog‘ida qo‘lingizni cho‘ntakka solib gaplashsangiz, suhbatdoshingizda sizga nisbatan nosamimiylilikni his qiladi.

➤ Idrokli egoizm – sizni tashkilotchi, biznesmen sifatida qabul qilinishingizda muhim ahamiyat kasb etadi. Hamkorni fikrini xurmat qilish kerak, lekin bu hamma gapiga to‘liq tasdiqlashni anglatmaydi. Fransuzlar inson o‘zining shahsiy qiziqishlari va fikriga kurashish huquqiga ega va bu borada idrokli egoizmni unutmaslik kerak deb hisoblashgan.

➤ Oldindan ko‘ra bilish (bashorat qila olish) – ishdagi munosabatlarda allaqachon noqulay vaziyatdan chiqib kyetish uchun alohida hatti-harakat modeli ishlab chiqarilganligini bildiradi. Masalan: oldindan bilasizki, notanish hamkor bilan

uchrashish quyidagi sxema bilan amalga oshiriladi: salomlashish, tanishish, vizitka almashish. Lekin hamma ham bir xil bu etiketni amalga oshirmaydi.

➤ Mavqeidagi farq – biznesda hamma har xil darajaga ega ekanligini bildiradi, bu o‘z navbatida alohida munosabat bildirish kerakligini anglatadi. Ya’nikim, boshliq va xodim o‘rtasidagidek. U ayol yoinki erkak bo‘lishidan qat’iy nazar boshliq bilan xodim uchrashganda odatdagidek, xodim birinchi raxbarga salom beradi. Shuningdek, xodim liftni eshigini oldida boshlig‘ini va uning odamlarini oldinga o‘tkazdirib yuborishi kerak.

➤ O‘rinli harakat – hatti-harakat manerasi va hattoki aniq bir vaziyatdagi kiyinishini muvofiqligini anglatadi. Bu haqda quyidagi slaydlarda bat afsil ma’lumot beriladi.

### **Biznes hamkorida yaxshi taassurot qoldirish muhim ahamiyatga ega.**

#### ***Buning esa 4 qoidasi mavjud:***

**Birinchisi:** dastlabki 10 ta so‘zingiz juda muhim bo‘lishi kerak. Tashakkur bildirish tezroq hamkorlarning o‘zaro tushunishini ta’minlaydi va hamkorlikning effektivligini oshiradi. Masalan: “Janob Smit men bilan ertalabdan uchrashishga vaqt topganingiz uchun sizga katta rahmat.” “Va nihoyat shahsan o‘zingiz bilan uchrashishga muyassar bo‘lganimdan bag‘oyat xursandman”. Bu kabi so‘zlar birinchi uchrashuvda qo‘llaniladi. Lekin bu so‘zlarni boshqacharoq tarzda avval uchrashgan tanishlaringizga ham qo‘llashingiz mumkin. Masalan; “Uchrashishga rozi bo‘lganingiz uchun rahmat ustoz”, “Xilola uchrashuvga taklif qilganingiz uchun rahmat, o‘zim qanday aytishni bilmay yurgandim”. Iloji boricha gaplashayotganda dastlabki 10 ta gapda hamkoringizni ismini aytинг.

**Ikkinchidan:** boshqa insonlarga e’tibor qarating. Ya’ni hamkoringizni ko‘ziga qarang va tabassum qiling. Siz o‘zingizda energiyaga to‘lalikingiz va qatiyatligingiz bilan birga dipressiyaga tushgan holatingiz va qat’iyatsizligingizni ham ko‘rsatishingiz mumkin. O‘zingiz tasavvur qiling: oldingizda doim kulib turgan chaqnoq ko‘zlarni ko‘rsangiz qandayu, sarosimaga tushgan chehrani ko‘rganingiz qayerda. Sizning energiyaga to‘la hatti-harakatingiz o‘zingizga ishonuvchanligingizni bildiradi. Hamkoringizni sizda buni his qilishiga imkon yarating.

#### **Uchinchidan: yurishingizga (paxodka) e’tibor qarating.**

Binoga, ofisingiz joylashgan xonaga kirishda, yohud mijoz bilan uchrashganda qadamlaringizga alohida e’tibor qarating. Yurganingizda energiyaga to‘lalikingiz, tetikligingiz bilinib tursin. Ish kunning boshidagi holatingizni kuningizni oxirigacha saqlab qoling. Boshqalar bunga e’tibor qaratishini unutmang.

#### **To‘rtinchidan: o‘zingizni tashqi ko‘rinishingizga e’tibor qarating.**

Biznesmenlar qanday kiyinishi lozim bo‘lsa o‘shanday kiyinish kerak. Bundan tashqari sochingiz tartibli, taralgan, hamda yuz tuzilishingizga mos turmaklangan bo‘lishi lozim. Zebu-ziynatlaringiz voqelikka va vaziyatga mos kelishi kerak, chunki bezaklarning sifati sizning qandayligingizni ifodalab beradi.

### **Biznesmenning hamkoriga dastlabki yomon taassurot qoldirishining 7 ta asosiy tomonlari mavjud. Bular:**

- ❖ Tilning ehtiyyotsizligi;
- ❖ So‘zlarida jargonlardan foydalanish;
- ❖ Qiqlash;
- ❖ Aqlsizlarcha teginish;
- ❖ Qo‘lni yashirish;
- ❖ Saqich chaynash;
- ❖ Hadeb yo‘talish.

### **Biznes etiket: taqdimot va jamoat oldiga chiqib so‘zlash**

Jamoat oldiga chiqayotgan hamma notiqlar asosiy qoidani eslarida saqlashlari lozim: qisqa gapirishlari va asosiy ma’nosini ochib berishlari kerak. Birinchi o‘rinda asosiy ma’ruzachini jamoat oldiga chiqib so‘zlashidan asosiy maqsad nimaligini aniqlab olish kerak, chunki jamoat ma’ruzachini emas ma’ruzanı tinglashga kelgan.

Agar hamkoringiz ma’ruzachi bo‘lsa uni tanishtirib, so‘ng o‘rningizga o’tirishingiz va so‘zlarini oxirigacha tinglashingiz lozim. Shundan so‘ng o‘rningizdan turib, uni qo‘lidan tutib, yaxshi ma’ruzasi va ketgan vaqt uchun tashakkur bildiring.

Oxirgi paytlarda firmaning vujudga kelishi, nafaqat ichki, balki, tashqi savdoda ham uning tan olinishi – taqdimot namoyish marosimi orqali voqe bo‘lmoqda. Uning ijobiy tarzda o‘tkazilishi sheriklar bilan bo‘lgan keyingi muzokaralarda mavaffaqiyat keltiradi. Ochilish marosimi haqidagi xabar matbuotda yoritiladi; ochilish marosimining e’loni; yo‘riqnomada: tashkilotning mahsuloti va rusumlari bilan tanishuv, mutaxassislarning chiqishi, maxsus texnika vositasida filmlarni namoyish qilish; basket; sizning savdo-sotiq bo‘yicha ishonchli sheriklaringiz; boshlanish vaqt – 17.00 da; manzil: kirish – taklifnomaga asosida; ma’lumot uchun telefon raqamlari:

#### ***Mana yana namoyish marosimi haqidagi e’lon:***

#### **MUHTARAM JANOBALAR!**

..... firmasi sizni odatdagи firmanın yillik namoyishiga taklif qiladi. Bu yili Sizning diqqatingizga ..... Firma taqdimoti ..... televideniye orqali namoyon qilinadi. Barcha do’stlarimiz savdo bo‘yicha sheriklarimizga sovg‘a sifatida shou-dasturda ularning reklamalarini joylashtiramiz! Taqdimot ..... bo‘ladi. Taklifnomalarni

quyidagi telefon raqamlari orqali yuborsa bo‘ladi ..... Firma sizni quyidagi soha bo‘yicha hamkorlik qilishga taklif qiladi.....

Taqdimot yaxshi chiqishi mutaxassislarni jalg qilmoq darkor. Avvalambor taqdimotning joyi va vaqtiga belgilanadi. Undan so‘ng ssenariy ishlab chiqiladi. Taqdimotning vaqtiga odatda 1,5–2 soatdan oshmaydi. Uni tushlikdan so‘ng, soat 15 larda o‘tkazgan yaxshi (17.00-19.00). Odatda taqdimotni tashkilotning tashqi savdo xizmatining boshqaruvchilaridan biri ochadi. Aynan u tashkilotning barcha rahbarlarini tanishtirib chiqadi. So‘ng esa film (10-15 daqiqa) ko‘rsatiladi va tashkilotning faoliyati haqida, uning eksport qilish imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumot beriladi (30 daqiqadan oshmasligi lozim). Qolgan vaqt esa savollarga javob berish uchun ajratiladi. Taqdimot o‘tayotgan joy turli xil reklama to‘ldirilgan plakatlar, stendlar bilan bezatiladi. Taqdimot qatnashchilariga firmadan esdalik sifatida suvenirlar taqdim etiladi. Reklama sovg‘alari sifatida odatda unchalik qimmat bo‘lmagan narsalar: yon daftarchalar, taqvimlar, avtoruchkalar, kuldonlar, zaijigalkalar, ko‘krak nishonlari, futbolka, bosh kiyim va h.k. hadya qilinadi. Bu narsalarga firmaning nomi, ba’zida esa uning manzili va faoliyatining xususiyati yoziladi.

Taqdimotda tovarlarning namoyishi reklamaning eng ishonchli hisoblanadi. Ayniqsa, bu mashina, jihozlarning namoyishi xaridorni mahsulotning sifatli ekanligiga ishonch hosil qila oladi. Hamkorlik faoliyatiga potensial mijozlarni jalg qilmoq juda zarur. Bu masalan, moslamalarni sinab ko‘rishda, kiyimlarni kiyib ko‘rishda, materiallarning mustahkam ekanligini ekspertiza orqali sinab ko‘rishda qatnashish va h.k. bo‘lishi mumkin. Mijoz tovar bilan shahsan tanishib, qo‘l bilan ushlab ko‘rish imkoniga ega bo‘lsa, unda onglanmagan tarzda firmaga nisbatan ishonchi orta boradi. Po‘stinning yumshoqligini, matoni chidamli ekanligini yoki kompyuterdagagi matn tahriri bilan ishlashning qulayligini his qilishi orqali paydo bo‘lgan taassurotni mustahkamlovchi hissiy belgilalar hamma joyda o‘zini namoyon qiladi.

### **Biznesmen odamning kiyinish talablari**

➤ Bugungi kunda keng tarqalgan va tan olingan kiyimlardan biri bu kostyum. Kostyum ishbilarmon odamning tashrif qog‘obi hisoblanadi. Chunki har doim inson qanday kiyiganligiga baho beriladi. Biz tanishgan insonning birinchi kurinishi xotiramizda ancha vaqtgacha qoladi. Shuning uchun tashqi ko‘rinishga e’tibor bermaslik – kechirib bo‘lmas xato hisoblanadi.

➤ Masalan, kiyimdagagi ozodalik va batartiblik ishning tashkil etilganligiga bog‘liq. Tartibsizlik – besaramjonlikning sinonimidir.

### **Kostyum kiyish qoidalari:**

➤ 1-qoida: Bir vaqtning o‘zida kostyum bilan birgalikda sport oyoq kiyimlarni kiymaslik. Masalan: kostyum shim bilan birga oyoqda krasofka yoki barsofkalarni kiymaslik lozim.

➤ 2-qoida: Kostyum kiygan holda sport sumkalarini ko‘tarmaslik. Kerakli qog‘ozlar va boshqa buyumlarni diplomatda, portfelda yohud papkada ko‘tarish kerak.

➤ 3-qoida: Agar kostyum kiyilsa, unda galstukni ham unutmaslik. Chunki galstuk kastyum kiyganda juda kerak. Ishbilarmon insonlar kostyumin galstuksiz kiymaydilar.

➤ 4-qoida: rasmiy uchrashuvlarda kastyum tugmalari o‘tkazilgan bo‘lishi kerak. Teatr kreslasida o‘tirgan vaqtida yoki ovqatlanish vaqtida kostyum tugmalarini butunlay ochib qo‘yish mumkin. Stoldan turish vaqtida kostyumin tugmalarini pastdan yuqoriga qarab o‘tkazishni unutmaslik lozim.

➤ 5-qoida: moda ketidan quvmaslik: zamonaviy, xunuk kiyimdan ko‘ra, chiroyli va mos kiyimni kiyish kerak.

### **Ishbilarmon ayol qanday kiyinishi lozim?**

- Ishbilarmon ayolning kundalik kiyimi – bu ko‘ylak va kostyum.
- Ishbilarmon ayolning kiyimi muloqot jarayonida suhbatdoshining e’tiborini o‘ziga jalb qilmasligi lozim. Shu sababli yubka kiygan vaqt ochiq rangli kalgotkalar kiyish tavsiya qilinmaydi.
- Agar ishbilarmon ayol biror bir yig‘ilishga yubka yoki kuylakni kiyishni o‘ziga joiz deb bilgan bo‘lsa, unda tanasi rangidagi kalgotkalarni kiyishi kerak. Yoki ko‘ylagi bilan bir xil rangdagi kalgotkalarni tanlashi lozim.
- Yana bir oltin qoidalaridan biri bu – atirni sepishdir. Atirni juda oz miqdorda sepish joiz. “Biznes etiket” kitobining muallifi Meri Enn Sabat shunday yozadi: “Agar kechqurun uchrashuv vaqtida o‘zingizni atiringizni hidini his qilsangiz, bilingki qolganlar sizning atiringizni hididan bo‘g‘ilib bo‘ldi”.

### **Stol atrofidagi biznes etiket**

➤ Stol atrofidagi biznes aloqalarni gaplashish dastlab taklif qilishdan boshlanadi. Dastlab, tushlik qayerda va qay tarzda o‘tishini tushunib yetishingiz lozim. Bilamizki, Tushlikka taklif qilinganda yozma tarzda vaqt va joyi ko‘rsatilgan dress-kod beriladi. Va bunga yozma tarzda javob yo‘llash kerak, “Rahmat, aytgan joyingizda bo‘laman”. Agar siz kliyentni yoki hamkasbingizni tushlikka taklif qilgan bo‘lsangiz, restoranda bo‘lsa ham o‘zingizni mehmonni xuddikim uyda qabul

qilayotgandek tutishingiz lozim. Chunki chaqirgan mehmoningiz o‘zini komfort, yanikim qulay his qilishi kerak.

➤ Stol atrofida biznes aloqalar haqida gaplashmoqchi bo‘lsangiz suhbatdoshingizni izzat nafsoniyatiga tegmaslikka harakat qiling.

➤ Tushlik vaqtida 2 holatda ovqatni buyurtma berishingiz mumkin. Birinchidan, buyurtirilgan ovqatlarni istemol qilish, yoki menyuga qarab har bir inson buyurtmasiga qarab.

➤ Agar tushlik vaqtida buyurtirilgan ovqat sog‘lig‘ingizga to‘g‘ri kelmasa yoki yoqmasa, hammaga eshittirib “Meni yazvam bor, men buni yemayman!” deb aytish kerak emas. Astagina ofitsantni chaqirib astagina aytish joiz. Butun stol atrofidagi odamlarga achchiq qilib, yoki dasturxon oldida kasalligingizni fosh qilish odobsizlik sanaladi.

➤ Agar tashrif byuradigan mehmon chet eldan kelishi kerak bo‘lsa, taklif qiluvchi tushlik joyini Shunga qarab belgilashi kerak.

➤ Tashrif buyuruvchi nimaga taklif qilinganini so‘ramasdan oldin taklif qiluvchi taklifini boisi nimaligini gapirmasligi lozim.

## **Qabul**

Kimdir yoki nimadir uchun nishonlanadigan yig‘ilish qabul deb ataladi. Qabul – odamlar, davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi muloqot shaklidir. Uning sabablari va sababchilarining darajasiga qarab *qabul rasmiy* va *norasmiy qabullarga* ajratiladi.

Chet el vakillari uchun yoki ularning ishtirokida tashkil qilinadigan qabullar odatda *diplomatik qabul* deb atashadi. Bu qabullarning turli usullari mavjud.

«*Shampan bokali*» – qabuli milliy bayram yuzasidan, delegatsiya sharafiga, elchining kyetishi va h.k da uyushtiriladi. Qabulda mehmonlarga shampan vinosi, qovurilgan yong‘oqlar, shokolad, ba’zida esa mayda pishiriqlar tarqatiladi.

«*Vino bokali*» qabulida mehmonlarga vino, turli kanape, tartaletkalar, mevalar tortiladi.

«*Jurfiks*» fransuzchadan olingan aniq vaqt deb tarjima qilinadigan qabulda ma’lum bir paytda va kunda qish yoki kuz fasli davomida o‘tkaziladi. «*Jurfiks*» tipiga qarab odatda simpozium, konferensiyalar o‘rtasidagi tanaffusda xizmat ko‘rsatiladi. Mehmonlarga gazaklar, sharbat, suv va issiq ichimliklar tarqatiladi.

«*Barbekyu*» nomli qabulda esa yoz paytlarida, ochiq havoda (odatda yakshanba kunlari) o‘tkaziladi. Mehmonlarga aylanma sixda qovurilgan go‘sht, vino va salqin ichimliklar tortiladi. Bu qabul odatda 12-13 soatlarda o‘tkaziladi.

Ko‘p hollarda diplomatik qabullar nonushta, tushlik yoki choyga, ba’zida esa kechki ovqatga ham taklif qilish orqali amalga oshiriladi. Nonushta uchun 12 dan 13 gacha, undan 45-60 daqiqasini mehmonlar stol atrofida o‘tkazadilar. Tushlik 19 dan

21 gacha davom etib, mehmonlar bir soatcha stol atrofida o‘tiradilar. Choyga 15-16 larga taklifqilinadi, ular ham bir soatcha stol atrofida o‘tiradilar. Kechki ovqat odatda 21 dan keyin uyushtiriladi.

Bu qabullarning har biri ikki qismdan iboratdir. Birinchisi – uchrashuv, ko‘rishuv hamda mehmonlarning yig‘ilishi, shahsiy va umumiy suhbatlar, kelganlarni basket stolidagi o‘z joylari bilan oldindan tanishtirish, aperitiv. Ikkinchisi – basket (ko‘p hollarda to‘liq xizmat bilan).

### **Xalqaro biznes etiket**

**Xalqaro biznes etiketni tashkil etuvchi assosiy qoidalar quyidagilardir:**

- ❖ Salomlashish qoidasi
- ❖ To‘g‘ri munosabat qoidasi
- ❖ O‘zini tanishtirish qoidasi
- ❖ Ishdagi kontaktlarni tashkillashtirish (kelishuv, uchrashuv, qabul, ishdagiyozishmalar)
- ❖ Ishdagi subordinatsiya
- ❖ Insonning tashqi ko‘rinishini shakllantrishga beriladigan takliflar
- ❖ Pulli munosabatlarning etik normalari
- ❖ Sovg‘alar va suvinerlar almashtirish qoidasi

### **Biznesmen qabulda**

- Suhbat uchun taklif olganingizdan so‘ng, tashkilotga qo‘ng‘iroq qilib boradigan kun va vaqtini kelishib oling. Shunda boshqalar vaqtini qadrashingizni ko‘rsatgan holda tashkilotdagilarning hurmatini qozonasiz.
- Suhbatga borayotganingizda ertaroq boring, bu kech qolgandan ko‘ra yaxshiroq. Lekin judayam erta borish shart emas.
- Suhbat o‘sha odam haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lish va u odamning yaxshi-yomon tomonlarini ko‘rish, o‘zi bilan jonli muloqotda bo‘lish maqsadida o‘tkaziladi.
- Suhbat davomida berilgan savollarga javob berish davomida kimligingizni amalda ko‘rsating va jonli suhbatda o‘zingiz haqingizda ko‘proq ma’lumot bering.

### **Boshliq bilan suhbat**

- Siz kirgan xona sohibi sizni o‘zi o‘tirishga taklif etmaguncha o‘tirmang.
- O‘tirganda odob saqlab o‘tiring, engashib, qiyshayib, oyoqlarni chalishtirmang.

- Qulqlarni qashlamoqchi bo‘lishingiz, qo‘lingizda qalamni o‘ynab o‘tirishingiz kabi holatlar tarbiyangizning pastligini bildiradi.
- Birinchi bo‘lib gap boshlamang. Xushkayfiyat bilan salomlashib, sizga savol berishlarini kuting.
- Odatda suhbat boshida o‘zingiz va faoliyatingiz haqida gapirib berishingizni so‘rashadi. Nima deyishingizni oldindan o‘ylab, pishitib qo‘yaningiz ma’qul.

### **Muammolarni hal qilishda tashqi ko‘rinish quyidagicha bo‘lmog‘i joiz**

- Ayollarga qaraganda erkaklar kiyimi konservativroq bo‘lishi kerak;
- Erkaklar kostyumi jiddiy tusda bo‘lib, to‘q kulrang, zangori yoki qora matodan tikilishi kerak;
- Ayollar kostyumi esa chiroyli, ammo ochiq rangli, ko‘zni charchatadigan bo‘lmasligi kerak;
- Erkaklar sochi tartibga keltirilgan, soqoli qirtishlangan bo‘lishi kerak;
- Ayollar sochlari chiroyli tekis ammo to‘yga ketayotgandek dabbabali turmaklanmasligi kerak.

### **Xizmat telefoni**

Telefonning ahamiyati kattadir. Uning effektiv qo‘llanishi imijdning asosiy komponentiga aylanadi. Keyingi suhbatlarning davomiyligi va ko‘p narsalarning ijobiy tus olinishi telefonagi odamni qanday qabul qilinishiga bog‘liq. Telefonda muzokaralar olib bora olishi qobiliyatiga ega bo‘lish kishining nufuzini va u vakil bo‘lgan firmanın obro‘sini belgilaydi.

Telefon suhbatlarining mazmuniga maxsus talablar mavjud. Ular o‘zida oddiy telefon etiketi va biznesni administratsiyalashning xususiyatini mujassam etadi.

#### ***Ular quyidagicha:***

1. Qo‘ng‘iroqqa javoban o‘zini tanishtirish.
2. Odamlar kim bilan gaplashayotganlarını bilishni istaydilar. O‘zining salbiy hissiyotlarını chiqib kyetishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.
3. Suhbatdoshni ikki daqiqa oldin rahbari bilan aytishib qolganingiz yoki chap yoningiz bilan turganingiz qiziqtirishi dargumon. Agar yomon kayfiyat sizni tark etmasa, chuqr nafas olib, o‘ngacha sanash va tinchlanish zarur.
4. Telefonlarning barchasiga javob berish kerak, garchi sizni bu charchatsa ham. Chunki, qo‘ng‘iroqlardan qay biri daromadli kontrakt yoki qimmatli ma’lumot berishini aniq bilmaymiz.

5. Telefondan xabar bermoqchi bo‘lgan ma’lumotning aniqligiga ishonch hosil qilish joiz. Uzoq yo‘l bosib mavjud degan hujjatlarning telefonda eshitgan, so‘ng ofisda ularning yo‘qligiga amin bo‘lgan kishining firmaga bo‘lgan ishonchini qayta qozonish qiyin.

### ***Xizmat telefonidan foydalanganda nimadan tiyilgan ma’qul:***

1. Go‘shakni uzoq vaqt ko‘tarmaslik.
2. Suhbatni boshlaganda «ha», «salom» yoki «gapiring» deb so‘z boshlash.
3. «Sizga yordam beraymi?» deb so‘rash
4. Ikki suhbatni baravar olib borish.
5. Telefonni ma’lum muddat nazoratsiz qoldirish.
6. Ma’lumotlarni yozib yuborishida bir parcha qog‘oz yo taqvim qog‘ozidan foydalanish.
7. Go‘shakni bir necha bor birovga uzatish.
8. «Hamma ovqatanylapti», «hech kim yo‘q», «qayta qo‘ng‘iroq qilib yuboring» degan tushunchalarni qo‘llash.
9. Ko‘proq inkor yoki raddiyani anglatuvchi so‘zlardan foydalanish.

### ***Nima qilish kerak:***

1. Telefon qo‘ng‘irog‘ining to‘rtinchisignaligacha go‘shakni olish.
2. Salomlashish va o‘zini tanishtirish.
3. «Xizmat?!» deb so‘rash.
4. Suhbatda fikrni jamlab diqqat bilan tinglash.
5. Agar detallarni aniqlashtirish uchun vaqt kerak bo‘lsa, qayta qo‘ng‘iroq qilib yuborishni so‘rash.
6. Telefon suhbatlari uchun blankalardan foydalanish.
7. Qo‘ng‘iroq qilgan odamning telefon raqamini olib qolish.
8. Ma’lumotni yozib olib mijozga qayta qo‘ng‘iroq qilishingizga va’da berish.

### ***Bu ro‘yxatni oxiri ko‘rinmasligi mumkin. Masalan:***

1. Suhbatni so‘roqqa tutishga almashtirib yuborish yaramaydi: «Kimsiz? Nega? Nima kerak?»
2. O‘z ohangizni to‘g‘irlash kerak. Imkon boricha adabiy tilda so‘zlashga harakat qilish, so‘zlarni aniq talaffuz yetish lozim.
3. Kasbdoshlarga biror narsa deyish uchun go‘shak mikrofonini qo‘l bilan berkitishga odatlanmaslik lozim, eshitib qolishi mumkin.

Agar sizning sheringingiz yoki mijozingiz telefon orqali shikoyat qila boshlasa, «*Bu mening aybim emas*», «*Men bunday ishlar bilan Shug‘ullanmayman*», «*Bizning tovarlar hech qachon o‘z sifatini yo‘qotmaydi*» va h. k deb javob

bermaslik ma'qul. Bunday gaplar firmaning obro'siga putur yetkazadi va mijozning muammosiga yordam berishni istamasligingizni ko'rsatib qo'yadi. Shuning uchun, oxirigacha so'zni tugallashga imkon berish loizm; hamdardlik bildirish mumkin, agar aybingiz bo'lsa uzr so'rash; uning ismi va telefon raqamini, buyurtma raqamini yoki boshqa ma'lumotlarni yozib olgan ma'qul. Agar qayta qo'ng'iroq qilishga va'da bergen bo'lsangiz, garchi aytilgan vaqtga muammoni hal qilishga ulgurmagan bo'lsangiz ham qo'ng'iroq qilish kerak. Masalan: butunlay hal bo'lgach, mijoz o'zini sizni oldingizda qarzdor bo'lib qolishini doimo yodda tuting. Buni esa biznes aloqalar va uning taraqqiyoti uchun qo'llash mumkin. Shunday tushunchalar mavjudki, ularni telefonda firmaning nufuzini tushirmaslik uchun qo'llash nojoiz.

### **Bunday qat'iy qoidalarga quyidagilar kiradi:**

1. **«Men bilmayman».** Bu javobning o'zidek har qanday ishonchni o'ldiradigan, uni yo'qqa chiqaradigan so'z yo'q. Avvalambor, siz aynan muomala va tadbirkorlik uchun o'z ishida joyini saqlab turganini bilishdek bunga yaxshi chora yo'q. Agar savolga to'g'ri javob berish imkoniyati bo'lmasa, unda: **«To'g'ri savol... Agar istasangiz, men siz uchun buni aniqlab berishga harakat qilaman»** deyishmumkin.

2. **«Bizning qo'limizdan bu kelmaydi».** Agar haqiqatan ham shunday bo'lsa, harakatchan mijoz bu masalada boshqaga murojaat qilishi va bu uning foydasiga hal bo'lishi mumkin. **«Ostonadan qaytarishni»** o'rniga, avval kutib turishni iltimos qilish bilan qanday qilib unga yordam berish va uning imkoniyatlarini o'ylab ko'rish uchun vaqt yutib olgan avzalroq. Doimo ishni ijobiy tarzda hal qilishingizga ishonch hosil qilgan holda diqqatingizni jamlashni maslahat beramiz.

3. **«Siz bunday qilishingiz kerak...».** Bu katta xato. Ifoda usulini sal o'zgartirish lozim: **«Sizga bunday qilish yaxshi bo'lardi...»** yoki **«Nur ustiga a'lo nur bo'lardi...»**.

4. **«Bir daqiqa, hozir kelaman».** Uning o'rniga go'shak orqasidagi talabgordan so'ragan ma'qul: **«Kerakli ma'lumotni olish uchun ikki-uch daqiqa lozim bo'ladi. Kutib tura olasizmi?»**

5. **«Yo'q»,** gapning boshida kelgan bu so'z, masalani ijobiy tus olishini qiyinlashtiradi. Raddiyan qochishni universal retsepti yo'q. Hamsuhbat o'rtasida paydo bo'lgan har bir qarshilikni yaxshilab o'ylab ko'rgan ma'qul. Masalan, sifatsiz go'shtmaydalagichning zararini qoplash uchun mijozning pul so'rashini rad yetishda quyidagicha yo'l tutsa bo'ladi: **«Bizning zararni qoplash uchun ketadigan haqni to'lashga imkonimiz yo'q, ammo sizning haridingizni almashtirib berishimiz mumkin».**

Hatto telefon odobi bilan yuzaki tanish bo‘lish korxona xodimlarini yanada faolroq va sifatliroq xizmat ko‘rsatishiga, o‘z ishidan qoniqishiga olib keladi – muomalali odam bilan hammaning gaplashish yoqimlidir.

Xodimlarning qay darjada telefonda gaplashishi madaniyatini uqqanlarini tekshirish juda oson – o‘zingizni telefon orqali mijoz qilib ko‘rsatishingiz mumkin. Sizning firmangizga ko‘pgina sobitqadam mijozlar qo‘ng‘iroq qiladilar, suhbatning qanday borishi muzokarani natijasini belgilaydi. Agar qo‘ng‘iroq qilgan odam o‘zini tanishtirmay, darhol savollar bilan ko‘mib tashlasa, avval tavoze’lik bilan uning ismi, firmaning nomi va uning telefon raqamini so‘rab, so‘ng suhbatni davom ettirish mumkin.

Ko‘p holda mijozdan o‘zi haqida ma’lumotni «**sug‘urib**» olishga to‘g‘ri keladi. Unda «**nima, qachon, qayerda, kim, qanday**» savollaridan foydalanish joiz, ammo «**nima uchun**» degan savolni ishlatish bu ishonchsizlik belgisidir. Uning talablarini aniqlashtirib olgandan keyin, mahsulotning foydali jihatlarini aytib o‘tish kerak. Agar mijoz mahsulotingizni atayin sotib olish maqsadida qo‘ng‘iroq qilgan bo‘lsa, unda bu tovarni ko‘prog‘ini «**o‘tkazishga**» harakat qilish lozim. Agar mijoz Shunchaki taxminiy ma’lumot bilan qiziqqan bo‘lsa, sizning vazifangiz – sinash uchun olib ko‘rishga ishontirishdir.

Mijozni tavozelik bilan biror qaror qabul qilishiga yo‘naltirish joiz, masalan: «**Biz tovarni siz istagandek tezroq – falon kun yoki haftaning oxirida yetkazishga harakat qilamiz**» yoki «**sizga falon pul yozib qo‘yyamiz...**» Suhbatni oxirrog‘ida narxni aytib, uning qiymatini asoslagan holda firmaning mijozga keltirajak foydasini bildirib qo‘yish mumkin. Shunda qo‘yilgan narx munosib va qabul qilarli darajada bo‘ladi.

Kimning haridlar borasida qarorlar qabul qilishi, uning talablarini aniqlash, o‘z firmasini tanishtirib, tovarlarni taklif qilish maqsadida avval hamkorlik qilmagan firmaga qo‘ng‘iroq qilishdan avval muvaffaqiyatga erishish uchun kimga qo‘ng‘iroq qilishni o‘ylab ko‘rish lozim. Firma uchun zarur bo‘lgan va ishdagi aloqalarni izlashda yordam beruvchi ma’lumotlar manbaining ro‘yxatini tuzib olish zarur. Ular markaziy va hududiy nashrlar, kommersial va texnik ma’lumotnomalar, ilgarigi Sheriklar, mijozlar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Shundan so‘ng, ish rejasini ishlab chiqish, kerakli telefon raqamlarini topish lozim. Firma kotibidan boshlagan yaxshi, uning ismi nima, kim bu masalani hal qilib bera oladi. Agar sizdan qayerdan ekanligingizni so‘rashsa, to‘g‘ri javob bering, agar uzoqdan bo‘lsa, shaharning o‘zini aytgan yetarli. Suhbatning ma’nisini so‘rashganda, taxminiy mavzuda gaplashgan ma’qul. O‘z ishining muhokamasidan qochgan yaxshi va qanchalik yaxshi muomalada bo‘lishmasin, qanday yordam va’da qilishmasin, asosiy masala bo‘yicha suhbatni boshlamaslik kerak. Faqat qaror chiqaruvchi odam bilangina gaplashish lozim.

## Faks

Har qanday kasbiy aloqa faks orqali yo‘riqnomaga bilan almashmasdan bitmaydi. Amerika udumiga ko‘ra faksni jo‘natish uchun o‘zining standart birinchi betiga ega bo‘lishi lozim (Cover page). U qoidaga binoan firmaning blankida qilinadi. Blank Shunday ko‘rinishga ega bo‘lishi lozim: yuqori qismida firmaning ramzi joylashadi (Trade mark), eng quyida esa butun satr bo‘yicha manzil, telefon’ ofis va firma bo‘limlarining boshqa koordinatlari yoziladi. Emblemaning tagiga telefaksning xabari (facsimile message) yoziladi. Keyin esa bu bet quyidagicha formatlashtiriladi.

### Birinchi variant

DATE: (ma’lumot jo‘natilgan sana, oy, yil)

TIME: (ma’lumot jo‘natilgan vaqt)

TO: (jo‘natayotgan kishining ismi–sharifi)

Fax no: (jo‘ntilayotgan kishining faks raqami)

Company: (u namoyon qilayotgan kompaniyaning nomi)

Number of pages including cover (odatiy formula birinchi betni istisno qilmagan holda betlarning hajmi» – bu yerda noma to‘liq tayyor bo‘lib imzo chekilgandan so‘ng qo‘l bilan to‘ldiriladi).

If you do not receive all the pages Please call or fax.  
“Agarsizma’lumotvarag‘iniolmaganbo‘lsangiz, telefonorqali qo‘ng‘iroq qiling, keyino‘ztelefonraqamingizniyozasizyokifaksorqalijo‘natasiz”  
(faksraqamingiznihamyozasiz). Shundan so‘ng Comments: (kommentariya) so‘zini va matnni yozish lozim.

### Ikkinchivariant:

From Location our fax Number of pages (including cover sheet)

TO:

Company/Department

Message:

Birinchi variantdagidek jo‘natayotgan va jo‘natilayotgan odam, firma ma’lumotlari xuddi Shu tarzda yoziladi. Matn kompyuterda teriladi, qo‘l bilan imzo chekiladi. Ikkinci betdan boshlab barcha betlarga raqam qo‘yib chiqqan yaxshi – agar ma’lumot o‘tmasa, uni qayta jo‘natishda chalkashliklar bo‘lmasisligi uchun. Agar hujjat bo‘lmasa, nomaga muhr bosish shart emas. Agar siz javob xatini jo‘natayotgan bo‘lsangiz, avvalida adresatga bir so‘z bilan bo‘lsa ham tashakkur bildirish joiz. Agar faksiga javob berishmasa, bir ozi sabr qilish, ammo hech «**sizni toqat bilan kutyapman**» deb noma jo‘natmaslik zarur. Sherik bilan faks almashib olib, uni qiziqtirgandan so‘ng. Ular (yoki siz) birinchi hamkorlik hujjatini tasdiqlashni taklif qilishdi – reja bayonnomasi. Bu shunchaki ikki tomonning yozma istaklaridir, u majburiyat talab qilmaydi, shu sabab xayolga ketmaslik zarur.

Bayonnomma matni juda qisqa bo‘lishi lozim va oxirida: «**Ushbu bayonnomma o‘z-o‘zicha ikki tomon imzolagan kommersial majburiyat uchun yuridik asos sifatida xizmat qila olmaydi**», - degan ibora yoziladi. Bayonnomma ikki tomonning biri firma blankida to‘rt nusxada – ikkitadan o‘z tilida bo‘lishi lozim. Matnning tagida bayonnomaning bajarilish muddati – qoidaga binonan bir yildan o‘tmasdan ko‘rsatiladi. Yuqoridagi aytilgandek, bunda sizda javobgarlik bo‘lmaydi, ammo biznesmen vijdoni agar siz kelishuvni buzgan bo‘lsangiz boshqasini jabrlanishiga yo‘l qo‘ymasligi kerakdir. Va oxiri – doimo xat yoki faksga javob berish, hatto siz savolni yechishga qiynalayotgan bo‘lsangiz ham. Biznes dunyosida javobgarlik hissi bo‘lмаган kishini mas’uliyatsiz hisoblanib, unga nisbatan ishonch yo‘qoladi.

### **Xizmat munosabatlari etiketi**

Ishlab chiqarish munosabatlarining etiketi degan tushuncha ham mavjudki – u ishxonada hamkasblar bilan kunda ko‘rishib, ko‘p vaqtinuzni o‘tkazar ekansiz unda rioya qilinishi kerak bo‘lgan ba’zi qoida va me’yorlar, ba’zida esa udumlar majmuidir.

### **Ofisda ayol va erkak munosabatlari**

Bugungi kunda uddaburonlik, ishbilarmonlik dunyosida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Faqatgina texlogiya jihatidan rivojlanishni nazarda tutmayapmiz, balki ayollarning ishda, jamiyatda tutib kelayotgan, egallab kelayotgan o‘rnini nazarda tutyapmiz.

Shuning uchun erkak va ayollarning bir jamoada faoliyat ko‘rsatishlari tufayli bu yerdagи o‘zaro munosabatlarda yangicha etiket qoidalariga rioya qilinadi.

### **Salomlashish**

Ko‘pchilik erkaklar ayollarga qo‘l uzatmaslikni ma’qul ko‘radi. Ammo Shunday vaziyatlar bo‘ladiki, erkak kishi 3ta erkak kishi va bitta ayol bilan uchrashib qoldi, deylik. Albatta, 3ta erkak kishi bilan qo‘l berib ko‘rishib, ular bilan uchrashganingizdan mammun ekanligingizni aytинг. Navbat ayol kishiga kelganda nima qilasiz? Bunday vaziyatda ba’zi erkaklar qo‘l uzatishadi, ba’zilari esa oddiygina bosh qimirlatib qo‘yish bilan cheklanib qo‘yishadi. Nima uchun? Chunki ular birinchi bo‘lib ayol kishi qo‘l uzatishlarini kutib turish kerak, deb tarbiya olishgan.

Ammo ayollar birinchi bo‘lib qo‘l uzatmasa, erkak kishi qo‘l uzatishi kerak. Zamonaviy ishbilarmon ayollar odatda bunga amal qilishadi.

### **Erkak xodim xato qilganda**

Ko‘pgina erkaklar ishxonada ayollarga qanday munosabatda bo‘lish va ba’zi muomala qoidalarini bilmaydi. Quyida esa erkaklar tomonidan yo‘l qo‘yilib kelinadigan xatolar ko‘rsatiladi.

Ayol xodimlarga “azizam”, “go‘zalim” kabi so‘zlar bilan murojaat qilish;

Ayollarga qo‘l tekizishga harakat qilish yoki ularning yelkasiga urib-urib qo‘yish, ayollar xohlamagan holda ular bilan qo‘l berib ko‘rishishga harakat qilish.

### **Ayol kishi tushlikka qanday taklif qiladi?**

Ba’zan zamonaviy tadbirkor ayollar erkak hamkorini tushlikka taklif qilishiga to‘g‘ri keladi. Ofitsiantga hammasi uchun siz to‘lashingizni qanday yo‘l bilan bildirib qo‘yasiz?

Buning uchun ofitsiant kelganida: “Men mehmonlarimni o‘zi birinchi bo‘lib buyurtma berishini istardim”, deysiz. Bunday javob bilan ofitsiantga tushlik uchun kim pul to‘lashini va boshqalarni o‘zingizning hisobingizdan mehmon qilmoqchi ekanligingizni bildirasiz.

### **Kim birinchi bo‘lib chiqadi?**

**Liftda.** Liftning chiqish eshidiga kim eng yaqin turgan bo‘lsa, o‘sha birinchi chiqishi kerak. Agar o‘sha odam erkak kishi bo‘lsa, liftdan birinchi bo‘lib chiqib, ayollarni eshik qisib qolmasligi uchun eshikni tutib, ayollar chiqquncha kutib turishi kerak.

**Eskalatorda.** Erkak kishi ayolni oldinga o‘tkazishi kerak.

**Eshik yonida.** Erkaklar va ayollar eshikdan birgalikda emas, balki erkaklar eshikdan birinchi bo‘lib chiqishlari va albatta, ayol kishiga eshikni ohib turishi kerak.

### **Hazilning tagi zil**

Hazillashishga judayam ishqivoz bo‘lmang, ayniqla, ayol kishiga nisbatan. Xorijlik hamkorlaringiz madaniy hayotida siz qilayotgan hazil butunlay o‘zgacha ma’no kasb yetishi mumkin. Aslida ishbilarmonlik uchrashuvlarida muvaffaqiyatli hazil eng katta san’at hisoblanadi. Ammo madaniyati va an’analari turlicha bo‘lgan mamlakatlarda hazil ham turlicha maqomga ega ekanligini unutmang.

### **Sovg‘a qanday taqdim etiladi?**

O‘ziga bo‘ysunuvchilarga firma rahbari sovg‘a bermoqchi bo‘lsa, xodimlarni bayramona tushlikka taklif etib, yoki aksincha rahbarni bayram bilan tabriklash lozim bo‘lganida ham shunday yo‘l tutiladi.

Ammo berayotgan sovg‘a qimmatbaholigi bilan rahbarga xushomadgo‘ylik qilayotgandek bo‘lib qolmasligi kerak.

### **Ayollar etiketni buzganda**

Quyida esa ayol va erkak munosabatlarida ayollarning xatosi ko‘rsatiladi. Hiringlash; Stol atrofida lab bo‘yash. Albatta, yaxshi emas. Bu erkak kishini stol atrofida soch taraganiga o‘xshab xunuk ko‘rinadi.

Ishxonada ko‘cha so‘zлari, qo‘pol o‘xshatishlarni ishlatmang, bu sizning lug‘at boyligingiz kambag‘al ekanligini ko‘rsatadi. Ish vaqtida shahsiy masalalar yuzasidan telefonda gaplashish. Bunday suhbatlarni tushlik vaqtida amalga oshiring.

### **Bayram ziyofatlari**

Bayram yuzasidan uyushtirilgan ziyofatlarda hamkorlaringiz va birga ishlayotgan xodimlar taklif etiladi. Bu bayramona kayfiyatda o‘tishi lozim. Shunday bo‘lmagan taqdirda ham asosiy umumiy odamshavandalikni saqlab qoling. Boshqa notanish kishilar bilan ham ularga ma’qul bo‘lgan mavzularda suhbatlashing.

### **Tabrik qog‘ozlari**

Ko‘plab kompaniyalar bayram tabriklarini otkritkalar orqali amalga oshirishadi. Albatta, har bir xodimga iltifot ko‘rsatib bitilgan tabrik otkritkalari chindanam diqqatga sazovor va bu xodimlarga bo‘lgan e’tibor ularning qalbiga iliqlik olib keladi. Shuning uchun otkritkalarni avval har bir kishiga alohida tarzda tayyorlab, ularni xodimlarga taqdim etganlari ma’qul.

Ish kunimiz qachon boshlanmasin, uning boshlang‘ich asosi uy sharoitidan: kayfiyatimiz, o‘zimizni qanday his qilishimiz, ko‘proq qanday hordiq chiqarib, oiladagi munosabatlarga va h.k. bog‘liqdir. Chiroyli tabassum va ertalabki salom-alik er-xotininng yaxshi kayfiyatda bo‘lishida kuchli ta’sirga ega. Ammo kayfiyat keyinroq ham buzilishi mumkin – yo‘lda, shahar transportida. Avtobus, vaq tig‘iz bo‘lgan paytda tramvay va trolleybuslardagi tiqilinch – asabga tegishga, o‘z yo‘lida kayfiyatni buzilishga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitda kayfiyatni buzmaslik mumkinmi? Ha, mumkin. Har qanday cho‘g‘ olishi mumkin bo‘lgan janjalni mutoyiba, tabassum bilan o‘chirish mumkin. Har qanday sharoitda o‘z hatti - harakatni boshqarishga intilish lozim. Xushmuomalali, tavoze’li bo‘lish, odamlarga tabassum qilish ham insonning o‘zida, ham boshqalarda yaxshi kayfiyatni ushlab turishga sabab bo‘ladi.

Muassasa xonasiga kirayotgan kishi eshikni taqillatmasligi kerak – bu faqat ish bilan band bo‘lgan odamlarning asabiga tegib, diqqatini bo‘ladi. Odatda rasmiy muassasaning eshigi taqillatilganda raddiya hech qachon bildirilmaydi. Rahbar xonasining eshigini agar kotiba bo‘lmasa, taqillatish lozim. Agar rahbar eshikni taqillatmay kirishni shama qilsa, bu qoidaga bo‘ysungan ma’qul.

Majlislar, yig‘ilishlar – agar uning ishtirokchilari behuda chiqishlar bilan boshqalarning vaqtini olmasa, foydalidir. Tor doiradagi majlisda, agar begonalar bo‘lmasa bir – biriga erkinroq munosabatda bo‘lish mumkin. Majlis paytida o‘g‘rincha konfet so‘rish yoki esnash mumkin emas. Erkaklar faqat rais ustki kostyumini yechgandagina, o‘zlarining kostyumlarini yechishlari mumkin. Yon

verida o‘tirgan kishi bilan bir og‘iz gap bilan so‘zlashib olish mumkin, ammo suhbat olib borish yaramaydi.

Sizning kasbdoshingiz ko‘p chekadi. Unda u xonaning tez-tez shamollatilishiga norozilik bildirmasligi kerak. Yoki uning o‘zi buni nazoratga olishi lozim. Chekuvchilar yashash huqiga ega, ammo chekmaydiganlar bu huquqdan mahrum degani emas. Xodimlardan biri davo uchun ko‘p sarimsoq piyoz iste’mol qiladi. Ammo boshqalar bunga chiday olmaydilar. Agar davolash uslublarini xush ko‘radigan bunday Shahs «dori» ning hidini ketkazadigan narsalardan foydalanmas ekan, unda bunday davolash uslubidan voz kechishiga to‘g‘ri keladi.

Xodimlar ichida ozodalikning «kasallari» bo‘ladi. Ular hamisha bir nimani tozalash, artish bilan Shug‘ullanadilar. Ozodalikning ortiqcha mazamati uning aksi bo‘lmish yuvinishga ko‘p vaqt ajratmaydiganlar kabi yoqimsiz his uyg‘otishi mumkin. Agar bu ayol yosh bo‘lsa, suv mo‘jizalar yaratish qudratiga ega ekanligiga ishora qilish mumkin. Yoshi kattaroq odamga bunday deyish noqlay.

### **Siz – rahbar sifatida**

*Rahbar Shahs* – jamiyat, davlat, tashkilotda doimiy va hal qiluvchi ta’sirga ega bo‘lgan shahs. Rahbar ishning ko‘zini biladigan, jamoa, soha manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yuritadigan boshqaruv xodimidir.

Rahbarlik aql-farosat, kuch-g‘ayrat, izlanish va topqirlikni, o‘z ustida tinmay ishslash, tadbirkorlikni talab qiladi. “Rahbar” tushunchasining quyidagi jihatlari ahamiyatlidir:

1. Rahbar–ijtimoiy shahs sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish resurslarini birlashtirib, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchini boshqaruvchi shahs.
2. Rahbar har qanday ishni amalga oshirish uchun, avvalo,, mustaqil qaror qabul qiladi. Bu qaror rahbarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyati maqsadlarini belgilaydi.
3. Rahbar mehnati, ayni vaqtda, tadbirkorlikka asoslangan mashaqqatli faoliyatdir. Unga sarflangan kuch, mablag‘ ba’zan vaqtincha foyda emas, zarar keltirishi, muassasa foyda o‘rniga zarar ham ko‘rishi mumkin. U bunday holatlarni oldindan ko‘ra olishi va ularga tayyor turishi, zarur bo‘lganda, faoliyatini qayta boshlashi, o‘zida bunga kuch-g‘ayrat topa bilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan jihatlar rahbarlik faoliyatining ma’lum aspektlarini namoyon etadi. Masalaning ikkinchi tomoni - rahbarlik faoliyati bilan Shug‘ullanuvchining Shahsi bilan bog‘liq yuksak insoniy fazilatlardan iboratdir. Rahbar halol-pok, vijdonli, iymonli, qattiqqo‘l, diyonatli, mehr-shafqatli bo‘lishi kerak. Rahbarlikka egri yo‘l, egri qo‘l, egri maqsad bilan erishib bo‘lmaydi. Fe’l-atvorida egrilik bor kishi rahbarlik lavozimida uzoq faoliyat yuritolmaydi.

Rahbar mustaqil bo‘lishi, ijtimoiy faoliyatning qonunan taqiqlanmagan hamma sohasi bilan shug‘ullana olishi lozim. Shu bilan birga, u o‘zi boshqarayotgan jamoa orasida obro‘-e’tiborga ega bo‘lishi zarur. Rahbar faol bo‘lmasa, jamiyatda ijtimoiy faollik shakllanmaydi.

Kattami, kichikmi, qaysi mansabda bo‘lishidan qat’i nazar, har bir rahbar oldida «o‘z ishimga talab darajasida yondashishim uchun nimalarni bilishim, qanday fazilatlarga ega bo‘lishim kerak?» - degan savol hamisha ko‘ndalang turadi.

Boshqaruvda tajriba, ko‘nikma, mahorat, bilim, aql va idrokning ham roli katta. Ammo eng avvalo,, boshqaruv – bu san’at, aniqrog‘i, ijoddir. Rahbarlikka ham, xuddi san’atkor uchun zarur bo‘lganidek, iqtidor va iste’dod lozim. Ya’ni, har kimdan san’atkor chiqmaganidek, istagan odamdan ham yaxshi rahbar chiqavermaydi.

Rahbar o‘z qobiliyati, iste’dodini ishga solib izlanadi, shu maqsadda hayotni, odamlarni chuqur o‘rganadi. Natijada, to‘plagan bilimlari, tajribalarini boshqaruvning umumiy qonuniyatlari asosida shakllantirib, o‘zining rahbarlik usulini yaratadi. U o‘z boshqaruv usullarini shakllantirishda mutlaqo erkin shahsdir, lekin uning rahbarlik usuli ijobiy natija berishi kerak.

Rahbarlik faoliyatining samaradorligi rahbar shahsning tafakkuri, aql-idrokiga ham bevosita bog‘liq bo‘ladi. Tafakkur rahbarga keng va chuqur fikrlay olish, yaxshini yomondan, foydani zarardan, muhimni nomuhimdan bexato ajrata olish imkoniyatini beradi. Bu - hammaga ham nasib qilavermaydigan yuksak fazilat. Agar rahbarda shular shakllangan bo‘lsa, bunday rahbar boshqaruvning sir-asrorlarini qiyalmasdan egallaydi hamda o‘z jamoasida obro‘ e’tiborga ega bo‘lib, ular ishonchini qozonadi.

Demak, har qanday rahbar keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, chaqqon va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo‘lishi ham kerak. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi deyish mumkin.

Rahbardagi o‘ziga xos talabchanlik, mehribonlik hamda mas’uliyat jamoa a’zolarida ham javobgarlik hissining shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Rahbar shahsining etiketi uning axloqiy madaniyatiga bog‘liq. Axloqiy madaniyat – elementlarining yaxlit tizimi bo‘lib, axloqiy fikrlash madaniyati (axloqiy mulohaza yuritish qobiliyati, axloqiy bilimlardan foydalana olish, yaxshilik va yomonlikni ajratish, yuzaga kelgan vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlariga axloqiy me’yorlarni qo‘llay bilish va hakozalar)ni qamrab oladi.

O‘z ichiga yana tuyg‘ular madaniyatini, insonning “axloqiy rezonansga” qobiligini, hamdardligini va jonkuyarligini; axloqiy tajribada his-tuyg‘u va o‘ylarning amalga oshirilish qiyofasini, ularning kundalik hayotda hatti-harakat me’origa aylanib borish darajasini xarakterlovchi xulq-atvor madaniyati; shakllarni reglamentlovchi qoidalarga qay darajada amal qilish sifatidagi etiketni, muloqotda shahsning o‘zini tuta bilishini oladi.

Qisqa qilib aytganda, rahbar Shahsining axloqiy madaniyati - umumiy axloqiy tamoyillarni bilish, ularni chuqur his etilgan qarashlariga aylantirish, hatti-harakatlarning eng munosib shaklini qo'llay bilishdir. Uning har bir elementini o'zlashtirish rahbar shahsining axloqiy madaniyati mustahkamligini shakllantirishga yordam beradi. Rahbar shahsining axloqiy madaniyati oliy darajasini "axloqiy donolik" deb, axloqiy faoliyatining optimalligini va uyg'unligini ta'minlab bera olish, har qanday vaziyatda ham munosib hatti-harakat qila olish deb ta'riflasa bo'ladi.

Avvalo, rahbarlar va rahbarlikka da'vogar shahslar o'zlarini har jihatdan tarbiyalab borishlari lozim. Buning uchun siyosiy hayotdan xabardor bo'lish yoki iqtisodiy va kasbiy bilimlarni o'zlashtirishning o'zigma kifoya qilmaydi. Ular jahon tajribalari asosida shakllangan ilg'or boshqaruv malakalarini ham o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Bugungi rahbar bunga o'ziga nisbatan talabchan bo'lib erishadi. Masalan, u har kuni gazeta va jurnallar o'qishi, radio va oynai jahon yangiliklaridan xabardor bo'lish orqali ham ma'lum darajada bilim egallashi mumkin. Yana siyosat, iqtisodiyot va ma'naviyatga daxldor kitoblarni, hatto mumtoz adabiyotlarni mustaqil o'qishi, tarixiy jarayonlarni chuqur mushohada qilish ham uning dunyoqarashini kengaytiradi.

Bularning barchasi rahbar madaniy saviyasining o'sib borishiga va siyosiy madaniyatining takomillaShuviga katta yordam beradi. Chunki cheklangan tafakkur, chala bilim, past madaniyat bilan dunyoni bilib, mas'uliyatli ish va mansabni egallab bo'lmaydi.

Binobarin, demokratik asosda shakllanib borayotgan jamiyatimiz talabi shuki, siyosiy yetuk, aqlan va ma'nан barkamol, puxta bilimga ega bo'lgan teran tafakkurli kishilargina rahbar bo'lishga haqlidirlar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida Qarori qabul qabul qilingan bo'lib unda: "Rahbar o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarga nisbatan yuqori professionalizm, soflik va adolatda o'rnat bo'lishi, davlat organida yohud uning tarkibiy yoki hududiy bo'linmasida ma'naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko'maklashishi lozim, u bo'ysunuvchi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiqib ketadigan topshiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, shuningdek, qonunga xi洛f hatti-harakatlarni sodir yetishga undamasligi kerak.

### **Rahbar:**

Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rishi;

### **Korrupsianing oldini olish choralarini ko'rishi;**

Xodimlarni samarali boshqarishi, o‘ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag‘larga ehtiyyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishi shart.

Rahbar o‘ziga bo‘ysunuvchi, xizmatdagi xulq-atvori prinsiplari va qoidalarini buzayotgan xodimlarning hatti-harakatlari (harakatsizligiga) yo‘l qo‘ylmasligi choralarini ko‘rmaganligi uchun javob beradi.

Davlat xizmatchilari xulq-atvori bilan jamoada boshqa davlat xizmatchilari bilan o‘zaro ishchanlik va amaliy hamkorlik qaror topishiga da’vat etilgan.

Davlat xizmatchilari xushmuomala, iltifotli, odobli, e’tiborli, fuqarolar va hamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatli bo‘lishi, ularni hurmat qilishi shart. Davlat xizmatchilari o‘ziga bo‘ysunuvchilarga va fuqarolarga nisbatan qo‘pollik qilmasligi, odamlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga asossiz psixologik va jismoniy ta’sir ko‘rsatish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida ish sharoitlari va xizmat tadbirdarining shakliga bog‘liq holda davlat xizmatchilarining tashqi ko‘rinishi fuqarolarning davlat organiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga yordam berishi, umumiy qabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo‘lishi, ular rasmiyligi, vazminligi va tartibliligi bilan boshqalardan ajralib turishi kerak.

Davlat xizmatchilari xizmatdan tashqari vaqtida umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya yetishlari, g‘ayriijtimoiy hatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi kerak.”<sup>23</sup>

Agar siz rahbarlik lavozimida bo‘lsangiz, ishga kelgan zaxoti xodimlardan hol-ahvol so‘rab qo‘yish kerakligini yoddan chiqarmaslik yaxshi amaldir. Ular bilan yangi ish kunini birga boshlagandan mammun ekanligingizni, sizdan qancha yordam kerak bo‘lsa shuncha yordamga tayyor ekanligingizni his qilishlariga imkon yaratish kerak. Xodimlarga «Siz» lab murojaat qilish – kasbiy odob hamda normal xizmat munosabatlarini ushlab turishga zarur bo‘lgan quroldir. Yig‘ilish qatnashchilariga nisbatan kuchli tavoze’da bo‘lish lozim.

Odamlar rahbarning avvalambor o‘ziga foydali bo‘ladigan boshqaruvi qarorlarini ishlab chiqish maqsadida keladilar. Boshqalarni ko‘proq eshitishga o‘rganish muhimdir, uning fikriga qarshi bo‘lganining uchungina uning har bir gapiga so‘z tiquishtirib turish sizni yaxshi ko‘rsatmaydi. Boshqalarning ham fikr bildirishiga imkon berish, qatnashchilarni faol bo‘lishlariga chaqirish lozim. Har qanday vaziyatda ham o‘zini ushlab turishga harakat qilish; xodimga vazifa berishda xushmuomalalik bo‘lish joiz. Xodimlar buyruqqa nisbatan iltimoslarni yaxshi qabul qilishlarini yodda tutish kerak.

---

<sup>23</sup> Davlat boshqarushi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari. Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 martdaggi 62-son Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

Xodimlarga nisbatan diqqatlik bo‘lish, ular har muvaffaqiyati uchun qo‘llab-quvvatlab turish ham maqsadga muvofiq. Vaqtida aytilgan «*Rahmat*» ning o‘zi, berilajak mukofot pulidan ta’sirliroq kuchga egadir. Xodim yoki oldingizga kelgan kishining oldida kerak bo‘lmagan qog‘ozlar varaqlash, tinimsiz telefonda gaplashish yoki stolni barmoq bilan tiqillatib o‘tirish yaramaydi. Xizmat munosabatlarining odobi shahsiy masalalar bo‘yicha fuqarolarni qabul qilishda boshqa ishlar bilan mashg‘ul bo‘lmaslikni, kelganlarga nisbatan odob va adolat bilan munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Agar suhbat cho‘zilib ketsa, rahbar o‘rindan turish orqali buni bildirishi mumkin. Agar kimnidir jazolash zarurati paydo bo‘lsa, adolatli va odobli bo‘lish lozim. Ifodalash shakli va jazolash yo‘lini tanlashda xodimning fe’li, jinsi va yoshini hisobga olish zarur.

Tanqid – mohirlik va ehtiyotkorlik bilan foydalanish mumkin bo‘lgan odamlarga nisbatan qudratlari ta’sir kuchiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari”ga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida: “Endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi – o‘zimiz mas’ul bo‘lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatilgan vazifalarni mas’uliyat bilan bajarishni ta’minlashdan iborat. Shunday davr keldi,<sup>24</sup>- bejizga ta’kidlamagan. Odamlarning izzat-nafsi turlicha tanqidlar bilan erga urish; tanqid orqali janjalga olib keluvchi vaziyatlarga yo‘l qo‘yish; quyidan bo‘lgan tanqiddan «*qasos*» olish rahbarlikning faqat rasmiyligini ko‘rsatadi – bunda rahbar xodimdan ham quyiroq darajaga tushib qolishi hech gap emas. O‘ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish – faqat nufuzni ko‘taradi xolos. Chunki u ishda qo‘yilgan xatolardan sizni xoli qiladi va jamoa bilan aloqani bog‘laydi.

### **Pulga bog‘liq bo‘lgan ba’zi bir munosabatlar**

Barcha davrlarda va barcha xalqlarda bu masalalarda aniqlik, halollik, andishalikka hurmat bilan qaralgan. Agar biror kishi oldida pullik majburiyatingiz bo‘lsa, uni o‘z vaqtida buni bajarish lozim. Mabodo, o‘ta uzrli sabablardagina bu ishni bajara olmasangiz, kerakli bo‘lgan odamga albatta, buni ma’lum qilgan ma’qul va undan muddatni uzaytirish imkoniyatlarining borligi yoki yo‘qligini uning ruxsati bilan aniqlashtirib olish yanada maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

<sup>24</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari” ga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

## Qarz

Boshqa narsalar kabi qarz berish ham – alohida xususiyat kasb etuvchi xizmatdir. Qarz berib, biz tavakkal qilamiz, bermasak – obro‘yimiz tushishi mumkin. Qarz berayotib darhol qaytarish muddati haqida gaplashib olishning hech yomon tomoni yo‘q. Albatta, qarz oluvchining o‘zi uni qaytarish muddati haqida gapirgani yaxshi. Agar qarzdor tanishingiz uni qaytarishda shoshmayotgan bo‘lsa, bu haqda eslatish lozim. Qarzni eslatar ekansiz, pulga muhtojligingiz haqida aytsangiz yaxshi bo‘lar edi. Bunda qarzdor uzr so‘rab yangi muddatni aytgani ma’qul (ayni paytda unda shuncha pul bo‘lmasa). Bunday vaziyatda bunday narsalar haqida eslatuvchiga ham, uni eshituvchiga noqulaylik tug‘diradi. Yaxshisi, bunga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Agar muddatida pulni qaytarishingizga imkon bo‘lmasa, qarz bergan kishiga buni bildirib, kutib tura olishini so‘rash mumkin. Agar kuta olmasa – boshqadan yana qarz olib qarzni uzgan ma’qul. Agar qarzning muddati kelishilmagan bo‘lsa, unda muddat bir oyligini nazarda tutish joiz. Qarz berayotganning bergan pul miqdorini qarzdor oldida yozib olishi va qaytarilganda uni o‘chirib olishidan ko‘ra alamliroq narsa yo‘q. Qarz berayotganda yirik qiymatda berib, konvertda qaytarmasa ham bo‘ladi. Kattami, kichikmi pullarni uchinchi shahsning oldida qarz berish qarz oluvchini noqulay vaziyatga solib qo‘yadi. Bunga doir masalalarni guvohlarsiz amalga oshirgan yaxshi. Katta miqdordagi qarzni yaxshisi qonuniy yo‘l bilan berilgani ma’qul (notarial idoralarining guvohligida). qancha va kimga qarz berilgani haqida gapirish madaniyatsizlik belgisi hisoblanadi.

Kerak bo‘lgan narsani tanishingizdan qarzga olib turar ekansiz, uning vaqtida va qanday holatda oligan bo‘lsa shunday topshirish muhimdir. Hech qachon uy egasining ruxsatsiz narsa olinmay va buzib berib, uni sifatsiz ekanligi bilan o‘zini oqlab bo‘lmaydi. Yaqin do‘stona munosabatlardagina buzib qo‘yilgan narsani yangisini olib berish shart emas, uning ta’mirlashga berilishining o‘zi etarli. Albatta imkon qadar birovning narsasini buzib bermaslik lozim hamda umuman, bunday iltimoslar bilan kamroq murojaat qilgan yaxshi. Kiyimlarni kiyib turishga so‘rash o‘ta odobsizlikdir. Ba’zida bunga faqat oila a’zolari o‘rtasidagina yo‘l qo‘yish mumkin. Ammo, boshqa sharoitida yo‘l qo‘ymaslik zarur.

Shunday narsalar borki, «qat’iyan» ularni so‘rab turish man qilinadi. Ohorlik ish ko‘ylagi, u doimo egasiga kerak bo‘ladi. Ba’zida qandaydir biz uchun unchalik qiymat kasb etmaydigan narsalar uning egasi uchun juda qadrli bo‘lishi mumkin. Mashina, magnitofon, fotoapparat, televizor, nodir tasmalarni olish uchun so‘rash to‘g‘ri kelmaydi. Olingan mayda–chuysda narsalar va pullarni egasini yo‘lda uchratganda ham bersa bo‘ladi, ammo katta narsalar va pullarni uygaga olib borib bergen ma’qul.

## **Global tarmoqdagi muloqot**

Ishchan muloqotga kirishishning eng asosiy turi global tarmoqdagi muloqot desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuning uchun ham internet tarmog'i orqali muloqot qilishning ham o'z etiketi borligi va unga barcha foydalanuvchilar amal qilishlari lozimligi maqsadga muvofiq.

1. Global tarmoqqa registratsiyadan o'tishda o'zingiz haqidagi barcha ma'lumotlarni to'g'risini joylashtiring.
2. Profilingizga boshqa insonlarni rasmini qo'y mang.
3. Biror bir inson bilan muloqotga kirishmoqchi bo'lsangiz, uning Shahsiy lichkasiga kirib o'zi bilan suhbatlashing.
4. Do'stlik yuborgan inson sizni taklifingizni qabul qilmasa, jaxlingiz chiqmasin.
5. Taxallus bilan muloqotga kirishgan insonlar bilan umuman gaplashmaslikni maslahat beramiz.
6. O'zingizni noqulay vaziyatga solib qo'yadigan rasmlarni joylashtirmang.
7. O'zingiz yaxshi tanimagan bilmagan inson bilan muloqotga kirishmang.
8. "Do'stlariningiz" ro'yxatini vaqt-vaqt bilan tozalab turing.
9. Muloqotda so'kinish, shahsiyatga tegadigan so'zlardan extiyot bo'ling.
10. O'zingizni meningizni saqlang.

## **Telegramm, messenjer guruhlarida muloqotga kirishganda quyidagilarga amal qilish lozim**

1. Tinish belgilardan to'g'ri foydalaning.
2. Faqat katta xarflarda yozmang.
3. Atayin noto'g'ri yozish (salom, qale....) boshqalarni g'ashini keltiradi, buni unutmang.
4. Haddan tashqari uzun matn yoki juda ko'p rasmlarni yuborish mumkin emas, bu bilan siz boshqalarni internet vaqtini "yeb" qo'yayotganligingizni bilishingiz lozim.
5. Ma'lumotda smayliklardan ko'p foydalanmang.
6. Muloqotga kirishgan insonning ruxsatisiz boshqalarga yozishmalarni ko'rsatmang.

## **Elektron pochta orqali muloqot etiketi**

Internet tarmog'i orqali yuboriladigan "Elektron pochta" sohasi ham ancha rivojlangan. Elektron pochta o'zining ishonchliligi, tezkorligi va maxfiyligi bilan alohida ajralib turadi. Uning ham o'z etiket talablari mavjud:

1. Adres va shahsiy nomni to'g'ri tanlang, bu sizning "vizit kartochkangiz" hisoblanadi.

2. Yuboradigan xatingizni nomini to‘g‘ri kriting. Ma’nosiz so‘zlardan foydalanmang.
3. Elektron pochta muloqoti - bu telefondagi muloqot emas, murojaatda “iltimos” degan so‘zlarni ishlating.
4. Yuborgan xatingizga zudlik bilan javob berilmasa, asabiyashmang, buni hurmatsizlik deb bilmang.
5. Smayliklardan to‘g‘ri foydalaning.

### **Tayanch tushunchalar:**

Biznesmen, rahbarlik lavozimi, majlis, yig‘ilish, ishlab chiqarish munosabati, da’vo, biznesmen etiketi, chet el, taqdimot, qabul, faks, ish telefoni, uyali telefon, uchrashish vaqt, tanqid, pul muomalasi, qarz olish, qarz berish, qarzni qaytarish, mashina, magnitofon, fotoapparat, telegramm, messenger, internet, elektron pochta, muloqot, smaylik.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Biznesmen etiketi deganda nimani tushunasiz?
2. Chet eldagи biznesmenning o‘zini tutish qoidalari.
3. Biznesmen qayerga qanday kiyinishi lozim?
4. Prizentatsiya etiketi.
5. Qabulda qatnashish qoidalari.
6. Chet eldagи biznesmen tashqaridagilarga qanday murojaat qilishi lozim?
7. Faksdan va ish telefonidan, uyali telefondan to‘g‘ri foydalanish etiketi qanday amalga oshiriladi?
8. Uchrashish vaqtini belgilash etiketi haqida nimalarni bilasiz?
9. Pulga bog‘liq bo‘lgan ba’zi bir munosabatlar, ya’ni pul etiketi haqida nimalarni bilasiz?
10. Qarz olish va uni qaytarish etiketi nimalardan iborat?
11. Telegramm, messenger guruqlarida muloqotga kirishganda nimalarga amal qilish lozim?
12. Elektron pochta orqali muloqot etiketi qanday amalga oshiriladi?

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., O‘zbekiston, 2011.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari” ga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
4. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. O‘zbekiston milliy faylasuflari jamiyati. – Toshket, 2010. 293-b.
5. Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari. Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 martdagи 62-son Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
6. Deyl Karnegi. Qanday qilib do‘sit orttirish va odamlarga ta’sir ko‘rsatish mumkin. A.Usmon tarjimasi. – Namangan, 2007.
7. Деловой этикет. Экономическая категория. [www.c Kodzeva. ru/](http://www.c Kodzeva. ru/) a. 11. 24КБ.
8. Правила этикета. [www. etiksute. org](http://www. etiksute. org). 3 КБ.
9. Про ресторан – основы ресторанныго дела. [www. Prorestoran. Com](http://www. Prorestoran. Com). 23КБ
10. Этикет от А до Я. [www. etiksute.ru](http://www. etiksute.ru). 11. КБ.

## **7-MAVZU. RAHBAR XODIMLARNING ETIKASI VA ETIKETI**

Inson qanchalik tajribali va bilimdon bo‘lsa uni odob masalalari Shunchalik qiziqtira boshlaydi. Xodimlarning axloqiy yuksakligi zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatining muhim sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bunga erishish uchun, avvalo, rahbarning ijtimoiy – axloqiy tayyorgarligi zarur. Boshqaruv odobining mohiyati ishlab chiqarishni tashkil yetish va boshqarishning barcha ishtirokchilari xulq – atvori tamoyil va me’yorlarini asoslashdir.

Boshqaruv odobi ma’muriy va xo‘jalik faoliyatini sifatli ado yetishga yo‘naltirilgan nazariy–amaliy etika bilimlari va amaliy tavsiyalar tizimidan iboratdir. Ijtimoiyadolat, shahs erkinligi, kasbiy pokizalik, mas’uliyatni his qilish, tabiatni avaylab asrash uning asosiy tamoyillari hisoblanadi.

Boshqaruv odobida axloqiy tavsifdagi, shahs xulq – atvorini o‘rganish bilan bog‘liq me’oriy hujjatlar, boshqaruv faoliyatiga nisbatan axloqiy talablar, ishga aloqador axloqiy qoidalar va ishlanmalar hamda rahbarning xizmatidan tashqari xulqi, muomala odobi bo‘yicha maslahatlar muhim o‘rin egallaydi.

Davlat xizmatchisining asosiy axloqiy qoidalar quyidagilar:

- kamtar bo‘lish;
- qo‘l ostidagilar bilan hushmuomala bo‘lish;
- odamlarga keng ko‘lamda o‘z foydaliliginin namoyon yetish uchun hokimiyatga intilish;
- o‘z xodimlarini boshqaruv faoliyatida qatnashish uchun faol jalb yetish;
- foydali tanqidni samimiyl qabul qilish va jamoat fikrini hurmat qilish;
- qo‘l ostidagilarga ishongan holda munosabatga moyillik, ularni o‘z hamfikrlari deb bilish.

Axloqiy barkamollik rahbarning ishbilarmonlik sifatlaridan biri hisoblanadi. Axloqiy barkamol insonlar axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etadi.

Rahbarlik – mas’uliyatli vazifa. Uni sharaf bilan ado etmoq uchun, kishi o‘zi rahbarlik qiladigan sohani bilishigina emas, balki yana bir qator sifat va fazilatlarga ega bo‘lmog‘i kerak.

Ular ichida avvalo,

### **1. Til va nutq.**

**2. Izlanish.** Yangilikka intilish va har bir yangilikni amaliyotga tatbiq yetish izlanuvchanlikdir. Rahbar shahsning izlanuvchanligi o‘z malakasi va tajribasini oshirib berishda ko‘rinadi. Tashabbuskorlik – izlanuvchanlik samarasidir. Yangilikka o‘ch rahbar Shahs tashabbuskor bo‘ladi va o‘z ishini qoniqarli bajaradi.

**3. Zamonaviy bilimlilik.** Kishi o‘zi yashaydigan davrning eng ilg‘or tushunchalarini o‘zlashtirsa, zamonaviy bilimga ega bo‘ladi. Rahbar shahsning

zamonaviy bilimga egaligi esa hozirgi zamon boshqaruv sirlarini bilishi, siyosiy onglilik va dunyoviy taraqqiyotni anglashi bilan belgilanadi.

**4. Vatanparvarlik.** Inson o‘z yurtini sevsə vatanparvar hisoblanadi. Rahbar shahs esa o‘z Vatanini sevishidan tashqari, uning taraqqiyotini ta’minlashi kerak. Kechani kecha, kunduzni kunduz demay o‘z xalqiga xizmatini qilish rahbar shahs uchun vatanparvarlikdir.

**5. Yurtga sadoqat.** Odam o‘z yurtini obod qilsa, yurtiga sadoqatli hisoblanadi. Rahbar shahs esa yurt istiqbolini belgilovchi izchil dasturlarni bajarishi, hayotni farovon qilishi va o‘zgalarning og‘irini yengil qilish bilan o‘z yurtiga sadoqatini namoyon qiladi.

Demak, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bayon qilgan dastlabki fikrga ko‘ra, bu besh fazilat rahbar Shahs ma’naviyatining asosiy hislatlarini tashkil qiladi.<sup>1</sup>

**6. Fidoyilik.** Biror kishi ulug‘ maqsad sari qat‘i harakat qilsa fidoyilik qilgan bo‘ladi. Rahbar shahs esa Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta’minlash bilan fidoyiliginamoyish etadi. Bugungi kun rahbari har bir ishda oldingi safda bo‘lsagina fidoyi hisoblanadi.

**7. O‘z kasbining ustasi.** Har kim tanlagan kasbini puxta bilsa, kasbining ustasi hisoblanadi. Rahbar shahsning professionalligi deganda esa o‘z kasbini so‘nggi yutuqlarigacha bilishi bilan birga, boshqaruv sirlarini qat‘i o‘zlashtirishni ham tushunish kerak. Birinchi Prezident uning ko‘rinishini “boshqalarga o‘rnak bo‘lishi” deb belgilaydi.

**8. Mustaqil dunyoqarash.** Muayyan masalada o‘z fikriga ega bo‘lish mustaqil dunyoqarashni bildiradi. Rahbar shahs esa “keng fikrlashi, uzoqni ko‘ra bilishi qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turadi”<sup>1</sup> va bu uning mustaqil dunyoqarashga egaligidir.

**9. Iymon-e’tiqodli.** Insonning o‘zi ishongan narsaga ixlos qilishi iymon-e’tiqoddir. Rahbar shahs esa bugun va ertani ko‘zlab, zamon muammolarini hal qila bilishi hamda mustahkam irodaga ega bo‘lishi bilan iymon-e’tiqodli hisoblanadi.

**10. Inson bo‘lishi.** Kishi yuksak insoniy axloqqa ega bo‘lsa, yaxshi kishi hisoblanadi. Rahbar shahs esa “atrofidagi uni o‘rab oladigan xushomadgo‘y, lagabardor, labbaychilarining maqtovidan o‘zini saqlab o‘ta olsa”<sup>2</sup> chinakam insoniyigini namoyon qiladi.

Islom Karimov bu o‘n fazilatni rahbar shahs ma’naviyatini shakllantirishdagi asosiy elementlar sifatida taqdim qiladi. Bu fazilatlar inson ma’naviy olami bilan bog‘liq tushunchalardir. Ular izchil tarbiya jarayonida shakllantirilib boriladi.

<sup>1</sup>Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild.-T.: “O‘zbekiston” 2000. - B.61-62.

<sup>1</sup>Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild.-T.: “O‘zbekiston” 2000. - B. 60.

<sup>2</sup>O’sh manba -Б.60.

“Ma’naviyat haqida gap ketar ekan, - deya ta’kidlaydi Birinchi Prezident, - men avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman”<sup>3</sup> Mana shu poklaydigan, yuksaltiradigan va uyg‘otadigan “botiniy kuch” nima? U inson ongi va qalbidagi yaxshilik va imkoniyat tuyg‘ularidir.

Rahbar shahs ma’naviyatini tashkil qiluvchi fazilatlardan tashqari yana insonga xos illatlar ham bor. Ular rahbar shahs ma’naviyatini shakllantirishga to’siq bo‘lmoqda. Misol uchun, professor E.G‘oziyev ana Shunday illatlardan quyidagi o‘n beshtasini ko‘rsatib o‘tadi:

- 1.O‘zini-o‘zi boshqara olmaslik.
- 2.Shahsiy qadriyatlardan putur kyetishi.
- 3.Shahsiy maqsadning noaniqligi.
- 4.O‘zini-o‘zi kamol toptirishning izdan chiqqanligi.
- 5.Muammolarni hal qilish malakalarining yetishmasligi.
- 6.Ijodiy yondaShuvda nuqsonlarning mavjudligi.
- 7.Odamlarga ta’sir o‘tkaza olmaslik.
- 8.Boshqaruv faoliyati xususiyatlarini yetarli darajada tushunmaslik.
- 9.Rahbarlik qilish malakalarining zaifligi.
10. Boshqalarni o‘qitish, ularga saboq berish, o‘rgatish uquvining yo‘qligi.
11. Mehnat jamoasini jipslashtirish qobiliyatining pastligi.
12. Yangiliklar bilan o‘zgalar e’tiborini jalb qilishga uquvsizlik.
13. Odamlar bilan muomala qilish madaniyatining yo‘qligi.
14. Aql va farosat bobida sustkashlik.
15. Ishbilarmonlik qobiliyatining kuchsizligi<sup>25</sup>.

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyoti yo‘lida yangi ufqlar va maqsadlarga intilayotgan, jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar yangi bosqichga ko‘tarilayotgan bir paytda, eng avvalo,, rahbarlarning o‘z vazifasini halol va malakali bajarishga, qolaversa, fidoyiligiga ko‘p narsa bog‘liq ekanligini ta’kidlab o‘tmoqchimiz.

Rahbar kadr, davlat xizmatchisining shahsiy sifatlari, fazilatlari makon va zamonda shakllanadi. Hozirgi yangi, o‘tish davrida ilgari rahbar kadrlarda bo‘lмаган istiqlol davriga xos fazilatlarni tez shakllantirish uchun ajoyib imkoniyatlar mavjud. O‘zgarayotgan ijtimoiy muhit, ish uslubi, rahbarlik tarzi, talablari yangi tipdagi davlat mulozimlari, rahbar kadrlarni tarbiyalash uchun zarur bo‘lgan ob’yektiv shart-sharoitni yaratdi. Galdagi vazifa davlat xizmatchilariga qo‘yilayotgan yangi talablarni, ular uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni ilmiy asoslab, tahlil etib,

<sup>3</sup>Karimov I. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: “O‘zbekiston”, 1999. -B.17.

<sup>25</sup>G‘oziev E. Rahbar faoliyatidagi nuqsonlarni bartaraf etish. // “Xalq ta’limi” jurnali, 2000. № 3. -B. 18-23.

umumlashtirib, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, amaliy tajriba yordamida maxsus shakllantirishdir. Ana shunda davlat xizmatchilari tafakkuridagi yangilanish ular orqali xalqqa, demakki, har bir o‘zbekistonlikka etib boradi. Jamiyat tafakkuri tezroq yangilanadi, millat bir jonu bir tan bo‘lib, islohotlarni tezlashtiradi.

Davlat xizmatchilari tafakkurini yangilash ikki tomonlama jarayondir. U bir tomonidan, yangi, zamonaviy davlat xizmatchilariga xos fazilatlarni maxsus, ilmiy asosda shakllantira borishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, hamon ba’zan o‘z ta’sirini ko‘rsatayotgan, sobiq sho‘ro kadrlar siyosatida “sinalgan” korporativ-byurokratik psixologiyani siqib chiqarish talab qilinadi. Bu ikki jarayonni parallel olib borish zarur. Aks holda, yangi, sog‘lom tafakkur eski, “sinalgan” tafakkurga “urilib”, chekinishi mumkin. Masalan, davlat manfaatini o‘z manfaatidek ko‘rish – davlat xizmatchisi faoliyatining yetakchi tamoyili ekanligi e’tirof etilsa-yu, boshqaruvda uchrab turgan korrupsiya, poraxo‘rlik, ma’muriy buyruqbozlik, mahalliychilikka qarshi kurashilmasa, ana shunday holat ro‘y berishi mumkin. Ma’lumki, shahsiy manfaatlar, nafs ustuvorligiga qurilgan birlashuv, uyushish kuchli bo‘ladi. Chunki shahsiy manfaat ustuvorligi davlat organlariga suqilib kirib olgan xudbin, yulg‘ich, ustamon, laganbardor, iqtidorsiz shahslarni birlashtiradi. Sobiq sho‘ro tizimida bu birlikning tamoyili - shahsiy sadoqat, “men sizga, siz menga, davlatni esa qo‘ya turing” tarzida namoyon bo‘lib keldi. Shabs – davlatdan, davlat – shahsdan, shahs – o‘z mehnati mevalaridan uzoqlashdi, begonalashdi. Shu sababli murosasiz tanqid ostiga olingan shahsiy, guruhiy, mahalliy, qon-qarindoshchilik manfaatlarini davlat manfaatidan ustun qo‘yish kabi sobiq sho‘ro tizimida qolgan zararli meros ba’zi hollarda hamon o‘zini eslatib turibdi.

Shahsiy manfaatdorlik tamoyili asosiga qurilgan bu hodisalar o‘ta yashovchan. Masalan, eski sho‘ro davridagi “qo‘shib yozish” xodisasini olaylik. Qo‘shib yozish uni yozuvchilarga nafaqat jinoiy daromad, balki mukofot, soxta obro‘ ham keltirar edi. Boshqaruv organlari nazoratining sustligi ma’muriy byurokratiya, rasmiyatchilik, odamlarning tashvish-muammolariga befarqlik, poraxo‘rlikning “gullab-yashnashi”ga sharoit yaratar edi. Bundan na davlat, na millat yutar, balki shahsiy manfaatdorlik asosida uyushgan guruhlar tantana qilar edi.

Demokratik boshqaruv tamoyillari rahbar shaxslardan ma’naviyatli bo‘lishni taqozo etadi. Bu masala Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida yetarli darajada yoritib berilgan. Shunday qilib, Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan rahbar shahs ma’naviyati konsepsiysi quyidagi xarakterli xususiyatlarga ega:

**Birinchi.** Rahbar shahsshunchaki boshqaruvchi emas, balki u tom ma’nodagi yetakchi va o‘zgalar uchun ibrat namunasidir. Bu yetakchilik va ibratlilik ishda, axloqda va faoliyatda bo‘ladi.

**Ikkinchি.** O‘zbekiston boshqaruv ilmida rahbar shahsning ma’naviyatli bo‘lish g‘oyasi muhim o‘rin tutadi. Bu g‘oya ma’muriy-buyruqbozlik boshqaruv tizimidan demokratik boshqaruv tizimiga o‘tish asoslaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

**Uchinchi.** Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqarilgan rahbar shahs ma’naviyatini Iste’dod, Izlanish, Zamonaviy bilimdonlik, Vatanparvarlik, Yurtga sadoqat, Fidoyilik, Professionalizm, Mustaqil dunyoqarash, Iymon-e’tiqodlilik va Insoniylik fazilatlari tashkil qiladi.

**To‘rtinchi.** Rahbar shahs ma’naviyati konsepsiysi xalqimizning milliy mentaliteti va dunyoviy mezonlar bilan uyg‘un bo‘lib, u ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslangandir.

**Beshinchi.** O‘zbekistonda rahbar shahs ma’naviyatining shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va siyosiy asoslari shakllantirilgan. U davlat kafolatiga olingan.

**Oltinchi.** Ma’naviyat masalalariga MDH davlatlari ichida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda alohida e’tibor qaratildi va shu asosda rahbar shahs ma’naviyati konsepsiysi shakllantirildi.

Rahbar shahs ma’naviyati boshqaruv ilmida:

- muammoni hal yetishda shahs omiliga tayanish;
- Shahs imkoniyatlarini maqsadli yo‘naltirish;
- Shahs imkoniyatlaridan foydalanish bilan ahamiyatlidir.

Bu masala fundamental ravishda tadqiq etilishi va hayotda keng tatbiq etilishi kerak. Shundagina rahbar shahs ma’naviyatiga doir yaxlit konsepsiya o‘z samarasini beradi va mustaqil O‘zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar jarayonida hamon uchrayotgan to‘sinq va kamchiliklar bartaraf etilib, ko‘zlangan ulug‘ maqsadlarga og‘ishmay va tez sur’atlar bilan yetishish mumkin bo‘ladi.

Rahbarlik aql-farosat, kuch-g‘ayrat, izlanish va topqirlilikni, o‘z ustida tinmay ishlashni, tadbirkorlikni talab qiladi. “Rahbar” tushunchasining quyidagi jihatlari ahamiyatlidir:

1. Rahbar – ijtimoiy shahs sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish resurslarini birlashtirib, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchini boshqaruvchi sifatida omilkorlik bilan ish yurituvchi shahs.

2. Rahbar har qanday ishni amalga oshirish uchun, avvalo, mustaqil qaror qabul qiladi. Bu qaror rahbarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyati maqsadlarini belgilaydi.

3. Rahbar o‘z sohasiga yangi g‘oya, yangi tashabbus, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi tadbirkor shahs hisoblanadi.

4. Rahbar mehnati, ayni vaqtida, tadbirkorlikka asoslangan mashaqqatli faoliyatdir. Unga sarflangan kuch, mablag‘ ba’zan vaqtincha foyda emas, zarar keltirishi, muassasa foyda o‘rniga zarar ham ko‘rishi mumkin. U bunday holatlarni

oldindan ko‘ra olishi va bunga tayyor turishi, zarur bo‘lganda, faoliyatini qayta boshlashi, o‘zida bunga kuch-g‘ayrat topa bilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan jihatlar rahbarlik faoliyatining ma’lum aspektlarini namoyon etadi. Masalaning ikkinchi tomoni - rahbarlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kishining shahsi bilan bog‘liq yuksak insoniy fazilatlardan iboratdir. Rahbar halol-pok, vijdonli, iymonli, qattiqqa‘l, diyonatli, mehr-shafqatli bo‘lishi kerak. Rahbarlikka egri yo‘l, egri qo‘l, egri maqsad bilan erishib bo‘lmaydi. Fe‘l-atvorida egrilik bor kishi rahbarlik lavozimida uzoq faoliyat yuritolmaydi.

Rahbar mustaqil bo‘lishi, ijtimoiy faoliyatning qonunan taqiqlanmagan hamma sohasi bilan shug‘ullana olishi lozim. Shu bilan birga, u o‘zi boshqarayotgan jamoa orasida obro‘-e’tiborga ega bo‘lishi zarur. Rahbar faol bo‘lmasa, jamiyatda ijtimoiy faollik shakllanmaydi.

Kattami, kichikmi, qaysi mansabda bo‘lishidan qat’i nazar, har bir rahbar oldida «o‘z ishimga talab darajasida yondashishim uchun nimalarni bilishim, qanday fazilatlarga ega bo‘lishim kerak?» - degan savol hamisha ko‘ndalang turadi.

Boshqaruvda tajriba, ko‘nikma, mahorat, bilim, aql va idrokning ham roli katta. Ammo eng avvalo, boshqaruv – bu san’at, aniqrog‘i, ijoddir. Rahbarlikka ham, xuddi san’atkor uchun zarur bo‘lganidek, iqtidor va iste’dod lozim. Ko‘rinadiki, har kimdan san’atkor chiqmaganidek, istagan odamdan ham yaxshi rahbar chiqavermaydi.

Rahbar o‘z qobiliyati, iste’dodini ishga solib izlanadi, shu maqsadda hayotni, odamlarni chuqur o‘rganadi. Natijada, to‘plagan bilimlari, tajribalarini boshqaruvning umumiyligini qonuniyatlari asosida shakllantirib, o‘zining rahbarlik usulini yaratadi, U o‘z boshqaruv usullarini shakllantirishda mutlaqo erkin Shahsdir, ammo uning rahbarlik usuli ijobiy natija berishi kerak.

Rahbarlik faoliyatining samaradorligi rahbar shahsning tafakkuri, aql-idrokiga ham bevosita bog‘liq bo‘ladi. Tafakkur rahbarga keng va chuqur fikrlay olish, yaxshini yomondan, foydani zarardan, muhimni nomuhimdan bexato ajrata olish imkoniyatini beradi. Bu - hammaga ham nasib qilavermaydigan yuksak fazilat. Agar rahbarda shular shakllangan bo‘lsa, unday rahbar boshqaruvning sir-asrorlarini qiyalmasdan egallab oladi, o‘z jamoasi o‘rtasida obro‘ va ishonch qozonadi.

Demak, har qanday rahbar keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, chaqqon va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo‘lishi ham kerak. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi deyish mumkin.

Rahbardagi o‘ziga xos talabchanlik, mehribonlik hamda mas’uliyat jamoa a’zolarida ham javobgarlik hissining shakllanishiga sabab bo‘ladi. Malakali rahbar kadrlar tizimini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun ijtimoiy psixologiya, rahbar psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi kabi fanlarni yaxshi o‘zlashtirishi uchun bor imkoniyatlarini ishga solishi kerak.

Xullas, jamoaga rahbarlik qilish katta san'at. Rahbar – ustoz, murabbiy, rahbar - millat tarbiyachisi, jamiyatimizdagi mas'ul shahs. Uning mashaqqatli mehnati natijasi o‘laroq, kelajak vorislari kamol topib boradi. Demak, rahbarlarga qaratilgan e’tibor – Vatan taqdiriga qaratilgan e’tibordir.

Rahbar shahslar avlodini shakllantirish aslida juda murakkab masala. Bu masala bilan olimlar va davlat rahbarlar uzoq vaqt, izchillik bilan Shug‘ullanganlar. Chunki odam darhol rahbar bo‘lib tug‘ilmaydi. Izchil tarbiya va tajriba vositasida iqtidorli kishilar rahbar Shahsga aylana boradi.

Shu o‘rinda Amir Temurning rahbar shahsi xususidagi fikrlarini keltirmoqchimiz. U bu borada quyidagi 12 talabga javob bergan shahsni rahbar deb hisoblashini yozib qoldirgan:

**“Birinchi.** Rahbar o‘z so‘ziga ega bo‘lib, ishini bilib qilsin.

**Ikkinci.** Rahbar har bir ishdaadolatpesha bo‘lsin.

**Uchinchi.** Rahbar qoida-nizomlarga itoat qilsin.

**To‘rtinchi.** Rahbar o‘z qarorida qat’i bo‘lsin.

**Beshinchi.** Rahbar o‘z qarorining bajarilishini ta’minalas.

**Oltinchi.** Rahbar o‘z vazifasini o‘zgaga topshirmsin.

**Ettinchi.** Rahbar o‘z faoliyatida har kimning so‘zini eshitib, fikr olsin.

**Sakkizinchi.** Rahbar masalalarni hal yetishda o‘z fikriga ega bo‘lsin.

**To‘qqizinchi.** Rahbarnizoning faoliyatidan qoniqsin.

**O‘ninch.** Rahbar o‘z so‘zi va qarorida qat’i tursin.

**O‘n birinchi.** Rahbar o‘z vazifasini ado yetishda ta’maga yo‘l qo‘ymasin.

**O‘n ikkinchi.** Rahbar sergak bo‘lsin”<sup>26</sup>.

Amir Temurning rahbar shahslar to‘g‘risidagi bu qarashlari 600 yil o‘tib ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi bilan e’tiborlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham o‘z tajribasidan kelib chiqib, rahbar Shahslarni quyidagi toifalarga bo‘ladi:

1. **Birinchi toifa** – amal kursisini yaxshi ko‘rvuchilar, ularni zamona shamoliga qarab turuvchilar deb atash mumkin.
2. **Ikkinci toifa** – kuzatib turuvchilar. Bundaylar kim g‘olib bo‘lsa, Shu tomonga og‘adilar.
3. **Uchinchi toifa** – zamon talablarini anglab yetgan kishilar. Afsuski, bundaylar oz<sup>27</sup>.

Bu ikki fikrni uyg‘un kelishiga sabab, Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning iste’dodli dahosidan dalolatdir. Chunki, professor A.Kovalyov uzoq ilmiy izlanishlardan keyin rahbar Shahslarni uch tipga bo‘lgan bo‘lsa, I.Karimov amaliy tajribadan kelib chiqib, Shunday fikrga keladi. Demak, mamlakatimiz rahbarining

<sup>26</sup>Temur tuzuklari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1996. 86-87-betlar.

<sup>27</sup>Karimov I.A.Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lidan. 6-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1998. – B 112.

rahbar Shahsiga doir yangicha talqinlari ilmiy asoslarga egadir. Bu ma'noda Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning mana Shu fikrlari diqqatga sazovordir: “Ayrim rahbarlarning g'alati hislatlari haqida gapirmoqchiman. Ular qo'l ostidagi odamlarga yetarli e'tibor bermaydi, o'zidan yuqori amaldorlar oldida esa, sakkiz bukilib salom beradi. Ishni bilmaydi desangiz, o'z manfaati yo'lida kallasini Shunday ishlatadiki, hayron qolasiz!”.<sup>28</sup>

Birinchi Prezident ilgari surgan rahbar shahs konsepsiyasida yetakchilarning vakolatlari masalasida erkinlashtirish masalasi muhim o'rinni tutadi. Unga ko'ra, rahbar shahslar qonuniy asosdagi vakolatlaridan unumli foydalanishlari kerak. Buning uchun Islom Karimov rahbar shahslarni ma'naviy rag'batlantirish yo'lidan boradi. Bir o'rinda u: “Viloyat hokimlari hukumatimizning joylardagi vakolatxonasi, hokimlar esa Birinchi Prezidentning vakillaridir”,<sup>29</sup> deydi

Islom Karimov o'zbek davlatchiligi boshqaruvi tarixida yangi, o'ziga xos rahbar shahs talqinini taqdim qildi. Uning mohiyati fikrda o'z ifodasini topgan: “Rahbarlik – lavozim, mansab emas, avvalo, odamlarga xizmat qilish. Rahbar degani hammadan ko'proq ishlab, fuqarolar saodati va yurti ravnaqi uchun yelib yuguradigan fidoyi inson bo'lishi kerak”.<sup>30</sup>

Davlat xizmatidagi xodimlarning huquqiy va axloqiy madaniyati bir-biriga mutanosib bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan mansabdor shahslarda siyosiy hislatlar bilan bir qatorda, axloqiy fazilatlarni shakllantirish zaruriy holdir. Axloqiy barkamollik davlat xizmatidagi xodimlarning ishbilarmonlik sifatlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlari”ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida: “Endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi – o'zimiz mas'ul bo'lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishni ta'minlashdan iborat. Shunday davr keldi,<sup>31</sup> ”- bejizga ta'kidlamagan.

Jamiyatda mutlaq, abadiy va o'zgarmas axloq yo'q. Axloq tarixan o'zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Uning bu xususiyatlari umumiyligi axloqning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan *kasb axloqida* ham yaqqol namoyon bo'ladi. Jamiyat rivojining tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo

<sup>28</sup>Karimov I.A.Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: “O'zbekiston”, 1996. - B 43.

<sup>29</sup>Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. – T.: “O'zbekiston”, 1996, - B.135.

<sup>30</sup>Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: “O'zbekiston”, 1996. - B.45.

<sup>31</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlari” ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. www.gov.uz.

bo‘lishi mehnatning bir turi bilan band bo‘lgan kishilar guruhining kasb - hunar jihatidan ajralib chiqishiga va Shunga muvofiq ravishda turli xil mutaxassislikning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu esa har bir insonning qilayotgan mehnat tarziga, mehnatni tashkil qilish usullariga qarab, ulardan muayyan turdagи harakatlar va ruhiy quvvatlarni sarflashni talab etadigan qaytarilmas, o‘ziga xos ko‘nikmalarni vujudga keltiradi. Inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o‘z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo‘ladi.

### **Tayanch tushunchalar:**

Axloq, shahs, davlat, davlat xizmatchisi, komil inson, ma’naviy kamolot, inson qadr-qimmati, Boshqaruv odobi, ma’muriy va xo‘jalik faoliyati, amaliy etika, ijtimoiyadolat, shahs erkinligi, kasbiy pokizalik, mas’uliyatni his qilish, tabiatni avaylab - asrash axloqiy tavsif, shahs xulq-atvori, axloqiy talablar, ishga aloqador axloqiy qoidalar, ishlanmalar, rahbarning xizmatidan tashqari xulqi, muomala odobi, kamtarlik, saxiylik, sermulohazalik, muloyimlik, sertakalluflik, e’tiborlilik, axloqiy his-tuyg‘ular, hayratlanish, g‘urur, shuhratparastlik, nafratlanish, axloqiy odatlar , o‘zini tuta bilish odobi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. So‘z va ish birligini davlat xizmatchisi etikasidagi asosiy mezon sifatida baholab bering.
2. Xodimlarning ruhiyati va xulq-atvorini tushunish uchun nimalarga e’tibor berish lozim?
3. O‘ziga ishonch - boshqaruvchi fazilatining muhim mezoni sifatida baholab bering.
4. Davlat xizmatchisining asosiy axloqiy qanday qoidalari mavjud?
5. Rahbarga xos bo‘lgan muhim jihatlar nimalarda namoyon bo‘ladi?
6. Rahbar shahs ma’naviyatini shakllantirishga to‘sinq bo‘ladigan asosiy illatlarga nimalar kiradi?
7. Rahbarga xos shahs ma’naviyatining asosiy xislatlari nimalardan iborat?
8. Amir Temurning rahbar shahsi haqidagi fikrlarining 12 talabga javob beradigan xususiyatini ta’riflang.
9. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov rahbarlarga xos bo‘lgan qanday xususiyatlarga e’tibor berish kerakligini ta’kidlaganlar?
- 10.O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi nimalardan iborat ekanligini qaysi yig‘ilishda ta’kidlab o‘tdilar?

## **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008.
2. Karimov I. A.Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. - B 43.
3. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. 4-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1996, - Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1996
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari” ga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
5. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagい ma’ruzasi [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

## **8-MAVZU. DIPLOMATIK ETIKET**

Diplomatik etiket – bu diplomatlar va boshqa rasmiy shahslarning bir-biri bilan diplomatik tadbirdarda bo‘ladigan muloqotlari chog‘ida amal qiladigan yaxshi xulqlarining qoidalaridir.

Diplomatik etiket shakllanish jarayonida umumiy etiket qoidalariga tayanadi, Shu bilan birga diplomatik normalar va qoidalar biznes etiketi amaliyotida va umumiy etiket qoidalarida o‘z aksini topadi. Ushbu qoidalarni buzilishiga yo‘l qo‘yish mumkin emas, oddiy takallufning munosabatlarda qo‘llanmasligi diplomatik etiketda hurmatsizlikka tenglashtiriladi va xalqaro va millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarishga qodir.

Etiket qoidalariga ayniqsa, diplomatlar tomonidan rioya qilinishiga katta e’tibor qaratiladi, chunki bu qoidalarning buzilishi yoki bajarilmasligi mamlakat yoki uning rasmiy vakillari nufuziga putur yetkazishi va buning natijasida mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Diplomatik etiket turli-tumandir. U o‘z ichiga uchrashuvlar, o‘zaro salom almashish, tabrik yo‘llash, qabul marosimlarini o‘tkazish, tashriflarni amalga oshirish, suhbat va muzokaralar olib borish etiketi va diplomatik seremonialni qamrab oladi.

Diplomatiya — bu o‘zaro kelishuvlar, bitim va konvensiyalar tuzish san’atidir. Ushbu natijalarga uchrashuvlarning muvaffaqiyatli yakunida erishiladi.

Diplomatik uchrashuvlar o‘zining belgilangan reglamenti, etiketi va ko‘pincha o‘z protokoli bilan ajralib turadi. Buning asosiy sababi shundan iboratki, diplomatik uchrashuvlarning qatnashchilari diplomatiya kabi nozik faoliyatning asosini tashkil etuvchi subordinatsiya qoidalari va professional cheklanishlarga qat’iy rioya qiladilar.

Uchrashuvlar o‘zaro salom almashish bilan boshlanadi. Salomlashish turlari har xil bo‘ladi. Xorijiy mamlakatlarda uzoq safarda bo‘lgan kishi bu mamlakatning milliy udum va qonun-qoidalarini o‘z mamlakati urf-odatlari bilan taqqoslaydi. Misol uchun, shuni ta’kidlash lozimki, musulmonlar uchun shariat qonunlariga binoan ayol va erkak kishining qo‘llari, agar ular qarindosh bo‘lmasa, hatto bir-biriga tegib kyetishi ham qat’iyan man etiladi.

Biror-bir kishi sharafiga qabul marosimini tashkil etayotgan paytda yoki uni mehmonga taklif etayotgan hollarda, mehmon qaysi dinga e’tiqod qilishini bilish zarurdir. Islom dini qoidalari ko‘ra spirtli ichimliklarni iste’mol qilish qat’iyan man etiladi. Hindulik dini qoidalari asosan esa taomlar vegetarian turida bo‘lib, zinxor mol go‘shtidan tayyorlanmagan bo‘lishi lozim.

Diplomatik salom almashish qoidalari umumqabul qilingan salom almashish qoidalardan deyarli farq qilmaydi.

Avval tanishtirilishi kerak bo‘lgan kishining ismi-sharifi aytildi, so‘ngra kimga tanishtirilayotgan bo‘lsa, uning ismi-sharifi. Kichik yoshli kishini katta yoshli kishiga, erkak kishini ayol kishiga, lavozim jihatidan past kishini lavozimi jihatidan baland kishiga tanishtiriladi.

Tanishtirilayotgan kishi, agar erkak kishi bo‘lsa, boshini biroz egib ta’zim qiladi, ayol kishi esa boshini biroz egib qo‘yish bilan kifoyalanadi.

Agar ayol kishi uni qiziqtirayotgan kishi bilan tanishish niyatida bo‘lsa, u ikkalasiga tanish bo‘lgan kishini tanishtirish haqida iltimos qilishi mumkin. Ikkalasiga tanish bo‘lgan kishi, ularning qiziqish doirasidan kelib chiqqan holda, suhbat qurishga yordam beradi.

O‘tirgan holda boshni egib ta’zim qilish deyarli noqulay bo‘lgani uchun erkak kishi tanishayotgan paytda o‘rnidan turishi lozim. Ayol kishi esa aksincha, o‘z o‘rnidan turmasligi lozim. Ayol kishiga yoshi undan katta ayol tanishtirilayotgan bo‘lsa yoki u tanishtirilayotgan kishi haqida o‘zining alohida fikrini izhor qilmoqchi bo‘lgan hollar istisnoni tashkil etadi. Ushbu hollarda u o‘rnidan turib salomlashish uchun qo‘l uzatishi mumkin.

Erkak kishi bilan tanishayotgan hollarda ayol kishi agar o‘zi uchun bu narsani o‘rinli deb topsa, salomlashish uchun qo‘l uzatadi, aks hollarda boshini biroz egib salomlashish bilan kifoyalanadi. Qolgan hollarda yoshi kattaroq bo‘lgan kishi salomlashish uchun qo‘lini birinchi uzatadi.

Xonaga kirib kelayotgan kishi birinchi bo‘lib yig‘ilganlar bilan salomlashadi. Birinchi bo‘lib ketayotgan kishi yig‘ilganlar bilan hayrlashadi.

Biror-bir kishini boshqalarga tanishtirayotgan paytda nafaqat uning to‘liq ismi-sharifini aytish bilan chekhanish kerak, balki bu shahsga xos fazilatlar haqida qisqacha gapirib o‘tilsa, suhbat davom yetishi uchun zamin ham yaratiladi va yangi tanishganlarning fikr almashishi biroz osonlashadi.

Agar diplomatik qabul marosimida yoshi va lavozimi teng bo‘lgan ikki kishini tanishtirish kerak bo‘lsa, yaqinroq turgan yoki nisbatan tanish bo‘lgan kishini birinchi tanishtirish lozim. Agar tanishtirilayotganlar ichida biri mashhur kishi bo‘lsa, unga ikkinchisini tanishtirish bilan chegaralanib qolish mumkin.

Amaliy yoki protokol uchrashuvlari (ehtirom yuzasidan tanishuv yoki hayrlashuv uchrashuvlari) davomida suhbat olib boriladi. Suhbat ko‘p vaziyatlardan kelib chiqib, reglamentga buysunmaydi. Ammo uchrashuvga tashrif buyuruvchilar ham, ularni qabul qiluvchilar ham o‘zлari uchun taalluqli bo‘lgan ba’zi bir qoidalarni e’tiborga olishlari darkor. Chunonchi, ehtirom yoki protokol tashrifi uncha uzoq emas, ya’ni 20, ko‘pi bilan 30 daqiqadan oshmasligi zarur.

Diplomatik seremonial (tantana marosimlari) xilma-xil, murakkab, nozik tomonlari mavjud bo‘lgan seremonial hisoblanadi.

Diplomatik protokol talablarining rivojlanishi urf-odatlar, davlatchilik va umumqabul qilingan xulq-atvor qoidalarini o‘zida aks ettiradi.

### **Kiyim va mehmonning tashqi ko‘rinishi**

Rasmiy qabul marosimi taklif etilgan mehmonning tashqi ko‘rinishi muhim rol o‘ynaydigan tantanali marosimlar turiga kiradi. Qadim zamonlardan bugungi kungacha qabul marosimlarida kiyiladigan kiyimlarni tanlashning qoidalariga qatiy amal qilish urf-odati saqlanib kelmoqda. Ushbu qoidalarga rioya qilish zaruriyligi hamon zamon talabidir.

Erkak kishilarning kiyimi konservativ ekanligi, qat’iy cheklanganligi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligani yo‘qotmagan. Rasmiy tadbirlar uchun erkak kishilarga smoking, frak yoki klassik kostyum kiyish tavsiya etiladi.

Smoking va frak — bugungi kunda kechki kostyumlarning turi bo‘lib, dunyo protokol tajribasida yanada keng foydalanilib kelinmoqda.

Frak majburiy bo‘lgan hollarda, rasmiy taklifnomalarda «oq galstuk» deb belgilanadi. Oxirgi paytlarda bu libos kam kiyiladi (Frakni erkaklar asosan Nobel mukofoti bilan taqdirlash tantanali tadbirlarida, Qirol va Podshohlarning saroy qabullarida, La Skala premera spektakllarida, ba’zi mamlakatlarda ishonch yorliqlarini topshirish marosimlarida kiyadilar). Klassik frak uchun oq kamzul va oq «kapalak-bo‘yinbog» kerak bo‘ladi. (qora «kapalak-bo‘yinbog» va frak faqat ofitsiantlar yoki orkestr musiqachilari nomidan kiyiladi). Frak kiyganda qo‘l soati taqilmaydi. Erkaklar paypoqlarinipg rangi kostyum rangidan to‘qroq bo‘lishi kerak va bu, o‘z navbatida, kostyum va oyoq kiyim rangining uyg‘unlashishini ta’minlaydi.

Taklifnomada «qora bo‘yinbog» deb belgilansa, smoking kiyish majburiy hisoblanadi. Smoking pidjaki bir yoki ikki bortli bo‘lib, tik yoqali yoki keng yoqa, astari shoyi matodan tikilgan bo‘ladi. Shimlarning ikki chekkasiga shoyi kant tikiladi. Klassik smoking qora rangda bo‘ladi.

Smoking ichidan oq kraxmallangan tik yoqali, old qismi «plisse»dan iborat, engi «zaponka» taqiladigan ikki majjetli ko‘ylak kiyiladi.

«Kapalak bo‘yinbog» qora yoki to‘q ko‘k rangda bo‘ladi. Shim belbog‘i ham to‘q rangda bo‘lishi kerak. Ko‘krak cho‘ntagiga oq shoyi matodan tikilgan dastro‘molcha solib qo‘yiladi.

Erkaklar paypoqlari shoyi matodan va qora rangda bo‘lishi kerak.

Kora lakli botinkalar faqat smoking bilan birga kiyiladi.

Davlat rahbari va uning rafiqasi nomidan o‘tkaziladigan rasmiy qabul marosimlarida protokol tajribasiga ko‘ra klassik kostyum kiyiladi.

Kostyumga bo‘lgan talablar oddiydir: kostyum yaxshi bichilgan va sifatli matodan tikilgan, bosiq rangda bo‘lishi kerak. Rasmiy kostyum bir rangda bo‘lishi lozim.

Kechki tadbirlar uchun to‘q ko‘k yoki to‘q kul rangdagi kostyum nihoyatda mos keladi (u bilinar-bilinmas yo‘l-yo‘l bo‘lishi ham mumkin). Qora rangdagi kostyum kiyish maqsadga muvofiq emas. Soat 20.00. dan ilgari boshlanadigan tadbirlarga och rangdagi kostyumlarni kiyish mumkin. Ko‘ylak va galstuk kechki kiyimning ajralmas qismi hisoblanadi. Barcha rasmiy tadbirlarga erkaklarga oq ko‘ylak va bosiq ranglardagi galstuk tavsiya etiladi.

Germaniyada erkaklar odatda «dvoyka» – ikki kiyimlik kostyumlar kiyadi, ularning rangi to‘q ko‘k yoki to‘q kul rang bo‘lishi mumkin.

Ayollar kiyimi erkaklarnikiga nisbatan hamisha tikilish turi va rangiga bo‘lgan talablarga ko‘ra ko‘proq erkinlikka ega bo‘lib kelgan. Erkaklar kiyimidan farqli o‘laroq, ayollar kiyimiga cheklashlar kiritish nisbatan qiyin, lekin shuni esda tutish lozimki, ayollar rasmiy kiyimining asosini klassik shakllar va ranglar tashkil yetishi kerak.

Ayollar kiyimi davr va moda talablari bilan hamnafas bo‘lishi darkor.

Kunduzgi qabul marosimlariga (agar taklifnomada kiyim borasida maxsus yo‘riqnomalar mavjud bo‘lmasa) ayollar oddiy uzunlikdagi ko‘ylak yoki ko‘ylak-kostyum kiyishlari mumkin. Kechki qabullarga (agar taklifnomada kiyim borasida maxsus yo‘riqnomalar mavjud bo‘lmasa) kechki-bayramona, oddiy uzunlikdagi ko‘ylaklar yoki ko‘ylak-kostyumlar kiyish mumkin. Tushlik yoki kechki qabullarga berilgan taklifnomada «kechki libos» deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, ushbu tavsiyaga rioya qilish maqsadga muvofiq.

Ayollarning kechki liboslari ikki xil: o‘rtacha uzunlikda (yerdan 15-20sm balandlikda) va uzun (yergacha) bo‘ladi. Oxirgi paytlarda uzun ko‘ylaklar kam kiyilmoxda. Kunduzgi qabullar va «kokteyl» yoki «furshet» qabullariga qulay poshnali oddiy tuqli kiyiladi. Kechki bayramona ko‘ylaklarga yuqori poshnali zamsh, parcha, oltin yoki kumush rangli charmdan qilingan tuflilar kiyiladi. Kechki ko‘ylakka mos qilib shoyi qo‘lqop kiyish mumkin. Agar ko‘ylak yenglari uzun bo‘lsa, qo‘lqop kiyilmaydi.

Zebu ziynatlarga kelganda, ko‘p mamlakatlarda kunduzgi qabullarga bijuteriya, kechqurungilariga esa asl qimmatbaho zebu ziynatlarni taqish odat tusiga kirgan.

### Rasmiy qabullar

Davlat rahbarlari o‘rtasida rasmiy munosabatlarni keng tarqalgan va umumiy qabul qilingan shakllaridan biri rasmiy qabullarni o‘tkazishdir.

Qabullarni tashkil yetish odati bizga o‘tmishdan kelgan bo‘lib, tinchlikparvarlik, yaxshilik belgisi hisoblangan. Mehmondo‘stlik esa, shu kunga qadar davlatning sha’ni, xalqning to‘kin-sochinlik ko‘rsatkichi bo‘lib kelmoqda. Rasmiy qabul marosimlarida mehmonning an’anaviy taomlarining tortilishi mehmon davlatga bo‘lgan alohida hurmat-e’tibordan dalolat beradi.

Hozirgi kunda xalqaro amaliyotda hamma ishtirokchilar uchun bajarilishi shart bo‘lgan va o‘z etiketiga xos bo‘lgan bir nechta rasmiy qabullarning turi mavjud.

Diplomatik qabullar chog‘ida suhbat olib boriladi, aniq belgilanmagan muzokaralar, tanishuv va boshqa tadbirlar amalga oshiriladi.

Ishtirokchilar bir-birlarining o‘zaro aloqasi, yig‘ilish xarakteri, yoshiga qarab, bir-birlarini to‘liq ism-shariflarini aytib o‘tishlari yoki faqatgina familiyalarini aytish bilan chegaralanadilar.

Diplomatik uchrashuv yoki diplomatik qabulning xarakteri o‘zaro muloqotning me’yori va shaklini, salomlashish darajasini belgilaydi.

Bir uchrashuv butunlay norasmiy, boshqasi – yarim rasmiy, uchinchisi esa – protokol tomonidan oldindan belgilangan tarzda o‘tkaziladi. Etiket aiiq va bir xil tavsiyalarni ko‘zlamaydi.

Diplomatik etiketga ko‘ra, asosiy muomala sharti qabul turi bilan bog‘likdir.

Xulq-atvorning asosiy sharti diplomatik etiketga binoan qabul marosimi bilan bog‘liqdir.

Qabul marosimlari diplomatik korpus vakillari o‘rtasida hamda rasmiy hukumat vakillarining xorijiy vakillar bilan aloqlarini o‘rnatish va ularni rivojlantirishga qaratilgan.

Qabul marosimlari biror-bir voqeani nishonlash uchun, masalan, mamlakatga davlat yoki hukumat rahbari tashrifi yoki bayram va yubiley sanalari munosabati bilan, taniqli Shahslarga hurmat belgisi sifatida, biror-bir hujjatlarni imzolash sharafiga o‘tkaziladi.

Qabullarning quyidagi turlari mavjud: «*Shampan vinosi bokali*» yoki «*Vino bokali*» qabullari keng tarqalgan. Qabulning bu turi odatda peshinda boshlanib bir-bir yarim soat davom etadi. Bunday qabul turi oddiyligi bilan ajralib, shartlilik cheklangan. Bunday qabullarda murakkab muzokaralar olib borish mumkin emas. Ushbu turdagи qabullar odatda insonlarni bir-biriga tanishtirish yoki keyingi uchrashuvlarni belgilash uchun xizmat qiladi.

«*Nonushta*» qabuli (inglizcha – «Lanch») kunning birinchi yarmida – soat 15.00da o‘tkaziladi. Qabul taomnomasiga oddiy gazaklar, 1-2 turdagи issiq taom va desert kiradi. Qabul so‘ngida kofe yoki choy taklif etiladi. Qabul paytida avval yaxna ichimliklar va pivo beriladi. Bu kabi qabullar jiddiy suhbatga yoki biror-bir muammolarni muhokama qilishga imkon yaratadi. Qabul paytidagi tanaffus (yangi taom tortilishidan yoki desert va choydan avval) taklif etilgan tomonlarga qisqa vaqtga suhbatdoshlarni tark etib, kerakli masalalarni muhokama qilishga imkon beradi.

Xalqaro protokol amaliyotida kunduzgi qabullar kechki qabullarga nisbatan katta tantanaga ega bo‘lmagan qabullar, deb hisoblanadi.

«Tushlik» qabuli daraja jihatidan muhimroq hisoblanadi. Uning boshlanish vaqtı – soat 19.30, 20.00 yoki 20.30larga borib taqaladi. Taomlar, gazak va sharoblar «Nonushta» qabuli kabitdir. «Tushlik» 2-3 soat yoki undan ziyod davom etadi. «Nonushta» kabi «Tushlik» ham turli usulda o‘tkaziladi. Usullardan biri mehmonlarni alohida o‘tkazishni nazarda tutadi. Ushbu holatda mehmonlar qabul o‘tkaziladigan joyda xonalarning birida belgilangan vaqtida to‘planadilar. Ularga yaxna ichimliklar, pivo, viski va sharbatlar tortiladi. Yengil gazaklar tavsiya qilinishi mumkin. Shundan so‘ng mehmonlar umumiylar stolga taklif etilib, ularga o‘rnatilgan tartibda taom va vinolar tortiladi. Desert vaqtida mezbon va asosiy mehmon o‘rtasida «shampan» qadahi so‘zлari (tostlari) bilan fikr almashiladi. So‘ngra mehmonlar alohida ajratilgan joyga o‘tadilar va ularga choy yoki kofe hamda konyak va liker taklif qilinadi.

«Nonushta» kabi «Tushlik» qabuli ham muhim suhbat va tanishuvlar uchun imkoniyat yaratadi.

«Nonushta» va «Tushlikshing boshqa bir turi bu «Tushlik» – bufet» bo‘lib, odatda u soat 18.00-20.00 larda boshlanadi. Qabul paytida taomlar alohida stolda joylashgan bo‘ladi, mehmonlar o‘rta hajmdagi stollar atroflarida joylarini egallab, o‘z-o‘zlariga xizmat qiladilar. Mehmonlarga vinolar taklif etilishi mumkin. Ba’zan vinolar alohida kichik stolchaga joylashtiriladi va mehmonlar o‘zлari turib likopchalarga alohida stoldagi taomlardan solgani kabi vinolarni ham olishlari mumkin. Choy va kofelar ham Shu tarzda taklif qilinadi.

«Kokteyl» yoki «a-lya furshet» turidagi qabullar tayyorgarlik va tashkil etilishi nuqtai nazaridan oddiy va keng tarqalgandir. Ular tik turgan holda o‘tkaziladi. Asosan ofitsiantlar mehmonlarga yengil sovuq gazaklar hamda yaxna va mast qiluvchi ichimliklarini olib keladilar. Ba’zan ular stollarga joylashtirilishi ham mumkin. Ushbu qabullar kechki vaqtida taxminan soat 18.00 - 19.00 larda o‘tkaziladi. Ushbu qabul boshqalariga nisbatan har bir ishtirokchini boshqalar bilan muloqot qilishiga qulay imkoniyat yaratadi, chunki stol atrofida o‘tirib, mehmonlar faqat yaqin o‘tirganlar bilan muomala qilishlari mumkin.

Yuqorida ta’kidlangan qabullarga mehmonlar odatda rafiqalari bilan birga taklif qilinadilar.

Qabullarning yana bir turi “Choy” bo‘lib, u, odatda, ayollar uchun soat 16.00-18.00 lar mobaynida o‘tkaziladi. Ba’zi bir hollarda ushbu qabul diplomatik vakolatxonaning rahbari yoki diplomatning rafiqasi kyetishi munosabati bilan ham o‘tkazilishi mumkin. Qabulga choy yoki kofe, konditer mahsulotlari, konfetlar, mevalar, ba’zida yengil gazaklar va vino ham tortilishi mumkii.

Kamdan-kam ayollar uchun o‘tkaziladigan «jurfiks», deb nomlangan qabul mamlakatning rasmiy yuqori mansabdar shahsi yoki xorijiy vakolatxona rahbarlarining rafiqalari tomonidan yil davomida aniq belgilangan kun va soatda o‘tkaziladi. Ba’zi davlatlarda diplomatik korpus a’zolarining ayollari taklifi bilan

oyning belgilangan kuni diplomatlarning ayollarini uchrashuvlar tashkil etib, ularda hayriya faoliyati yoki umumiy qiziqish uyg‘otuvchi boshqa muammolarning muhokamasi amalga oshishi mumkin. Ba’zida bunday uchrashuvlarda ayollar tikuv ishlari bilan Shug‘ullanadilar, oshpazlik sohasida tajriba almashadilar va turli davlatlarning milliy san’ati bilan tanishadilar.

Qabullarning hozirgi paytda keng tarqalgan turlaridan yana biri bu kinoko‘rish bo‘lib, undan oldin yoki keyin kokteyl tashkil etiladi. «Shampan bokali» bilan musiqiy kechalar o‘tkazilishi, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qabullar bilai bog‘liq adabiy yoki raqs kechalari tashkil etilishi mumkin. Bugungi kunda asosan sport bayrami va musobaqalari tez-tez o‘tkazilib kelinmoqda.

Protokol xizmatchilari, qabul tashkil yetish bo‘yicha javobgar shahslar uchun taklif etilganlarni stol atrofida joylashtirish rejasini tuzish nihoyatda murakkab va muhim ish hisoblanadi.

Mehmonlarni stol atrofida joylashtirish paytida diplomatik etiket shartlarini, mehmonlarning qiziqishlarini, ularning xorijiy tillarii bilishini nazarda tutmoq lozimdir.

O‘tkazish tartibida quyidagi qoidalarga amal qilinadi, ya’ni: mezbon va uning rafiqasiga yaqin o‘tiriladigan joylar juda faxriy joylar deb hisoblanadi. O‘ng qo‘l tomonidagi joy (o‘ng tarafda) chap qo‘l tomonidagi joyga (chap tarafda) nisbatan faxriy hisoblanadi. Birinchi bo‘lib mezbonning o‘ng tarafida ayol kishi, uning rafiqasi yoniga esa erkak kishi o‘tkaziladi. So‘ngra joylar o‘zgartiriladi: ayol kishiniig yoniga erkak kishi o‘tkaziladi va shu holatda qaytariladi. Ayollar yonma-yon, erkak kishi esa rafiqasi bilan birga o‘tkazilmaydi. Ayollar stolning oxirgi joyiga o‘tkazilmaydi. Turmushga chiqqan ayol erkak kishi bilan bir xil imtiyozga ega.

### **Hay’atlar (delegatsiyalar) tashrifi**

Mehmonni qabul qilish barcha xalqlarda oddiy hollarda ham alohida e’tibor bilan o‘z o‘rniga qo‘yiladi. Xalqaro munosabatlar darajasida esa mehmonga bo‘lgan e’tibor jiddiy tusga kiradi. Bu holat tashrif darajasi, maqsadi va xarakteriga bog‘liq bo‘ladi.

Bu bilan rasmiy hay’atlarga ko‘rsatilayotgan hurmat-e’tibor belgilanadi. Hay’at rahbariga ko‘rsatilayotgan hurmat-e’tiborning asosiy sharti u egallab turgan lavozim bilan belgilanadi. Masalan, davlat yoki hukumat rahbariga alohida e’tibor, tashqi ishlar vaziri yoki harbiy vazirga alohida, tegishli tashkilotning departament rahbari yoki boshqa lavozimdagi shaxsga alohida e’tibor shartlari belgilangan. Kutib olinuvchi mehmonning egallab turgan lavozimidan kelib chiqib, kutib oluvchi mutasaddilar, uchrashuv ssenariysi va tashrif tashkiloti bilan bog‘liq boshqa masalalar belgilanadi.

Yuqorida qayd etilgan masalalarining barchasi oldindan, tashrif amalga oshirilishidan ilgari ishlab chiqiladi va yuqori darajadagi tashriflarni tayyorlash vaqtida mehmon tomon bilan kelishib olinadi.

Tashrifni uyuşdırısh bo'yicha amalga oshirilgan barcha tadbirlar uni sermahsul va muvaffaqiyatlı o'tishiga zamin yaratadi.

Tashriflar o'z klassifikatsiyasi bo'yicha bir necha turlarga bo'linadi. Ular: oliv darajada tashkil etiladigan davlat va rasmiy tashriflari, «Sammitlar», amaliy va norasmiy tashriflari. «Sammit» va oliv darajadagi uchrashuvlarda asosiy e'tibor siyosiy muzokaralarga hamda tantanali marosimlar tadbirlari, gulchambar qo'yish marosimlari, ehtirom tashriflari, qabullar, jamoat bilan uchrashuvlarga qaratiladi. Bunday tashrif odatda qo'shma hujjatlarni imzolash bilan yakunlanadi. Bu avvalambor ishlab chiqilgan va kelishilgan dastur bo'yicha amalga oshirilib, faqat biror-bir favquloddagi hodisalar tufayli dasturga ma'lum o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

Amaliy tashriflar biror-bir tadbirga tayyorgarlik maqsadida konsultatsiya va fikr almashish yo'li bilan ma'lum masalani hal qilish uchun o'tkaziladi. Seremonialga buiday holatlarda amal qilinmaydi. Bu turdag'i tashriflar kam vaqt ni o'z ichiga oladi.

Norasmiy tashriflar ta'til, davolanish maqsadida va xususiy takliflar bilan amalga oshiriladi.

### **Diplomatik yozishmalarni olib borish**

Diplomatik hujjatlarga davlat arboblarining nutqlari, notalar, maktublar va memorandumlar kiradi. Ularda davlatning xalqaro miqyosdagi muammolarga munosabati va hukumatning ularga nisbatan tutgan mavqeい bayon qilinadi. Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarda biror-bir davlatni tan olish va diplomatik aloqalarni o'rnatish, faol xalqaro muammolarni hal yetish bo'yicha takliflar, davlat suverenitetini yoki xalqaro huquq tamoyillarini buzish bilan bog'liq harakatlarga nisbatan qarshiliklarga doir ma'lumotlar bayon qilingan bo'lishi mumkin.

Xalqaro diplomatik amaliyotda quyidagi hujjat turlari yuritiladi: shaxsiy notalar, eslatma qaydlari, memorandumlar, shaxsiy yarimrasmiy xatlar. Shaxsiy nota birinchi Shaxs nomidai tuzilib, ikki tomonni qiziqtiruvchi biror-bir hodisa haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi. Yuqori darajadagi muhim xalqaro masalalar haqidagi Shaxsiy nota yozishmasi shaxsiy maktub darajasiga ko'tarilishi mumkin.

Verbal nota juda keng tarqalgan diplomatik hujjat hisoblanadi. U uchinchi shaxs nomidan yozilib, tegishli Tashqi ishlar vazirligi yoki elchixonalar tomonidan keng qamrovli masalalarini, xususan siyosiy, iqtisodiy, protokol va ogohlantiruvchi xarakterga ega bo'lgan masalalarini ko'rib chiqish va hal yetish uchun yoziladi.

Eslatma yozuvlar odatda og‘zaki qilingan bayonotni muhimligini ta’kidlab o‘tish uchun shaxsan topshiriladi. Ular shaxsi aniqlanmagan holda tuziladi: «ma’lum qilinmoqda» qabilida.

Memorandum biror-bir masalani juda aniq ko‘rsatadi va o‘zida fakt, tahlil va argumentlarni mujassam etadi,

Shaxsiy xat deyarli norasmiy hujjat bo‘lib, rasmiy Shaxslarga yo‘llanadi va yozishmalarning ma’lum qoidasiga qat’iy amal qilishni ko‘zlamaydi hamda xat yo‘llangan shaxsning mas’uliyati doirasida hal etilishi mumkin bo‘lgan masalalarni echish uchun ishlatiladi. Bunga misol tariqasida tashkil etilgan qabul yoki konsertda ishtirok yetishdan minnatdorchilik bildirilgan xatlarni keltirshi mumkin.

### **Tashrifnomalar (vizit kartochkalari)**

Kelib berilgan tashrifnomalarning o‘ng burchagi uning egasi tomonidan bukib qo‘yiladi. Bu shaxsiy tashrif ma’nosini anglatadi. Yuborilgan tashrifnomalarning burchagi esa bukilmaydi.

Olingan va qabul qilingan tashrifnomalarga 24 soat ichida javob berish qabul qilingan.

Tashrifnomalarning kesmasi tilla rangda bo‘lishi tavsiya qilinmaydi.

Ularning yozuvi qora rangda bo‘lishi joiz.

Tashrifnomalar shaxsiy guvohnoma o‘rnini egallaydi. Ular odatda ingliz tili yoki yashab, xizmat qilinayotgan davlatning rasmiy tilida chop etiladi.

Tashrifnomalar ism, familiya, lavozim, ish manzili va telefon raqami kabi ma’lumotlarni o‘zida mujassam etadi.

Tashrifnomalarni boshqa kishiga bera turib ovoz chiqarib ismi-sharifini aytib, o‘zini tanishtirish lozim.

Er-xotinning tashrifnomasida ularning faqat ism va familiyalari yozilishi lozim, bu hollarda ularning ish lavozimlari ko‘rsatilmaydi. Odatda bu turdaga tashrifnomalar asosan ayollarga beriladi.

Dunyoning ko‘p mamlakatlarida otasining ismi degan ibora keng tarqalmagani sababli rus tilida tayyorlangan tashrifnomalarda ham otasining ismi ko‘rsatilmaydi.

Tashrifnomalarning pastdagи chap burchagida qalam bilan quyidagi ma’nolarni anglatuvchi yozuvlar belgilanishi mumkin:

r.f. Tabriknama

r.r. Tashakkurnoma

r.s. Ta’ziyanoma

p.p. Masofadan turib tanishtirish

r.f.s. Tanishuvdan mamnun bo‘lish

r.r.s. Shaxsiy tashrif o‘rniga (kyetish safari arafasida)

### **Diplomatik bayonnomma (protokol)**

**“Diplomatik bayonnomma”** – Davlatlararo hamkorlikda munosabatlarning asosiy qoidalari, jumladan suverenitetni hurmat qilish, tenglik, erkinlik, hududiy barqarorlik, bir-birini ichki ishlariga aralashmaslik kabi talablarga rioya qilmasdan turib to‘laqonli kelishuvni amalga oshirilmagan bo‘lar edilar.

Bunday talablarni bajarish uchun bu boradaga tajribadan tashqari ma’lum bir dasturamal ham lozim. Bunday dasturamal diplomat (muzokara) bayonnomasi deyiladi. Ushbu bayonnomma davlatning vujudga kelishidan tortib, hozirgi davrgacha bo‘lgan o‘zaro hamkorlik munosabatlarining qayta ishlangan, yillar davomida tahrir va tajribadan o‘tgan, zamonaviy talablarni ham o‘z ichiga qamrab olgan qoidalari majmuidir.

«Diplomatik lug‘at» diplomat bayonnomasida to‘g‘risida aniqroq tushuncha bera oladi:

Diplomatik bayonnomma – xalqaro munosabatlarda rasmiy shaxslar, vakillar, hukumatlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan umumqabul qilingan an’ana, tartib, rasm-rusmlar qoidasining majmuidir.

Muzokara bayonnomasining mohiyati o‘zaro munosabatlarida davlatlarning kelishuvlarini axloqiy madaniyat doirasida kechishi – ya’ni davlatlarning kelishuvlarini chiroqli tarzda – axloqiy me’yorlardan chiqmagan holda olib borishdan iboratdir.

Aslida, bayonnomma hujjatlarni to‘g‘ri shaklga solish, arxivlashtirish uchun qo‘llangan. Davrlar oshib, u muzokara uchun qo‘llanilgan bu bayonnomma turi keng doirada mazmunan shakllanib, tantana va muzokara etiketi sifatida ham qo‘llanila boshlandi. Hozirgi davrga kelib muzokaralar bayonnomasi zamonaviy talablarga asosan, siyosiy hamda huquqiy o‘zgarishlar kiritgan holda ilmiy va texnikaviy taraqqiyot ta’sirida boshqacha tusga ega bo‘lib bormoqda.

Ammo bu o‘zgarishlar asossiz xususiyatga ega bo‘lgan, biron bir davlat miqyosidagi tamoyillar emas, balki tajribaviy asosga ega bo‘lib, jahon miqyosida umumqabul qilingan qoidalardir.

Rasman esa muzokara bayonnomasi 1814 yillarda Vena kongressi tomonidan tasdiqlangan.

Muzokara bayonnomasi o‘zida etiket va tantanaviylikni mujassam etgan. Muzokara bayonnomasining asosiy qismi bo‘lmish muzokara etiketi – davlat vakillarining o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘luvchi go‘zal xulq va o‘zini chiroqli tutishdir. Muzokara etiketining qoidalari muzokarachi vakilning tashqi kiyinishidan tortib, to imo-ishora hatti-harakat odoblarigacha qamrab olgan.

Muzokara etiketida muomala, muorajaat muzokaraning har xil ko‘rinishlarida – yozma, uchrashuv, qabul va tashrifga qarab tavsiflangan. Zero, davlat arbobi boshqa davlat vakilidan bo‘lgan har qanday muzokara turlariga munosib javob berishi, ularni ko‘rib chiqishi shart. Xat yoki taklifga javob bermaslikni o‘zi o‘ta odobsizlik sanaladi. Bunda samimiylilik va hozirjavoblik katta ahamiyat kasb etadi. Muloqotdagi arzimas e’tiborsizlik ham sherikni garchi bunda davlatni aybi bo‘lmasa ham, (vakilning xatosi bo‘lsa ham) qarorini o‘zgartirishi mumkin, u yoki bu davlatga nisbatan munosabatni salbiy tomonga o‘girishi, muzokarani chigallashtirishga olib kelishi tabiiy.

Umuman olganda, muzokara etiketining bir qancha qat’iy qoidalari mavjud. Ular quyidagicha:

➤ Salomlashish va ko‘rishishda ismi bilan murojaat qilish. Bu nafaqat uni hurmat qilishingizni, balki o‘zingizga nisbatan ham shunday hurmat bilan qarashingizni anglatadi.

➤ Nigoh muhim ahamiyatga egadir. Samimiyatni ko‘rsatish uchun suhbatdoshini ko‘zlariga qarash lozim.

➤ Salomlashuvda turish shart. O‘tirib ko‘rishi maydi. Yosh va jinsning ahamiyati yo‘q.

➤ Tabassum va shirinsuxanlik har qanday vaziyatga ob‘yektiv yondoshishga olib keladi.

➤ Ismingizni aytib ko‘rishing. Birinchi marta ko‘rib turgan bo‘lsangiz ismi-sharifingizni aytib o‘zingizni bir yo‘la tanishtiring. Agar avval ham uchrashganizga gumoningiz bo‘lsa, ismingizni aytganingiz ma’qul – bu sheringizni noqulay vaziyatga tushib qolishini oldini oladi.

➤ Ko‘rishganda qo‘l berib ko‘rishi kerak. Bunda qo‘lni haddan ziyod qisib yuborish yaramaydi. Shasht bilan uzatilgan qo‘l munosabatni yanada mustahkamlaydi.

**Muzokara kiyimi.** Bundausti boshimiz makon, zamon va vogelikning tabiatiga to‘g‘ri kelishi lozim. Rasmiy muzokaralarga odmi rangdagi kiyimlar mos keladi. Bo‘yinbog‘ tusi uning egasi borasida ma’lum tasavvurni paydo qilish imkoniga ega.

- qizil, sariq – erkinlik, qat’iyatlik;
- qora tusda qizil bezaklar – o‘ziga nisbatan ishonchni kuchliligi, muayyanlik;
- ko‘k va to‘q jigarrang – bag‘rikenglik;
- to‘q kulrang – hissiyotlarga erk bermaslik;
- havorang – xotirjamlik;
- yashil, sariq – sergaklik.

Bo‘yinbog‘ ko‘ylakka nisbatan och tusda bo‘lmasligi lozim. Bo‘yinbog‘ savlatingizga mos kelishi kerak. Uning uzunligi shimning kamarigacha bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Rasmiy sharoitda ust boshning oxirgi tugmasidan tashqari barcha tugmalari taqilgan bo‘lgishi lozim. Erkaklar paypog‘i kiyishga mo‘ljallangan kostyumga mos kelishi, kostyum rangidan to‘qroq, oyoq kiyim rangidan ochroq tusda bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Qo‘lqoplar, sharf va dastro‘mol ranglari va gullari boshqa kiyim unsurlarigi mos ravishda tutilishi lozim.

Ustki kiyimning yuqoridagi cho‘ntagiga ruchka, qalam, ko‘zoynak va boshqa narsalari solib qo‘yish mumkin emas.

**Muzokaraviy qabullar.** Muzokara xizmatida muzokaraviy qabullar muhim ahamiyat kasb etadi, chunonchi, unda taqdimot masalalari bilan birga axborot va maxsus masalalar ham ko‘rib chiqiladi.

Qabullar markaziy tashqi organlar yoki diplomatik vakillar tomonidan muhim voqealar hamda kundalik faoliyat qatorida ham olib boriladi.

Muzokara bayonnomasida kunduzga va kechki, stolga o‘tkazish va tik turish, rafiq bilan kelish yoki ularsiz kabi qabullarga bo‘linadi.

Bugungi kunda qabullarning quyidagi turdagilari keng doirada tarqalgan.

**Nonushta, tushlik, tushlik-bufet** (shved dasturxon) hamda furshet va kokteyl turidagi qabullar.

Nonushta odatda cheklangan doirada kam sonli kishilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, qoidaga binoan faqat erkaklar taklif qilinadi. Nonushta soat 12-15 larda tashkillashtiriladi. Nonushtada yeguliklar turini tayyorlashda mehmonlarning milliy ta’mini hisobga olinadi. Odatda u bir-ikki sovuq gazak, bitta baliqli va go‘shtli issiq ovqat hamda shirinlikdan tarkib topadi. Nonushtaga birinchi ovqatni tortish qabul qilinmagan.

Ba’zida nonushta davomida vino, oxirrog‘ida esa shampans vinosi, kofe, choy tortiladi. Kelgan mehmonlarni dasturxon yozilgan joydan boshqa alohida xonada kutib olinadi. U yerda sharbat, mineral suv, zaytun mevasi va boshqa yengil gazaklar taklif qilinadi. Ayni paytda mehmonlar bir-birlar bilan tanishadilar, qiziqarli suhbatlar uchun mavzular paydo bo‘ladi. So‘ng, mehmonlar dasturxonga taklif qilinadi.

Nonushta odatda bir yarim soat davom etadi, undan bir soat dasturxonda ovqatlanishga ketsa, qolgan yarim soat ovqatdan keyin tarqatilgan kofe yoki choy bilan o‘tkazishga ketadi. Nonushtani yakunlash (tushlik va kechki ovqatda ham) qabul egasining izmida bo‘ladi. Ammo ba’zi mamalakatlarda bu imkoniyat mehmonlardan kattalarga (darajaga bog‘liq) beriladi.

**Tushlik** qabulning eng tantanovor va obro‘li turi hisoblanadi. U avvalambor qabul o‘tkazilayotgan sababning qay darajada muhim ekanligini ko‘rsatish imkonini beradi. Tushlik soat 19 va 21 lar orasida o‘tkaziladi. Odatda tushlikka erkakalar bilan ularning ayollari ham taklif etiladi. Tushlikning tarkibi nonushtaga nisbatan baquvvaturoq. Unda albatta birinchi ovqat bo‘ladi. Ichimliklar nonushtanikidan farq

qilmaydi. Tushlik odatga binoan ikki-uch soat va undan ko‘proq davom yetishi mumkin. Taxminan dasturxon atrofida o‘tkazilgan bir yarim soatdan so‘ng boshqa xonaga o‘tilib choy yoki kofe ustida suhbat qurish mumkin. Ba’zida esa Shu choy-kofe tushlik dasturxonida ham uzatilish mumkin.

Kechki ovqat soat 21 va undan kechroq vaqtida boshlanishi mumkin. Tushlikdan u qabul o‘tkaziladigan vaqt bilan ajralib turadi. Birinchi ovqat berilmasligi mumkin.

**Tushlik-bufet, furshet va kokteyl** – eng keng tarqalgan hamda turli sabablar bilan o‘tkaziladigan qabul turlaridir. O‘tkaziladigan joyga qarab odatda unga ko‘proq odamlar taklif qilinadi. Bu qabullar soat 17 va 21lar orasida tashkil etilib, furshet va kokteylda o‘tirilmaydi, tushlik-bufetda esa uncha katta bo‘limgan besh olti kishilik stollarning biriga o‘tkaziladi. Mehmonlar gazak va ichimliklarning maxsus dasturxonidan olib ta’bga qarab istagan stollaridan biriga o‘tirishlari mumkin. Tashrif vaqtleri qabulning boshlanishi va yakunlanishi ko‘rsatilgan taklifnomalar asosida aniqlanib, nonushta va tushlikdagidek aniq vaqtga kelish shart emas, unga bir oz kechikish odobsizlik sanalmaydi. Ammo qabul boshlanishining dastlabki ikki soatida uni tashlab chiqib kyetishni maslahat bermaymiz. Zotan, ma’lum bir shart-sharoitdan kelib chiqib zaruriyat tug‘ilgan bo‘lsa, mezbondan uzr so‘rab, uning ruxsati bilan qabul haqida bir nechta yaxshi fikrlarni bildirib kyetish mumkin.

**Shampan bokali.** Qoidaga binoan soat 12 da boshlanib, bir soatlar atrofida davom etadi. Bunday qabulni o‘tkazish uchun milliy bayramning yilligi, elchini kuzatish, mamalakatda delegatsiyani kutib olish, ko‘rgazmani (festival) ochilishi sabab bo‘lishi mumkin. Qabul paytida shaman vinosidan tashqari mehmonlarga boshqa ichimliklarni ham taklif yetish mumkin (vino, sharbatlar, mineral suv). Ichimliklar va gazaklarni ofitsiantlar tarqatadilar.

### **Diplomatik etiketda kiyinish madaniyati**

Kiyinish madaniyati va qoidalari diplomatik etiketning ajralmas qismidir. Diplomatik etiketda ayollar va erkaklarning turli xil marosimlar uchun kiyinish me’yorlari va qoidalari shaklangan va belgilangan.

### **Erkaklar uchun**

**Kostyum.** Nonushta, kokteyl hamda 20.00 gacha boshlanadigan boshqa qabullar uchun yorqin rangli bo‘limgan istalgan rangdagi kostyumni kiyish mumkin. Agarda ushbu qabullar milliy bayram munosabati bilan yoki davlat rahbari, tashqi ishlar vaziri sharafiga yoki uning nomidan o‘tkazilayotgan bo‘lmasa.

Milliy bayram munosabati bilan yoki davlat rahbari, tashqi ishlar vaziri sharafiga yoki uning nomidan o‘tkazilayotgan qabullar hamda 20.00 da va undan kech boshlanadigan qabullar uchun to‘q rangli kostyum kiyish tavsiya etiladi.

Smoking kiyish kerak bo‘lgan hollarda taklifnomada bu haqda ogohlantiriladi.

Frak kiyish lozim bo‘lgan hollarda ham taklifnomada ogohlantiriladi.

**Ko‘ylak va bo‘yinbog‘.** Barcha turdagি qabullarda kraxmallangan va yumshоq yoqali oq rangli ko‘ylak va yorqin rangi bo‘lmagan bo‘yinbog‘ taqish tavsiya etiladi. Rang-barang va neylon ko‘ylak, qora bo‘yinbog‘ taqish tavsiya etilmaydi. Qora bo‘yinbog‘ motam belgisi sanaladi.

**Paypoq.** Yorqin rangli va ko‘zga tashlanadigan bo‘lmasligi kerak. Aksariyat hollarda kulrang va qora ranglidан foydalaniladi, qachonki, milliy bayram munosabati bilan yoki davlat rahbari, tashqi ishlar vaziri sharafiga yoki uning nomidan o‘tkazilayotgan bo‘lmasa.

**Poyafzal.** Qora rangli poyafzal kiyish tavsiya etiladi. Sandal kiyish mumkin emas. Yaltiroq (laklangan) qora tuqli faqat smoking bilan kiyiladi. Qora rangli bo‘lmagan palto yoki kostyum bilan qora rangli bosh kiyim kiyilmaydi.

Rasmiy shaxslar tashqi qiyofasida modaga qarab emas, o‘zining darajasiga amal qiladilar.

### Ayollar uchun

Qabulda odmi, o‘rtamiyona ranglardagi kiyim kiyish tavsiya etiladi. Nonushta, choy, kokteyl uchun oddiy uzun ko‘ylak, katta bo‘lmagan shlyapa kiyiladi, qabul davrida shlyapa yechilmaydi. Mezbon shlyapa kiyimaydi.

Soat 20.00 da va undan kech boshlanadigan qabullar uchun birmuncha bezangan kiyimlar kiyiladi. Ular odatiy uzunlikda va uzun bo‘lishi mumkin. Shlyapa kiyilmaydi.

**Poyafzal.** Turli balandlikdagi teri va zamsh poyafzallar kiyiladi. Sport poyafzali hamda tagi kauchuk, rezinali oyoq kiyimni qabulga kiyish mumkin emas.

**Qo‘lqop va sumka.** Soat 20.00 gacha boshlanadigan qabullar uchun shoyi matoli va layka qo‘lqoplar kiyish mumkin. Sumka teri va zamshli bo‘lishi mumkin.

Kechki bezakli ko‘ylaklarga shoyi va turli qo‘lqoplar kiyish mumkin. Ko‘ylakning yengi qanchalik kalta bo‘lsa, qo‘lqop shunchalik uzun bo‘ladi. Kichik o‘lchamdagи, shoyi, biserli sumka tavsiya etiladi.

**Ayollar ko‘ylagi uchun mato.** Matoning rangi va zichligi fasl va iqlimiш sharoitlarga muvofiq kelishi lozim. Soat 20.00 gacha boshlanadigan qabullarga Sherst, shoyi ishlatilishi mumkin. Kechki ko‘ylaklar uchun shoyi, parcha, tafta va. h.k.larni ishlatish mumkin.

Diplomatik qabullarda ko‘p miqdorda zargarlik buyumlarini taqish tavsiya etilmaydi.

Ayollar kiyim fasoni, matosi va rangini tanlashda erkaklarga nisbatan erkinlikka ega. Bu ularga o‘z qomati va individual xohishiga ko‘ra kiyim, mato, fason, rang tanlash imkonini beradi.

## **Diplomatik martaba**

O‘zbekiston Respublikasi Diplomatik vakolatxonalarini va Tashqi ishlari vazirligi xodimlarining diplomatik martabalari to‘g‘risidagi nizomga muvofiq, Diplomatik vakolatxonalarning boshliqlariga, elchixonalar, missiyalar va konsulliklarning diplomatik xodimlariga, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vazirligi markaziy apparati xodimlariga quyidagi diplomatik martabalar beriladi:

- Favqulodda va Muxtor Elchi
- Birinchi darajali favqulodda va Muxtor vakil
- Ikkinci darajali favqulodda va Muxtor vakil
- Birinchi darajali maslahatchi
- Ikkinci darajali maslahatchi
- Birinchi darajali birinchi kotib
- Ikkinci darajali birinchi kotib
- Birinchi darajali ikkinchi kotib
- Ikkinci darajali ikkinchi kotib
- Uchinchi kotib
- Attashe

➤ Diplomatik martabalar elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlar va konsulliklar huzuridagi doimiy vakolatxonalar, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vazirligi markaziy apparati xodimlariga ijobiy attestatsiyaga, oliv ma’lumotga ega bo‘lingan taqdirda, ularning malakasiga, egallab turgan lavozimiga hamda ish stajiga muvofiq, shuningdek malaka unvonlarini va boshqa farqlovchi belgilarini hisobga olgan holda tadrijiy tartibda beriladi.

➤ Diplomatik martabalar quyidagi lavozimlarni egallab turgan Shaxslarga beriladi:

Favqulodda va Muxtor Elchi	<ul style="list-style-type: none"><li>- O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vaziriga, O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Elchisiga, O‘zbekiston Respublikasining BMTdagi Doimiy vakolatxonasi boshlig‘iga, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vazirining o‘rinbosariga, O‘zbekiston Respublikasining Alovida topshiriqlar bo‘yicha Elchisiga</li></ul>
Birinchi darajali Favqulodda va Muxtor Vakil	<ul style="list-style-type: none"><li>- O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Elchisiga, O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Vakiliga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotdagi doimiy</li></ul>

	vakiliga, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining o‘rinbosariga, O‘zbekiston Respublikasining Alovida topshiriqlar bo‘yicha Elchisiga
Ikkinci darajali Favqulodda va Muxtor Vakil	- O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Elchisiga, O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Vakiliga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotdagi doimiy vakiliga, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining o‘rinbosariga, O‘zbekiston Respublikasining Alovida topshiriqlar bo‘yicha Elchisiga
Birinchi darajali maslahatchi	- Bosh konsulga, Elchixona maslahatchisiga, xalqaro tashkilot huzuridagi doimiy vakil o‘rinbosariga, Elchixonaning maxsus attashesiga, vazir maslahatchisiga
Ikkinci darajali maslahatchi	- Bosh konsulga, Elchixona maslahatchisiga, xalqaro tashkilot huzuridagi doimiy vakil o‘rinbosariga, Elchixonaning maxsus attashesiga, Tashqi ishlar vazirligi boshqarmasi va mustaqil bo‘limi rahbariga, vazir maslahatchisiga
Birinchi darajali birinchi kotib	- Xalqaro tashkilot huzuridagi doimiy vakil o‘rinbosariga, Elchixonaning birinchi kotibiga, konsuliga, Tashqi ishlar vazirligi boshqarmasi va mustaqil bo‘limi rahbariga, rahbar o‘rinbosariga, vazir yordamchisiga, Tashqi ishlar vazirligi bo‘limining birinchi kotibiga
Ikkinci darajali birinchi kotib	- Elchixonaning birinchi kotibiga, konsulga, Tashqi ishlar vazirligi bo‘limining birinchi kotibiga
Birinchi darajali ikkinchi kotib	- Elchixonaning ikkinchi kotibiga, vitse-konsulga, Tashqi ishlar vazirligi bo‘limining ikkinchi kotibiga
Ikkinci darajali ikkinchi kotib	- Elchixonaning ikkinchi-uchinchi kotiblariga, vitse-konsulga, Tashqi ishlar vazirligi bo‘limining ikkinchi-uchinchi kotiblariga
Uchinchi kotib	- Elchixonaning uchinchi kotibiga, vitse-konsulga, konsullik agentiga, Tashqi ishlar vazirligi bo‘limining uchinchi kotibiga

Attashe	- Elchixonaning uchinchi kotibiga, Tashqi ishlar vazirligi bo‘limining uchinchi kotibiga, attashega
---------	---

➤ Favqulodda va Muxtor Elchining, birinchi va ikkinchi darajali Favqulodda va Muxtor Vakilning diplomatik martabalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari bilan beriladi.

➤ Birinchi va ikkinchi darajali Maslahatchining, birinchi va ikkinchi darajali birinchi kotibning, birinchi va ikkinchi darajali ikkinchi kotibning, uchinchi kotib hamda atteshening diplomatik martabalari O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining buyruqlari bilan beriladi.

➤ Lavozimda ishslash muddatlari har bir diplomatik martaba uchun quyidagichadir:

➤ attashe, uchinchi va ikkinchi kotiblari 2-3 yil

➤ birinchi kotib va maslahatchilar 3-4 yil

➤ Attashening boshlang‘ich diplomatik martabasi diplomatik xizmatda kamida bir yil ishlagan shaxsga beriladi.

➤ Favqulodda va Muxtor Elchining, birinchi va ikkinchi darajali Favqulodda va Muxtor vakilining martabalari umrbod beriladi.

➤ Boshqa diplomatik martabalarga ega bo‘lgan shaxslarda ular ushbu mansabdon shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimidan pensiyaga chiqqan taqdirda ham saqlanib qoladi.

➤ Diplomatik martabalarga, shu jumladan, Favqulodda va Muxtor Elchi, birinchi va ikkinchi darajali Favqulodda va Muxtor Vakil diplomatik martabalariga ega bo‘lgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi davlat manfaatlariga qarshi qaratilgan, shuningdek, diplomatik xizmat talablariga zid hatti-harakatlar uchun mazkur unvonlardan mahrum etilishi mumkin.

### **O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri:**

a) oldingi diplomatik martabada belgilangan xizmat muddati o‘tgunga qadar ishda alohida namuna ko‘rsatilganlik uchun;

b) navbatga rioya qilmagan holda, ammo xodimning yuqori lavozimga ko‘tarish vaqtidagi diplomatik martabasidan ko‘pi bilan ikki diplomatik martaba yuqori;

v) birinchi marta attestatsiyadan o‘tkazilayotgan xodimlarga, egallab turgan lavozimda nazarda tutilganiga nisbatan bir diplomatik martaba past;

g) Tashqi ishlar vazirligining mustaqil, shu jumladan, xo‘jalik hisobidagi bo‘linmalari rahbarlariga, xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarilganligi va ishdagi katta yutuqlari uchun unvonlar berishga haqlidir.

➤ Bir diplomatik martabada belgilangan muddatda xizmat qilgan, biroq xizmat faoliyatida yoki xulq-atvorida jiddiy kamchiliklar bo‘lgan elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalar va konsulliklarning diplomatik xodimlariga, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi markaziy apparati xodimlariga navbatdagi diplomatik martaba berilmaydi.

➤ Xizmat burchini qo‘pol ravishda buzganligi yoki xizmat vazifalarini muntazam ravishda, zarur darajada bajarmaganligi uchun xodimning martabasi pasaytirilishi mumkin.

➤ Favqulodda va Muxtor Elchi, birinchi va ikkinchi darajali Favqulodda va Muxtor Vakil martabasiga ega bo‘lgan shaxslarni diplomatik martabadan mahrum yetish yoki martabasini pasaytirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

➤ Boshqa diplomatik martabalardan mahrum yetish O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri tomonidan amalga oshiriladi.

➤ Elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalar va konsulliklar diplomatik xodimlariga, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi markaziy apparati xodimlariga diplomatik martaba berish uchun attestatsiyadan o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

➤ Diplomatik martabalarga ega bo‘lgan elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalar va konsulliklarning diplomatik xodimlariga, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi markaziy apparati xodimlariga tasdiqlangan namunadagi guvohnoma beriladi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdorlarda lavozim maoshlariga qo‘sishma to‘lovlar belgilanadi.

## XALQARO ETIKET

Xalqaro etiketning asosiy xususiyatlari uning universalligidadir. Turli mamlakatlar vakillarining, siyosiy qarashlar va turli dinlarga e’tiqodning, milliy an’analari va ruhshunoslikning, turli hayat tarzi va madaniyatlarning bevosita muloqotlari xalqaro etiketning asosini tashkil etadi.

Har bir millatning ehtirom qoidalari bu milliy urf-odatlar va xalqaro etiketning murakkab uyg‘unligidir.

Bugungi kunda zamonaviy xalqaro etiket barcha mamlakatlar va o‘tib ketgan avlod-ajdodlar madaniyatining eng qimmatbaho qismini o‘zlashtirib kelmokda. Uning rivojlanib borish jarayoni davomida u, turli mamlakatlar vakillari muloqoti orqali xalqlarda mavjud eng yaxshi ehtirom me’yorlarni mujassam qilgan holda boyitilib bormoqda.

Xar bir mamalakat o‘z etiket tamoyillariga ega va ular xalqaro etiketning ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, quyidagilar:

**Fransiya.** Fransiya etiketning vatanı hisoblansa-da, unga boshqa mamlakatlardagi kabi katta e’tibor berilmaydi.

Bir necha asrlar davomida Fransiyada «fransiyalik o‘zini qay tarzda tutsa bu etiketdir», degan fikr saqlanib kelmoqda. Farang tili — jahon va diplomatiya tili. Bu borada, fransyaliklarning fikricha, hech narsa o‘zgarmagan. Boshqa xalqlardan farqli o‘laroq fransiyaliklar horijliklar ularning tilini nafaqat bilishlarini, balki juda yaxshi darajada bilishlari kerakligini zaruriy, deb hisoblashadi.

Fransiyada bir-birini qay darajada bilishidan qat’iy nazar qo‘l berib salomlashish zaruriy odat tusiga kirgan.

Bir kun davomida bir kishi bilan ikki marta, go‘yo bu insonni birinchi bor ko‘rayotgandek, qo‘l berib salomlashish, ayni hurmatsizlik belgisi hisoblanadi.

Suhbat chog‘ida fransuzlar bir-birlarining gaplarini bo‘laveradilar. Bu narsa tarbiyasizlik alomati sifatida tan olinmaydi, balki aksincha, suhbatdoshlarini diqqat bilan tinglayotganliklarini anglatadi va suhbatga qiziqishlari yuqori darajada bo‘lgani uchun o‘z fikrlarini tezroq bildirmoqchi bo‘lganliklarini namoyon qiladi. Boshqa millatlar suhbatida mumkin bo‘lgan hollar fransiyaliklar uchun tarbiyasizlik belgisi bo‘lishi mumkin.

Fransiyaliklar suhbat davomida qo‘llari bilan harakat qilishni yaxshi ko‘radilar. Ular ayni qo‘llari yordamida o‘z fikrlarini aniqroq yetkazadilar. Fransiyaliklar qo‘llari harakatlaridan suhbatdoshning ichki dunyosi, intellektuali darajasi va ichki hissiyotlari haqida bilish mumkin.

Ular hayotdagи barcha hollar uchun qo‘l harakatlarini ishlatadilar: biror narsa yoqmagan hollarda, ishonchsizlikda, kechirim so‘raganda, taajublanganda, o‘zini yo‘qotib qo‘yganda va sog‘inganda.

**Buyuk Britaniya.** Inglizlarning asosiy fazilatlariga o‘z-o‘zini tuta bilshi, aytmoqchi bo‘lgan gaplarini oxirigacha suhbatdoshiga yetkazmaslik, o‘z muammolarini ichida saqlab yurish qobiliyati, yetarli darajada ochiq emaslik, mulkni qadrlash, mustaqil bo‘lish xususiyatlari kiradi.

Fikr almashganda inglizlarning bosiqligi — suhbatdoshga bo‘lgan hurmat belgisi. Suhbat davomida inglizlar qat’iy tushunchalardan voz kechib, «menimcha», «mening fikrimcha», «men o‘ylaymanki» kabi tushunchalarni ishlatadilar. Suhbatdoshning gapini hech bir inkorsiz tinglash, gapiralayotgan fikrga rozilikni bildirish emas, aslo. Inglizlarning fikricha, barcha hayotiy voqealarda o‘zini tuta bilish insonning asosiy fazilatidir.

Muzokaralar odatda qisqa ob-havo to‘g‘risidagi yoki dunyo va mamlakat, sport yangiliklari haqidagi xabarlardan boshlanadi. Ob-havo haqida suhbatlashish inglizlar uchun nafaqat suhbat uchun eng qulay mavzu hisoblanadi, balki asosiy mavzuga

o‘tishga yoki suhbat davomida paydo bo‘ladigan bo‘shliqlarni to‘ldirishga yordam beradi.

Angliyada ko‘rishganda, ayollar qo‘lini o‘pish va hamma borligida «naqadar go‘zal libos!» yoki «juda ajoyib tort!» kabi maqtovlar juda noo‘rin hisoblanadi.

Stol atrofida alohida suhbatlar qurish mumkin emas. Barcha o‘tirganlar gapirgan kishini tinglashi va notiq o‘z navbatida, boshqalarga eshitarli qilib so‘z yuritishi zarur.

**Germaniya.** Germaniyada ehtirom, yaxshi muomala, sipo va kamtar kiyinish uslubi, murojaatlarda shartliliklarga amal qilish, aniqlik va ishbilarmonlik qadrlanadi.

Germaniyaliklar o‘z hurmatlarini biladilar hamda Germaniya Evropa yuragi ekanligini hamisha yodlarida tutadilar.

Muomala qilinayotgan paytda daraja va familiyalarni aytish qabul qilingan. Har bir muomaladagi shaxsning titulini aytib kyetish muhimdir. Agar titul noma’lum bo‘lsa, «doktor janoblari» deb murojaat qilish mumkin.

Germaniyada yoshi kattaroq yoki mansabi yuqori bo‘lgan shaxsning tashabussi bilan kelishib olinmagan bo‘lsa, «sen», deb murojaat qilish tavsiya etilmaydi.

Qo‘l berib salomlashish keng tarqalgan bo‘lib, hatto qisqa muddatlik hayrashish chog‘ida ham keng ishlataladi. Ayollar qo‘l berish istagini bildirgunga qadar kutib turish tavsiya qilinadi. Odatta taklif etilganlarning hammasi bilan qo‘l berib salomlashish keng tarqalgan. Istisnoni juda ko‘p kishilar taklif etilgan hollar tashkil etadi.

Restoranda atrofdagi taklif etilganlar, hatto noma’lum shaxslar bilan «Yoqimli ishtaha» ma’nosini anglatuvchi tushunchalar bilan salomlashiladi.

Biror ichimlik iste’mol qilishdan avval bokal ko‘tarilib, mezbon bokali bilan urishtiriladi (ammo, masalan, Fransiyada bokal ko‘tariladi, lekin urishtirilmaydi).

**Amerika Qo‘shma Shtatlari.** Amerikada o‘z fikrini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mumkin qadar ochiqchasiga bildirish qabul qilingan. Amerikaliklar o‘zlari nima haqida o‘ylasalar, hamisha Shuni gapiradilar.

Boshqa xalqlarda keng tarqalgan tildagi chuqur ma’no, mubolag‘a amerikaliklarni to‘g‘ri fikrdan yanglishtiradi: ular har bir jumlanı so‘zma so‘z qabul qilishga, aniq ekanligiga ishonch hosil qilib, tushunmagan narsani qabul qilmaslikka o‘rganib qolganlar.

Amerikaliklar uchun eng asosiysi bu individuallik va shaxs huquqidir. Shu bilan birga, ularning xususiyatlaridan biri, bu to‘g‘ri so‘zlik va samimiylidir.

Amerikaliklar sodda va qulay kiyinishni, o‘zaro oddiy va norasmiy muloqotni hamda korxonalarda rahbar va ishchilar o‘rtasida demokratik munosabatda bo‘lishni afzal ko‘radilar.

Amerikaliklar sog‘lom, harakatchan, o‘ziga ishongan, o‘zlashtiruvchan bo‘lib ko‘rinishga harakat qiladilar.

Ular vaqtini tejab, punktuallikni qadrlaydilar. Kechga qolishga yo‘l qo‘yilmaydi, kechga qolish hech bir narsa bilan oqlanmaydi. Muzokaralarda ular tezda asl maqsadga o‘tadilar va rasmiyatichilikka vaqt ketkazishni yoqtirmaydilar. Muzokaralar qisqa fursatli, yuzma-yuz olib boriladi va professionalizm va maqsad sari intilishlarga qaratilgan bo‘ladi.

**Yaponiya.** Yaponiya har doim o‘zining an’anaviy yapon xushfe’llligi va xushmuomaligi bilan tanilgan. Yaponiyada yoshu qari past ovozda gaplashadi. Yaponlarda birmuncha issiqlik bo‘lmasa-da, juda xushmuomala xalq hisoblanadilar. Yaponlar uchun xushmuomalik va odob-axloq qoidalari deyarli muqaddas hisoblanadi.

Yapon etiketi ma’nosini tushuntirish uning tamoyillaridan boshlanadi. Yaponlarning oilaviy kutubxonasida boshqa adabiyotlar bilan birga etiket bo‘yicha ko‘rgazmali kitoblar, xushfe’lllik qonunlarini o‘rganish uchun amaliy qo‘llanmalarni uchratish mumkin. Idoralar va hukumat muassasalarida yangi xodimni ishga qabul qilishdan oldin, uning etiket qoidalarini qay darajada bilishini tekshiradilar. Yapon etiketi insoning uyda, ko‘chada, ishda qanday tuta bilishi kerakligini belgilaydi. Yaponlar choyni qanday uzatishni, qanday kiyinishni, bosh kiyimlardan qanday foydalanishni bilishlari shart.

Yevropa etiketidan farqli o‘laroq, yapon etiketi qoidalari bo‘yicha zinadan harakatlanayotganda erkak kishi chap tarafda turishi, zinadan ko‘tarilayotgan paytda erkak kishi ayol kishidan avval, zinadan tushayotgan paytda esa erkak kishi orqada bo‘lishi kerak.

Yaponlar xushmuomala va o‘zini qo‘lga ola bilgan insonlardir. Ular uchun boshqa dunyo xalqlari kabi etiket qoidalari juda muhimdir. Yaponlar o‘zlarining an’analariga boshqalarning riosa qilishini majburiy deb hisoblamasalar-da, ularga riosa qilganlarga nisbatan samimiy minnatdorchilik bilan muomalada bo‘ladilar. Yaponiyada bosh egib so‘rashish an’anasi hali ham keng tarqalgan bo‘lgani uchun mehmonlarga ham bunga javoban biroz boshini egib salomlashish tavsiya qilinadi.

**Xitoy.** An’analarga alohida yondashish, tartib, o‘rnatilgan qoida va an’analarga amal qilish uning xulq va odob ta’limotining asosi bo‘lib qolgan. Hozirgi paytda konfutsianlik shartlari va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning jiddiy vertikal tizimi ortda qoldi. Muomala qilish, xulq-atvor tamoyillari, kiyim shartlari jamoat ierarxiyasiga bog‘liq bo‘lмаган holda qat‘iylik tusini yo‘qotdi. Ayollar erkaklar kabi bir xil imtiyozlarga ega bo‘ldilar. Shu bilan birgalikda, kattalarga hurmat va milliy madaniyat, tarix, adabiyotga nisbatan e’tibor tuyg‘ulari saqlanib qoldi. Shuni yodda tutish kerakki, Xitoyda etiketning asosiy xususiyati xushmuomalalikdir.

Xitoyda yoshi katta yoki notanishShaxslar bilan muomualada «siz», deb muloqotda bo‘lish, Yevropa davlatlariga nisbatan kam ishlataladi. Xitoyliklar asosan muloqotda bo‘lganda «sen», deb muomalada bo‘ladilar, bu, o‘z navbatida, rus yoki,

masalan fransuz kishilik olmoshiga to‘g‘ri keladigan to‘liq analog bo‘lib hisoblanmaydi. Muloqotda Shaxs hurmat yuzasidan ikkinchi Shaxsga nisbatan kishilik olmoshi o‘rniga — janob (xonim) va familiyasini qo‘sib murojaat qilishi mumkin.

**Arab davlatlari** Arab etiketi arab dunyosining yozilmagan urf-odat qonunlarini ajralmas qismi hisoblanib, bajarilishi shartdir. Shu kunga qadar arablar jamiyat hayotining hamma sohalarida arab etiketiga rioya qilib kelmoqdalar. Arab etiketi tipologik ravishda sharq xalqlari, asosan islomiy xalqlar etiketiga o‘xshab ketadi.

Arab etiketining alohida xususiyatlari – bu mehmondo‘stlik, kattalarni hurmat qilish, kamtarlik, jasurlik, hamda yuqori shakllangan burch va do‘stlik hissidir.

Arablar uchun eng muhimi bu jamiyatdagi obro‘ e’tibordir. Obro‘-e’tiborga ega bo‘lish uchun bir qancha xususiyatlarga ega bo‘lish kerak, bu esa xalqni burch va axloqiy anglash tushunchasi bilan aks etadi. Bu tushunchalar quyidagi xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan: rostgo‘ylik, jasurlik, kattalarni hurmat qilish va saxiylikdir. Arablar insoniy xislatlar ichida samimiylilikni yuqori qadrlaydilar. Inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda burch, majburiyat haqidagi tushunchalar muhim rol o‘ynaydi.

Arablar sergap, jiddiyatsizlik, yengiltaklik kabi xislatlarni qoralaydilar.

Xulq-atvor qonunlarida qo‘schnichilik va mehmondo‘stlik munosabatlariga alohida ahamiyat berilgan. Arablar uchun mehmonni yaxshi kutib olish nafaqat majburiyat, balki muqaddas burchdir.

### **Tayanch tushunchalar:**

Diplomatik etiket, diplomatik protokol, diplomatik martaba, qabullar, attashe, diplomatiya, diplomatik salomlashish, rasmiy qabul, smoking, frak, rasmiy tushlik, stol servirovkasi, jurfiks, a-lya furshet, kokteyl, tushlik-bufet, nonushta, shampans bokali, shved dasturxoni, sammit, serimonial, verbal nota, bayonnomma, memorandum.

### **Mavzu mustahkamlash bo‘yicha savollar:**

1. Diplomatik etiket nima?
2. Diplomatik prootokol deganda nimani tushunasiz?
3. Diplomatik martaba qanday belgilanadi?
4. Qabullarda: ayollar va erkaklar kiyimi qanday bo‘lishi kerak?
5. Diplomatik yozishmalar qanday tartibda olib boriladi?
6. Rasmiy qabullar haqida nimalarни bilasiz?
7. Vizitka va verbal nota deganda nimani tushunasiz?

8. Fransiya, Angliya, AQSH, Germaniya, Yaponiya davlatlarining etiket qoidalari nimalardan iborat?

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. O‘zbekiston milliy faylasuflari jamiyati. – Toshket, 2010.
2. Джон Вуд. Жан Сепре. - М., Прогресс, 1976.
3. Deyl Karnegi . Qanday qilib do‘sit orttirish va odamlarga ta’sir ko‘rsatish mumkin. A.Usmon tarjimasi. – Namangan, 2007.
4. Деловой этикет. Экономическая категория. [www.c Kodzeva. ru/](http://www.c Kodzeva. ru/) a. 11. 24КБ.
5. Правила этикета. [www. etiksute. org](http://www. etiksute. org). 3 КБ.
6. Про ресторан – основы ресторанныго дела. [www. Prorestoran. Com](http://www. Prorestoran. Com). 23КБ.
7. Этикет от А до Я. [www. etiksute.ru](http://www. etiksute.ru). 11. КБ.

## **9-MAVZU. SAYOHAT ETIKETI. TURIZM**

Turistik safarda ishtirok yetishga qaror qilar ekanmiz, quyidagi qoidalarni nazarda tutishimiz lozim:

- Uchrashuv belgilangan joyga kechikmaslik;
- «Og‘ir yuk» bo‘lgani uchungina o‘zingiz bilan olishga erinib, boshqalar yelkasida tashib kelgan o‘rin-ko‘rpalarga da’vogarlik qilmaslik;
- vaqtinchalik olib turgan idishlarni yuvmasdan qaytarmaslik;
- gulxan yoqish yoki boshqa narsa qilish kerak bo‘lganda gimnastika bilan Shug‘ullanishga o‘tib ketmaslik;
- kiyimini «dardida» boshqalarga «yuk» bo‘lmaslik: «buyerda o‘tirmayman – shimimning rangi och» – ahvolingiz, chanqoq va boshqa narsalardan nolib injqlik qilmaslik;
- meva terish yoki tabiat go‘zalligini tomosha qilish uchungina boshqalarni yo‘ldan to‘xtatish nojoiz. Faqat safarboshigina to‘xtash, dam olishning vaqtini belgilaydi.

Sog‘lig‘i yaxshi bo‘lmaganlar ko‘pchilik bilan bo‘lgan turistik safarlardan voz kechgani ma’qul. Biroq kimdir shamollab qolsa, uni berkitmagan yaxshi: bunday «kamtarinlik» keyinchalik kuchliroq bezovtalikni uyg‘otish mumkin. Agar yaxshi sport holatda bo‘lsangiz, o‘zingizni ko‘rsatib, boshqalarning yurish tezligini oshirmagan yaxshi.

Dam olgan yoki tunni o‘tkazgan joyda axlat qoldirish yaramaydi: tuxum po‘chog‘i, qog‘oz va boshqa narsalarni hammasini yerga ko‘mib kyetish shart. Xuddi shu tarzda daraxtlarda o‘zini «imzo»ini qoldirish yaramaydi. Rasmni sevuvchilar, boshqalarni rasmga tushirish bilan qiynashi yaxshi emas – hamma ham rasmga tushishni yoqtirmaydi. Agar sizni rasmga tushirishni bo‘yniga olgan ekan, ularni qabul qilgach, minnatdorchilik bildirish lozim.

### **Chet el turizmi**

Chet el turistik safar qo‘yan talablarni bajarish qoidaga binoan, siz kelgan begona yurtda ko‘p qiyinchiliklar tug‘diradi. Urf-odatlarni o‘zini qarichi bilan o‘lchab, boshqalarni ayplash yaxshi emas. Mulozamatlik, atrofdagilarga nisbatan qiziqish, ko‘proq ko‘rish va anglashga intilish – bu safarning asosiy mazmunidir.

### **Ekskursiya**

Avtobus ekskursiyasida siz tomoningizdan band qilingan joylar qaytishda ham saqlanadi. Ammo ekskursantlar orasida orqa o‘rindiqlardan o‘zini noxush sezuvchilar chiqib qoladi va tavozelik yo‘ldosh unga o‘zining joyini bo‘shatib beradi.

## **Tanishuvlar**

«Ta’tildagi» tanishuvlarni haddan ziyod jiddiy qabul qilmaslik lozim. Bunday tanishuvlar ta’tildan so‘ng ham davom etadigan holatlar ham uchrab turadi. Ammo ko‘p hollarda odamlar uyga qaytgach aloqalar uziladi. «Ta’tildagi» tanishga yuborilgan xatni javobsiz qolganiga kuyinmagan ma’qul, axir yo‘lda uchragan har bir tanish bilan xat yozishni doimo istayvermaysiz-ku.

## **Sohil**

Sohil va cho‘miladigan joylar – cho‘miladigan kiyimlar kiyilishi tabiiy bo‘lgan joy. U joydan uzoqlashgach, bu kiyimda yurish yaramaydi. Sohilni ifloslantirish, bolalarga baqirish, hamda begonalar koptok otishga ruxsat berish mumkin emas. Sohildagi eng yomon narsa radio yoki magnitofon. To‘g‘ri, u o‘zi bilan olib, yurishga mo‘ljallangan, ammo atrofdagilarni unutib qo‘yish yaxshi emas. Bunday narsaning egasi ovozini paysatirilishini so‘ralganda, so‘zsiz bajarishi lozim. Agar qo‘sinqi past ohangda eshita olmasangiz, quloqqa taqadigan moslamalardan foydalanish zarur.

## **Erkak va ayol**

Ayolni kuzatib ketayotgan erkak chekmaydi. Taksi to‘xtatgan erkak avval orqa o‘rindiqning eshigini ochib, ayolni o‘tkazadi, keyin o‘zi uning yoniga o‘tiradi. Mashinadan avval erkak chiqadi va ayolga yordam beradi. Agar mashinaning erkakning o‘zi haydasa, rulga o‘tirishdan avval oldingi o‘rindiqqa ayolni o‘tkazadi. Biron joyga kirishdan avval eshikni erkak ayolga ochib beradi, so‘ng o‘zi kiradi. Zinapoyadan ko‘tarilishda erkak oldinda, tushishda ayoldan orqada bo‘ladi. Biron joyga kirganda ayoldan avval erkak o‘tirmaydi.

Ko‘p hollarda erkaklar ayollar bilan uchrashuvga chiqqanlarida tashqi ko‘rinish unchalik ahamiyat kasb etmaydi, deb o‘ylaydilar. Adashasiz. Ular nafaqat ustingizdagи kiyimga, balki ko‘ylagingizda qanday yozuvsular borligi bilan qiziqib, o‘qib chiqishdan ham toymaydilar. Ayollarning fe’li maydarоq bo‘ladi. Ular bunga e’tibor beradilar.

## **Kafe, restoran**

Restoran yoki kafeda ayol bilan uchrashishga kelishib olgan erkak aytilgan vaqtidan bir oz avvalroq borib o‘tirishi lozim. Ammo ma’lum bir sabablar bilan erkak uchrashuvga bir oz kechikib kelsa, bundan fojea yasash noo‘rin. Erkak kechikkani uchun uzr so‘rab, sababini tushuntirishi shart, ayol esa – buni kechirib, o‘z kayfiyatini buzmaslik uchun «qovoq solmay» o‘tirgani ma’qul.

Agar restoranda bir necha odamlar uchrashmoqchi bo‘lsalar, kechikkanlarni 20 daqiqadan ortiq kutilmaydi. Ba’zi qiz va ayollar kafe yoki restoranga kirishdan ko‘ra, ko‘chada uchrashib keyin borishni afzal biladilar. Bu paytda erkak o‘z vaqtida kelishi

shart. Kafe yoki restoranga birinchi bo‘lib ayol kiradi, erkak bosh kiyimini yechib kiradi va faqat chiqayotganda kiyib oladi. Stolning devorga tirab, restoran zaliga qaratilgani eng qulayi hisoblanadi. Agar zalning markazida o‘tirgan bo‘lsangiz, ayol uchun eng e’tiborli joy chiqishga qarab o‘tiradigan joydir.

Bo‘sh joy qolmagan taqdirda, ofitsiantlarga murojaat qilgan ma’qul. Band bo‘lganini eshitgan joydan joy talab qilish yaramaydi. Kafeda tanishingiz oldiga, garchi sizga notanish bo‘lgan odam bilan o‘tirgan bo‘lsa ham, o‘tirish mumkin. Ammo restoranlarda mumkin emas – sizdan maxsus iltimos qilishsagina bu istisno hisoblanadi. O‘tirganda yoningizdan o‘tib ketayotgan tanish bilan turmasdan ham ko‘rishish mumkin, ammo siz murojaat yoki aksincha, u sizga murojaat qilayotganda, albatta, turish kerak bo‘ladi. Agar tanish bir ikki og‘iz so‘z uchun yoningizda to‘xtagan bo‘lsa, uni oldingizda o‘tirganlarga tanishtirmasa ham bo‘ladi. Ammo suhbat cho‘zilib ketsa, dasturxonga taklif qilgan, yoki uzr so‘rab tanishingiznoliga o‘tib olgan ma’qul. Agar tanishingizni dasturxonga taklif qilmoqchi bo‘lsangiz, uni albatta, yoningizdagilarga tanishtiring. Ofitsiantdan siz bilmagan taomni tushuntirib berishni so‘rashdan uyalmaslik lozim. Taomlarning nomi ko‘p va biz ularning hammasini bilishimiz shart emas. Restoranda likop ustiga qo‘yilgan sochiqni tizzaga yoyish shart. Agar tizzadan sirg‘alib tushib ketsa, uni birovga oldirmagan yaxshi. Hech kimga bildirmagan holda olishga harakat qilish joiz. Ketayotganda esa sochiqni stolga qo‘yib turiladi.

Ba’zida taomga qo‘shimcha tarzida bodring va pomidordan kesib qo‘yilgan gazaklar qo‘yiladi. Uni olib idishga solish shart emas. Go‘shtga qo‘shib likopning o‘zidan olib yeyaveriladi. Sherigimiz hali taomni tugatmasidan avval ofitsiantdan hisobni so‘rash, unga nisbatan bepisandlik sifatida qabul qilinadi. Tasodifan uchratib qolningan tanish ayol bilan kafega kirilsa, har kim o‘zi uchun to‘laydi. Ya’ni: Ayol ofitsiantni chaqirib bergen buyurtmani aytadi va hisobni o‘zi to‘laydi – erkak ham xuddi Shu tarzda ish ko‘radi Restoranda avval kim o‘rnidan turadi? Kim uchrashuvni tashkillashtirgan bo‘lsa, Shu odam avval o‘rnidan turadi. Agar dasturxon ikki kishiga yozilgan bo‘lsa, taklifni birinchi erkak qiladi, ayol esa uzrli sabablar bo‘lgandagina, soatga qarab: «Vaqt bo‘ldi», deb o‘rnidan turishi mumkin.

## Transport

Ayol kishiga joy berayotgan erkak o‘rnidan turib, uzoqroq joyga borib turadi. Ishdan charchab kelayotgan erkak ayolga joy bo‘shatish kerak, deb hech kim majburlamaydi. O‘z vijdoniga havola. Ammo odob bolali ayollarga, yoshi katta yoki nogironga joy berishni talab qiladi. Ba’zida qariyalar turib, erkaklarimiz yoshgina chiroylik qizlarga, garchi ular o‘tirmasa ham bo‘lsa-da, sakrab turib joy beradilar. Ba’zida esa kuchli jins vakillaridan deb, ayollarni noziklikda ayplashni yaxshi ko‘radigan o‘sha erkaklarimiz qizlarga tugul yoshi katta ayollarga ham joy

bermaydilar yoki yonida o‘tirgan yosh qizni turib joy berishini kutib o‘tiradilar. Mardlik ham nomardlik ham, haqiqiy erkaklik g‘ururi ham mayda narsalardan boshlanadi. O‘zini jonini shuherda ayagan erkakdan boshqa narsani kutmasa ham bo‘ladi.

Qizlarimiz esa o‘zlarini dugonalari bilan gaplashib ketayotgan va kattalarni yoki homilador ayollarni «sezmay» qolganlarini ko‘rsatishga intilsalar-da, bu juda xunuk ko‘rinish kasb etadi. Garchi yo‘lovchilar sizlarga hech narsa qila olmasalar-da, siz ham kelajagingiz uchun kichiklar oldida shunday «ibrat» tayyorlaysiz. Keyin xafa bo‘lmang. Joy berilgan odam tashakkur aytadi, ammo uni gapga tutmaydi. Agar erkak bilan ketayotgan ayolga boshqa erkak joy bersa, tashakkurni yonidagi erkak kishi bildiradi. Transportdan chiqishda avval erkak tushib, ayolga chiqishga yordam beradi. Notanish erkakka bu gap taalluqli emas. Biron qiyinchilik tug‘ilmasa, ayol kishini o‘tkazib yuboraveradi. Bolali yoki yuki bor ayolga chiptachi yoki haydovchi yordam bermagan taqdirda notanish erkak buni o‘z bo‘yniga oladi, ammo buni ortiqcha so‘zlarsiz, tanishuvga intilishsiz jiddiy tarzda bajaradi.

Poyezd, tramvay yoki avtobusda yonimizda turgan kattalarni, erkaklar – ayollarni o‘tkazib navbat bilan shoshmasdan chiqiladi. Agar ayol erkak kishi bilan bo‘lsa, navbatga qarab joy olishadi. Ayollar o‘z «imkoniyatlaridan» foydalanib tramvay vagoni yoki avtobusga hammadan oldin, yonidagi yo‘ldoshini tashlab chiqib olmaydi. Ammo bu ro‘y bersa, erkak unga yetib olishga harakat qilib oldinga boshqa ayollarni turtib jon-jahdi bilan intilmaydi. Olomon bir pasga sizni ayirsa, buni qo‘rquinchli joyi yo‘q. Ayolga joy berilgach, u o‘zining sog‘lom maktab yoshidagi farzandini u joyga o‘tkazishi yaxshi emas. Yoshi o‘tgan ayolni yetaklab ketayotgan ayol o‘tirishga joy topolmasa, yoshroq odamdan iltimos qilishi mumkin, albatta, odob bilan. Ayollar o‘zidan katta yoshdagi erkaklarga joy bermaydilar. Bir tarafдан bu ko‘rinishning qari yekanligini ko‘rsatib, xafa qilib qo‘yishi mumkin. YOsh qiz yoshi katta odamga joy bersa bo‘ladi. Transportda odamlarni oyog‘ini bosmaslikka, birovgaga suyanib olmaslikka, elkasidan turtmaslikka harakat qilish lozim. Yo‘lovchilarni zimdan kuzatish ham yaxshi emas.

Poyezdda atrofdagilarga nisbatan e’tibor va mulozamat ancha qiyinchilik talab qiladi. Tiqilinch, issiq va yuklar – bularning barchasi bosiq odamni turtinishni va achchiq so‘zini «ayamaydigan» temiryo‘lchiga aylantirib qo‘yadi.

Samolyotdagi yo‘lovchilardan odatiy yo‘l qoidalarini talab qiladi. Bu yerda yuqoridagi muammolar yo‘q. Ammo yo‘lovchilar orasida vahima qilish ham yaramaydi: «Menimcha bitta motor ishlamayapti...», yoki sizga ma’lum bo‘lgan havo yo‘llardagi falokatlarni eslab o‘tirish: «O‘sanda ob-havo xuddi Shunday ochiq edi...» qabilidagi voqealarni aytish yaramaydi.

Avtomashinada kezish – bu ham o‘ziga yarasha qoidalarga amal qilishni talab qiladi. Eng yaxshi joy – haydovchining yonida. To‘g‘ri, bu sal xavfliroq, ammo

qiziqarli. Bu joy ikki kishiga mo‘ljallangan. Birinchisi – mashina egasining rafiqasi, qolganlar esa orqa o‘rindiqda o‘tiradi. Ammo mehmonga ixtiyor bergeningiz ham ma’qul, unga orqa o‘rindiq yoqishi mumkin. Demak, ikkita «mezbonlar» – oldinda va ikkita mehmonlar – orqa o‘rindiqda. Ba’zida esa mashina egasining yonida erkak mehmon o‘tiradi, ayollar esa – orqa o‘rindiqda. Ikkala variantni mehmonlarga tanlash orqali tavsiya etgan ma’qul.

Bir paytlar ayol kishini olib ketayotgan haydovchining vazifasiga eshikni ohib berish qo‘yilar edi. Buning uchun u rulni tashlab, mashinaning boshqa tarafiga aylanib o‘tib, ayolga chiqishga yordam berar edi. Hozir bunday emas. Ammo u chiroyli ko‘rinishga ega. Ko‘p hollarda esa haydovchi bir oz cho‘zilib eshikni ayol uchun ohib yuboradi. Bugun esa bunday harakat faqat yaqin qarindosh yoki yoqqan ayolga nisbatan ishlatiladi. Doimo erkak-haydovchi ayol kishini yukini olib berishi shart.

Haydovchining yonida o‘tiradigan yo‘lovchi o‘ziga bir qancha majburiyatlarni oladi. Haydovchi tormoz berib mashina silkinganida, qo‘rqib ketgan bo‘lsangiz ham «Esing joyidami?!» qabilidagi hayqiriqlarga o‘xhash tanqidiy gaplardan o‘zini tiygan ma’qul. Yo‘lovchilar haydovchiga to‘liq ishonch bildirmoqlari lozim. Zaruratsiz to‘xtatishni so‘ramagan yaxshi. Bunday masalalarni haydovchining o‘zi hal qiladi. Tanishingizdan sizni ishxonangizga «tashlab» o‘tishni yoki dam olish kunlari siz bilan aylangani chiqishni iltimos qilmaslik kerak. Bunday takliflar faqat haydovchi tarafidan bo‘lishi lozim. Garchi shoshilinch bo‘lsa ham, mozor va turli ziyyaratgohlar yonidan past tezlikda o‘tayotgan haydovchidan «tezlatishni» so‘ramaslik joiz.

Milliy odatlаримизга биноан бunday joylardan o‘tayotgan otliq, otdan, umuman, egardan tushib sekin o‘tgan. Agar sizni yo‘lakay yetkazib qo‘yishgan bo‘lsa-yu, kira haqini kelishmagan bo‘lsangiz, taxminiy ketadigan qiymatni berish mumkin. Ba’zilar buni rad etadilar – bu ularning ishi. Shaxsiy mashinani qoidaga binoan, berib turilmaydi. Zarurat yuzasidan maxsus vaziyatlarda tanishingizdan kasalxonada yoki vokzalga olib borib qo‘yishni so‘rash mumkin. Tanishingiz uyidan mehmonlar bilan chiqar ekansiz, mashina egasi ularga olib borib qo‘yishni taklif etadi. Agar, masalan, besh kishi bo‘lsa, mashinaga faqat uchta kishi sig‘adi, kim kyetishni esa o‘zlari hal qiladi.

Davlat haydovchisi haydaydigan xizmat mashinasining orqa o‘rindig‘i eng nufuzli joy hisoblanadi. Agar rahbar haydovchining yoniga o‘tirsa, tavozelik qilgan bo‘lardi. Rahbar xodimini haydovchining yoniga o‘tkazib, o‘zi orqaga o‘tirib olsa, g‘alati ko‘rinadi. Uning orqa o‘rindiqda xodimasi bilan yoki haydovchining yonida o‘tirish bilan obro‘sni tushmaydi.

Agar taksida «Chekilmasin» degan e’lon yopishtirilib qo‘yilgan bo‘lsa, yo‘lovchi bunga bo‘ysunishi lozim, o‘z o‘rnida esa haydovchi ham yo‘lovchining

oynani yopib qo'yish iltimosini bajarishi lozim. Taksiga o'tirayotgan yo'lovchi haydovchi bilan ko'rishadi. U ham alik oladi. Ikkita yo'lovchidan ayol kishi birinchi bo'lib taksiga o'tiradi. Uni kuzatib ketayotgan erkak haydovchining emas, ayolning yoniga o'tiradi.

### Sayohat vaqtida

• Poyezd vagoni, samolyot saloni, uzoq yo'lga chiqqan avtobus yoki okean laynerida sayohat qilishimizdan qat'iy nazar, har qanday joyda bo'lganidek, o'zimizni atrofdagilarga nisbatan bosiqlik va xayrixohlik ruhida tutishimiz kerak.

• Kupe yoki paroxod kayutasiga kirar ekanmiz, avvalo bizdan avval joylashib bo'lgan yo'ldosh bilan ko'rishib olish ilk tasavvurni yaxshilaydi. Agar siz o'z narsalaringizni allaqachon band etilgan javonga joylashtirmoqchi bo'lsangiz, avval Shu javon egasidan ruxsat so'rash lozim. Va albatta, ruxsat olgandan so'ng, minnatdorchilik bildirish joiz.

• Agar qorningiz och bo'lsa va baxtingizga o'zingiz bilan yegulik olgan bo'lsangiz tamaddi qilishdan istihola qilmang. Biroq buni saranjomlik bilan bajarish kerak. Tamaddi qilib bo'lgach, stolni tartibga keltirib qo'yish asosiy talablardan biridir.

• Tabiiyki, bir necha soat davomida yonma-yon siz uchun notanish bo'lgan odamlar bilan birga bo'lish oson emas, ba'zida bitta kupeda ketayotgan yo'lovchilarning fe'l-atvorlari o'ta turli tabiatga ega, deyarli biri-biriga to'g'ri kelmaydi. Ammo har qanday holatda, hamxonaning nimasidir yoqmagan taqdirda ham, unga buni bildirmagan ma'qul. U bilan bo'lgan munosabatda vazmin, sabr-toqatli va xayrixoh bo'lish sayohatni yaxshi o'tishini ta'minlaydi.

• Sherikingiz ovqatlanayotgan paytda o'zingizga yotish uchun o'rin solmang.

• Kiyim almashtirish uchun, Sheriklardan odob bilan chiqib turishni iltimos qilish mumkin.

• Haddan tashqari ochiqchasiga suhbatlashishiga yoki kuchli bahsga o'tib kyetishga shoshilmagan ma'qul. Begonalar oldida yuragingizni to'kib-sochish sizni yoki ularni noqulay ahvolga solib qo'yishi mumkin.

• Yo'ldoshlar ortiqcha savollar, ayniqsa, nozik aloqalarga bog'liq savollar berishga harakat qilmaslik kerak.

• Ularning hatti-harakatlaridagi yoqimsiz holatlarga norozilik bildirish vaziyatni chigallashtiradi.

• Ota-onalari oldida bolalarga tanbeh berib va aql o'rgatilmaydi.

• Mast qiluvchi ichimliklarni poyezd va samolyotlarda ichilmaydi. Kupedagi mast yo'lovchi – o'tatubandir. Ayniqsa, oyog'ida tura olmasa. Sigaret hidi ba'zi yo'lovchilarda allergiya, hatto astmani qo'zg'atishi mumkin.

•Har qanday suhbatni bahsga aylantirishga intilib, shovqin qilmaslik joiz. Suhbatda odabsiz va qo‘pol so‘zlarni ishlatalish yaramaydi. Bunday holdagi tushunchalar atrofdagilarda jirkanishni paydo qiladi.

•Yo‘lda ekansiz, hamon jamoatda odamlar bilan birga ekanligingizni yodda tuting. Va qay darajada ular har xil bo‘lmasin, agar haqiqatan ham tarbiyali odam bo‘lsangiz, ularga nisbatan ochiq hurmat bilan munosabatda bo‘lishga harakat qilishga intilish lozim.

### Ko‘chada

Ko‘chada o‘zini tutishning eng asosiy qoidasi – bu atrofdagilarning o‘zini noqulay va noxush sezishiga sabab bo‘lmasliklaridir. Bizning mamlakatda yo‘lovchilar harakati o‘ng tomonlamadir, demak, o‘ng tarafda yurishga harakat qilish kerak. Trotuar bo‘yicha harakatlanishga qarama-qarshi holda harakatlanmagan ma’qul. Narsalarni ro‘parada kelayotgan odamga nisbatan halaqit bermaslik uchun o‘ng qo‘lga olib, o‘ng tarafdan yurish joiz. (Garchi ayol kishi bilan ketilayotgan bo‘lsa ham).

Yurayotganda odamlarni turmaslikka harakat qilish lozim. Agar shoshayotgan bo‘lsangiz va oldingizda ketayotgan odamni yonidan o‘tib ketmoqchi bo‘lsangiz, uni chap tomonidan o‘tishga harakat qilish lozim (bu paytda «*o‘tib ketsam maylimi*», «*kechirasiz*» so‘zlarini aytib o‘tishni unumaslik joiz).

O‘tib ketayotgan ayollarni orqasidan tez-tez o‘grilib qarashdan ayniqsa, yoningizda ayol kishi bo‘lsa, o‘zni tiygan yaxshi. Sherigi bilan ketayotgan tanishni to‘xtatish ham bundan istisno emas. Ko‘chada chekmaslikka, tuflamaslikka harakat qilish kerak. Hech bo‘lmasa vatanparlik nuqtai nazaridan – ona Yerga tuflayotganini bilgan odam buni boshqa qaytarmasa kerak. Zotan, buyuk vatandoshlarimizdan biri Ahmad Yassaviy, Umar Xayyom o‘z asarlarida tuflash tugul tuproqqa ehtirot bo‘lib qadam bosish kerakligini odamlarga bejiz uqtirishmagan.

Ko‘pchilik bilan yurish tavsiya etilmaydi. Agar shoshayotib, oldinda ketayotgan odamni yonidan o‘tib ketmoqchi bo‘lsangiz, uni chap tomonidan o‘tishga harakat qilmoq, «*o‘tib ketsam maylimi*», «*kechirasiz*» so‘zlarini aytib o‘tishni unumaslik joiz. Agar yo‘lda to‘xtashga to‘g‘ri kelsa (biror tanishini uchratib qolsangiz, sumkadan biror narsani olmoqchi bo‘lsangiz), chetga o‘tgan ma’qul. Tirsak yoki qo‘l bilan tiquilinch joylarda turtib-surtib o‘tishga intilish qo‘polikdir. Agar bu o‘ta zaruriyat kasb etsa, uzr so‘rashni unutmaslik lozim.

Yo‘lda o‘ng‘aysiz holatga tushib qolmaslik uchun, masalan, tanishni ko‘rmay o‘tib kyetish, salomga alik olmaslik hollari bo‘lmasligi uchun ziyrakroq bo‘lgan ma’qul. Juda shoshib turgan va gaplashishga moyil bo‘lmagan odamni to‘xtatish befarosatlikdir. Harakat ko‘p bo‘lgan joylarda uzoq suhbatlar olib borilmaydi. Shu bilan birga hozirda rusm bo‘lgan musiqa uchun mo‘ljallangan telefon jihozlarni

qulqqa taqib olish bir tomondan tushunmovchilikni, ikkinchi tomondan esa hayotga xavf ham tug‘dirishi mumkinligini o‘ylab ko‘rish lozim. Musiqaning balandligi orqavarotdan kelayotgan avtomobilni shovqini eshitmay qolish mumkin. Imkon boricha bunday narslarni eshitadigan darajada musiqaning ovozi past bo‘lgani ma’qul.

Agar yo‘lda biror bir ma’lumot va ko‘rsatmaga muhtoj bo‘lib qolsangiz, savollar bilan ichki ishlar xodimiga yoki haydovchiga murojaat qilish mumkin. Ularni topolmagan taqdirda uzr so‘ragan holda yo‘lovchilarga murojaat qilsa bo‘ladi. Kerakli ma’lumotga ega bo‘lgandan so‘ng, tashakkur bildirish odobdandir. Agar sizdan ko‘chada biror bir narsa so‘rashsa, tavoze’ bilan aniq, ravshan va qisqa javob berish kerak. Uzoqdan-uzoq tushuntirishlar bilan murakkablashmagan ma’qul. Ko‘chada ovqatlanish odobga to‘g‘ri kelmaydi. Yaqin-atrofdagi restoran, bufet yoki qahvaxonaga kirgan ma’qul. Bolalar oldida o‘zingizni madaniyatliroq tuting (garchi o‘z farzandlaringiz bo‘lmasa ham) – har qanday katta yoshdagi odam o‘zi istar-istamas yonida turgan bolalarga ta’sir qila olish xususiyatiga ega.

Ko‘chada ayolning chap tarafidan yuriladi, agar ikkita erkak bo‘lsa, chapdan yoshrog‘i yuradi. Agar yo‘lda ta’mirlash ishlari olib borilayotgan bo‘lsa, erkak trotuardan tashqarida yuradi. Agar uchta bo‘lib ketayotgan bo‘lsangiz, o‘rtadagi joyni nufuzliroq odamga beriladi. Masalan, professor ikkita talaba o‘rtasida, ayol kishi ikki erkak o‘rtasida, ikkita ayolnining o‘rtasida bitta erkak yuradi. Bunday vaziyatda har bir ayol uchun erkak tayanchiq vazifasini o‘taydi, hamda suhbat ham jonliroq bo‘ladi. Agar to‘rtta bo‘lib ketayotgan bo‘lsalar juft bo‘lib olganlari yaxshi. Yoshi kattaroqlari oldinda, yoshlari orqada. Beshta bo‘lsalar biri uchtadan, ikkinchisi ikkitadan bo‘linib olishadi. Zinapoyadan ko‘tarilayotganda erkak ayoldan kerak bo‘lganda qo‘llab turish uchun bir pog‘ona pastroq ketadi. Zinapoyadan tushayotganda esa ayol qoqilib ketaganida ushlab qolish mumkin bo‘lgan masofada tushadi.

### **Tarbiyali kishi ko‘chada:**

- Iflos qilmaydi, tuflamaydi, qo‘li bilan ko‘rsatmaydi;
- Bolalarga baqirmaydi;
- Do‘sti bilan gaplashish uchun yo‘lni o‘rtasida turib olmaydi;
- Gazonlar bo‘ylab yurmaydi, yeyilgan qoldiqlarni tashlamaydi, danaklarni tuflamaydi, pista chaqmaydi, radio yoki magnitofonni barlla ovozga qo‘yib yubormaydi.
- Yo‘l qoidalariga nisbatan mensimaslik hissi nafaqat hayot uchun xavflidir, balki Shundoq ham qiyin bo‘lgan haydovchini ishini og‘irlashtiradi. Shu bilan birga haydovchilar ham yo‘lovchilarga loy yoki iflos suvni sachratib kyetishlari o‘ta madaniyatsizlikdir!

Ko‘chada uchratib qolgan tanishdan «qayerga ketyapsan?» deb so‘roqqa tutish va bir o‘zi ketmayotgan kishini yo‘lda to‘xtatish yaxshi emas. Erkak doimo ayolni

o‘tkazib yuboradi (G‘arbda), bizda esa aksi. Yo‘l qiyin bo‘lsa, barcha joyda ham ayol kishiga osonlik tug‘dirish uchun erkak oldinda yuradi. Yonida ketayotgan ayolni og‘ir sumkasi yoki jamadon, portfeli ko‘tarib kyetishi mumkin, ammo ayolning sumkasi yoki yomg‘irpo‘shini olib yurishi erkak kishishga yarashmaydi. Ayol ustki kiyim yoki plashini o‘zi bilan olib yuradi.

Yig‘ilgan yomg‘irpo‘shni olib yurishning qoidalari qanday?

Ayol yomg‘irpo‘shning uchidagi ipini qo‘liga ilib oladi. Erkak chap yelkasiga osiltirib yoki hassaga o‘xshab qo‘lida olib yuradi. Uni nayzaga o‘xshatib olish yaramaydi, birovga tegib kyetishi mumkin. Ochiq holdagi yomg‘irpo‘shni birovning boshiga yoki boshqa narsaga ilib olmaslikka harakat qilib yurish lozim. Yo‘l ostidan o‘tadigan yo‘lklarda yomg‘irpo‘shni yopib olgan ma’qul.

Kiyimga esa e’tiborli bo‘lganimiz yaxshi. Avvalambor ozoda va batartib bo‘lish lozim. Yalang oyoqqa sandallarni faqat dam olish maskanlarida kiyiladi. Kostyum bilan hech qachon qo‘lqop kiyilmaydi, uni faqat plash yoki paltoga moslab kiyiladi. Ko‘chada qizlarga yosh yigitlarning «gap otishi», qizlarning barallla qah-qaha otishlari o‘z tarbiyasining noqisligini ko‘rsatadigan holatdir. Yo‘lda o‘tib ketayotgan kishiga «Kiyimingizga ip yopishib qolibdi» yoki «Paltoingizga loy sachrabdi» degan gaplar garchi yordamga o‘xshab ko‘rinsa ham, adabsizlik belgisidir. Ammo ayolning sumkasi ochilib qolganini, sigaretni kukuni erkakni kiyimga tushib cho‘g‘ otganini aytish mumkin.

### **Quyidagi vaziyatlarda chekish man etiladi:**

- chekish man etiladigan e’lonlar bor joyda;
- e’lon bo‘lmasa ham, shundoq ham ma’lum bo‘lgan joylar: teatr, kino, benzokalonkada, kasalxona palatasi, imtihon xonasi;
- Shaxsiy uylar, muassasalarda, do‘konda, jamoat transportiga chiqqanda;
- bemor bor xonada;
- raqs paytida;
- tushlikda birinchi va ikkinchi taom orasidagi vaqtda;
- dabdabali o‘tirishlar paytida;
- ayol kishi esa – ko‘chada.

Ko‘chada, kinodan, teatr dan chiqqanda, sayr paytida chekish mumkin. Birovning uyida uy egasi sigaret taklif qilgan taqdirdagina ruxsat so‘rab chekish mumkin. Har qanday kashandani yonida o‘z sigaretasi bo‘lishi lozim. Ayol erkakka gugurt tutmaydi. Bizga olov yoqmoqchi bo‘lgan odamning qo‘lidan gugurt yoki zajigalka olinmaydi. Kim birinchi gugurt yoki zajigalka yondirgan bo‘lsa, o‘scha boshqalarga ham olov tutadi. Olov uzatayotganimizda, og‘zimizdagи sigaretni qo‘limiz olamiz va kuldonga qo‘yib turamiz. Kulni faqat kuldonga tashlash kerak! Na idishga, na gazonga va na batareyalar tiriqishiga va na yasatilgan vazalarga tashlash yaramaydi. Agar kuldon bo‘lmasa, olib kelishlarini iltimos qilish mumkin. Cho‘g‘i

bor sigaretni mebelda qoldirish yong‘inga olib kelishi mumkin. Og‘izda sigaret bilan salomlashish yoki gaplashish yaramaydi. Hattoki tasodifan ham sigaret tutunini yonidagiga burqsitib yubormaslik kerak.

### **Zinapoya**

Avvallari zinapoyadan ko‘tarilayotganda erkaklar oldinda, ayollar orqada bo‘lar edilar. Ayni paytda buning aksi, faqatgina zinapoya mo‘rt, qorong‘u va xavfli bo‘lgan taqdirdagina erkak oldinda ketadi. Zinapoyada ayolga qarama-qarshi kelib qolgan erkak yo‘l beradi, zinapoyani ushlagich tarafi ayolga tegishli.

### **Lift, eskalatorlar**

Avtomat liftlarda ayol yo‘ldoshisiz bo‘lsa, tugmachani o‘zi bosadi. Panelga yaqin turgan erkak boshqalardan qavatning kerakli tugmchasini so‘rab bosadi. Odamlar ko‘p bo‘lgan liftda birinchi bo‘lib ayollar chiqadilar.

Xuddi shu tarzda xizmat muassasalardagi erkaklar liftga kirish uchun ayollarga yo‘l berib chetda turadilar. Lift to‘la odamlar oldida ayol bilan ketayotgan bo‘lsa ham, erkak bosh kiyimini yechmaydi. Mehmonxona yoki pod’ezd lifti ichida, qo‘li boshqa narsalar bilan band bo‘lmagan erkak, ayol kirganda bosh kiyimini yechadi. Odamlar bilan to‘lgan liftda tarbiyali kishilar chiqib ketayotganlarga yo‘l beradilar. Ayol bilan birga liftga kirgan kishi hamisha ayolga yordam bera olmaydi, vaziyatga qaraladi.

Boshqa joyda bo‘lgani kabi ham liftda uchratilgan tanish bilan ko‘rishiladi. Lift – ko‘cha va zinapoya kabi «jamoat joyi»dir, bosh kiyimni yechish shart emas.

Ayolni kuzatayotgan erkak yuqoriga harakatlanayotgan eskalatorga birinchi bo‘lib chiqishiga yo‘l beradi, agar biron sabab bilan yuqoriga chiqib chiqishga yordam bermaydigan bo‘lsa. Eskalatordan chiqishda esa erkak ayolga yordam berish uchun birinchi bo‘ladi.

### **Do‘kon**

Do‘kondagi xarid jarayonida, sotuvchini ikkilanishdan paydo bo‘lgan turli injiqliklar bilan qiynamaslik joiz. Kassaga yaqinlashganda qiymat aniqlangach, oxirgi daqiqalarda karmon yoki sumka kovlab vaqt ketkazmaslik uchun xarid uchun taxminiy hisob bo‘lishi lozim. Qaytimni tekshirib, uzoq qolib kyetish ham nojoiz. Hayotning zamonaviy tizimi bizdan aniq va tez harakatlarni talab qiladi. Do‘kon eshidiga avval chiqayotganlarni o‘tkazib yuborib, so‘ng kirish tiqilinchni paydo qilishning oldini olgan bo‘lasiz.

Katta do‘konlar va boshqa ko‘pchilikka xizmat ko‘rsatadigan muassasalarda bosh kiyim yechilmaydi. Ammo individual xizmat ko‘rsatilayotgan mijoz (masalan:

atelye, sberkassa yoki pochta) bosh kiyimini yechishi va xizmatchi bilan ko‘rishmog‘i lozim.

### **Tayanch tushunchalar:**

Turist, etiket, tog‘, teatr, kino, kafe, restoran, vernisaj, stadion, chekish odobi, eshik oldi, avtomobilga o‘tirish, tushish etiketi, qo‘shnilar, do‘kon, bozor, lift, ekskalator, zinapoya, ko‘cha, sayohat vaqtı.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Turistlarning o‘ziga xos etiketi qanday bo‘lishi lozim?
2. Ko‘chada o‘zini tutishning eng asosiy qoidasi nimalardan iborat?
3. Tog‘da, pansionatlarda o‘zini tutish etiketi?
4. Teatr, kino, kafe, restoran, vernisaj yoki stadionda qanday etiket qoidalariiga amal qilinadi?
5. Katta do‘konlar va ko‘pchilik xizmat ko‘rsatadigan muassasalarda o‘zini tutish etiketi nimalardan iborat?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T., O‘zbekiston, 2011.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. O‘zbekiston milliy faylasuflari jamiyati. – T., 2010. 293-b.
3. Javliev T. An'analar – hayot sabog‘i. - T., “O‘zbekiston”, 1992.
4. Этикет от А до Я. www. etiksite. ru. 11. КБ.
5. Правила этикета. www. etiksite. org. 3 КБ.

## 10-MAVZU. TURMUSH ETIKETI

### Oila

Oila — tarixan tarkib topgan o‘ziga xos va mos ijtimoiy guruh bo‘lib, uning a’zolari bir-birlari bilan nikoh, qon-qarindoshlik, umumiy turmush va o‘zaro huquqiy, axloqiy va boshqa munosabatlar bilan bog‘langandir. Oila nikoh zaminida vujudga keladi. Nikoh esa erkak va ayol orasidagi munosabatlarning jamiyat tomonidan tan olingan, ma’qullangan ifodasi hisoblanadi.

“Oila uch jihatni: o‘zining bevosita ko‘rinishi bo‘lmish nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g‘amxo‘rlikni; bolalar tarbiyasini o‘z ichiga oladi”.<sup>32</sup>

Oilamuqaddas urf – odatlarimizni saqlaydigan tarbiya o‘chog‘idir. Yoshlarning ma’naviy qiyofasi, ularning hatti–harakatlari, xulq–atvorlari dastlab oilaviy munosabat madaniyatida ifodalanadi. Oilaviy munosabat madaniyati nima? Bu – oilada insonga xos va mos sharoitlarni yaratish, oilaning vazifalarini to‘la bajarish, oilaviy turmush tarzini to‘g‘ri shakllantirish, oila a’zolarining xulq – odobi, dunyoqarashi, mafkurasini, oilaviy hayotning davomiyligini ta’minlashdir. Mustahkam oila mustahkam jamiyatning asosidir. Shunday ekan jamiyat oilalarni mustahkamlash, oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirishga alohida e’tibor berib kelmoqda.

Oila, jamiyat va davlat bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi va ular bilan bir vaqtida rivojlanib boradi. Oila nafaqat axloqiy balki demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa muhim funksiyalarni bajaradi. Shuning uchun jamiyat va davlat oilaning farovon bo‘lishidan manfaatdor bo‘ladi.

Oila a’zolari bir – birlari bilan umumiy turmush, o‘zaro iqtisodiy – mulkiy, huquqiy, axloqiy, ruhiy a’loqalar bilan bog‘lanadi. Oilaning birinchi vazifasi o‘z nasl – nasabini davom ettirishdan, tarbiyali farzandlarni o‘stirishdan, oila a’zolarining tirikchilagini, bo‘s sh vaqtini ko‘ngilli o‘tkazishni ta’minlashdan iboratdir.

Nikoh – erkak va ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo‘lib, u fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladi va oila tuzish maqsadiga xizmat qiladi.

Oila nikohdan boshlanadi. Nikoh rasmiy, qonunlar asosida o‘tkazilgandagina haqiqiy hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining birinchi moddasida nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd yetish organlarida tuzilishi lozimligi ko‘rsatilgan.

Nikohdan o‘tivchilar FHDYOga ariza bergenlaridan keyin bir oy o‘tgach, Shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi.

<sup>32</sup>Abdulla SHer. Axloqshunoslik. O‘zbekiston milliy faylasuflari jamiyati. – Toshket, 2010. 293-b.

Uzrli sabablarga ko‘ra FHDYO bir oy sinov muddati o‘tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin.

Balog‘atga yetmaganlarning nikohga kirishining oldini olish, ularning sog‘ligini himoya qilish maqsadida hamda oilani qurish uchun ma’lum hayotiy tajriba, jismoniy va ma’naviy etuklik talab qilinishini e’tiborga olgan holda, qonun nikoh yoshini erkaklar uchun o‘n sakkiz yosh, ayollar uchun o‘n yetti yosh etib belgilangan.

Uzrli sabablar bulgan, alohida hollarda nikoh yoshi erkak va ayollarga bir yoshga kamaytilishi mumkin. Bu sabablarga, masalan: nikohga kiruvchi ayol homilador bo‘lib qolishi, bir taraf og‘ir kasal bo‘lgan yoki harakatdagi armiyaga ketayotgani va boshqa Shunga o‘xhash hollar kiradi. Bunda nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

Nikoh, nikohga kiruvchilarining ixtiyoriyligi, erkin roziligi asosida tuziladi. Nikohni tuzish uchun bo‘lajak er-xotin o‘z roziligini erkin ifoda yetish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Agar shaxs o‘z hatti-harakatlari oqibatni tushunmaydigan holda (qattiq mastlik, ruhiy holatining vaqtincha buzilishi) yoki aldov oqibatda nikohdan o‘tgan bo‘lsa, bunday nikoh qonunda belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topiladi.

Nikoh tuzishga majbur qilish qonun bilan taqiqlanadi. Ayolni o‘z erkiga xilof ravishda erga tegishga majbur qilish O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 136-moddasiga ko‘ra jazolanadi.

Nikoh tuzish haqidagi arizani berishda shaxsni aniqlovchi hujjatlar: pasport, harbiy bilet, ofitser, praporshikning shaxsiy guvohnomasi, nikohlanuvchilarining biri ilgari nikohda bo‘lgan bo‘lsa, nikohdan ajralganlikni tasdiqlovchi hujjat (guvohnoma yoki sud qarori), nikohni haqiqiy emas deb topilganligi to‘g‘risidagi sud qarori, er-xotindan birining o‘limi to‘g‘risidagi guvohnoma ko‘rsatilishi kerak.

Nikoh nikohlanuvchilarining xohishiga ko‘ra tantanali ravishda qayd etilishi mumkin.

Bu oila tuzilishi va yaratilishining huquqiy jihatlari. Axloq nazariyasi nuqtai nazaridan oilaning asosi bo‘lmish nikoh – ezgu maqsadga yo‘naltirilgan, zimmasiga surriyot qoldirishdek yuksak mas’uliyat yuklangan sevgi, sevishning ijtimoiylashgan ko‘rinishi. Sevgi-muhabbat faqat erkinlikda namoyon bo‘lishini hisobga olinadigan bo‘lsa, nikohni ma’lum ma’noda, an’analar, urf-odatlar va e’tiqodlarga moslashtirilgan sevgining yashash sharti deyish mumkin.<sup>33</sup> O‘zbek oilasining dunyodagi boshqa oilalarga o‘xhash tomoni ko‘p, shu bilan birga o‘ziga xos jihatlari bor. Xalqimizning: "Nikoh eng avvalo Arshi a'loda o‘qiladi, keyin esa yerda" degan naqli behuda aytilmagan. Ota-bobolarimizning azaliy tushunchalari bo‘yicha nikoh ilohiy ahd, oila muqaddasdir. "Xotinlaringiz ziroatgohingizdir" deyiladi Qur’oni

<sup>33</sup>Qarang Abdulla Sher. Axloqshunoslik. O‘zbekiston milliy faylasuflari jamiyati. – Toshket, 2010. 294-b.

karimning Baqara surasi 223-oyatida. Oila qurishdan asosiy maqsad farzand ko‘rishdir.

**Oilaviy muhit.** Oilaning mustahkamligi oila a’zolarining axloqiy tarbiyasiga bog‘liq. Xalqimizda bejiz “Sog‘lom turmush tarzi mustahkam oilaning garovidir” debaytilmagan. Sog‘lom turmush tarzi deganda biz nafaqat oiladagi er va xotinning bir – biriga bo‘lgan munosabati, balki ulardagi axloqiy fazilatlar, imonlilik, poklik, halollik, rostgo‘ylik, shirinso‘zlik, kabi axloqiy me’yorlarga amal qilgan holda urf – odatlarga asoslangan, zamonaviy oilani tushunamiz.

Oilada eng asosiy narsa – bir - birini tushunish, qadrlash va e’zozlashdir. Er – xotindan birining kamchiligini ikkinchisining fazilati bilan yopilib yurmog‘i lozim. Oilada ikki yosh bir butun bo‘ladi, muhabbat – nikoh iplarini mustahkamlaydigan, axloqiy mas’uliyatni yanada oshiradigan hissiyotdir. Ikki yosh hissiy holatlarini o‘zaro tushunib borishi natijasida oilada mo‘tadil kayfiyat qaror topadi, qarashlar uyg‘unligi tug‘iladi. Zero, muhabbat faqat o‘zaro hissiy qoniqishgina bo‘lib qolmasdan, munosabatlar go‘zalligiga aylanadi.

Oila - bu kichik jamoadir. Unda o‘zaro muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi kerak. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat; bir – biriga mehribon bo‘lish, ayniqsa, ayollarni izzat qilish kabi qoidalar kundalik odatga aylanib borishi kerak. Ota - ona bolalariga namuna. Shuning uchun ular oilada axloq madaniyatiga to‘la rioya qilishlari shart.

Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa bo‘lib, oilaning ichki ishlariga hech kim aralashishga haqqi yo‘q. Shu sababli ham oila muqaddas va daxlsiz hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va ma’naviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o‘zgarib boraveradi.

Oilalarda nafaqat oilaviy munosabat, balki qon-qarindoshlik munosabatlari madaniyati ham yuksak darajada rivojlangan bo‘ladi. Bunday oilada bobo, buvi, ota-on, amaki, aka-uka, opa-singil, jiyan, kuyov, kelin quda-anda, qaynota-qaynona kabi o‘nlab qarindoshchilik darajalarini bildiruvchi mezonlarga amal qilinadi. Bu munosabatlarda milliylikning asl o‘zagi namoyon bo‘ladi. Bu munosabatlarning afzalliligi Shundaki, bunda qarindosh-urug‘lar bilan oqibatli bo‘lib yashash, farzandlarni milliy udum, qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun imkoniyat tug‘iladi hamda ular qarindoshlar orasida ham moddiy va ma’naviy tayanch-suyanch bo‘lib yashashga odatlanadilar.

Bunday oilalarda tarbiyalangan farzandlar ham barcha bilan munosabatda tezda kirishib keta oladigan, munosabat madaniyatiga rioya etadigan inson bo‘lib shakllanadilar, chunki bu bolalarni bitta oila emas, bir necha oila tarbiyalaydi. Oilaviy sharoit u yoki bu oila a’zolarining kelajakda hayotiga bevosita ta’sir qiladi. Oilaning tarqalishi har bir oila a’zolariga ta’sir qiladi. Axloqshunoslikda oila

tarqalishining uch turi ko‘rsatiladi. Birinchisi, nikohni bekor qilinishi bilan tarqalishi – bunda oilaviy mulk va farzandlar tarbiyasi qonun asosida taqsimlanadi. Bunday sabab o‘zaro kelishmovchilik hamda tushunmovchilik, o‘zaro muhabbatning yo‘qligi natijasida paydo bo‘ladi. Ikkinchisi, tabiiy tarqalishi bo‘lib – oila a’zolarining biri falokat, yoki cassallik tufayli vafot etgan oila mulkinining meros sifatida taqsimlanishiga sabab bo‘luvchi tarqalishdir. Uchinchisi – axloqiy tarqalish bo‘lib, bunda bolalar balog‘atga yetib, oila qurilishlari – ota-onalar ular uchun oilaviy mulkdan uy-joy, turli maishiy jihozlar ajratib berishlari belgilanadi.<sup>34</sup> Shunga ko‘ra, oilada har bir a’zoning o‘ziga yarasha majburiyatları mavjud. Ayniqsa, o‘z odatiy turmush tarzini o‘zgartirib, o‘zga oilaga kelin bo‘lib kelgan qizlarimizning yangi oila a’zolari bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlari juda muhim hisoblanadi.

**Kelin bo‘lish odobi:** Biz o‘zbeklarning turmush tarzimizda ajoyib udum – kelinlik bo‘lib, bu nafaqat kelinning o‘zi, balki yoshi kattalar uchun ham muhim xususiyat kasb etadi. Ba’zilar uchun bu hayotning ma’nosiga aylanib qolganligi hayron qolarli emas. Kelin odobi — yangi xonadonda hamisha samimiy va halol bo‘lish, rostgo‘ylik va o‘zini tuta bilish, so‘zlashish va muosharat, kuyov xonadonidagi oila a’zolari bilan til topishib kyetish, hurmatini qozonish, kamtarlik, saranjom-sarishtalik kabilarni o‘zida qamrab olgan.

Momolar, yangalar o‘giti "...Kelin bo‘ldingiz, umr yo‘ldoshingizni jon dildan seving, unga vafodor va sadoqatli bo‘ling, kelin bo‘lib kelgan kuningizdanoq yangi oilangizni hamma yumushiga aqlingiz, kuchingiz yetganicha qarashing, mehnatda pishiysiz, qadr topasiz, hurmatli bo‘lasiz.

Bilmaganlaringizni o‘rganishga intilishingiz ham sizga nisbatan mehr uyg‘otadi. Qaynota va qaynonangizni hurmatini joyiga qo‘ying".

Har tongda kelinning salomidek ko‘ngilni ko‘taradigan narsa bo‘lmasa kerak. Muomalaning har qanday sharoitda ham muloyim va e’tiborli bo‘lishi, tabassum va mayinlik bilan gapirishi lozim. “Kechagina kelib”, hamma gapga ham aralashaverish, kattalarni boshqarishga intilish, keksalar oldida bolalarni urushish, “o‘zini uddaburonligini” barchani oldida ko‘z-ko‘z qilish, boshqalar oldida “kim qiyin hayot kechirayotgani” borasida musobaqa o‘ynash – bechoradan olib o‘zini bechoraga solish – atrofdagilar nazarida juda xunuk ko‘rinish kasb etadi.

Milliy qadriyatlarimizdan biriga aylangan Islom dinida ayol kishining ikki majburiyati belgilangan – birinchisi turmush o‘rtog‘ini ko‘nglini olish, ikkinchisi – agar sog‘lig‘i bunga yo‘l bersa, farzand ko‘rish hisoblanadi. Hammaga yoqish, uy, ro‘zg‘or bo‘yicha kuyib pishish birinchi navbat turmaydi. Demak, kelin avvalambor, uni baxtli qilishi mumkin bo‘lgan turmush o‘rtog‘iga e’tiborli bo‘lishi zarur. Eriga haqoratomuz yoki qattik tik boqish, zarda qilish, bo‘lar-bo‘lmasga gap talashaverish,

<sup>34</sup> Abdulla SHer. Axloqshunoslik. O‘zbekiston milliy faylasuflari jamiyati. – Toshket, 2010. 297-b.

uni pastga urish keljakda oilani “darz” kyetishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Erkak kishi buni unutmeydi. Kamsuqum va mehribon bo‘lish, umr yo‘ldoshni ko‘chadan uyga tortadi. Xalqimizda "Chiqqan qiz — chig‘iriqdan tashqari" degan ibora bor. Oila qurdingizmi, demak Shu xonadon sizning uyingiz. Huda-behudaga uyni tashlab kyetish, o‘zini ota-onasini, kelini va aka-ukalar oldida mazluma qilib ko‘rsatish uchun gap tashimang, qo‘ni-qo‘shniga, qarindosh-urug‘ga, dugonalarga yangi oila, ro‘zg‘or, ayniqsa, shaxsiy munosabatlar haqida barcha narsani gapirish, xullas siringizni tashqariga chiqarish yaramaydi. Barcha sizga achinadigan, o‘z oilasini omadsiz keliniga qaragandek, hatto ular sizni ota-onangiz bo‘lsa ham, qarashlariga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Qo‘ni-qo‘shnilarga, onaxon-otaxonlarga, katta-kichikka hamisha ochiq chehra, aql-farosat bilan muomala qilish nafaqat boshqalarda, balki insonning o‘zida ham ko‘tarinki kayfiyatni paydo qiladi. Albatta, kechagina bola bo‘lib yurgan qizlar birdan uy bekalikning talablariga javob berish juda qiyin masala. Demak, har qanday sharoitda ham kelinlar o‘zlarini unutmasligi lozim. Bunda biz jismoniy – salomatlik bilan bog‘liq, ruhiy, axloqiy va estetik jihatlarni nazarda tutyapmiz.

Jismoniy salomatlik – tibbiy yordamni unutmaslik, o‘zini tibbiy madaniyatga ega ekanligi, yaxshi ovqatlanishi, xullas doimo sog‘lig‘ini nazorat qilab turish lozim.

“Sog‘liqni saqlash san’ati odam gavdasini uning munosib va yoqadigan narsalarini saqlash orqali o‘sha tabiiy ajal (kasallik bilan bog‘liq bevaqt o‘limlarni oldini olish – uzoq umr ko‘rishga intilish. F.A.) debataladigan yoshga yetkazishdan iborat”.<sup>35</sup>

Axloqiylikka kelsak – ba’zida kattalarning xatosi yoshlarni noto‘g‘ri yo‘ldan yurishi – yolg‘onchi, g‘iybatchi, noShukr hamda hiylakor bo‘lib qolishiga sabab bo‘lib qoladilar. Oilani bunday yo‘llar bilan saqlab qolishingiz mumkin, ammo keyinchalik kimga aylanib qolishi mumkinligi borasida o‘ylab qo‘yan ma’qul. Bu keljakda farzandlarga ham ta’sir qilishi tabiiy:

**“Bolalarni kattalarning aytadigan so‘zlari emas, ularning qilgan amallari tarbiyalaydi”<sup>36</sup>.**

Bunda ziddiyatlarni axloqiy anglashni rivojlantirish – adabiyotlar, axloqiy tafakkurni boyitishga harakat qilish orqali hal qilsa bo‘ladi.

Sog‘lomlashtirishning ruhiy jihatlari – ko‘proq kelinlarning o‘zini kayfiyatini yuqori kayfiyatda saqlab turishiga bog‘liq. O‘ziga oro berish ham bir tomondan boshqalarga sizni munosabatingizni o‘zgartirsa, ikkinchi tomondan insonni ruhini ko‘taradigan xususiyatlardan biridir.

<sup>35</sup>Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, - Toshkent, 1994, 1 – jild, 73-bet.

<sup>36</sup> К. Юнг. К.Керенъи. Душа и миф. Киев-Москва, Порт-Роял-Совершенство.1997.-1146.

**Kelinlik liboslari.** Kelinning odobi, uning o‘zligi, borligini namoyon etadigan tomonlardan biri, uning garderobi, ya’ni kiyinishidir. Uch-to‘rt ko‘ylakni yuvib dazmollab o‘qishga, ishga kiyib tejamkorlikka o‘rgangan qizlar to‘y munosabati bilan keyin birdaniga ikki yoqdan bir necha o‘n sidra sarpolik bo‘lib qoladilar. Zotan, borini bordek ko‘rsatish, kamini yashirib, sevinib yurish ayollarning qo‘llarida. Birinchi navbatda ikki tomon sarpolarini qishligini-qishlikka, yozligini-yozlikka ajratiladi. Keyin kiyimlar yana qishligi-qishlikka, uyligi-uylikka ajratiladi. O‘z navbatida, ular yana sarkillanadi, masalan: liboslar ichidan atoqlik mehmonga kiyiladiganlarini (kelin salomlar, to‘y-hashamlar) kiyim javoningizning to‘riga chiroyli qilib ilib qo‘ying. Kerak paytda darrov kiyib chiqasiz. Uyliklar ham bir sidra saralanadi.

Masalan: mehmon kelganda kiyiladiganlari alohida osiladi. Mavsumga qarab ertalab, peshinda, kechqun kiyiladiganlari, bayram-hayitlarda kiyiladiganlari, ajratiladi. Ayrimlar kelinlar doimo yasanib yurishlari kerak, tez-tez kiyim almashtirish kerak deb bir yilga qolmay barcha kelinlik liboslari ohorini to‘kib kir tog‘orada chiritadi. Ertalab hovli supurganda uy yig‘ishtirganda sun’iy matodan to‘qilgan ko‘ylak lozim kiygan ma’qul (homiladorlik vaqtin bundan mustasno). Yuvganda aynimaydi. Nonushtani tayyorlab bo‘lgach, odatda oshxonada ovqati isi kelib turmaslik uchun, nonunushtaga ko‘pchilik bilan o‘tirishdan avval libosni almashtirgan ma’qul. To‘g‘ri yaltirog‘i bor kiyimlar kelin liboslarining ko‘rki hisoblanadi. Ammo oshirvormaslik, ya’ni bachkanalik darajasiga ko‘tarmaslik lozim. Ish yoki o‘qishga qatnaydigan kelinlar yaltirog‘i yo‘q kiyimlar kiygani ma’qul. Kelinman deb, bosh oyoq yaltiroq kiyganlar boshqalar diqqatini tortadi xolos. Tungi kiyimlar alohida saqlangani ma’qul. Yana bir nozik masala – ayrim kelinlarning xonasi egasi ko‘chib ketgan uyga o‘xshaydi. Hamma joyda kiyim, lozim, ko‘ylak, xalat. Divanda er kiyimi, stulda xalat, krovatda ro‘mol-u ko‘ylak. Turlanish kerak ekan deb kiyimni duch kelgan erga uloqtirib, boshqasini kiyib ketaverish yaxshi emas.

To‘g‘ri, yoshlarning ham kattalarga, ham ro‘zg‘orga, hamda keti tugamaydigan mehmonlarga xizmat ko‘rsatishi bunday nozik jussiga og‘irlilik qiladi. Ammo birinchi navbatda turmush o‘rtog‘i, so‘ng o‘zingiz e’tiborga loyiq ekanligingizni unutmaslik lozim. Kelinning xonadonga xizmatchi bo‘lib kelishi – kelajakda uni professional darajadagi xizmatchiga, uy bekasi bo‘lib kelishi esa uy bekalikka olib keladi. O‘ziga nisbatan e’tiborsizlik atrofdagilarni ham shunday munosabatda bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ammo hadeb turlanaverish ham ayol ko‘rkini “sindiradi”. Bora-bora bunday ayollar o‘zini yanada chiroyli ko‘rsatishning eng murakkab yo‘llarini qidirishga majbur bo‘lib qoladilar.

Zeb-ziynatning, taqinchoqning o‘ziga yarasha ma’naviy yuki, o‘ziga yarasha ma’naviy qadriyati, tarbiyaviy ahamiyati bor. Taqinchoqlar xilini xiliga, rangini

rangiga, kiygan libosga moslab taqiladi. Bu taqinchoqlar uncha qimmat ham bo‘lmas, ularning bezagi kiygan libos bilan uyg‘unlashib, go‘zal ansambl tashkil etadi.

Lekin bu degan kelin bo‘lish rusmlarini joy-joyiga qo‘yaman deb, ota-onas, opasingil, aka-ukalar rizqini qiyib bo‘lsa-da, boshqalardan qolishmaslik eng yomon narsadir. Bu bilan baxtli bo‘laman degan odam qattiq adashadi. Yomon niyatda bo‘lgan odam baribir, qanday e’tiborli bo‘lishingizdan qat’iy nazarda sizga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirmaydi. Aybni doimo barchadan va barcha narsalardan topsa bo‘ladi. Beayb parvardigor. Ota-onalar ne azobda qiynalib qiziga qilib bergen bu sarpolar hech qancha vaqt o‘tmay sandiqda keraksiz narsa bo‘lib yotishini unutmaslik lozim. Ortiqcha xarajat, uvol va isrof keyin o‘zining samarasini beradi. Agar yoshlar avvaldan kirim va chiqim borasida o‘ylamasalar, bunday oilaning kelajakdagi iqtisodiyotini tasavvur qilish mumkin.

### **Kelinning kiyinish madaniyati**

Yaxshi kiyinish ham o‘ziga xos san’at hisoblanadi. Yaxshi did, avvalo, kiyimlarni bir-biriga moslab kiyishda namoyon bo‘ladi. Moslab kiyilgan kiyim ma’lum sharoitga munosib, kishining mashg‘uloti, voqeа, muhit va Shu kabilalar bilan muvofiq, hamda vaqt va joyiga qarab bashang bo‘lishi mumkin.

Moda deganda muayyan ijtimoiy guruh, kishilar orasida ularning ta’biga, didiga mos kiyinish odatining ma’lum vaqtgacha urf bo‘lishi tushuniladi. Moda liboslarning o‘zgarishigina bo‘lib qolmay, o‘ziga xos estetik uslubni qidirib topish, yurish-turish tarzi, did va ichki madaniyatning namoyon bo‘lishi hamdir. Moda uzoq tarixga ega. Turkiy xalqlar ayollarida asosiy bosh kiyim do‘ppi, ro‘mol, oyoq kiyimi maxsi, kavush, ich kiyim – ko‘ylak, ust kiyim – kaltacha, kamzul, nimcha, chophon bo‘lgan.

Respublikamiz iqlimi issiq bo‘lganligi bois bizning sharoitda ayollar uchun eng qulay moda – ko‘krak burma va pasti yaxlit bichimli "o‘zbekcha" ko‘ylak hisoblanadi. Buning afzalligi shundaki, issiq avjiga chiqib, kishi terlab turganda ham kiyim badanga yopishib qolmaydi. Shuning uchun ham ko‘krak burma ko‘ylak hech qachon modadan qolmaydi. Faqat ayrim detallari biroz o‘zgartirilib, zamonaviy tus bergen holda yangilanaveradi.

Chiroyli atlas, tovor kabi matolar qadimdan o‘zbek ayollari sevib kiyadigan milliy matolardir. Qancha-qancha zamonlar o‘tib ketsa ham, bu matolardan o‘z davriga moslab yarashtirib, xoh o‘zbekcha, xoh yevropacha tikilgan kiyimlar hamisha modadadir. Qaddi-qomati kelishgan ayollarga moda jurnalidagi modellarning har biri to‘g‘ri kelaverishi mumkin. to‘ladan kelgan ayollarga belning past qismidan ulangan va keng etak bo‘lib tushgan ko‘ylaklar kiyish tavsiya etilmaydi. Ozg‘in ayollar esa tor badanga yopishib turadigan ko‘ylaklar kiymasliklari lozim. Bo‘yni uzun ayollar ko‘proq yelkalik ko‘ylak kiyganlari ma’qul. Bo‘yni kalta ayollarga tik yoqali va bo‘yin atrofidan o‘yilgan ko‘ylaklar yarashmaydi.

Kiyimning rangi, rasmlari, guli ham mos bo‘lishi kerak. Ayollar ko‘pincha kiyimlar rangini o‘zlarining o‘z, soch va teri ranglariga moslab oladilar. Ammo bunda rangning kishiga tushishidadir. Katak-katak kiyimlarni matoli va yo‘l-yo‘l matolardan tikilgan kiyimlarni birga kiyish tavsiya etilmaydi. Bo‘ylamasiga yo‘l bo‘lib tushgan gazlamalar ayollarning qaddi-qomatini nozik, bo‘y-bastini uzaytirib ko‘rsatadi, ularni to‘ladan kelgan ayollarga kiyishni tavsiya yetish mumkin. Ozg‘in va baland bo‘yli ayollar bunday matodan kiyim kiymaganlari ma’qul, ko‘ndalang, yo‘l-yo‘l ko‘ylaklar qaddi-qomatni to‘laroq ko‘rsatadi.

Rang va ranglarning bir-biriga mos tushishi ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. To‘q va qora ranglar jussaning to‘laligini bilintirmay tursa, oq ranglar yanada to‘laroq ko‘rsatadi. Yashil, binafsha, ko‘k rang qaddi-qomatni rostlab ko‘rsatsa, sariq, jigarrang, qizil va rangdor rasmlar jussani bir muncha to‘la qilib o‘rsatadi. Ortiqcha bezaklar kiyimni bachkanalashtirib yuboradi. Uy kiyimlari asosan yuvilishi oson ip gazlamalar, shtapel matolardan tikiladi, u keng va qulay bo‘lishi lozim. Yoz paytlarida uyda odmi rangli mayin gulli ko‘ylak va xalatlar kiyish maqsadga muvofiq. Ish kiyim qulay, kundalik kiyishga mos va qulay bo‘lishi, ayniqsa ko‘ylak-kostyumlar kiyish ko‘pdan urf bo‘lib keladi. Ozodalik, orastalik, pokizalikni bir umr o‘ziga hamroh qilgan kelinlar, shoshib qolmaydilar, ayniqsa ishlasalar yoki o‘qisalar – bu fazilatlar insonga o‘ziga ishonch va ruhiy muvozanat baxsh etadi.

Parcha-yu kimxoblardan kiyim, zeb-ziynatlar taqib, bir davraga kirsangizu, birinchi tabassumingizda tishingizni sarig‘i ko‘rinsa, kishilarning siz haqingizda fikri o‘zgaradi. Eng so‘nggi moda bilan kiyinsangizu, sochlaringiz to‘zib yotgan bo‘lsa, hech qachon sizni orasta deyishmaydi. Yangi kiyimlar, chiroyli liboslar notozalikni yashira olmaydi.

### **Salomlashish odobi**

Ertalab turgach, yuvinib, qaynota-qaynona, oila a’zolari bilan muloqotni iltifot bilan salom berish, "Yaxshi dam oldingizmi?" degan so‘zni aytish bilan boshlash joiz. Assalomu-aleykum, arabcha so‘z bo‘lib, "Sizga tinchlik tilayman" deganidir, bu so‘z to‘liq aytilishi kerak. "Assalom-alayka", "Va alayka", "Salom", "Salom alaykum", "Salom berdik", "Alaykum" kabi qisqa so‘zlar ishlatilmasligi kerak.

Oiladagi bajarilishi lozim bo‘lgan talablar, ko‘chadagidan kam emas. Tashqarida tavoze bilan, uyda qo‘pol bo‘lgan odam hammadan kamroq hurmatga loyiq. «Rahmat», «kechirasiz», «iltimos» so‘zlari shartli bo‘lsa ham juda zarur ahamiyat kasb etadi. Ba’zida ayollar erlarining buyruqlarini bajarish bilan charchaganlardan dugonalariga shikoyat qilishini guvohi bo‘lamiz. Kundalik ayolning vazifasiga kiradigan narsalar uchun er iltimos qilishi shart emas. Ammo u ayol kishini izmida bo‘lgan so‘zlarni: «iltimos sigaretim olib kel, ishdan chalg‘igim kelmayapti» qabilidagi tushunchalarni aytishi shart. Bunda «iltimos» ni ayolga nisbatan qo‘llashni

or qiladigan erkaklar uchun «azizim, onajonisi, ....xon» kabi shirin so‘zlarni ishlatalishlari mumkin.

Agar ayol har kuni dasturxonga taom olib kelsa, er hadeb rahmat deyaverishi shart emas. Yoki ayol kyetishdan oldin er uning ustiga paltosini kiydirib qo‘ysa ham ayolni minnatdorchilik bildirish zaruriyat taqozo etmaydi. Ammo «Vanaxonadagi xalatim olib keling» degan iltimoslarga minnatdorchilik bildirish lozim. Insonlar bilan munosabatda ohang asosiy o‘rinni egallaydi. «Choy quy» degan so‘zning o‘zi ham iliq muhabbat bilan yo‘g‘rilgan ohangda eshitilishi, «Choy quying, iltimos!» deb aytilgan qo‘rs ohang ko‘ngilni og‘ritishi mumkin. Yuvingandan so‘ng albatta, vanna yoki rakovinani yuvib qo‘ying. Bu hammaning burchidir. Idish yuvadigan rakovinaga tuflash, og‘iz chayish, tish yoki yuzni yuvish madaniyatsizlikdir.

Xullas, uyni ozoda tutish faqat uy bekasiga bog‘liq emas, bu barcha oila a’zolarini ishidir.

Ota-onaning tashqi ko‘rinish ham, ayniqsa, farzandlar oldida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolani bog‘chadan olgani borganda, bolalar kichkina bo‘lsa ham solishtirish xususiyatiga egaligini unutmasligi lozim. Bolalar ota-onalaridan uyalishga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Bunda «Ota-onani, ayniqsa, onani sevish shart» deb qo‘ylgan talablar doimo o‘zini oqlayvermaydi. Men kelinman, qaynona-qaynotamga qaraymi, erimgami yoki bolalargami deb boshqalarni ham o‘zini ham aldaydigan kelinlar oxir-oqibat soxtalikni ko‘rsatib qo‘yadilar. Atrofdagilarni, ayniqsa bolalarni bunday uslub bilan o‘ziga tortish, ularni rahmini keltirish o‘xshovsiz hiyla xolos. Axloqshunoslikda muhabbat erkinlikda namoyon bo‘ladi, degan ilmiy xulosani nazardan chetda qoldirmang.

Hech qachon bolalarning mehnati uchun «pora» bermaslik lozim. «Buni qilsang, uni olib beraman» qabilida. Buning o‘rniga unga ixtiyor bergen ma’qul. Istagan ishni tanlab olsin. Ammo bajarsin. Mehnatsiz yashab bo‘lmaslikka o‘rgatish lozim.

Agar o‘zingiz namuna bo‘lmasangiz bunday «tarbiya»ning hech foydasi bo‘lmaydi. Bolalar oldida bir-birining vazifalarini «eslatib» urushmaslik kerak. Agar sizdagi o‘zaro ziddiyatni bolalar bilib qolsalar, ular sizdan foydalana boshlaydilar.

Bunga qarshi faqat va faqatgina oiladagi axloqiy muhit choradir.<sup>37</sup>

Oilaviy bayramlar – har bir oilaning Shaxsiy ishidir. Ammo tug‘ilgan kunda birlaShuv va hamjihatlikning bo‘lishi turgan gap. Hammaga ma’lumki ayollar o‘z tug‘ilgan kunlarini erlari yoddan chiqarishlarini juda og‘ir qabul qiladilar.

Er-xotinlar o‘rtasidagi asosiz paydo bo‘laveradagian bahslarning qat’iy chorasi – ko‘p hollarda ajrashish bilan tugaydi. Ammo bunga noiloj vaziyatlardagina yo‘l qo‘yish mumkin. Munozaradagi ma’lum qoidalarga amal qilib, bu baxtsizlikdan qutulish mumkin. Masalan, hech qachon o‘z norozilikarni kinoyali ohangda

<sup>37</sup>Abdulla SHer. Axloqshunoslik. O‘zbekiston milliy faylasuflari jamiyati. – Toshket, 2010. 295-b.

aytmaslik lozim – bu odamni haqoratlaydi va instinkтив ravishda qarshilik qilishga undaydi. Yurakdagи dardning hammasini faqat mulozamat, muloyimlik va bosiqlik bilan ayta olish mumkin. Bu oilada ijobiy javob – tushunishni vujudga keltiradigan yagona ohangdir. Muomala qila olishning ziddi jizzaki, buyrug‘ona ohangdir.

Ochiqdan-ochiq odamga achinishni e’lon qilish ham, aksil ta’sir beradi. Bundan tashqari fikrni oxirgacha aytmaslik, «*yopiqlik*» ham munosabatni qiyinlashtiradi. Urushayotganda o‘zini o‘ldirish bilan «*qo‘rqtish*» ham insoniylikka to‘g‘ri kelmaydi. Ikkita odamning bahslaShuvida uchinchi odamning fikrini asos sifatida keltirish yaramaydi. Er-xotinlar o‘rtasidagi juda yaxshi do‘stona munosabat birontasining onasi yoki boshqa bir odamning keltirgan firklariga asoslanishning o‘ziyoq janjalga sabab bo‘lishi mumkin. Oilaviy mojarolarda turli umumiylklardan – «*Sen doimo...*» kabi so‘zlardan yiroqroq bo‘lish lozim. Aniq bir fakt yoki asosga tayangan holdagina so‘zlash lozim. Ta’na muhabbatni o‘ldiradi. Bu hatto asosli ayblov ham bo‘lishi mumkin. Shu bois bunday holatlarga kamroq murojaat qilgan yaxshi. Dashnom berayotgandagi yuzimizning istinkiv ko‘rinishining aks ta’siri bizdan qochish istagini paydo qiladi. Bu esa aloqani buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yaqinlarni doimiy tanbehlар bilan charchatib qo‘ymaslik kerak. Biror narsa haqida tanbeh beradigan bo‘lsangiz, buni muloyimlik va do‘stonalik bilan bajarish lozim. Uni qayta takrorlash, ayniqsa, avvalgidan ham balandroq ohangda aytish foyda bermaydi. Tanbehni eshitgan odamni yodidan ko‘tarilishi mumkin emas, aksincha bu narsa yo unga yoqmaganidan, yoki imkoni yo‘qligidan e’tibor bermagan bo‘lishi mumkin, bu bilan hech narsaga erisholmaysiz. Yaqin odamlarni g‘alati harakatlarini yoki biron talablarni bajarmasligini kechirish mumkin, zero «*Beayb Parvardigordir!*» Ammo kechirimli bo‘lishga da’vat yetish, hamma narsaga e’tiborsilik qilish degani emas. O‘ziga nisbatan talabchan bo‘lgan inson, boshqalardan ham buni kutadi. Ammo bunday talablarga hamisha o‘z vaqtি hamda usulini topa bilish lozim.

«*Qisqa kelishmovchiliklar*»dan qochishning iloji yo‘q. Asosiysisi, ularning haqiqatan ham qisqa bo‘lishidadir. Imkon qadar darhol o‘zaro uzrlashib, normal munosabatlarni qayta tiklab olish muhimdir. Yarashuvdan so‘ng kelishmovchilikning sababi va janjalning o‘zi ham unut bo‘lishi kerak. Albatta, shunday vaziyatlar bo‘ladiki, o‘zaro munosabatlarga alohida aniqlik kiritishga ehtiyoj paydo bo‘ladi, lekin imkon qadar ulardan o‘zni chetga olmoq durust. Hammasidan ham mojaroden o‘t chiqmasdan o‘chirgan afzal. Umuman olganda «*munosabatlarni kelishib olish*» yaxshi variant emas. Bir odamning o‘zini tutishi boshqasini hamisha tushunib yetishiga olib kelavermaydi. Ba’zida juftingizdan nima uchun u unday qilayotganini so‘rashingiz mumkin. Ammo uning javobi sizni qoniqtirmay qolsa, «*kavlashtirishni*» hojati yo‘q. Ba’zi biz «*erishgan haqiqat*» bizga yoqmasligi mumkin. Zero qarshingizdagи odam sizni xafa qilmaslik uchun indamasa ham, uni «*siqishni*» boshlaganingizdan so‘ng hammasini aytib yuborishi mumkin.

Oilaviy axloq o‘z juftini ishonch xalqalari bilan bog‘lanishini taqozo etadi. Shu bois o‘z yaqiningizni yolg‘onchilikda ayblastir yoki biron narsada «ushlashga» harakat qilish vaziyatni og‘irlashtiradi xolos. Bu ishonchsizligingiz sizga nisbatan ichki dushman sifatida qarashga olib kelish mumkin. Albatta me’yorida, siz uchun aziz bo‘lgan odam sifatida chiroyli rashk qilish mumkin. Bu hatto aloqani mustahkamlaydi. Ammo yarim haqorat shaklidagi rashklar, juftingizni qilmagan ishini qilishga undashi mumkin. Yaqiningiz bilan bo‘lgan munosabatda «tilga suyak qo‘yib qo‘ygan» yaxshi. «Jinni bo‘libsiz!» degan so‘z albatta ajrashishga sabab bo‘lmasligi mumkin, ammo sizni chiroyli ko‘rsatmaydi. Undan ko‘ra: «Adashyapsiz azizim!» deb aytgan durustroq.

Hattoki, hazilomuz murojaatlarda ham o‘tkir tushunchalardan hayiqmoq lozim. Bizning so‘zlarimiz biz istagan darajada doimo natija bermasligi mumkin, o‘zimiz bilmagan holda boshqalarni qalbini yaralashdan uzoqroq bo‘lganimiz ma’quldir. Yomon ma’noda so‘z aytgan bo‘lsangiz, unda uni ifodalashdan ne ma’ni bor?! Gap bilan «chaqilgan» kishi sizni kechirishi mumkin. Ammo qalbiga otilgan bu «nayzaning» izi o‘chishi qiyin. Bundan siz ham foyda ko‘rmaysiz. Va eng asosiysi, erkaklar uchun: rafiqasi bilan bo‘lgan har mojaroda ayolni o‘ziga qaratadigan «Azizam» degan murojaati masalani ijobiy tus oldirishi mumkin. Ammo erkaklarning bunday so‘zlarni ishlatshlari nihoyatda kam uchraydi.

**Uy.O‘zbek xalqida** «O‘z uyim o‘lan to‘shagim!» degan maqol bejiz emas albatta. Butun umrimizni yashash joymizni chiroyli va qulay qilishga intilamiz. Shuning uchun ishlaymiz, tejaymiz. Zero, o‘zbek xalqi mehmondo‘s xalq. Birov kelsa, uyat bo‘lmasin qabilida tirishib-tirmashadi. Chunki uyga kelgan mehmon mezbonning uy tutishidan uning kimligini bilib oladi. Ammo eng katta muammo uyga kelin kelganda boshlanadi. O‘zining hayot tarzi va tartib qoidalari bilan kelar ekan, bu bilan bevosita paydo bo‘lgan mayda ziddiyatlar, tushunmovchiliklarni chetlab o‘tish juda qiyin.

Xo‘sh qanday qilib bu masalani hal qilish mumkin?

Buning uchun avvalambor uyning o‘zi toza va batartib bo‘lishi lozim. Barcha narsalarning o‘z joyida turishi va hamma bu tartibga amal qilishlari lozim. Ertalab har joyda yoyilib yotgan narsalar kayfiyatni ko‘tarmasligini o‘zingiz ham yaxshi bilasiz. Yaxshi osilmagan yoki taxlanmagan ko‘ylak er-xotini asabini buzsa, joyiga qo‘yilmagan narsalar qaynona-qaynotani sizdan norozi bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Uydagi tartib faqat ayolga bog‘liqmi?

Ham to‘g‘ri ham noto‘g‘ri. Qadimdan erkak oilasini boqish uchun ko‘chaga chiqar, ayol esa – uyga, bolalar tarbiyasiga qarar edi. Hozirgi davrga kelib esa... Halol oila ro‘zg‘orini tebratish uchun bir erkakning ishlashi yetarli emas. Talablar

o‘zgargan. Hozirda bir farzandning o‘zini kelajagini qurish uchun faqat to‘qqiz yillik o‘qishnining o‘zi yetarli emas.

Uyimizning ichki ko‘rinishi, tabiiyki bizning odatimiz va didimizga bog‘liq. Asosiysi, biz va oila a’zolarimiz o‘zini qulay va shinam joyda his qilishni ko‘zda tutish lozim. Shunga qaramay sizni e’tiborga olinadigan bir qancha masalalar bor. Aytaylik, uyni narsalar bilan to‘ldirib tashlab, uni magazinga o‘xshatib qo‘ymaslik lozim.

Uyni yasatish va saranjomlashda derazalarga alohida e’tibor berish kerak. Xohishga qarab ular orqali xonani kengaytirishi yoki, aksincha kichraytirish mumkin. Derazalarni jonli rasmga aylantirish mumkin. Yoki ularni musavvirlik bilan drapirovka bilan berkitish mumkin... Har qanday holatda ham derazalar sizni butun olam bilan bog‘lab tursin va uyga imkonli boricha ko‘proq toza havo kiritib turish kerak.

Agar farzandlar bo‘lsa (ayniqsa, go‘daklar), bolalar yashayotgan joyda mebel jihozlari va uyning umumiy saranjomligi, kichik odamchalarning erkin harakatlanishi va tabiiy o‘sishiga halaqit bermasligi lozim. Diqqat qiling: agar siz bolalarga haddan ziyod tanbehtar berayotgan bo‘lsangiz, (Tegma! Chiqma! Yugurma! va h.k.) aybdor bola emas, mebel joylaShuvining o‘quvsizligi (yoki sizning qobiliyatsizligingizdir). Har qanday uyda asosiysi har holda narsa emas (qanday qiymatga ega bo‘lishidan qat’iy nazar) – inson. Shu bilan birga o‘zingiz, yaqinlaringiz, qariyalaringiz, farzandlaringiz ham. Buni yoddan chiqarmaslik muhim ahamiyat kasb etadi.

Tanishlarni uydagi boylik va qimmatli jihozlar bilan to‘ldirib hayratga solishga intilmagan ma’qul. Qimmatbaho va zamonaviy jihozlar uyda doimo shinamlikni tug‘dirmaydi. Ba’zida buning aksi bo‘lishi ham mumkin.

Boshqa tomondan esa, uyni eski narsalar bilan to‘ldirib tashlamaslik ham lozim. Ayniqsa, agar ulardan anchandan beri foydalanilmayotgan bo‘lsa. Hech bo‘limganda bir yilda bir marotaba uyni eski kerakmas narsalardan bo‘shatib turish maqsadga muvofiq.

Oshxona, vannaxona va hojatxonani alohida tozalikda saqlash lozim.

Har qanday uyni gullar go‘zallashtiradi. Ayniqsa, yangi uzilgan, chiroyli tanlangan guldastalar, quruq o‘t va gullar majmuasi, turli xonodon gullari bo‘lsa nur ustiga a’lo nur. Bu yerda xayolotingizning imkoniyatlari cheksizdir. Ammo gullar boshqa barcha narsalar kabi uyda ozodalik, e’tibor va parvarishni talab qiladi. Faqatgina ulardan haqiqiy xayolot va san’at asari darajasiga ko‘tarila oladiganigina xonangizni yasatishi mumkin. Lekin oshirib yubormaslik ham joiz.

Uy hayvonlari – akvarium baliqlari, muShuk, qushlar va h.k. – nafaqat uyni o‘zgartirib yuboradi, iliqlik va jon bag‘ishlaydi, balki o‘ziga xos tarzda uyga oro beradi (gullar kabi). Ammo jonzotlar bo‘lgan uyda yoqimsiz hidlarning bo‘lishi

yomondir. Uy hayvonlari va uning egalarining doimiy ifloslik va betartiblikda bo‘lishi undan ham yomonroq.

Ko‘pchilik erkak ayollar «yaxshi pul topa boshlasalar» oilani boshqaruvining o‘z qo‘llariga oladilar degan hadik mavjud. Bo‘lmagan gap. Bu erkakka bog‘liq. Mamlakatimizda ayol kishining daromadi qanchaligidan qat’i nazar uning buromadi bilan erkak shug‘ullanadi. Boshliq ham u. Lekin bu degan ayolning ishga «sho‘ng‘ib» kyetishi degani emas. Ayolning ishi oilaga xalaqit bermasligi lozim. Bolalarni ozoda bo‘lishga, batartib ish yuritishga, munosabatlar – bularni rivojlantirishning barchasi ayolning zimmasida. Erkaklar esa «ishlab keldim» deb, faqat shoir iborasi bilan aytganda «tirik hamyon» vazifasini o‘tashi yaxshi emas. Bu ayolni ham jismonan ham ruhan toliqtiradi. Uydagi og‘ir ishlar, bozor-o‘char ko‘proq erkakning zimmasida. Agar bunga imkon topa olmasa, ayol uchun sharoit yaratib berish lozim.

Texnik masalalarda – issiq va sovuq suv, ayolga yordamchi mashinalar – go‘sht maydalagich, kir yuvadigan mashina va h.k. Zero, ular ketadigan vaqt hamda mehnatni tejaydi. Ammo ularning yo‘qligi ozodalik va tartiblilikni bo‘lmasligi degani emas. Har qanday sharoitda yashayotgan ayolning uyiga kirib borgan kishi uning sharoitiga emas, uy tutishiga baho beradi. Barcha narsalar va sharoit mavjud bo‘lgan uydan ko‘ra, kichkina xonalar bo‘lsa ham odmigina sharoitsiz uy ham chiroyliroq ko‘rinish kasb yetishi mumkin. Shu sababdan, ba’zida uyingizga kirgan mehmonlar «uyingiz shinamgina ekan–a?!» dyeyishlari bejiz emas. Ammo faqat «odamlarning ko‘ziga» uyni tutish yaxshi emas. U yerda siz yashaysiz. Hurmat avvalambor o‘zdan boshlanadi. Avvalambor, o‘ziga va oilasiga qulaylik tug‘dirgan odamdan oqil odam yo‘q.

Batartib oilada yashagan bola ham ozoda bo‘ladi. U ota-onasidan qanday qilib kelishuv asosida oila boshqarishni o‘rganadi.

### **Ayollar!**

Uyning qulayligi erkakni uydan kyetishini «og‘irlashtiradi». Hadeb bir og‘aynilarini, bir hamkasabalarini va bir qarindoshlarini bahona qilib «qochish»ga harakat qilmaydi.

### **Erkaklar!**

Siz ayollarga yaratib beradigan sharoit qiymatli bo‘lish shart emas, buni qo‘l bilan ham bajarasa bo‘ladi. Ayol kishining ishi qancha yengil bo‘lsa, uning fe’li ham har narsaga buzilavermaydi. Demak, sizning ham kayfiyattingiz yaxshi bo‘ladi.

### **Ota-onalar!**

Bolalarni uyni boshqarishga jalg eting. Ular bunda paydo bo‘ladigan barcha muammolarni bilishlari va hal qilinish jarayonlaridan boxabar bo‘lishlari lozim. Bu bolalarning sizga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. O‘g‘il-bola, qiz-bola deb ajratmaslik lozim. O‘g‘illarni katta bo‘lganda divandan tushmaydigan dangasalarga aylantirib qo‘yasiz. Katta bo‘lgan sari sekin-asta erkaklar qiladigan

ishlar – deraza sinsa, rom oshig‘idan chiqib ketsa, lampa kuysa va h. k. larga otalar o‘rgatib oladilar. Ungacha esa sizga va oilangizga yordamchi qilish kerak. Qizlarni esa uy tartibidan tashqari muomalaga, akasini yoki ukasini «ishlata» olishiga, tashqi ko‘rinishga e’tiborni qaragan ham yaxshi. Bolalar tarbiyasida ziyolilikka inrtilish katta ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarni qanday sohada va qanday ma’lumotga egaligi emas, balki qay darajada ziyolilikka intilishi muhimdir. Bolalar va ota-onalarning ilmdan, yangiliklardan doimo xabardor bo‘lishi bolalarni tushunishga, bir oz zamonaviyroq bo‘lishga undasa, bolalarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishi ota-onalarning aytmoxchi bo‘lgan gaplarini aniqroq anglashga yordam berishini unutmaslik zarur.

Tartiblilik faqat harakat orqali emas – u tilda ham dilda ham bo‘lishi lozim.

**Erkaklar!** Bir yilda bir marotaba bo‘ladigan tug‘ilgan kunlarga bee’tibor bo‘lmang. Bu bilan erkaklar ayollarga bo‘ysunganini tan olmaydi, aksincha ayollar uchun bu – haqiqiy erkaklik xususiyatidir. Ko‘pchilik go‘yoki narsaga ko‘ngli bog‘langanmi yoki mengami, deb sinamoqchi bo‘ladilar. Ular qattiq adashadilar. Ko‘ngil moddiylikni ichida – ya’ni tanada yashaydi. Ularni ajratish, ularni o‘ldirish bilan barobar. Axir yigitlik chog‘ida sevgi izhor qilish yoki qizning qo‘lini so‘rash uchun gul ko‘tarib borar edingiz–ku! O‘zingizni o‘zingiz rad etmang. Bir og‘iz shirin so‘z va uch dona gul (ko‘proq bo‘lsa undan ham yaxshi) hech kimni o‘ldirmaydi. Muhabbat gulga o‘xshaydi. Uni parvarishlash lozim. Muhabbatga quyiladigan suv bu – e’tibordir. Ayolingizning sizdan ko‘ngli qolishi oilani buzishgacha olib kelishi ham mumkin.

**Ayollar!** Eringizga nima sovg‘a qilishni o‘rgatmang. Bu bilan qadringizni tushirgan bo‘lasiz. O‘zi so‘ragan taqdirda aytish mumkin. Uning o‘rniga, sizni tabriklagani kelishlarini aytishning o‘zi kifoya. Agar shunda ham hech qanday o‘zgarish bo‘lmasa, tug‘ilgan kun o‘tgandan so‘ng eringizdan hol-ahvol so‘ragan maql. Balki biron tashvishi bordir. Agar u oldindan sovg‘a berishga o‘rganmagan bo‘lsa, bu yaxshi – ayollar bilan munosabat qilishni bilmaydi va u – faqat sizniki! Uning tug‘ilgan kunida, ishdagi darajasi ortganda yoki kasb bayramida uning o‘ziga sovg‘alar qilib o‘rgatish mumkin. Ammo ochiqchasiga sovg‘asiz yoki tabriksiz qolganini tan olish – bu ayollar uchun mag‘lubiyatdir. Chunki erkakning unga bo‘lgan bee’tiborligini - u ham, er ham, tan olgan bo‘ladi. Ba’zida achchiq haqiqatdan ko‘rsa shirin yolg‘on ham ko‘ngilga xush keladi.

O‘zbek xalqiga mansub har bir oilada mehmonlar uchun alohida mehmonxona, bolalar, ota-onalar uchun alohida yotoqxonalar, dam olib suhbatlashadigan umumiy xona, oshxona va qo‘srimcha xonalar bo‘lishiga intilish mavjud.

**Yotoqxona** uchun shinam, shovqin-surondan xoli, bahavo xona ajratiladi. Yotoqxonada ko‘rpalar, ko‘rpachalar alohida, sandiq va quti ustiga did bilan yig‘ib, oq choyshablarga o‘rab qo‘yiladi. Ota-ona uchun alohida, o‘g‘il bolalar va qiz bolalar

uchun alohida-alohida yotoqxonalar bo‘lishi lozim. U yerda shkaf javoni bo‘lishi zarur. Har bir kishiga yuvib almashtirish uchun ikkitadan choyshab va yostiq g‘iloflari bo‘lgan yaxshi. Yotoqxonaga ortiqcha narsalar, devorlarga osilgan gilamlar, televizor, muzlatgich kabilar qo‘yilmaydi.

**Oshxonan:** O‘zbek xalqida xonadonga sovchi yoki mehmon kelsa, avvalo, oshxonaga e’tibor beradi. Oshxona yorug‘, shinam, shamollatish oson va qo‘shni xonalarga yaqin bo‘lishi lozim. Oshxona kuniga bir marta tozalanib, yuvib, shamollatib turiladi. U yerda sabzavot va meva po‘choqlari uchun va suyak, ovqat qoldiqlari uchun alohida chelak bo‘lishi lozim, idishlar yuvilgach, qaynoq suvda chayiladi. Sanchqi va qoshiqlar artiladi. Sovitgichda esa sariyog‘, go‘sht, sut, taomlar, ho‘l mevalar og‘zi yopiq holda saqlanadi. Farosatli bo‘lish bunda muhim. Singan, cheti uchgan idishlarda choy yoki taom keltirilmaydi.

### Er-xotinlar

Oila a’zolari bir-birining odati, didi va qarashlarini hurmat qilishi lozim. O‘zini namuna sifatida ko‘rsatib tanqidga berilish yaramaydi. Yotoqda kitob o‘qishni yaxshi ko‘rasizmi? Unda boshqaga ham televizor orqali berilayotgan futbol matchini ko‘rishga imkon bering!

Er yakshanba kuni do‘stlari bilan uchrashishni yaxshi ko‘radi. Bu degani qo‘shnilar kabi er bilan aylangani chiqishdan mahrum bo‘lasiz degani. Xo‘sh nima qilibdi? Ammo siz yakshanbadan tashqari boshqa kunlari eringiz sizning ixtiyorizingizda! Agar siz ham yoringizga imkoniyat yaratsangiz, undan ham Shuni kutishingiz mumkinligini yodda tuting.

Oila a’zolari bir-birining qiziqishiga xalaqit berishi, erkinliklarini bo‘g‘ishi, tanqid qilishi, yoki ovozini ko‘tarishi, o‘zining salbiy munosabatini bildirishi, eng zarur paytda magnitofonni ovozini baland qilib, asabga tegishi yaxshi emas. Oila a’zolarining har biri tartibni yaxshi tutib turishi lozim. Kirganda tashqi eshikni yopib, oyog‘ini artishi, chiroyli salomlashishi va xayrlashishi lozim.

Xat yozishlar doimo sir saqlanishi lozim. Kattalar bolalarning xatlarini so‘ramasdan yoki aytmasdan ochishlari yaxshi emas. Bu ularni ota-onalariga nisbatan bo‘lgan ishonchni so‘ndiradi. Er-xotinlar bir-birining sirlari bilan qiziqish, xatlari va narsalarini titish, ayb topishga intilish, tekshirish yaramaydi. Bu vaziyatni yengillashtirmaydi, aksincha, og‘irlashtiradi. Qaynona-qaynota ham yoshlarning sirlari bilan qiziqishi, ular berkitgan ma’lumotlarni bilishga intilishi noo‘rindir. Ular nafaqat farzand, balki shaxs ekanliklarini ham yoddan chiqarmaslik lozim. Bu ularning shaxsiyatiga tegadi.

Bir-birining xonasiga kirishdan oldin eshikni taqillatishi shartmi? Bu borada har bir oilaning o‘ziga yarasha qoidalari bor. Har holda ertalab yoki kechqurun xonaga

kirganda taqillatmoq kerak. Bizda qaynota nafaqat yotoqxona, balki kelin uchun ajratilgan ikki xonaga ham odob yuzasidan kirmaydilar. Qaynonalar kiraveradilar. (Ayol ayolga sirdosh sifatida). Ba’zida esa kelinlar hatto qaynonalaridan ham uyalishadi. (O‘g‘illarining ayoli sifatida). Qadimda esa qaynona tugul ona ham bunday vaziyatlarda hayo pardasi ortidan ish ko‘rar edi. Qizning ota-onasi esa umuman kuyovning uyiga qadam bosmaslikka harakat qilardilar. Har holda ota. Buni begonalikdan emas, balki odob yuzasidan qilinar edi.

Dasturxon atrofida o‘tirganda «yoqimli ishtaha» dyeyish shart emas. Ammo taom uchun minnatdorchilik bildirish lozim.

Er-xotinlik mulozamati – bu san’at. Hozirda ko‘pchilik agar er ayoliga tavozeli bo‘lsa, oilada ayol hukmron ekan degan noto‘g‘ri fikrga keladilar. Ayol erini sevs, hurmat qilsa – unga buni o‘rgatishning keragi yo‘q.

### **Oilada o‘zini tutish etiketi erkaklar:**

- Doimo ayoli kiygan libosi bo‘yicha biron bir munosabatni bildirish lozim;
- Rafiqasining oldida boshqa ayollarga o‘grilib qaramaslik joiz;
- «Seni boqyapman» deb da’vo qilish noo‘rin – bu erkak burchidir;
- Uydayarimyalang‘och holatda yurmaslik;
- ishga bormaydigan vaqtida uydan chiqishdan oldin ayoliga qayerga borayotganini aytish «erkaksiz yashashga o‘rganib qolishning» oldini oladi;
- pishirilgan taomni tanqid qilish yaramaydi, kezi kelsa boshqa biron vaziyatda gap orasida aytish mumkin;
- ayolingiz uyda nima ish bilan band ekanligiga ba’zan qiziqib qo‘yish kerak;
- rafiqasi bilan ro‘zg‘or masalalaridan tashqari boshqa mavzular bo‘yicha ham suhbatlashib turiish munosabatlarni mustahkamlaydi, ziddiyatlarni oldini oladi.

### **Ayollarga maslahatlar:**

- turmush o‘rtog‘iga narsalar olayotganda, dugonalarning emas, uni o‘zining ham didi bilan qiziqqan ma’qul;
- Eringiz yaxshi ko‘rgan taomni ko‘proq tayyorlash uning kayfiyatini yaxshilaydi;
- Uning uchun qadrli bo‘lgan narsalardan foydalish munosabatlarni suiste’mol qilish bilan baravardir;
- Davrada barcha uchun allaqachon ma’lum bo‘lgan voqeani aytib berayotganda ham, uning so‘zlarini kiprik qoqmasdan diqqat bilan eshitish kerak. Uning gapini bo‘lmang. So‘zlariga ishonchsizlik bildirish uni yerga uradi;

- Bolalarni oldida otani tanqid qilish nafaqat eringizni sizga bo‘lgan munosabatini yaxshilamaydi, balki bolalarni ham uy boshlig‘iga nisbatan hurmatini yo‘qotadi. Bunda bolalar ota-onani omadsiz oila a’zolariga qaragandek munosabat qilishlariga olib kelishi mumkin;
- Nazorat va tekshiruv o‘rtasiga olish yaramaydi. Bu uni xafa qilishi mumkin. Juda zaruriyat tug‘ilsa, va bu tez-tez takrorlanadigan taqdirda bolalarni shirin tillaridan foydalagan ma’qul.
- Onasiga bo‘lgan tabiiy bog‘lanishini tanqid qilish noto‘g‘ri. Bu uni mustaqil erkak sifatida yerga uradi.
- Uni maqtab turish, uning maslahatini qabul qilib turish lozim;
- U yoqtirmagan mehmonlarni taklif qilish, unga yoqmaydigan joylarga mehmonga borish tavsiya etilmaydi.

Oyat va hadislarda ham ayollarga yaxshi muomalada bo’lish haqida ko‘p martalab ta’kidlangan. Hazrat Rasululloh sallollohu alayhi vasallam: “Mo’min kishi mo’mina ayoldan nolimasin, agar uning bir xulqidan norozi bo’lsa, ikkinchi xulqidan rozi buladi”, deydi. (Imom Muslim rivoyati).

Bu hadisi sharifda aytيلايaptiki, inson bolasi nuqsonsiz va aybsiz bo’lmaydi. Shuning uchun erkak kishi ayolning ayrim nuqsonlariga chidam va sabr bilan qarashi zarur, chunki har bir insonda bir necha ijobiy xulq va sifatlar bor. Yaxshi gap bilan sekin-asta nuqsonlarni tugatish mumkin va yaxshi sifatlarni taraqqiy ettirish mumkin.

Hazrat Rasululloh sallollohu alayhi vasallamdan ayolning erdag‘i huquqlari nimadan iborat deb so‘raganlarida, Rasululloh: “Taom yesang xotiningga ham yedir, yangi kiysang, xotiningga ham yangi kiyim olib ber”, dedilar (Abu Dovud rivoyati).

Erning xotindagi haqlari ham oyat va hadislarda bayon qilingan: “Agar ma’siyatga (gunohga) yurmasa xotin erga itoat yetishi kerak, uydagi ashyoni sarishta qilib saqlash ham ayolning burchidir. Eridan ruxsatsiz xotinlar, hatto ibodat bo‘lsa ham, nafl ro’za tutmasligi zarur, eridan ruxsatsiz uydan chiqib ketmasligi va eri norozi bo‘ladigan ishni qilmasligi kerak”.

### **Oilaviy tantanalar**

Agar siz oilaviy tantana uyuştirib, o‘z uyingizga ko‘proq mehmon taklif qilmoqchi bo‘lsangiz, albatta, yetarlicha turli xildagi sovuq gazaklar haqida o‘ylab ko‘rish kerak. Bunday mehmondorchilik mezbonlar uchun qulay, mehmonlar sog‘lig‘i uchun foydalidir. Bunday holatda mezbonlar bir pas mehmonlar o‘tirib suhbatlashib olishga imkon topiladi. Mehmonlar ham o‘zlarini erkinroq his qiladilar, ma’lum bir qoidaga qarab emas, istagan vaqtlarida tanovul qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bunday «usul» da mehmon kutish uchun albatta oldindan tayyorlanib olish

zarur – ana shunda, tinch sharoitni vujudga keltirib, bevosita suhbat qilishga erishish mumkin.

Odatdagidek, stoldan boshlaymiz. Uyidagi eng katta stolni tanlash va polgacha tushib turadigan oppoq dasturxon yozish lozim. Stolni mehmonlar uch tarafdan yaqinlashishlari uchun devorga qadab joylashtirish kerak. Stolning eni bo‘ylab faqat uchdan ikki qismidangina foydalanish yaxshiroq, zero haddan ziyod devorga yaqin taomni olmoqchi bo‘lgan mehmon bilmasdan to‘kib yoki turtib yuborishi mumkin. Ba’zida uni mehmonxonani markaziga joylashtirish ham mumkin. Bunda taxminan qancha mehmonlar tashrif buyurishiga bog‘liq.

Stolning ikki yoniga to‘p bilan kosalar, qoshiqlar va ichimlik uchun salfetka solingan idishlar qo‘ying. Ba’zida milliy «stolimiz» – xontaxta joy masalasini to‘g‘ri hal qiladi. Uyingizni kichkina deb bilgan paytda xontaxtadan foydalanish mumkin. Agar joy bo‘lmasa qiyaliroq stoldan foydalanish mumkin. Xizmatdan mezmonlarning ko‘ngli to‘q bo‘lsa ham bo‘ladi. Mehmonlar o‘z o‘ziga xizmat ko‘rsatadi. Uy egalari vaqtida kosalarni toza idishlarga almashtirib tursalar bas.

### **Oiladagi yoshi kattalar bilan munosabat**

Avvalambor – odob va tartib. Odob sizni botiniy munosabatlaringizga yordam bersa, batartiblik tashqi masalarda muvaffaqiyat keltiradi. Ko‘p hollarda yosh oilalar ota-onalari bilan bir uyda yashashlariga to‘g‘ri kelib qoladi. Bunday vaziyatlarda, albatta yoshlari kattalarni hurmat qilishlari, ularga qattiq gapirmasliklari, ularga nisbatan tavoze’lik bo‘lmoqliklari kerak. Ularning fikrlariga va ixtiyorlariga hurmat bilan qarashlari lozim.

Qaynona bilan birga yashash ko‘pincha ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Chunki uyda birdaniga ikkita uy bekasi paydo bo‘lib qoladi. Xo‘sish, unda ular qanday huquqqa ega va ro‘zg‘ordagi bekalik majburiyatlarni qanday taqsimlashi mumkin? Bunday vaziyatda universal javob topilmaydi. Ammo ma’lum bir qoida va maslahatlar bor.

Birinchidan uy bekalik huquqiga ikkalalari ham egadirlar. Kelin nafaqat o‘qish, ish bilan band bo‘lib, uy ishlari bilan shug‘ullanishga vaqtি bo‘lmasligi mumkin. Ammo baribir uning uy bekalikda huquqi bor. Ikkinci tarafdan, qaynona yoki ona sog‘lig‘i yaxshi bo‘limgani uchun uy yumushlari bajarishga imkonи bo‘lmasligi mumkin. Lekin u hurmatga loyiq, uyning to‘ri uniki bo‘lishi lozim. U oilaviy tadbirlarning barchasida e’zozli mehmon sifatida ishtirop etadi.

Kelin yoki kuyovni ko‘rgani kelgan yoshlari bilan onalarning o‘tirish unchalik shart emas. Odatga ko‘ra yosh mehmonlar kelishgach, dasturxonni ona fotiha bilan ochib beradi. Kyetishda esa ham «javobni» ular berishlari lozim.

Yoshi kattalarning yoshlari tomonidan qilingan mulozamatini juda xush ko‘rishlariga e’tibor berin lozim. To‘g‘ri, hozirda bunday masalaga e’tibor

bermaydigan oilalar ham bor. Oiladagi sizga bo‘lgan yaxshi munosabatdan g‘ururlanib, shirinso‘zlik va adablikni unutmang. Doimo shirinso‘zlik bo‘lish joiz. Ikkiyuzlamachilik va munofiqlikni ishga solmang! To‘g‘ri gapiring, ammo chiroyli gapiring. O‘zini hech qachon yerga urmaslik kerak. Siz tomonidan so‘zlayotgan shirinso‘zlarning hammasi «yashash uchun bo‘lgan kurash» emas, aksincha odob yuzasidan ekanligini bildiring. Ayniqsa, qizg‘in, xursandchilik kunlarida hammaning oldida qaynonangizni charchab qolishidan «qo‘rqib» unga dam olishni maslahat bermang. Umuman, qarilikni ta’kidlab turadigan ifoda usullaridan saqlanish yaxshiroq.

Qaynonalar yoshlarning shaxsiy hayotiga, ularning o‘zaro munosabatiga aralashmasliklari lozim. Bu madaniyatsizlikdir va sizni ularni oldida yerga uradi. Ayrim hollarda qaynona va kelin andishani yig‘ishtirib qo‘yib, har birlari o‘z gaplarini o‘tkazishga harakat qilishlarini kuzatishimiz mumkin. Bunday kelishmovchiliklarni oldini olish uchun kattalar yoshlarning kiyinishida, sochlarini turmaklashida, yoqtirgan kuy va ashulalari, shuningdek, ba’zi boshqa masalalarda ularni o‘z hollariga qo‘yishlari lozim. Yoshlar ham, o‘z navbatida iloji boricha ota-onalarni tushunishga intilishlari, ularning g‘ashiga tegadigan noo‘rin qiliq va odatlardan o‘zlarini tiyilishlari kerak.

Kelin kelinligining birinchi kundanoq hamma narsani keragicha bilishi, katta tajribaga ega bo‘lgan qaynonasi darajasida turishi juda qiyin. U ham mayli-ya, lekin bilishni istamasa qiyin. Shuning uchun onalar qizlariga ovqat pishirishni, meva va sabzavotlarni qishga sharbat, tuzlama, murabbolar tayyorlashni, uy-joyni saranjom-sarishta tutishni, did bilan mehmon kutishni va Shu kabi uy-ro‘zg‘or ishlarini o‘rgatishga alohida e’tibor berishlari zarur.

Kelinlik vazifasidan tashqari qaynona va qaynotalarning ham vazifasi borligini unutmang. Bir nima olishdan asosiysi – mehringizni ayamang. Uy va o‘g‘lingizni ro‘kach qilavermang. Minnat farzandning shaxsiyatiga tegadi. Ota-onal minnatni kechirishi mumkin, lekin farzand ... Chunki ota–ona o‘g‘liga bog‘liq bo‘lishni baxt deb biladi, ammo farzand ota-onaga bog‘liq bo‘lishni umuman xohlamaydi. O‘g‘lingiz bo‘lmasa, u boshqa kishiga turmushga chiqishi mumkin edi. Uyi bo‘lmasa, o‘g‘lingizga qiyin bo‘lardi. «Mening davrimda ...» yoki «Men unday qillardim, bunday qillardim» degan gaplarni kamroq aytgan ma’qul. Agar yoshlarni o‘z hayotlaridan mamnun bo‘lishlarini, shukr qilib yashashni o‘rgatmoqchi bo‘lsangiz – o‘zingiz namuna bo‘lish lozim. Bolalar doimo bolaligicha qoladi. Ular sizning so‘zingiz bilan amalingiz qandayligini solishtiradilar. Bolalarni doimo duo qiling. Kattalar kichiklarga bizda rahmat demaydilar. Ammo yaxshi niyat bilan qilingan samimiylar kuchliroq ta’sirga ega.

Ba’zida ota-onani oldida o’tirib, ularni ko’nglini oling, hadyalarni o’zingiz qiling, kelin o‘zi topshirgan sovg‘a bilan, (garchi sizning hisobingizdan bo‘lsa ham) siz topshirgan sovg‘adan yer bilan osmonchalik farqi bor.

Qaynonalarga bir necha maslahatlar: juda ko‘p narsa qaynonalarga bog‘liq. Yoshlarning hayotiga aralashuvni kamaytirishlari maqsadga muvofiqdir. O‘zingizni tanbeh beraverishdan tiying. Keliningiz yoki kuyovingizdan onalik da’vo qilmang (har holda ona bitta bo‘ladi). O‘g‘il oldida kelinni, qiz oldida kuyovini «muhibkama» qilish munosabatlarni yanada ziddiyatlashtiradi. Hadeb shikoyat qilavermaslik kerak. Minnatdorlik tuyg‘usi nima ekanligini bilmagan ota-onalar o‘z farzandlaridan buni kutishlari qiyin masala. So‘ralmagan tanbeh yoki buyruqlardan o‘zni tiyish zarur. «Xonangiz betartib» yoki «Idishlarni darhol yuvib qo‘yish kerak» qabilidagi «maslahatlar» – birovning hayotiga aralaShuvdir. Garchi yoshlar bizga yaqin bo‘lsalar-da, ularning o‘z hayotlari va oilalari borligini unutmaslik joiz. Bu esa ota-onalarning ham o‘z hayotlari bor ekanligini anglatadi. O‘z hayotining davomini bolalarda davom ettirmaslik lozim. Ular o‘z hayoti uchun o‘zlari javob berishlari, o‘zlari yashashlari joiz. Ushalmagan orzular, yoki armonlar, alam va ginalar bolalar hyotiga “o‘tib” ketmasligi zarur. Agar bolalar bilan yashash qiyin bo‘lsa, bu ota-onaning aybi. Bola tarbiyasida qandaydir xato o‘tgan. Shaxs bo‘lib voyaga yetgandan so‘ng, o‘zi ota-onalikka da’vo qilayotgan bir paytda bunday aralaShuv befoyda. Men bolam uchun qayg‘uryapman qabilidagi “bahonalar” sizni hamon tinch qo‘ymayotgan nafs ekanligini unutmang. Bunday holatda Zigmund Froydning “sublimatsiya” nazariyasi qo‘l keladi. Nafshi boshqa – ijobiy tomonga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Ya’ni o‘z hayotingizni yo‘lga qo‘ygan ma’qul. Kerakli muolajalar, sanatoriy yoki dam olish maskanlari, chiroyli shaharga sayohatlar, kitob mutolaasi – xullas o‘zini xursand qilishning yo‘llari ko‘p. Shunday qilingki, bolalar sizga talpinsinlar, siz ularga emas.

## **Qo‘shnilar**

Bir «dom»da turadigan qo‘shnilar garchi bir-birlarini yaxshi tanishmasalar-da, ko‘rishishlari shart. Qo‘shnilarning burchlari ko‘pdir, ammo asosiysi – boshqalarga kamroq xalaqit berish. Bu quyidagini bildiradi: bolalarni to‘polon qilishlariga, derazadan baqirishlari va sakrashlariga ruxsat berish; radio ovozini baland qilish; bolta bilan biror narsa maydalash, uydagilar bilan janjal qilish, trubada mashq qilish yaxshi emas. Agar mehmondorchilik yoki ta’mir qilish uchun birovning tinchini buzishga to‘g‘ri kelib qolsa, bu haqda qo‘shnilarni ogohlantirib qo‘yish lozim. Har holda ular bu shovqinning tugash paytini taxminiy bilishadi va bir oz xotirjam bo‘ladilar.

Tabiiyki, qo‘shnilar o‘z telefonlaridan foydalanishga izn berar ekanlar, faqat zaruriyat nuqtai nazardan ularni bezovta qilish mumkin. Qo‘shnichilik yuzasidan biz

shakar, dazmol kabi narsalarni berib turamiz, ammo ularni o‘z vaqtida qaytarish shart. Bizning buyumlarimizga bo‘lgan qo‘snilarning «hujumi» chegaradan chiqsa, unda ularga: «Afsuski, chang yutgich yaxshi ishlamayapti, yordam berolmayman» dyeyishga to‘g‘ri keladi. To‘g‘ri, qo‘snilarni xafa qilish yaxshi emas, ammo boshqa chora yo‘q. Qo‘snilarning santexnikning manzilini olish uchun uyiga bostirib kirib, yana qanday yashashlari bilan qiziqish yaramaydi. Agar qo‘sni ushbu manzilni yo‘lakda turib aytsa, buni shartli holat sifatida qabul qilishi lozim.

Do‘kondan qaytayotgan qo‘sning xaltasi bilan qiziqish, kim qayerdan pul topayotganini g‘iybat qilish to‘g‘ri emas. Qiya ochilgan eshikdan oyoq tovush eshitilgandayoq, kim qayerga kim bilan va nima uchun ketayotganiga qiziqish yaramaydi. Atrofdagilarning shaxsiy hayoti madaniyatli odamlar uchun mavzu bo‘la olmaydi.

Zamonaviy hayat jabhasida kimdir devor ortida pianino chalishi kabi shovqinlarning noqulayliklaridan qutulishning iloji yo‘q. Hech qaysi qonun bunday «harakatlarni» ta’qiqlamaydi. Ayniqsa, bu haqda qo‘snilar bilan kelishib olish mumkin bo‘lsa. Bunday vaziyatlarda, masalan, devorga tovush o‘tkazmaydigan narsalar osib qo‘ygan ma’qul. Boshimizdan do‘ppillagan oyoq tovushlari ham ko‘p noxushliklar paydo qiladi. Tarbiyali odamlarga uyda shippak kiyib yurish katta mehnat talab qilmaydi.

Umumiy kvartirada noxush ziddiyatlar ko‘p bo‘ladi. Aynan uyda boshqalarga qarshi o‘laroq erkinroq yashashga, o‘zi istagan narsa bilan shug‘ullanishga har birimiz intilamiz. Eng yomoni, kundalik mayda ziddiyatlar bora-bora “harbiy vaziyatni» keltirib chiqaradi. Bu darajaga olib kelmaslik uchun uning oldini olish lozim. Umumiy kvartirada umumiy joyni egallash masalasini oldindan kelishib olgan yaxshi. Jamoat sarhadlari – yo‘lak, oshxona, vannaxonada «oyoq uchida yurgan» ma’qul. So‘zlashuvda, uy kiyimida, hatti-harakatlarda e’tiborli bo‘lish lozim. Yangi zamонавиy falsafiy yo‘nalish namoyondalaridan biri Jan Pol Sartr inson faqat erkin jamiyatdagina erkin bo‘la oladi degan g‘oyani ilgari suradboi.<sup>38</sup> Boshqalarning erkini «bo‘g‘ib» qo‘yib, erkin yashashni umid qilish nodonlikdir.

Uyingizning xonasida yashashiga qaramay, ijrarachi ham tinch yashash huquqiga ega. Bu – uning xonasi, unga pul to‘laydi. Uy egalari bu xonaga eshikni taqillatmasdan kirmaydilar, qayerga ketyapti, qayerdan kelyapti, kimni qabul qilyapti, kim ko‘ylagini yuvib beryapti, nima uchun kefir ichishni yaxshi ko‘radi, jamadonlarini ko‘rish yaramaydi. Bularning hammasi ba’zida yodlab turish kerak bo‘lgan oddiy narsalardir.

Shu o‘rinda ham ijrarachi uy egalarining jihozlariga ehtiyyotkor bo‘lishi lozim. Uy egasi bilan ijrarachi o‘rtasidagi huquqlar teng emasligini u hamisha yodda tutmog‘i

<sup>38</sup>Satr J.P. Ekzistensializm to‘g‘risida. A.Sher tarjimasi. «Jahon adabiyoti jurnali». – T., 2011, 2-soni.

lozim. Sirasini aytadigan bo‘lsak, o‘sha yerdagi odatlarga moslashishi shart emas. Budilnikdan foydalanish mumkin, ammo butun uyni oyoqqa turg‘izish shart emas, uyda kiyish mumkin bo‘lgan xalat, pijamalarda yurish mumkin. Kiyimlar va narsalar har joyga tashlab ketmaslikka, o‘tkir hidli ovqat tayyorlamaslik va boshqa uy egalariga xush kelmaydigan narsalarni qilmaslik lozim.

### **Tayanch tushunchalar:**

Oila etiketi, xunuk odatlar, er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar, oiladagi muomala madaniyati, kuyovning burchi, kelinlik vazifasi, xontaxta, «o‘zbekcha» ko‘ylak, sublimatsiya, nafs.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Oila etiketi, er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar etiketi nimalardan iborat?
2. Oiladagi mojarolar paytidagi o‘zini tutish qoidalari nimalardan iborat?
3. Er yoki xotining xunuk odatlarini qanday yo‘q qilish usullari mavjud?
4. Oilaning yoshi kattalari bilan bo‘lgan etiketi qanday bo‘lishi lozim?
5. Kelinlik liboslari va kiyinish madaniyati haqida nimalarni bilasiz?
6. Qaynona va kelin, qaynona va kuyov munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapirib bering.
7. Yaqin qarindoshlar va qo‘schnilar bilan qanday munosabatda bo‘lish kerak?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch.-T., Ma’naviyat, 2008.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. O‘zbekiston milliy faylasuflari jamiyati. – Toshkent, 2010.
3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1-jild. - Toshkent, Abdulla Qodiri nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
4. Alimardonova O., Nazarov Q. Hayot va turmush odobi. - T., ”Sharq”, 1996.
5. Axmadjon B. Islom odobi va madaniyati. - T., Cho‘lpon. 1995.
6. Rahmatov R. Qulogqa aytildigan gaplar. - T., “Ibn Sino”, 1994.
7. Sattor M. O‘zbek udumlari. - T., Adolat.2004.
8. Usmonov R. Saodatnama. - T., O‘qituvchi, 1995.
9. Shoumarov G‘.B. Muhabbat va oila. - T., “Ibn.Sino”, 1994.
10. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati. - T., Iqtisod-moliya, 2009.
11. Sartr J.P. Ekzistensializm to‘g‘risida. A.Sher tarjimasi. «Jahon adabiyoti jurnali». – T., 2011, 2-soni.

## **11-MAVZU. MEHMON VA MEZBON ETIKETI**

Mehmondo'stlik tushunchasi umumiylar ma'noga ega bo'lib, mehmondorchilik, mehmonnavozlik, mezbonnavozlik, mehmon bo'lmoq kabilalar mazkur tushunchaning tarkibiy qismiga kiradi. Shuningdek, mehmondorchilik insoniy fazilatlardan hisoblanadi. Chunki mehmondorchilik nafaqat ulfatchilik, qorin to'ydirish yoki dasturxon bezatib tansiq taomlarni odamlarga berish, balki kishining holidan xabar olish, ulug' insonlarni ziyorat qilish maqsadida ularning uyiga borish ham mehmondo'stlikning bir ko'rinishidir. Zero, mehmon "atoyi Xudo" sifatida qadrli ekan, uyingizga ochiq ko'ngil va yaxshi niyat bilan qadam ranjida qilgan har bir kishi siz uchun mehmon kabi azizzadir. Mehmondorchilik o'ta nozik fazilat bo'lib, u insondan yuksak did, farosatni va axloqiylikni talab etadi. Bu jarayon gohida oriyat darajasiga ham yetadi.

Mehmondorchilik - ko'rishuv, muloqot, muomala uchun sub'yekt vazifasini bajaradi. Unda takalluf, mulozamat, hurmat, tavoze kabi ko'rinishlar ustuvor bo'lib, ular mehmonning kayfiyatini ko'tarishga, ko'nglini olishga yo'naltiriladi. Mehmondo'stlikning ijtimoiy-ma'rifiy, ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatiga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan faylasuf olim Karim Mahmudov bu borada g'oyatda qimmatli ma'lumotlarni beradi. Xususan, olimning «Mehmonnoma» kitobida mehmondorchilik marosimining odobi, fazilati, qoidalari, tartibi va milliy xususiyatlari bayon etilgan.

Olim mazkur kitobda mehmondorchilikni qadriyat darajasida talqin yetishi barobarida, uning nazariy va amaliy tomonlarini ham e'tibordan chiqarmaydi. Ayniqsa, mehmon va mezbon odobiga doir nasihatlar, mehmondorchilik qoidalari, mehmon toifalari, mehmonga munosabat, mehmonga taklif, mehmondorchilik turlari kabi mavzularda mehmondorchilik nafaqat marosim ayni paytda milliy madaniyat ko'rgi sifatida gavdalantirilgan. Mehmondorchilikning chiroyli o'tishi asosan mezbonning kayfiyati, fe'l-atvori, axloqiy tarbiyasi hamda mezbonga nisbatan bo'ladigan munosabatiga bog'liqligini K.Mahmudov bir necha hayotiy misollar va rivoyatlar orqali ko'rsatib beradi. Ayniqsa, "Uyiga mehmon kelmay qolsa, odamlardan o'pkalay bermay, har kim o'ziga, odob-axloqiga nazar tashlamog'i joiz", "Mezbonning ko'pchilikka malol keladigan odati bo'lsa, bundaylardan ham mehmon yuz o'giradi", "Mehmonni malol ko'radigan odam o'zi ham mehmon bo'lganda malol kelishini o'ylashi kerak"<sup>39</sup>, - degan fikrlari mehmondorchilik marosimi botin va zohiriga ko'ra axloqiy-estetik jarayon ekanligidan dalolatdir.

Faylasuf olim B.Husanov o'zining "Muomala madaniyati" deb nomlanadigan darsligida «Qobusnoma»da mehmonnavozlikka oid o'gitlarning matnini

<sup>39</sup>Mahmudov Karim. Mehmonnoma. . T.: "Yosh gvardiya" nashriyoti. 1989. 26-bet.

soddalashtirib, tavsiya etadi: - “Shuni alohida ta’kidlash o‘rinligi, sharqni deyarli barcha allomalarining axloqiy-tarbiyaviy pandnomalarida xalq turmush tarziga oid o‘gitlar, kundalik faoliyatiga doir nasihatlar davr nuqtai-nazaridan tahlil qilingan. “Qutadg‘u bilig”, “Devoni lug‘atit turk”, “Qobusnama”, “Axloqi Muxsiniy”, “Makorim ul-axloq”, “Guliston”, “Bo‘ston”, “Mahbub ul qulub” kabi pandnomalarda insonning jamiyatdagi o‘rni, turmushdagi kechmishi, kundalik faoliyatidagi harakatlar axloqiy-estetik tizim orqali ifodalanadi. Jumladan, Kaykovus qalamiga mansub “Qobusnama” asarining “Mehmon olmoq va mehmon bo‘lmoq zikrida” deb nomlangan bobini o‘qir ekansiz mehmondorchilik qoidalari, fazilat va illatlari nimalarga bog‘liq va nimalarda ko‘rinishini anglab yetasiz<sup>40</sup>. Bu borada chiqargan xulosalarimiz shundan dalolat beradiki, mehmondorchilik *qidasi* va *fazilatlari* ushbulardir:

- Har kuni mehmon chaqirgandan ko‘ra, ularni bir marta chaqirish lozim, toki dasturxonga qo‘yilgan ne’matlar bodastir va aybsiz bo‘ladi.
- Uyingizga qadam ranjida qilgan odamning oldiga peshvoz chiqing va ular bilan chiroyli muomala qilingki, ular sizning duoingizni qilsin.
- Zinhor mehmondan yuqoriga o‘tirmang. Agar mehmon sizni o‘tirishingizga rozilik bildirsagina ular bilan birga bo‘ling. Yo‘qsa, uzringizni so‘rab «mezbonlik» ishlarizingizni davom ettiring.
- Mehmonga «Undan oling, bundan oling. Nega hech nima yemayapsiz, bularning bari sizlar uchun qo‘yilgan. Agar dasturxonada yetishmovchilik bo‘lsa uzr, boshqa kelganlaringizda bat afsil qilamiz», degan mulozamatni hadeb aytayvermang. Bunday so‘zlar ayni qsa, tarbiyali insonlarga yarashmaydi.
- Mehmon garchand og‘ir botadigan so‘zlarni gapirsa ham unga qattiq gapirmaslik, uni hurmat qilish zarur.
- Mehmondorchilikdagi *illatlar* quyidagilarda namoyon bo‘ladi:
- Mehmonga ta’na qilish, dasturxonagi ne’matlar va taomlarni maqtayverish;
- Mehmondan avval mast bo‘lib olish;
- Huda-behuda kulaverish;
- Ochko‘zlik qilib, oldidagi narsalarni yeb tugatish;
- Mehmonlar oldida xonodon a’zolariga (xotini, farzandlari va xizmatkorini) tanbeh berish, ularni so‘kish va haqoratlash”<sup>41</sup>.

Xalqimiz mehmonni e’zozlashining sababi shundaki, mehmonning kelishi yaxshiliklar ramzi ekanligi, mehmon dilxushliklarni keltiruvchi, araz va ginalarga barham beruvchi ekanligidadir. Darhaqiqat, mehmon kelganda er-xotin o‘rtasidagi janjal ham, bolalarning harxashasi ham to‘xtaydi, ovozimiz o‘z-o‘zidan sekinlashib muloyim bo‘lib qolamiz. Shuningdek, uyimizga mehmon kelishi ozodalik va

<sup>40</sup>Qarang: Kaykovus. Qobusnama. T.: Istiqlol. 1994. 53-bet.

<sup>41</sup>Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati. -T.Iqtisod-moliya. 2009. B.71.

pokizalik sababchisi hamdir. Shundan bo‘lsa kerak onalarning «Qizim, o‘tirishingni qara, uyni supurib qo‘ysang bo‘lmaydimi. Shuholatda biror kishi kelib qolsa, o‘ylamaydimi isqirt yashar ekan deb?!” koyishlari shundan bo‘lsa kerak. Hatto uyimizda yotgan bemor ham biroz bo‘lsada kasalini unutib mehmon bilan suhbat qurgisi keladi.

Hayotda hamma ham yaxshi mehmondo‘st uy egasi va har kim – kutilgan, qiziqarli mehmon bo‘la olmaydi. Buning uchun avvalambor mehmonlar qimmatbaho idishlar, kumush jihozlar va boy taomlar bilan mehmon qilish shart emas. Juda oddiy mazali taom tayyorlash mumkin; eng muhimi, kelgan mehmonlar o‘zlarini yaxshi va dildan ularning kelishlaridan xursand ekanliklarini ko‘rishishidadir. Kutilmagan mehmonning tashrifi kishini sevintiradi, lekin ba’zida noqulay ahvolga ham solib qo‘yadi. Shuning uchun birovnikiga tashrif buyurmoqchi bo‘lsangiz, boriladigan vaqtini, uning nima qilishini va turmush tartibini hisobga olish kerak. Eng yaxshisi, qaysi vaqtida borilsa malol kelmasligini uy sohibidan shaxsan yoki telefon orqali so‘rash kerak. Mehmonga ertalab va kechasi borilmaydi. Odob qoidalariga ko‘ra, mehmonga soat 12 dan soat 20 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida boriladi.

Mehmonga borganda mayda-chuyda tartib-qoidalarni ham esdan chiqarmaslik kerak. Eshik oldiga kelgach, eshik qo‘ng‘iroq‘ini qisqagina chalish, yoki eshikni sekingina taqqillatish lozim. Birinchi qo‘ng‘iroqdan keyin eshik ochilmasa, takror qo‘ng‘iroq chalish mumkin, lekin ikki martadan ortiq qo‘ng‘iroq chalinmaydi. Bu munosabatingiz salbiy ekanligini bildiradi. Uy sohibi mehmonga ketgan bo‘lsa aslo uning ketidan bormang. Mehmonga borganda, agar uy sohibi bilan oldindan kelishilgan bo‘lmasa, begona kishilarni ergashtirib olib borish yaramaydi.

Bolali uygagina yoki bolalarga xursand bo‘lishadigan xonadongagina bolalarni olib boriladi.

Mehmonlarni to‘plashning eng qulay payti – juma yoki shanba kunlaridir: ertasiga uyni sarajomlab, o‘zingiz ham dam olasiz. Mehmonlarni uyda kutib olishdan avval, ularni qanday kutib olish imkoniyati borligini ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Mehmonlarni shunday o‘tkazi kerakki, ularning kasbiy qiziqishi mehmondorchilikni munozaraga aylanib kyetish darajasida mos kelmasin. Mehmonlarni bir-biriga tanishtirish bilan ularning qiziqishlari haqida ham aytib o‘tib o‘tish – kirishib kyetishga yordam beradi.

Kechaning avvali juda tashvishli bo‘lishini hisobga olish lozim. Shuning uchun mehmonlar kelishlaridan yarim soat avval ishlarni tugatishga ulgurish kerak. Bu bilan mehmonlarni nisbatan betashvish, yaxshi kayfiyatda kutib olish mumkin. Mehmonlar kutib olish jarayoni samimi bo‘lishi lozim. Vaqtliroq kelib qolgan mehmonga yuvinish va o‘zini tartib keltirib olish xonasini ko‘rsatiladi. Uy egasi mehmonlarni aniqlik va eshtarlik qilib tanishtirishi lozim. Mehmonlarni kamchiliklari haqida gapirilmaydi. Uy egasining asosiy vazifasi – bu har kim o‘zini yaxshi va qulay his

qilishi uchun do'stona munosabatni shakllantirishdir. Agar uy egasi mehmonlarni qiziqtirishni uddalashga ko'zi yetmasa, unda buning uchun udabburonroq do'stini taklif qilsin.

Mehmon kutishdan tortib uni kuzatishgacha, dasturxонни bezashdan tortib, narsalarni joylashtirishgacha, taomlarning mazasidan tortib mehmon bilan bo'ladigan suhabatgacha barcha-barchasi go'zallik qonuniyatları asosida bo'lishi zarur. Jumladan, mehmondorchilikning muhim sub'ekti bo'lган pazandalik san'atida taom tayyorlash jarayoni, uni bezash, taomlarni tartib bilan tortiq qilishning o'ziga xos xususiyatlari bor.

Milliy xususiyatlarimizdan kelib chiqqan holda bugungi kundagi mehmondorchiliklarning aksariyatida dasturxoniga yengil taomlar (somsa, go'shti salatlar), so'ngra birinchi va ikkinchi taomlar tortiladi. Birinchi taom suyuq (sho'rva, mampar, lag'mon, tiftil va h.k), ikkinchi taom quyuq (palov, qovurdoq, dimlama, manti, norin va h.k)lardan iborat bo'ladi. Mazkur jarayonni go'zal tashkil yetishdagi asosiy unsurlar - idishlarning chiroyliligi, tozaligi, qulayligi, joylashtirishning nafosati hamda taomning mehmonga xush yoqadigan xilini tanlay bilishdadir. Zero, mehmonga xush yoqmagan taomni taqdim qilish mehmondorchilikdagi nafosat mezonlarini buzib yuborishi mumkin. Shuni ta'kidlash zarurki, ko'nglimiz tilamagan taomni mehmon dasturxoniga qo'yish yoki o'zimizga ravo ko'rmagan narsani mehmonga sovg'a qilish - mehmonni mensimaslikdir.

Kimgadir yaxshi, kimgadir esa shunchaki g'amxo'rlik qilish yaramaydi. Mezbon tashvish va ishning ko'p bo'lishiga qaramasdan, o'zini xushchaqchaq ko'rinishga harakat qilishi lozim. Shu bilan birga har mehmonlar ham nafaqat mezbonlarga nisbatan, balki mehmonlarga nisbatan mulozamatli va diqqatli bo'lishi lozim. Iliq kayfiyatni hosil qilishda mehmonxonani yaxshi yoritish ham ahamiyat kasb etadi. Haddan tashqari yorug'lik noqulaylik tug'diradi. Ammo mehmonlar o'tiradigan joylar yetarli yoritilgan bo'lishi kerak. Bunda turli yoritgich vositalaridan: stol, osma va devor lampalaridan foydalanish mumkin. Do'stona kechalarga vazmin kuylar yarashadi. Agar siz o'zingizning yangi video tasmangiz bilan maqtanmoqchi bo'lib, ularni mehmonlarga havola qilsangiz – bu hammaga ham yoqavemasligini nazarda tuting.

Kechaning muvaffaqiyatli o'tishida uy bekasining kayfiyati va ko'rinishi muhim o'rin egallaydi. Hamma narsaga ulgurish kerak: uyning ozoda va tartibliligi, pishiriqlar yaxshi chiqishi, chiroyli kiyinib, yaxshi ko'rinmoq lozim. Agar siz bunday ichki qoniqishni his qilmasangiz, mehmondorchilik yaxshi o'tmaydi. Sizni kayfiyatingiz butun bir kechaga ta'sir qiladi. Shu sababli, o'zingizga e'tibor berish yoddan chiqmasin.

Mehmonlar kelishi bilan televizor yoki radioni o'chirib qo'yish va butun e'tiboringizni ularga qaratish mezbonning mehmonga bo'lган ijobiy munosabatini

ko'rsatadi. Ba'zi hollarda ish ko'payib ketsa, biron yaqin qarindosh yoki tanishingizni yordamga chaqirishingiz mumkin. Bu paytda telefonda gaplashish barchani diqqatini jalb qiladi, ammo bu ijobiylit kasb etmaydi. Qayta qilishingizni aytib, so'ng suhbatni to'xtatish lozim. Mehmonlarni ichishga, yyeyishga zo'rash ularni me'dasiga tegish mumkin.

Uy bekasining mehmondorchilik bilan ovora bo'lishi, uy egasining esa mehmonlarga «qarab» o'tirishi tabiiy, ammo uy egasining ayoliga mehmonlar oldida o'zi bajarishi mumkin bo'lgan buyruqlarni berishi nojoiz: «Derazani ochib yubor» yoki «Stul olib kel» qabilida. Agar er ayoliga qo'shimcha salat olib kelishni eslatса, buning yomon joyi yo'q. Ammobuni odob bilan amalgalash kerak. Hech qachon er taomning mazali bo'lmananini ko'pchilik oldida aytmasligi lozim, ayolning o'zi pirogни tagi olib ketgани yoki taom sho'rroq bo'lganini shundoq ham biladi. Er "bizning uyda hech qachon tartib bo'lmaydi" yoki taom kechiksa «ovqat hech qachon vaqtida tayyor bo'lmaydi» degan tanbehlар bilan o'zingizning madaniyatsizligini hamda yomon boshqaruvchi ekanligini bildirib qo'yadi. Mehmonni sizning farzandingiz, mushugingiz, kuchugingizning ajoyib xususiyatlari borligini tan oldirishga majbur qilmang. To'y yoki biron tantanali marosimning videotasmasini mezbon mehmonlarga taklif qilar ekansiz, ularni bu bilan zeriktirib qo'ymagan ma'qul.

Mehmonlarni uygа taklif qilar ekansiz, ular sizning uyingizni ko'rib chiqishlari mumkin ekanligini ham nazarda tutish lozim. Bu bilan ko'nikishga to'g'ri keladi. Agar oila a'zolarining biri mehmon bilan ko'rishib, ammo o'tirishda ishtirok etmagan bo'lsa, mehmonning kyetish arafasida uni kuzatishga chiqish lozim. Mehmonlar bilan xayrlashayotganda mezbon ularni kuzatish uchun yo'lakka chiqishi va ayollarni kuzatuvchilari bor-yo'qligi borasida g'amxo'rlik qilishi shart. Agar mehmonlarni bir qismi ketsa, qolganlar ularni muhokama qilishlari shart emas. Ular ham xuddi shunday «muhokamaga» olinishlarini gumon qilishlari mumkin.

Agar mehmonlar qolib ketsa, siz esa oyoqda zo'rg'a turgan bo'lsangiz qanday ish tutish lozim? Qishda derazaning ochilishi yaxshi ta'sir beradi. Juda bo'lmasa, ertangi rejalar haqida suhbat boshlagan ma'qul. Hammaning ertalab barvaqt turishlari «yodlariga tushadi». Ba'zida bu ham ta'sir qilmasligi mumkin. Befahm mehmon uchun universal davo yo'q. Oxirigicha chidashga to'g'ri keladi. Agar mehmon taklif qilinmagan, shunchaki kirib o'tadigan bo'lsa, unda ish osonroq kechadi. Esnab turib, bilmagandek qilib: «Uzr kun juda og'ir bo'ldi, barvaqt turish kerak. Agar istasangiz shuyerga joy solib beramiz». Farosati bo'lsa (agar uzoqda turmasa) yotgani uyiga ketadi. Bo'lmasa, o'zbekning mehmondo'stlik sha'niga dog' tushirmaslikka harakat qilamiz.

G'alati mehmonlar ham uchrab turadi. Biri o'zidan boshqani tan olmasa, ikkinchisi u burchakdan bu burchakka «tiqilishni» yaxshi ko'radi. Uchinchisi – o'zini

«madaniyatli» qilib ko‘rsatish uchun hech ham dasturxonga o‘tirmaydi, sizning esa qorningiz och... Yana biri o‘ta «kamgap» – mehmon uning zerikmasligi uchun qiynalib ketadi. Yana biri telefonida gaplashsa yoki televizor ko‘rsa, hamma narsani bir zumda unutib qo‘yadi. Yana boshqasi kerak bo‘lmagan narsani so‘rayverib jonga tegadi. Olib kelgan taomdan hech biri yoqmaydi. Yana shunday tanishlar borki, oshxonaga kirib taom pishirish, «oshxonadagi tartib» bilan shug‘ullanib ketadi. Bu kabi o‘nlab mehmonlarga mezbonlar, mehmonlar esa mezbonlargasabr qilishiga to‘g‘ri keladi.

Ayniqsa hadeb sizni bezovta qilib uyingizga kelaveradigan, uzoq o‘tiradigan mehmon bilan munosabatlarni to‘g‘irlash qiyin bo‘ladi. Albatta «Biz kyetishimiz kerak», yoki «Yoki mazam bo‘lmayapti» qabilidagi bahonalar bilan o‘z noroziligini bildirish mumkin. Lekin niyatizingizni bilib turib, sizni o‘zingizni yo‘qotib qo‘yishingizni, taraddudlanishigizni kuzatishni yaxshi ko‘radigan odamlar bor. Ularga yo pinakni buzmay o‘z ishingizni qilishingiz yoki ochiqchasiga bezovta bo‘layotganingizni aytib qo‘yaningiz yaxshi.

Biror mehmon vaqtliroq ketmoqchi bo‘lsa, bunga boshqalarni e’tiborini jalb etmay, uy sohiblari bilangina xayrlashib, ularga kyetish sababini aytadi. Boshqalarga bildirmay kyetishning iloji bo‘lmagan taqdirda bosh silkitib barcha bilan xayrlashiladi. Mehmonlar ziyofatning xarakteriga qarab, o‘z vaqtida kyetishlari kerak.

Mehmondorchilik – ulug‘ xislat, ammo u ham ma’lum bir chegaralarga ega ekanligini – o‘zingiz ham bu dunyoga mehmon bo‘lib kelganingizni unutmang.

Sizni taklif qilishsa–yu, siz bormasangiz, bu hurmatsizlkidir. Kechki ovqatdan voz kechishning eng oxirgi muddati – ikki kun avval, ammo keltirgan sabab jiddiy bo‘lishi lozim. Bunga yo‘l qo‘yilgan taqdirda imkon qadar tezroq og‘zaki ravishda uzr so‘rashni unutmaslik muhim. Mehmondorchilikda ko‘p bo‘lib, ammo javoban o‘zi ham mehmonga chaqirmslik odobga to‘g‘ri kelmaydi. Agar o‘z uyingizda mehmon qabul qilishga sharoit bo‘lmasa, uning boshqa yo‘llarini qidirib ko‘rish mumkin, masalan, qahvaxona, restoran, teatr, agar mashinangiz bo‘lsa – shahardan tashqaridagi sayrga taklif qilish mumkin.

Shunday hollar bo‘ladiki, oiladagi er-xotinlardan biri taklifni qabul qilib, juftisiz mehmonga borish-bormasligi masalasida ziddiyatlar kelib chiqadi. Ko‘pincha bunday takliflarni hamkasabaldan olamiz, darajaning oshishi, dissertatsiya himoyasi va boshqalar. Bunday takliflarni tadbirning bir martalik xususiyatga ega bo‘lgani uchun qabul qilish mumkin. Tez-tez qaytariladigan takliflarga nisbatan esa: «*Bu kechani oilamga bag‘ishlamoqchi edim*» deb javob berish mumkin. Bu sizni taklif qilayotgan kishini haddan ziyyod ortiqcha takliflar oiladagi umr yo‘ldoshlardan biriga xush kelmayotganini anglashga imkon beradi.

Mehmondorchilikda ayollar sumkalarni qayerga qo‘yishlari lozim? Eng yaxshisi pardoz stoliga qo‘ygan ma’qul. Dasturxon atrofida tizzaning ustida xalaqit berishi mumkin, o‘rindiqni suyanchig‘ida – tushib kyetishi tayin. Agar kechki ovqatda to‘rtolti kishi uchrashsa, to uy bekasi joylarni ko‘rsatgunga qadar kutib turganlari ma’qul. Ko‘pchilik bo‘lgan kechada o‘zingiz istagan joyga o‘tiring.

Taklifni qabul qilishda: «*Yana kim keladi?*» deb so‘rash nojoiz. Zarur bo‘lsa taklif qilayotgan kishining o‘zi mehmonlar tarkibi haqida aytishi mumkin. Bunday kechalarda istalmagan tanish bilan uchrashishga sabab bo‘lishi tabiiy. Nima ham qillardik, ko‘rmaslikka olish, u bilan ko‘rishmaslik – mezbonlarni xafa qilishi mumkin.

Mehmonda ketma-ket chekish yaxshi emas. Sigaret kulini faqat kuldonga tashlash lozim. Parishonxotir kashandalarning bu haqda yodidan ko‘tarilib, yerga tashalgan kulni mezbonlar ko‘rib asabiylashshishlari mumkin. Mehmonda ekansiz, yaqin oynaga qarayverish, kvartirani baholayverish, ayniqsa, tanqidiy mulohazalarni aytish odobsizlikdir. Hadeb yon-veriga qaravermasdan, uy egasiga bir og‘ish shirin so‘z aytish mehmonning vazifalaridan biridir. Nima va qancha deb jihozlarni tekshiraverish, ularni olib tomosha qilish, uning markasi bilan qiziqish yaramaydi. Bolalarni faqat maxsus aytilgan holatdagina olib borish maqsadga muvofiq. Mehrimon ota-onalarning bolalarini ko‘pchilikka ko‘z-ko‘z qilishdan tiyilishini maslahat beramiz.

Qadimgi odatlarga ko‘ra mehmon o‘zi bilan biron bir qarindoshini yotib kyetishi uchun olib kelar edi. Qoidaga asosan buni faqat mezbonni oghlanliribgina amalga oshirish mumkin. Va umuman yo‘lda uchragan tanishingizni olib kelmang – bu mezbonga yoqmasligi tayin chunki tarbiya ko‘rgan kishilar hech qachon to‘g‘ri kelgan joyga taklif qilsa boravermaydilar. Agar u yerda siz biron narsani sindirib yoki buzib qo‘ysangiz, uning qiymatida pul taklif etmagan ma’qul. Undan ko‘ra Shunga o‘xhash jixozni olib bergen yaxshi. Bunga biron tadbirlarda sovg‘a sifatida taqdim yetish bilan amalga oshirish mumkin. Buzilgan narsani o‘zi bilan tuzatgani olib kyetish mumkin, ammo yillab uyda yotishi uchun emas.

Agar jamoat ikki guruhga bo‘linsa, er bir guruhga, ayol ikkinchi guruhga qo‘shilgani yaxshi. Ammo davrani er yoki ayol orqali xursandchilik qilishga yo‘l qo‘ymang. Ba’zi odamlar o‘zining «*yarimtasi*» bilan jamoatni xursand qilish uchun maqtanishni xush ko‘radilar. Oxir-oqibat buning aksi bo‘lib chiqadi. Jamoa zerikadi, «*garovga*» aylangan rafqa o‘zini noqulay his qila boshlaydi. «*Ayolim yoshlardek kiyinib olgan*» kabi hazillar yoki «*Karamni yema, bunday jigar bilan...*» kabi tanbehlar farosatsizlik belgisidir. Er-xotinlardan birining kyetish niyati bo‘lsa, ikkinchisi ham so‘zsiz o‘rnidan turishi lozim. Turli bu boradagi munozaralar o‘rinsizdir va bunday turdagи bahslar guvohlarsiz amalga oshgan ma’qul.

Mehmonda taomdan voz kechish yaramaydi, har qanday taomni so‘zsiz qabul qiling. Diyeta saqlaydiganlarning umuman kechki ovqatga bo‘lgan taklifni qabul qilmasliklarini maslahat beramiz. Ammo kelgan ekansiz, idishga ozgina olib, uni yemaslik ham mumkin, lekin bunda buni hamma bilishi shart emas. O‘zingizni muammolaringiz o‘zingizga havola.

Issiq taomdan voz kechish mumkin, ammo faqat aniqlik bilan – «*rahmat, hozir emas*» degan so‘zlarsiz, chunki uy bekasi aynan siz uchun taomni issiq saqlab turishga, yoki stolda qoldirishga majbur bo‘ladi. Bunday tarzda faqat sovuq gazak yoki dissertdan voz kechish mumkin, bunda ular stolda turishi mumkin va uy bekasining maxsus diqqatini talab qilmaydi. Agar taomdan voz kechish imkonni bo‘lmasa, spirtli ichimlikdan – voz kechish mumkin. Mashinani o‘zingiz haydashingizni bahona qilishingiz mumkin. Yoki jigarni sabab qilsangiz ham bo‘ladi.

Mehmon hech bo‘lmasa bitta taomni maqtashi lozim. Bu taomni qanday tayyorlanishini so‘rash – uy bekasiga ma’lum ma’noda xushomaddir, ammo agar buni aytishni istamasa, sirni saqlashida da’vo qilmang. Taomdan so‘ng darhol tashakkur bildirilmaydi. Agar uy bekasi kechki ovqat tugaganini bildirsa, hamma turib boshqa xonaga kiradilar yoki shunchaki dasturxonadan turadilar. Kechki ovqat tugagan zahoti kyetish yaramaydi, ayniqsa agar uy bekasi oshxona va mehmonxona o‘rtasida xizmat bilan band bo‘lsa. Bunday holatlarda uy bekasi faqat kechki ovqatdan so‘nggina mehmonlar davrasiga qo‘shilishiga imkoniyat topiladi – bu uning huquqi. Ammo shunday vaziyatlar bo‘ladiki, kyetishga to‘g‘ri kelib qoladi. Unda mehmon mulozamat bilan mezbonga vaqtli kyetish sababini tushuntirishi lozim. Agar odam ko‘p bo‘lsa, uy egasidan boshqa hech kim bilan xayrlashmasa ham bo‘ladi. Bu Angliyadan tashqari hamma yerda «*Inglizcha kyetish*» deb, Angliyaning o‘zida esa «*Fransuzcha kyetish*» deb nomlanadi.

Avvalambor xayrlashish, so‘ng kiyinish lozim, aksini qilmang. Kyetish oldidan, mehmonlar mezbonga tashakkur aytadilar, ularga javoban mezbon «*Sizga ham kelganingizga rahmat*» deydi.

Mehmonda qancha vaqt bo‘lish mumkin? Aniq bir holat yo‘q. Lekin sizni bir piyola choyga taklif qilishgan bo‘lsa, Shu bilan cheklangan ma’qul. Kechga borib uy egalarining boshqa rejalari bo‘lishi mumkin. Kechki ovqat umumiylaytga qarab yarim kechagacha cho‘zilishi mumkin. Asosan, mezbonlarning qanchalik charchashiga e’tibor berilishi lozim. Biz kirgan xonada o‘chirilgan televizorni ko‘rsag-u, uni yoqishni mezbondan talab qilmasligimiz joiz. Bundan mezbonlar bir oz suhbat qurishni istaganlari uchun ham mehmon chaqirishganini fahmlasa bo‘ladi. Ba’zida aynan Shu payda juda qiziqrarli ko‘rsatuv bo‘lishini gap orasida aytib o‘tish mumkin, ammo bunga mezbonlar ro‘yxush bermasalar, indamagan ma’qul. Agar televizor yoqilgan bo‘lsa, uning yomon ko‘rsatishi-yu, xonandaning kiyinishi va boshqa narsalarni tanqid qilib kyetish yaxshi emas, bunda mezbonning aybi yo‘q.

Ko‘rsatuv me’dangizga tekkan bo‘lsa-yu, boshqalar uni qiziqish bilan ko‘rayotgan bo‘lishsa, yoki aksincha, hamma kyetishga chog‘langan bo‘lsa-yu, siz kinoni oxirigacha ko‘rib olay deb tursangiz, noqulaylik tug‘iladi. Kechki tanovul paytida doim televizorga qarayverish yoki ekranga qadalib o‘tirish yaramaydi. Ayniqsa uy egalari ovqatlanib turgan paytda o‘rnidan turib ketib, televizorni oldiga o‘tirib olishdan yomonrog‘i yo‘q.

### **Tasodifiy tashrif**

Ishlar va majburiyatlarga to‘la bo‘lgan bu zamonaviy dunyoda kutilmagan tashriflar bir oz bezovtalik tug‘diradi. Shuning uchun, tasodifiy tashriflar zarurat nuqtai nazardan amalga oshiriladi. O‘zimizni o‘zimiz mezbonning tavoze’ligi bilan aldamaylik – ularning boshqa ilojlari yo‘q. Kirib, gaplashib, tez chiqib ketamiz. Balki oilaviy bo‘lgan, kechki ovqatga qolish taklifini qabul qilmaymiz.

Uy egalarining qanday harakatlari orqali vaqtida kelmaginimizni bilish mumkin? Ko‘zga tashlanadigan yuzdagagi ishoralardan tashqari kuzatuvchan odam e’tiborni tortadigan vaziyatlarni ko‘rishi mumkin: mezbon stulni bir chetiga o‘tirdi, bilmagan holda shippakini qimirlatib o‘tiribdi. Uy egasi sabr bilan bizni gapirishga qo‘yib beradilar, ammo unga diqqat qilmaydilar. Savol berishmaydi. Agar oxirgi paytda «*hol qolmagan*» dan shikoyat qilishmasa, suhbat uchun mavzu qidirishmaydi. Negadir choy qo‘yishni «*unutadilar*». Uy egasi sigaretni tugatmasdan ikkinchisini chekishga tushadi. Xayrlashishni boshlasangiz, uy egalariga «*jon*» kiradi va samimiylit bildiradilar. Bu holat bizni chalg‘itmasin, Shunchaki uy egalarini vijdoni qiyntala boshlaydi. Bu hissiyot kyetishingizdan paydo bo‘lgan quvonch bilan uyg‘unlashib ketadi va munosabatda iliqlik paydo bo‘ladi. Agar biz ikki marta taqillatib yoki qo‘ng‘iroq qilsak-u, hech kim ochmasa, «*bostirib*» kirish shart emas. Aksincha, uy egalari bor-yo‘qligini tekshirib o‘tirish nojoiz. Iloji boricha chaqirilgan joyga borgan ma’qul.

### **Dasturxon tuzash, oilaviy bayramlar**

Inson paydo bo‘libdiki, rizqi bilan. Taom iste’mol qila boshlanibdiki dasturxon bor. Dasturxon aziz, muqaddas, rizq-ro‘z manbai sifatida ko‘zga surtilgan. Dasturxon odobi, taom emak qonun-qoidalari ham xalqimizda azaldan mavjud. Uydami, mehmondami, kuniga uch-to‘rt mahal dasturxon yoziladi. Dasturxonlar ham joyi, odami, mavsumi, ma’rakasi, xonasiga qarab, katta-kichik, rang-barang, odmi-oxorli bo‘lishi mumkin. Dasturxon – taomi bilan ulug‘. Dasturxon ustiga odatda birinchi bo‘lib non qo‘yiladi. O‘zbeklar tandir nonni ko‘proq iste’mol qilishadi, u dasturxonga juft qo‘yiladi.

Dasturxon etiketi ham qadimiy bo‘lib, kishidan muayyan an’analarni yaxshi bilishni talab qiladi. Dasturxonga hamma qo‘lini yuvib keladi. Dasturxon yozilganda

nonni, taomni birinchi bo‘lib oilaning kattasi boshlab beradi. Dasturxon atrofida chiroyli gaplarni gapirib o‘tirish kerak. Taom yemakning yakuni bo‘lgach odat bo‘yicha shukrona aytildi. Ovqatdan keyin ham qo‘l yuvilishi shart. Oilaviy bayramlar ham shu oilada yashovchi kishilarning turmush tarzi, hayotiga bog‘liqdir.

Dasturxon did bilan yasatilgan va o‘tiradigan joy qulay bo‘lsagina ovqatdan lazzat topa olish mumkin. Yozilgan dasturxon doimo ozoda bo‘lishi kerak. Dog‘li dasturxon ishtahani bo‘g‘adi. Dasturxonga idish-tovoqlarni qo‘yishda ularning tusi dasturxon rangiga mos tushishiga ham e’tibor berish lozim.

### **Oshxona jihozlari**

Taomlar xilma-xilligiga qarab, asosiy oshxona jihozlari turlicha bo‘lishi mumkin. Stolda servirovka uchun mo‘ljallangan jihozlaridan tashqari oshxona jihozlari bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: alohida qoshiqlar, sanchqilar, qisqichlar. Ovqat vaqtida foydalaniladigan asboblar pichoq, sanchqi, qoshiq va boshqalardan eng ko‘p ishlatiladigan pichoq, sanchqi, sho‘rva qoshig‘i, disert qoshiq va choy qoshig‘idir. Ovqat vaqtida foydalaniladigan idish va buyumlarning hammasi juda ham toza va benuqson bo‘lishi lozim.

Dasturxon bezashning ma’lum qoidasi bor. Dastlab, stoldagi likopchalar to‘g‘ri chiziq bo‘yicha terib qo‘yiladi. Asosiy likopchalarning chetlari hamda pichoq va sanchqilarning soplari stol chetiga etib yoki 1-2sm etmay turadi. Barcha asboblar qo‘l etadigan joyda turadi; oldin ishlatiladigan buyumlar likopchadan nariroqqa, olish qulay joyga qo‘yiladi. Non qo‘yiladigan idish (agar kesiladigan non turlari bo‘lsa) asosiy likopchaning chap tomoniga, stol chetiga yetkazmay qo‘yiladi.

Pichoqlar asosiy likopchaning o‘ng tomoniga tig‘ini likopcha tomoniga qaratib, sanchqi esa chap tomoniga, dasturxонни teshib yubormasligi uchun uchini yuqori qilib qo‘yiladi.

Qoshiqlarning botiq tomonini yuqoriga qaratib qo‘yiladi. Likopchaning orqasidagi sho‘rva qoshig‘i bilan desert qoshiq stol chetiga parallel yotishi, ularning sopi o‘ng tomonga qaratilishi lozim. Sho‘rva qoshig‘ini likopchaning o‘ng tomonidagi pichoq yoniga qo‘yish mumkin.

Har xil meva suvi, va ichimliklar uchun maxsus tor stakanlar, yoki bakallar qo‘yiladi.

#### **Foydalanish qoidalari:**

➤ Umumiylar o‘z idishiga katta qoshiq va sanchqi yordamida olinadi: qoshiqni o‘ng qo‘lda, sanchqini chap qo‘lda ushlanadi.

➤ Sanchqi yordamida ovqatni qoshiqqa olinadi, qoshiq bilan esa uni ushlab turiladi yoki qayla olish uchun ham ishlatsa bo‘ladi.

➤ Sous va sho'rvalarni o'z kosasiga maxsus cho'mich yordamida quyiladi, bunda dasturxonga to'kib yubormaslik uchun juda ehtiyot bo'lish lozim (o'zbek xonadonlarida sho'rvali ovqatlar hammaga alohida kosalarga quyib uzatiladi) .

➤ Desert jihozlar bilan gazak hamda shirin pishiriqlar yyeviladi. Ular kichik hajmga ega bo'lган pichoq, sanchqi va qoshiqlardir.

➤ Salatlar uchun maxsus jihozlar, kofe qoshiqchalari, qand qisqichlari, tortning kurakcha va qisqichlari – bularning hammasi asosiy jihozlarni to'ldiradi.

**Salfetka – sochiq** shak–shubhasiz stol servirovkasidir. Axir ularsiz stoldagi ozodalik hamda batartiblikni ushlab bo'lmaydi. Bundan tashqari, yaxshi dazmollangan, chiroylit taxlangan sochiqlar hatto stolga ziynat qo'shadi. Sochiqlarni o'rashda turli usullar mavjud, lekin biz qo'limiz kamroq tegishi mumkin bo'lган va yozilganda g'ijim ko'rinish kasb etmagan, oddiy hamda qulay usulubni ko'proq tavsiya etamiz.

Stolni nonushtaga yoki tushlikka taylorlashda, odatda salfetkalarni to'rtga bo'lib, uchburchak shaklida yarmidan buklab, so'ng ruletga o'xshab o'raladi, bu esa unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi, tantanali kechki ovqat yoki tushlikka esa nisbatan murakkabroq taxlashlar – elkan, qalpoqcha, sham va b. shakllarda o'raladi. O'ralgan sochiqlarni har bir mehmonning gazak uchun mo'ljallangan kosasiga qo'yib chiqiladi. Sochiqlarni qog'oz salfetkalar bilan almashtirish mumkin, o'z-o'zidan ma'lumki, tejamkorlik maqsadida ularni qismlarga kesmalik lozim.

Sochiqlardan to'g'ri foydalanish usuli. Stolga o'tirgandan so'ng, kosada juda chiroyli qilib o'ralgan oppoq sochiqni ko'rgan ba'zi odamlar, uni oldida o'zini bir oz iymanibroq tutadilar. Ba'zida uni pichoq, sanchqi, qoshiq kabi jihozlardek zarur ekanligini, odamga tanovul paytida yemak uchun yordamchi vazifasini o'tashga mo'ljallanganini bilmay, sekingina bir chetga olib qo'yishga harakat qiladilar. Yuqorida aytilgandek, yaxshi dazmollangan va me'yorida kraxmallangan, chiroylit taxlangan sochiqlar shubhasiz stolni bezaydi, servirovkani boshqa narsalari bilan birga ularni yanada chiroyli ko'rsatadi.

Salfetkani asosi vazifasi kostyumni tasodifiy taom tomchilari, to'kilishlar, ushoqlarni tushishi kabi noxush holatlardan saqlashdan iborat. U bilan yana barmoqlar va lablar tanovul mobaynida hamda undan keyin artiladi. Bevosita tanovuldan avval sochiqni yoyib, ikkiga buklab, tizzaga yoyiladi. Sochiqni yoqaga yoki bo'yinboqqa qistirib osib olish noo'rindir. Tamaddi vaqtida tasodifan kir bo'lган barmoqlarni e'tiyotkorlik bilan sochiqni ustidan, tizzadan olmasdan turib artiladi. Lablarni artish uchun esa, ikki qo'l bilan tizzadan salfetkani olib, uchidan burab, o'rtasini lablarga tekkaziladi. Lablarni nomigagina salfetka bilan artish xunuk ko'rinadi.

Salfetkani burun artish yoki uni qo'l kirlanganda qo'l sochiq qilish umuman to'g'ri kelmaydi. Stolga o'tirgach jihozlarni yaxshilab nazardan o'tkazib, biron narsa

topib olgach, uni salfetka bilan tozalashga tushish yaxshi emas. Bu bilan siz uy egalarini orasta ekanliklariga gumoningiz borligini bildirib, ularni ranjitasiz. Ovqatlanib bo‘lgandan so‘ng sochiqni avvalgi holatga keltiraman deb, uni ishtiyoy bilan taxlashga kirishib ketmang, balki batartiblik bilan kosani o‘ng tomoniga qo‘yib qo‘ying. Stulni suyanchig‘iga yoki o‘rindiqqa sochiqni tashlab qo‘yish ham yaramaydi. Agar tasodifan sochiq tizzadan polga tushib ketsa, tashvishlanmang: tozasini berishini iltimos qiling, zero, poldan olingan salfetka bilan foydalanish mumkin emas.

## ***DASTURXON TUZASH***

### **Norasmiy tushlikdagi dasturxonni tuzash**

**Dasturxon.** Oppoq dasturxon barcha tanatanli voqealar va kechalar uchun mo‘ljallangan, uning xususiyati shundaki har qanday rangdagi idishlar va gullar chiroyli ko‘rinish kasb etadi. Atirgullar, billur bokallar, kumush shamdonlar va qadimgi farfor, yaxshi saqlangan vino, to‘y yilligi va unashtirish marosimi kabi quvonchli damlar uchun kerakli bo‘lgan muhitni yaratib bera oladi. Bahor kayfiyatini paydo qilishda oq kashta bilan tikilgan och-yashil yoki havo rang, pushti tusdagi nafis rangli dasturxonlar qo‘l keladi. Landish, lola, narsiss, giatsinta, krokuslar va boshqa bahor gullari unga yanada chiroy beradi. Quyoshga o‘xshash jazirama va issiq yozda oq yoki sariq rangdagi kashtali sariq tusdagi nafis dasturxonlar to‘g‘ri keladi. Stolni o‘z bog‘ingizdagi gullar, savatchadagi mevalar, bug‘doy tolalari – bu yilning ramzi sifatida bezash mumkin.

Kuz faslidan ma'yuslik va osoyishtalik nafasi ufurib turadi, yilning bu faslida ehtimol oq yoki havo rangdagi dasturxonlar to‘g‘ri keladi, uni mevali taomlar hamda kuzgi barglardan yasalgan guldastalar bilan bezatish mumkin. Gullarni stolning o‘rtasida turishi shart emas, ular tegishli guldonlarda eng qulay joylarga qo‘yiladi. Gullar ovqatni va qarama-qarshi o‘tirgan odamlarni to‘smasligi lozim. Bugungi kunda, dasturxonni bezashning maxsus qoidalari yo‘q. Bu yerda uy bekasining didi muhim rol o‘ynaydi. Dasturxonning oqilona, maqsadga muvofiq qilib bezatilishi yaxshi hisoblanadi, lekin u qimmatbaho idish-tovoqlarni, nafis shishadan bo‘lgan va billur qadahlarni, hamda kumush qoshiq sanchqi va pichoqlarni ko‘z-ko‘z qilish, qisqasi, maqtanish odobsizlik hisoblanadi.

### **Norasmiy tantanali tushlik**

Jihozlar qanday bo‘lmisin, ularni batartib yozilgan oppoq dasturxon chetidan bir qarichda joylashadiki, unda mehmonlarning joyi o‘rtasidagi masofa baravar bo‘lishi lozim. Salfetka kichik kosaga qo‘yiladi; agar darhol gazak qo‘yilgan bo‘lsa, unda salfetka sanchqidan chaproqqa sanchqini yopib yubormagan holda qo‘yiladi.

Shunday kosalarни chekkalar ham jihozlarni yopib qo‘ymasligi lozim. Stol bezatishda qolgan narsalar, stolning hajmi, taklif qilingan mehmonlarning soniga ham bog‘liq. Masalan, katta bo‘lmagan doira shaklidagi stolga agar go‘sht va sabzavotli taomlar tortilishi taqozo etilsa, unda stol bezaklaridan voz kechishga to‘g‘ri keladi.

Taomlardan tashqari bunda stolga faqat sham qo‘yilgan shamdon qo‘yish mumkin. Shamlar chiroqlarni o‘chirib yoqiladi, o‘tirganlarning ko‘zlaridan baland bo‘lmasligi lozim (shamdonlar istalgan xona uchun ziynat vazifasini o‘taydi, kerak bo‘lsa ularni yoqish ham mumkin.) Odatda tushlik uchun zarur bo‘lgan barcha jihozlar qo‘yilib, ular bilan birga disert jihozlarini ham qo‘yish mumkin. Birinchi holatda disert sanchqilar va qoshiqlar yoki faqat qoshiqning o‘zi kosadan oldin qo‘yiladi. Norasmiy tushlikda to‘rtta taomdan ortiq taom bo‘lishi kamdan-kam uchragani uchun, odatda ikkitadan pichoq – bittasi gazak uchun (agar oldindan rejlashtirilgan bo‘lsa), boshqasi esa – go‘sht uchun beriladi. Pishloqli salat uchun esa maxsus pichoq zarur. Jihozlarni kosaning o‘ng va chap tarafidan ketma-ketlikda chekkadan markazga qarab shunday joylashtirilib chiqiladiki, birinchi taom uchun kerakli bo‘lgan pichoq va sanchqilar kosadan uzoqroq joylashtiriladi. Odatda ikkita sanchqi – bittasi go‘shtga, ikkinchisi salat uchun mo‘ljallab qo‘yiladi, ammo uchtadan ortiq bo‘lmasligi lozim. Salat uchun mo‘ljallangan sanchqi kosaga yaqinroq qo‘yiladi; agar salat gazak sifatida tortilsa, tabiiyki, sanchqi ham birinchi qo‘yiladi.

Norasmiy tushliklarda muz bilan sovuq kofe yoki choy beriladi. Uy egasining xohishiga ko‘ra choy yoki kofe tushlikning oxirida chashkachalarda tortiladi. Muz bilan qoshiqchani pichoqdan o‘ngga qo‘yiladi. Sovuq kofega qaymoq bilan qand tortiladi. Yaxshisi, choyga avvaldan shakar va limon qo‘sib, uni muz solingan stakanlarga to‘g‘ri idishdan quygan ma’qul. Sho‘rva va meva qoshiqlari stolga pichoqlarning o‘ng tomonidan qo‘yiladi. Agar issiq kofe yoki choy tashkillashtirilsa, unda kofe yoki choy qoshiqlar chashkani kosasiga, o‘ng tarafidan ushlagichini o‘ngga burib uzatiladi. Stolga yana sariyog‘ uchun kosalar hamda pichoqlar ham qo‘yiladi, bunda pichoqni turlicha qo‘yish mumkin: ko‘ndalang holda kosaning tepe qismiga, xo‘randaga tig‘i bilan qaratilgan holda qo‘yiladi, kosaning tepe qismiga uchini markazga qaratgan holda joylanadi, ba’zida esa qolgan pichoqlarga parallel, tig‘ini chapga qaratib qo‘yiladi.

Norasmiy stolga qo‘yiladigan tuzdon va murchdonlar turlicha bo‘ladi – yog‘ochdan, shishadan qilingan uksus, garmdori, murch va boshqa ziravorlar uchun mo‘ljallangan idishlardir. Agar stol juda katta bo‘lsa, tuz va garmdori har bir emas, oralab qo‘yiladi. Buning uchun unchalik katta hajmga ega bo‘lmagan shisha, billur, keramika va farfordan foydalilaniladi. Tushlikdan oldin ularni qayta to‘ldirib, qoshiqlarni qo‘yib qo‘yish kerak. Albatta, agar ular shaxsiy bo‘lmasa. Shuni yodda tutish lozimki, kumush qopqoqli tuzdonni har foydalanganda qopqog‘ini tozalash lozim. Aks holda tuzdonni teshiklari to‘lib qoladi va mehmon kosasidagi tuz u

istagandan ko‘ra ko‘payib kyetishi yoki umuman tuz bo‘lmasligi mumkin. Mehmonlar orasida chekadiganlar bo‘lsa, unda norasmiy tushlikda ular stol oldida chekishlari mumkin.

Har bir jihozga qo‘sib bittadan kuldon qo‘ysa ham, yoki katta bitta kuldon qo‘yib qo‘ysa ham bo‘ladi. Garchi kuldon bilan gugurt qo‘yilgan bo‘lsa ham, uy bekasiga odatda stolda chekishni taklif qilishmaydi. Chekuvchilar o‘zlarini istagan sigaret markasini tanlab olishadi degan holat nazarda tutiladi. Chekishni taklif qilmas ekan, uy bekasi stol atrofida chekishdan o‘zini tiyishni afzal ekanligiga shama qiladi. Hozirgi kunga kelib chekmaydigan soni kamayib bormoqda, shu bois ular atrofdagilarga e’tibor berishlar lozim.

### **Ochiq havodagi mehmondorchilik**

Taomni tayyorlash uchun yetarli masalliqlarga ega bo‘lgan taqdirda uydan tashqarida toza havoda ham mehmonlarni kutsa bo‘ladi. Buning uchun esa mehmonlar ko‘z oldida tayyorlangan ishtaha qo‘zg‘atadigan bu taomni qulay sharoitda tanovul qilishlari uchun yaxshi joy topishning o‘zi yetarli. Biror bir daraxtning soyasiga to‘g‘irlab dasturxon yoziladi. Dasturxonning rangi dilni yoritadigan tusdagisi tanlash lozim. Bir necha savatchalar qo‘yiladi (birida jihozlar, ikkinchisida ko‘proq salfetka-sochiq) kosa va bokallar qo‘yiladi. Bog‘dagi mehmondorchilik yog‘li toamlarni istisno qiladi, odatda sabzavotlar idishda assorti hamda sovutilgan meva va ichimliklar beriladi. Mehmonlar o‘zlariga o‘zlarini xizmat ko‘rsatadilar, likopni qo‘lda tutadilar va qulay joy topib, turib yeydilar.

Dala hovlida biron qabulni tashkillashtirar ekansiz, shahardagi joylar rangi uyg‘unligini tabiat ranglari ta’minalashni ham nazarda tutish kerak. CHinnini bu erda rangli sopol, shishani esa – yorqin rangdagi plastmassa qoplaydi. Dala hovlidagi o‘choq – bularning hammasi ochiq havoda pishiriladigan tovuq, o‘rdak yoki boshqa milliy taomlar tayyorlanadigan asosiy kerakli ashyo sanaladi.

Dala hovlida stolni uydagidek tuzatishmaydi, dasturxon oddiyroq bezatiladi, biron narsa yetishmasa mehmonlar sizni kechirishadi, stoldan qo‘llari bilan biror narsani olishsa esa, siz ularni kechirasiz. Dasturxon atrofidagi mehmondorchilik va suhbat oddiy va yengil bo‘ladi.

Biz dala hovlida bo‘lsa ham tanatanani yaxshigina qilib o‘tkazgimiz keladi. Masalan, agar siz tug‘ilgan kun yoki to‘yingizning yilligini dala-hovlida nishonlamoqchi bo‘lsangiz, albatta, mehmonlar yaxshiroq narsalar umidida bo‘ladilar. Taomlar ro‘yxatini ular xursand bo‘ladigan, uyda o‘tirmasdan keladigan darajada qilish ham – san’at. Shunday dasturxon solingki, uning chetidagi kashtalari tabiatga monand bo‘lsin – va bog‘dagi yozgi stol yashnaydi.

Mehmonlarni kutib olishga qurbingiz yetadigan darajada taklif qiling. Taomni xushbo‘y isi va toza havo ishtahani ochib yuborishni yodda tutish kerak. Dasturxonga

oldindan chiroyli salat, pishloq, turli shirin pishiriqlar, mevalarni hamda bokal to‘la ichimliklarni qo‘ysa bo‘ladi. Dala hovlidagi mehmondorchilik – murakkab taomlardan ko‘ra yaxshi kayfiyat afzal bo‘ladigan, yozgi kechalarining sehri va chiroyli musiqaning ovozi sizning tashvishiningizni ko‘taradigan, oliv qoidalardan voz kechilgan qabuldir.



### **Stolni bezash (servirovka) san’ati**

Stolni bezaganda uchtadan ortiq vilka yoki pichoqlarni qo‘yish maqsadga muvofiq emasligiga e’tiborni jalb qilish lozim (Har bir taomga unga mos holda alohida anjom qo‘yiladi). Qolgan pichoq, vilka va boshqa kerakli anjomlar zarur bo‘lganda taom bilan birga beriladi. Vilkalar likopchadan chapda, taomlar tortilishi tartibida quyiladi. Likopchadan o‘ngda yaxna taomlar uchun pichoq, osh qoshiq, baliq uchun pichoq va katta osh pichoq qo‘yiladi.



Bokallar quyidagi tartibda o‘ngdan chapga qarab qo‘yiladi: oq vino uchun, qizil vino uchun va suv uchun bokal.

Stol bezatilganda 3 turdagи idishlar to‘plami ishlatiladi, ya’ni issiq ovqat to‘plami, choy va dessert (shirinliklar) uchun to‘plamlar.

Idishlar to‘plamlari tayyorlangan taomlarga qarab farqlanadi.

Melxiordan ham kumushdan qilinadigan idish-anjomlar tayyorlanadi, ammo u kumushga qaraganda nisbatan arzon narxda bo‘ladi.

Billurdan grafinlar, ryumka, tuzdon, stakan, likopcha, shakardon, murabbo va mevalar uchun vazalar tayyorlanadi.

Idishlarning asosiy qismi chinni yoki fayans moddasidan tayyorlanadi. Ulardan likopcha, chashka, souslar uchun idishlar yasaladi. Fayans chinni kabi nisbatan nozik bo‘lmaydi.



Har qanday tushlikda odatda asosiy qoidalarga rioya qilinadi. Avvalambor dasturxonagi likopchalardan uzoqroq joylashgan qoshiq va sanchqilardan foydalaniladi, so‘ng keyingilariga o‘tiladi. Asosiy taom anjomlari likopchaga yaqin qo‘yiladi. Sanchqilar likopchaning chap, pichoqlar o‘ng tarafiga joylashtiriladi. Barcha taomlar doimo dasturxonda avvaldan mehmon oldiga qo‘yiladigan likopchaning ustigaqo‘yiladi.



Choy va qahvali nonushtada odatda tamaddi uchun mo‘ljallangan likopcha va asboblar shirinlik yoki qovurma pishiriq uchun maxsus likopcha va pichoq qo‘yiladi. Issiq ichimlik qo‘yilgan idishga qo‘srimcha tarzda choy qoshiq beriladi.



Agar tushlikka asosiy taomlardan biri, sho‘rva va shirinlik tortiladigan bo‘lsa, unda likopchani o‘ng tarafiga qoshiq yoniga issiq ovqat uchunmo‘ljallangan pichoq qo‘yiladi. Chap tomondan esa issiq taom uchun sanchqi joylashtiriladi. Shu bilan birga non va non pichog‘i solingan likopchani ham chap tomonga qo‘yiladi.



Agar tushlikka sho‘rva beriladigan bo‘lsa uni maxsus idishda odatda dasturxon ustida turadigan mehmon likopchasiga qo‘yiladi Bunda qoshiq o‘ng tomondan joylashtiriladi.



Agar tushlikka baliq yoki umuman go‘shtli taom tortiladigan bo‘lsa, unda mehmonga baliq va go‘sht uchun qo‘llaniladigan qoshiq va pichoqlarni taklif qilish lozim.



Choyva qahva uchun piyola yoki qahva idishdan tashqari tamaddi uchun likopcha sanchqi va pichoqlar zarurat nuqtai nazaridan beriladi.



**Fujer** – sharbat va mineral suv uchun

**Bokal** – shampan vinosi uchun


**Lafit ryumkasi** – qizil vino uchun

**Reeyn vey ryumkasi** – quruq oq vino uchun

**Madern ryumkasi** – o‘tkir vino uchun

**Aroqryumkasi** – aroq uchun

1. Oshxona anjomi – dasturxonga tortiladigan birinchi va ikkinchi ovqatlar uchun mo‘ljallangan.
2. Desert anjomi tort va pirojniy uchun sanchqi, muss va pudinglar uchun qoshiqcha hamda qahva uchun choy qoshiq.
3. Shakar uchun qoshiqcha.
4. Pishloq uchun pichoq-sanchqi – agar pishloq bo‘lakcha tarzida berilsa ishlataladi.
5. Yog‘ uchun pichoq.
6. Baliq anjomi – issiq baliq taomlari uchun foydalilanadi.



1. Go‘sht uchun sanchqi.
2. Salatlar uchun komplekt.
3. Sous uchun qoshiq.
4. Pirojniy va tortlarni olish uchun kurakcha.
5. Cho‘mich.
6. Likopchalarga taomlarni solish uchun anjomlar.

### **Vinolar (sharoблар)ni tortish tartibi**

Faqatgina vinolarni tortish usullarining turli-tumanligini tortiladigan taomlar turi va stolni bezash etiketining naqadar boyligi va nozikligini bilish mumkin.

Vinolar stolga sovutilgan, isitilgan yoki sovuq holda tortiladi. Sovutilgan holda shampansinosi, isitilgan holda burgon yoki lafitlar tortiladi. Qolgan vinolar sovuq holda tortiladi.

Rasmiy qabullarda spirtli ichimliklar klassik sxema bo‘yicha tortiladi. Go‘shtli taomlarga – qizil vino, baliqli taomlarga — oq vino. Barcha qizil vinolar uncha sovuq bo‘lmagan holda tortiladi, shampan vinosi muz to‘ldirilgan metal vazada tortiladi va mehmonlarga quyib berishdan oldingina vazasidan olinadi.

Inglizlar choyni sevishi hammaga ma’lum. Choy sut va shakar bilan birgaliqda tortiladi. Xitoy choyi ham juda sevib ichiladi.

Xitoyliklarning ovqatlanish etiketi ham murakkab hisoblanadi. Tantanali banketlar o‘tkazilgan paytda xitoyliklar maxsus qonun-qoidalarga amal qilgan holda mehmonlarii 10-12 kishidan iborat bir stol atrofiga o‘tkazadilar. Taomlar katta likopchalarda tortiladi. Stolni bezash ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, asosan bir xil ranglar majmuasi tanlanadi (ko‘pincha ko‘k-oq), turli ranglar ishlatilmaydi. Taomlar chiroli kesilgan mahsulotlardan iborat bo‘ladi.

Tushlik oldidan ko‘k choy ichiladi, keyin maxsus idishlarda yaxna taomlar tortiladi.

Ho‘l mevalar stolga ovqatlanishning boshida tortiladi, ularni qaysi taom tortilishidan qat’iy nazar iste’mol qilish mumkin. Baliq butunligicha, boshini eng hurmatli mehmonga qaratgan holda stolga tortiladi. Xitoyliklar ovqatlanish jarayonining o‘zidan lazzatlanadilar. Piyolada tordiladigan guruchning tepe qismi sous bilan aralashtirilib yeyiladi.

Ovqatlanish yakunida sho‘rva va undan so‘ng yana choy tortiladi. Shu tartibdagi ovqatlanish hazm qilish uchun foydali hisoblanadi.

### **Dasturxonatrofida o‘zini tutish**

Stol oldida o‘zini tutishning qoidalar shundayki, unda kichik doirada qat’iy amal qilishi unchalik shart bo‘lmagan, lekin ko‘pchilik oldida bu qoidalarni buzish mumkin emas bo‘lgan talablardan iboratdir. Mehmonga aytilgan vaqtga borish lozim. 5–10 daqiqa vaqtliroq borish esa undan yaxshiroq bo‘lardi. Umuman olganda har qanday joyga kechikib borish odobsizlikdir. Doimiy ravishda hamma joyga kechikib boradigan odam atrofdagilar orasida hurmatini yo‘qotadi.

Mezbonlar odatda kechikkanlarni 15 daqiqadan ortiq kutmaydilar. Mehmon keladigan vaqtda eshik ochiq turishi kerak. Ularni eshik oldida samimiyat va ochiqko‘ngillik bilan kutib olish lozim. Mezbon kelganlarni ust kiyimini echishga yordam bermog‘i, qo‘l yuvganida sochiq tutish kerak. So‘ng ular uyga taklif qilinadilar. Agar siz mehmonga kechikib kelgan bo‘lsangiz va barcha mehmonlar allaqachon stol atrofiga o‘tirgan bo‘lsalar ikkinchi xatoga yo‘l qo‘ymang – ularni aylanib chiqib salomlashib yurmaslik zarur. Faqatgina uy bekasi bilan ko‘rishib, kechikkanlik uchun uzr so‘rash kerak.

Mezbon bunday holatda o‘rnidan turmaydi va kechikish sabablarini surishtirib ketmaydi. Mehmonlarni joylariga o‘tkazar ekanmiz, ularga qulaylik tug‘dirishga

harakat qilishimiz lozim. Stulni ayollar uchun erkaklar surib, o'tkazadilar. (Agar erkak va ayol birga o'tiradigan marosim bo'lsa) stol atrofida mezbon ruxsati bilan hamda ayollar o'tirgandan so'ng o'tiriladi. O'zbek mentalitetida esa kattalar va erkaklar o'tirgandan so'ng o'tiriladi.

Mehmondorchilik ustida biror bir kamchilik sezilib qolsa, "*ishda edim, qo 'lim tegmadi*" degan bahonalar bilan o'zini oqlash to'g'ri emas. Mehmon huzurida bolalar sho'xlik qilsa, ularga tanbeh bermaslik kerak, mehmonning izzat-nafsiga malol kelishi mumkin. Bolalarni mehmon kelishidan oldin yoki boshqa xonaga olib chiqib tartibga chaqirib qo'yish kerak. Bolalar ham yoshligidan shu qoidaga amal qilishga o'rghanadi.

Umuman, bolalarni kelgan mehmon bilan ko'rishgandan so'ng yumshoqlik bilan chetlatilgani ma'qul, chunki yosh bola dasturxon atrofida o'zini tutishni yaxshi bilmaydi, sizni va mehmonni noqulay vaziyatga tushirib qo'yadi. Natijada shirin suhabatga xalal yetadi, gurungning fayzi ketadi.

Mehmonni kuzatayotganda ostonada xayrlashish bilan chegaralanmaslik kerak. Mehmonni yaxshiroq kutib ololmaganligi uchun uzr so'ramaslik joiz. Bu takabburlik alomati sanaladi. Mehmongan minnatdorchilik izhor yetishini kutib turmay uning kelganligi uchun tashakkur bildirish lozim.

Yana shuni esda tutish kerakki, quyuq ovqat mehmonga chap tomondan, suyuq ovqat va ichimliklar esa o'ng tomonidan taklif etiladi. Bo'shagan idish – tovoq mehmonning o'ng tomonidan o'ng qo'l bilan yig'ishtirilib, patnisga ustma-ust taxlanadi, qoshiq, sanchqi va pichoqlar likopchalar yoniga sekingina qo'yiladi. Bu vaqtida mehmonlarning yordami talab qilinmaydi. Mehmonning yordami kerak bo'lib qolganda odob va hurmat doirasidan chetga chiqmaslik talab qilinadi.

Uy bekasi ovqatni avvalo, mehmonlarga tutadi, o'ziga eng oxiri oladi. Mehmonlarni barcha ovqatlardan tanovul qilib o'tirishlari uchun uy bekasi g'amxo'rlik qiladi. Bo'shagan likopchalarni uy bekasi yig'ishtirib oladi, uzoqda o'tirgan mehmonlar bo'sh likopchalarni to uy bekasiga yetib kelguncha qo'lidan-qo'lga uzatishi yoki shu oiladagi qizning qo'liga berishi mumkin. Onasiga qizi va o'g'li yordam berib, bo'sh idishlarni oshxonaga olib chiqib kyetishlari mumkin.

Agar oldingizga olib kelingan ovqatni yyeyishni istamasangiz, uni olmasligingiz mumkin, lekin bunga odob qoidasiga amal qilgan holda javob berish kerak bo'ladi. Ovqatni, taomlarni taklif yetish kerak, ammo majburan egizish yaramaydi.

### **Shu jihatdan ham, mehmon hamda mezbon oldiga etiket quyidagi talablarni qo'yadi:**

- Mehmon uchun joyni to'g'ri tanlash bu – ularni kamroq bezovta qiladigan hamda ular uchun qulay bo'lgan joydir. Ya'na e'tiborli joy uy egasini chap yoki o'ng tomonida ham bo'lishi mumkin.

- Uy bekalari stol chekkasida, ba'zi-ba'zida oshxonadan xabar olib kelish uchun chiqishga qulay bo'ladigan joyda o'tiradi.
- Uchrashuv tashkilotchisi va uy egasining vazifasi mehmonlarda do'stona munosabat hamda yaxshi kayfiyatni vujudga keltirishdir.
- Stolga o'tirgach gavdani to'g'ri tutishga harakat qilmoq lozim. Stulda cho'zilmasdan, bir oz suyangan holda o'tirgan ma'qul.
- Mehmonlarni yashash tarzi, yoshi, faoliyatiga qarab dasturxon uchun mebel jihozini tanlagan ma'qul: agar xontaxta o'tirishga o'rgangan mehmonlar ko'pchilikni tashkil qilsa, ko'p hollarda qarindoshlarni kutganda, xontaxtadan foydalangan yaxshi. Ishxonadan, yoshlar, umuman xontaxta atrofida o'tirishga o'rganmagan mehmonlar uchun stol yaxshi. Albatta bunda moddiy imkoniyatlar ham nazarda tutiladi. Agar sharoitingiz bo'lmasa, qariyalarga yumshoq kursi taklif qilgan ma'qul.
- Tirsak stolga qo'yilsa, yonveridagilarga xalaqit beradi.
- Likopchaga haddan tashqari egilib ovqatlanilmaydi.
- Sochiqni tizzaga yoyib olgan ma'qul. Qo'l va lablarni qog'oz salfetkalar bilan artgan yaxshi.
- Ovqatlanib bo'lgandan so'ng sochiq stolga qo'yiladi.
- Ovqatni uy bekasining o'ng tarafida o'tirgan ayoldan boshlab uzatiladi.
- Ovqatni sizga yoqmagani yoki to'g'ri kelmasligini bahona qilib taomdan voz kechilmaydi. Raddiya zarur bo'lsa, uzoq tushuntirishlarsiz, odob bilan buni bajarish lozim. O'zbeklarda nomiga qoshiqni og'izga olib, tashakkur bildirib qo'yiladi.
- Agar qoshiq yoki sanchqini tushirib yuborsangiz, uni olishga harakat qilmaslik kerak. Boshqa tozasini so'rash joiz. Ovqatlanayotgan paytda sanchqini chap, pichoqni o'ng qo'lda ushlaydilar.
- Kichik barmoqni yuqoriga ko'tarib, qolgan barmoqlar bilan qoshiq yoki Shunga o'xshash narsalarni ushslash yaxshi emas. Qoshiqni birovga uzatayotganda o'rtasidan ushlagan holda berish lozim. Qo'ldan olganda esa qoshiqni ushlaydigan joyidan oladi.
- Issiq ovqatni yo ichimlik puflab ichilmaydi. Chapillatib eyilmaydi. Xo'rrialish ham adabsizlik sanaladi. Yaxshi tarbiya ko'rgan kishi ovoz chiqarmasdan, tinchgina, bamaylaxotir, shoshilmay va shalpaymay ovqatlanadi.
- Umumiyligi ovqatdan eng katta bo'laklarni olib yyeyish yaxshi emas. Faqat oldidan olib yegan ma'qul.
- Og'izni to'ldirib yyeyish yoki katta tishlamagan yaxshi. Ovoz chiqarib yemaslikka harakat qilish, og'izni yumib chaynash lozim.

- Dasturxonda siz uchun kerak bo‘lgan narsaga cho‘zilib intilmay, uzatib yuborishni iltimos qilish lozim.
- Og‘zingizni kuydirib olsangiz, ketidan sovuq suv ichib yuborish joiz. Bundan boshqacha harakatlar noo‘rin.
- Og‘zingizga tushgan nobop taom, qanchalik ko‘ngilni buzmasin, uni chaynab yutish shart. Imkon bo‘lmasa bildirmasdan, undan «qutulish» kerak. Og‘izdan faqat baliq qiltanoqlari yoki mevani danaklarigina chiqishi mumkin.
- Agar tuzdonda qoshiq topilmasa, tuzni pichoqni uchida olib ishlatish mumkin. Bunda pichoq albatta, quruq va toza bo‘lmog‘i darkor.
- Ovqatlanish vaqtinchalik to‘xtatilganida, qoshiq va sanchqilar asbobi kosani ustiga qanday ushlangan bo‘lsa Shunday qo‘yiladi. Kosaning ustiga ushlagichi bilan bir-biriga parallel qo‘yilgan anjomlar kosani almashtirish yoki yig‘ishtirib olish mumkin ekanligini bildiradi.
- Uy egasi hammadan oldin boshlab, hammadan keyin ovqatlanishni to‘xtatadi. Ayniqla, agar u oxirgi taom bo‘lsa, boshqalar tugatishini kutib turish lozim.
- Dasturxon ustida chekilmaydi. Agar erkak kishi dasturxonдан turishni istasa, ruxsat so‘raladi.
- Bayram oldi dasturxon atrofiga faqat yoshi kattaroq bo‘lgan bolalarni o‘tqizgan ma’qul. Bunda ular barchadan oldin dasturxonga qo‘l uzatishlari joiz emas, hamda kattalar boshlab bergandan keyin boshqalarni taklif qilgandan so‘ng taomni boshlagan ma’qul.
- Bundan tashqari, kattalar bilan dasturxon atrofida o‘tirgan bolalar madaniyatli bo‘lgan kattalar kabi umumiyl qoidalarga bo‘ysungan holda o‘zlarini tutishlari lozim.
- Mehmonlar kelgandan so‘ng mezbon televizorni o‘chirib qo‘ygan ma’qul. Faqat ba’zi holatlardagina mehmonlarga barcha yig‘ilgunga qadar qiziqarli ko‘rsatuvni ko‘rishni tavsiya yetish mumkin. Mehmonlar bu taklifingizga nisbatan e’tiborsizlik bildirsalar, bu fikrdan qaytgan ma’qul.
- Uy bekasi kunini oshxonada o‘tkazmasligi kerak. Oldindan mehmondorchilikka tayyorlanib qo‘yish lozim. Mehmonlar bilan bir oz o‘tirish darkor.
- Idish yuvishni keyinga qo‘yish kerak. Bunday paytlarda unga dugonasi, yoqin qarindoshi yoki turmush o‘rtog‘i yordam berishi mumkin.
- Uyga mehmonlar tashrif buyurganlarida uzundan-uzun telefon suhbatlarini qurish. Uy egalari dasturxon atrofida nafaqat tashkiliy jihatdan, balki munosabat olib borish jihatdan ham ustamon bo‘lishlari lozim.
- Ular biror bir o‘tirganlarning befarosatligi tufayli vujudga kelgan noqulay holatlarga barham bergen holda, hajviyalarni haddan tashqari chegaradan chiqmasligini ham kuzatib turishlari kerak.

- Ular mehmonlarning har biriga alohida e’tibor bilan qarashlari lozim.
- Uy bekasi tomondan tayyorlangan taomni tanqid qilish mumkin emas. Biroq maqtash – shart.
- Dasturxon atrofida kasalliklar va ko‘ngilsiz narsalar haqida gapirilmaydi.
- Sizdan uzoqroq joylashib olgan odam bilan, suhbat olib bormang, unga yaqinroq o‘tirib olish imkoniyatini kutish mumkin.
- Qiziqarsiz va boshqalarga tushunarsiz bo‘lgan mavzularni chetlab o‘tgan ma’qul.
- Kyetishdan avval yaxshi mehmondorchilik va qiziqarli o‘tkazilgan vaqt uchun uy egalariga minnatdorchilik bildirib qo‘yishni kanda qilmaslik lozim.
- Boshqalardan avvalroq turib ketmoqchi bo‘lsangiz, bildirmasdan chiqib kyetishga harakat qiling. Uy egalaridan uzr so‘rab xayrlashiladi.
- Mehmondorchilikda yarim tungacha qolib, o‘tirib qolmang. Ayniqsa agar mezbonlarning farzandlari bo‘lsa.
- Mehmonlar ketgandan so‘ng xonani kuzatib chiqib, imkon qadar tartib bilan yig‘ib qo‘yish lozim.

### **Qanday va nima yekish lozim?**

Etiket qoidalariga binoan stol atrofida o‘tirgan odam bilagi bilangina stolga tayanishi mumkin. Ayol kishi esa bir oz vaqtgagina tirsagini qo‘yishi mumkin. Non ushoqlarini dumaloq qilib olib o‘ynash, yemak jihozlarini o‘ynash, dasturxon uchini o‘rab o‘ynash, oyog‘ini uzatib o‘tirib olish mumkin emas.

Lablarini bo‘yaydigan ayollar og‘izlarini sochiqqa emas, qog‘oz salfetkaga artishlari zarur. Tanovvul paytida tirsakni dasturxonga qo‘yib olish yoki boshni kosaga egish yaxshi emas. Boshni sal egib, shu masofada qoshiq yoki sanchqini og‘izga olib kelinadi. Ovqatlanib bo‘lgandan so‘ng pichoq va sanchqini parallel ravishda, ushlagichlarni o‘ngga qaratib kosaga qo‘yiladi. Agar bu jihozlarni keyingi taom uchun ishlatish niyattingiz bo‘lsa, ularni stol ustiga qo‘ygan ma’qul. Agar siz pichoq va sanchqidan foydalanayotgan bo‘lsangiz, unda ularni u quldan bu qo‘lga olavermasdan, sanchqini chap qo‘lda, pichoqni o‘ng qo‘lda tutish lozim. Qandaydir ichimlik taklif qilingan vaqtida og‘zingizdagini yutib yuborib, so‘nggina uni ichish lozim. Bundan oldin stakanda yog‘li izlar qoldirmaslik uchun avval sochiq bilan og‘zingizni artib olsangiz yaxshiroq bo‘ladi. Shishadan faqat o‘ziga quyib olish xunuk ko‘rinadi. Shisha yoki grafinni olganda, avval yon tarafda o‘tirganga taklif qilinadi.

Laganda turgan taomning eng yaxshi bo‘laklarini olib yeish nojoizdir. Hadisi sharifda ham: “*Baraka taomning o‘rtasidadir. Bas, taomning o‘rtasidan emas, bir chetidan englar*”<sup>42</sup>, - deb keltirilgan.

Mehmonda suvli ovqatga non botirib yeishdan qaytaramiz. Etiket bo‘yicha hech qachon idishni «yaltillatib» non bilan tozalab qo‘yish to‘g‘ri kelmaydi. Lekin o‘zbek odati bo‘yicha idishni tozalab qo‘yish savob sanaladi.(Ba’zi viloyatlarda idishni ichiga ozgina choy quyib, aylantirib ichib yuborishadi savob uchun). Ammo buni dabdabali tarzda amalga oshirish o‘ta ketgan madaniyatsizlikdir.

Dasturxonga sigaret bilan o‘tirib bo‘lmaydi, uy sharoitidagi qabullarda esa taomlar tortishning o‘rtasida chekib bo‘lmaydi. Chekishni faqat taomdan so‘ng, paytda o‘ziga ravo ko‘rishingiz mumkin. Hech bo‘lmagan taqdirda, oxirgi taom va desert o‘rtasida – bunday paytda odatda, idishlarni yangilab olish uchun qisqacha tanaffus bo‘ladi. Ammo baribir to mezbonlar taklif qilmagunlariga qadar o‘zni tiygan ma’qul. Stol atrofida to‘g‘ri o‘tirgan yaxshi, ammo oshirib yubormang, «*xodaga o‘xshab*» o‘tirish xunuk ko‘rinish kasb etadi.

Tirsakni, ayniqsa, agar qo‘lda yemak jihozlari bo‘lsa stolga qo‘ymagan ma’qul. Tanovul qilayotganda bir oz egilib yeyiladi, biron narsa ichilayotganda ham xuddi shu alfozda qaddini tutish lozim. Sho‘rva ichilayotgan qoshiqni o‘ng qo‘lda ushlanadi va bir oz qiyshaytirilib ichiladi. Ba’zi kosalarda tarqatilgan sho‘rvalar disert qoshiqda tanovul qilinadi. Ikkinci taomlar pichoq va sanchqi yordamida yeyiladi. Yemak jihozlari ushlagichni o‘rtasidan emas, uchidan ushlagan ma’qul. Pichoqni faqat taomni kesish uchun ishlatish lozim, ammo zinhor uni og‘izga olib borishni maslahat bermaymiz. Ba’zi kesish shart bo‘lmagan taomlar, masalan, omlet, qovurilgan tuxum, faqat sanchqida yeyiladi. Uni o‘ng qo‘lda ushlab, tanovvul qilish vaqtida chap qo‘ldagi non bo‘lagi yordamchi tarzda qo‘llanadi.

Ovqatlanib bo‘lgandan so‘ng boshqa yemasligingizni bildirish maqsadida sanchqi hamda pichoqni kosaga bir–biriga parallel ravishda qo‘yiladi. Agar siz hali tanovul tugallamagan bo‘lsangiz, unda sanchqi va pichoqni chalishtirgan holda, pichoqni o‘ngga, sanchqini chapga qarab yo‘naltirgan holda qo‘ysangiz bo‘ladi. Dasturxon atrofida o‘tirganda non idishidan olingan nonni kesmaymiz, balki bo‘lakka bo‘lib yeymiz. Yog‘ni pichoq bilan sanchqi yordamida bo‘lib, bir oz yog‘ga surtilgan non bilan yeyiladi. Yog‘ni ozginagina yog‘ idishdan kosamizni chekkasiga olamiz.

Non bilan nonushtada nisbatan erkinroq bo‘lamiz. Non bo‘lagiga sariyog‘ surtib, tishlab yeish mumkin. Yog‘surtilgan nonni pichoq bilan kesib eyilmaydi. Nonushta paytida bunda non bo‘lagiga kolbasa yoki pishloq qo‘yib ikkiga bo‘lib yeish uchun qulay qilish mumkin. Bunday buterbrodni likopchada sanchqi va pichoqni qo‘llagan holda tanovul qilish mumkin. Oilada buterbrodlarini emak jihozlarini qo‘llamasdan

<sup>42</sup>Hoji Muhammad SHoxmurodzoda. “Taomlanish odobi”. - T., “Movorounnaxr”, 2005. B.12.

yeyiladi. Albatta u agar, kichik bo‘lsa. Ba’zida buterbrodning kattaligidan yeyish ko‘p noqulaylik tug‘diradi. Uni kosaga qo‘yib pichoq va sanchqini qo‘llashdan boshqa iloj yo‘q. Jihozlar bo‘lmagan taqdirda, salfetkalardan foydalanish mumkin.

Quritilgan yoki qotgan nonlarni choyga botirib faqat oila davrasida yeyish mumkin. Tortilgan kolbasa agar tozalanmagan bo‘lsa, kosada, sanchqi hamda pichoq bilan tozalanadi. Quruq kolbasani shundoq yeyilaveradi. Yupqa to‘nli sosiskani artmasdan yeyish mumkin, ammo qalin bo‘lsa, albatta tozalagan ma’qul. Qovurilgan tuxumni nima bilan berilganiga qarab sanchqi yoki qoshiqcha bilan yeyish mumkin. Sho‘rvalar bir oz bizni qiy Naydi: kosani o‘zi tomonga og‘dirish lozimmi, yoki o‘zimiz kosaga engashishimiz kerakmi...

Kosani hech ham o‘zimizga og‘dirmaymiz, kosada bir sho‘rvanining qoldig‘i shunday qolaveradi. Oilaviy sharoitda kosani sal o‘zimizdan og‘dirib qolgan sho‘rvani ichib qo‘ysak bo‘ladi. Na tanovul mobaynida, na undan keyin sho‘rvanining qoshig‘ini stolga qo‘yilmaydi, kosada qoladi. Sho‘rvadagi go‘sht – bir vaqtning o‘zida ham birinchi, ham ikkinchi taomdir. Shu bois, avval sho‘rvani qoshiqda tanovul qilib, keyin uning go‘shtini yeyishda sanchqi hamda pichoqdan foydalanmiz. Sovuq taom sifatidami, yoki issiqmi – berilgan baliq go‘shtiga pichoqni yo‘latmaymiz. Uni faqat dudlangan seledka uchun ishlatalamiz. Agar baliqdan tayyorlangan taomga qo‘shib maxsus yemak jihozlari – kurakcha va sanchqi berilsa, unda kurakchani o‘ng qo‘lga, sanchqini chap qo‘lga olamiz. Sanchqi yordamida go‘shtni ushlab tursak, kurakcha yordamida qiltanoqlarni tozalab olamiz. Agar sanchqi ikkita bo‘lsa, unda o‘ng qo‘ldagisi qiltanoqni ajratish uchun, chapdagisi go‘shtni yeyish uchun foydalaniladi.

Bittagina sanchqi bo‘lgan taqdirda, uni o‘ng qo‘lga olib, chapga burda non olib, uning yordamida baliq go‘shtini ushlab turib, sanchqi yordamida qiltanoqni ajratiladi va yeyiladi. Agar bizning likopga butun baliq tortilgan bo‘lsa, avvalida ustixondan filening yuqori qismini ajratib olamiz, so‘ng umurtqadan qiltanoqni ajratib, chekkaga olib qo‘yamiz, keyin esa ikkinchi qismini tanovul qilishga o‘tamiz. Og‘zimizga tushib qolgan qiltanoqni bildirmasdan til uchida sanchqiqa qo‘yamiz. Parrandani sanchqi hamda pichoq yordamida yeyiladi. Bunda suyakni tozalab yeyishni ko‘rsatish uchun, sanchqi bilan pichoqni o‘ynataverish shart emas. Suyakda bir oz go‘sht qolishidan siqilmaslikka harakat qilish lozim. Uy sharoitida esa go‘shtni qo‘lga olish mumkin.

Sabzavotlar aralash go‘sht – muammoli taom. Hozirgi kunda jahonda bu taomni tanovul qilishda bir-birini rad qiluvchi ikki tavsiyalar mavjud. *Birinchisiga* binoan go‘shtni bo‘laklarga bo‘lib chiqqach, pichoqni chetlatish. *Ikkinchisiga* binoan esa bir daqqa ham pichoq o‘ng qo‘ldan, sanchqini chap qo‘ldan bo‘shatmaslik lozim. Birinchi qoidaga amerikaliklar amal qiladilar. Ovrupo tushunchasida bunday uslub bashanglikdan yiroqdir. Ikkinchisini tasdiqlagan holda, go‘shtni sanchqini go‘shtga

qadagan holda pichoq bilan kesib, ushslash to‘g‘ridir. Kesilgan va sanchqiqa qadalgan bo‘lak go‘sht ustiga kartoshka pyuresini qo‘shib, tayyor garnirni og‘zimizga olamiz. Agar kartoshkadan tashqari yana no‘xat, yoki shunga o‘xshash boshqa «bezovtalovchi» narsalar bo‘lsa-chi? No‘xat go‘shtga sanchilgan sanchqida turmaydi, shuning uchun, pichoqni chetga olib, avval sanchqini o‘ng qo‘lga olgan holda no‘xatdan ozgina totib ko‘rib, so‘ng, yana sanchqini chap qo‘lga olish istagi paydo bo‘ladi. Nima qilish kerak?

**Birinchi yo‘li:**sanchqi bilan go‘shtni ushlab turib uni bo‘lagini kesib olamiz, keyin sanchqini go‘shtga qadalgan tarafini o‘girib, no‘xatni ilintirishga harakat qilamiz va bu vaqt davomida sanchqini chap qo‘lda tutgan holda og‘izga yo‘naltiramiz.

**Ikkinci usul:**sanchqini uchlarni yuqoriga qaratgan holda kesilgan go‘shtga no‘xatlarni joylaymiz. Go‘shtni hammasini yeb bo‘lgach, sanchqini o‘ng qo‘lga olib no‘xatlarni tugallashga harakat qilamiz (e’tibor qiling: no‘xatlarni sanchib emas, balki qoshiqqa o‘xhab olinadi). Agar kartoshka butunligicha tortilgan bo‘lsa uni ezib o‘tirish nojoiz. Go‘shtga qo‘srimcha tarzda alohida idishda tortilgan salat, o‘z idishidan galma-gal asosiy likopchadan olingan taom bilan birga yeyiladi. Yashil salat, imkon qadar kesilmaydi. Agar barglari haddan tashqari katta bo‘lsa, sanchqi bilan kesib, unga o‘rab yeyiladi.

Spaghetti, yoki uzun makaronlar, qovurma lag‘monni chiroyli tarzda yeyish qiyin. Bu italyan taomi bilan «chiqishish» ning uch yo‘li bor.

**Birinchisanchqi** bilan pichoqni qo‘llashdan tarkib topgan. Qoshiqni chap qo‘lda ushlaymiz. Qoshiqning uchini kosaga tushiramiz, so‘ng qoshiqni tubiga qarab sanchqini makaronga o‘raymiz, qoshiq bilan makaronni qolgan ulushini kesib olamiz.

**Ikkinci usul:** kesish uchun mo‘ljallangan sanchqini pichoqqa o‘xhab ushlanadi. Sanchqini makaronlar girdobiga olib, undan katta bo‘lмаган miqdorda makaronni olib ko‘taramiz. Keyin yana sanchqini pastga tushirib o‘sha makaronlarni aylantirib sanchqiqa o‘rab tezda og‘zimizga olamiz.

**Uchinchi usulni** qo‘llar ekanmiz, vertikal tarzda ushlab turilgan sanchqini makaronga qadab, shu vaziyatda kerakli darajadagi ulushni o‘rab olamiz. **Asosiy qoida:**sanchqiqa ikki-uchtadan ortiq makaron olinmasligi darkor.

Shirin nonni aynan shu uchun mo‘ljallangan sanchqilar bilan yeyish yaxshi. Aks holda, qoshiqchadan foydalangan ma’qul. Quruq shirin pishiriqlarni qo‘lda ham yesa bo‘ladi.

### Tilak bildirish

**Mehmon sog‘lig‘i uchun aytilgan tilaklar.** Agar mezbon biror-bir mehmon uchun tilaklar izxor qilsa, unda to mehmondorchilik tugagunga qadar u qolgan mehmonlarni nazardan qoldirmasligi lozim .

Mehmonlar bo‘lsa, faqat kechaning sababchisi uchungina tilak bildiradilar. Agar tilak uy egasiga aytilgan bo‘lsa, uy bekasi ham chiroyli izhorlardan qolib ketmasligi lozim. Tilak aytilgan vaqtida dasturxon atrofidagilar uni izhor qilayotgan kishiga nisbatan hurmatni ko‘rsatish uchun yemak jihozlarini likop chetiga qo‘yib, o‘zaro suhabatlar va tanovulni to‘xtatib diqqat bilan tinglaydilar. Tilak uchun eng qulay vaqt ovqatlar orasidagi tanaffusdir, chunki bu vaqtida odamlar ovqat yeishdan to‘xtagan bo‘ladi, ovqat sovumaydi va hammaning diqqati notiqda bo‘ladi.

Dasturxonga ovqat tortilayotgan va odamlar ishtaha bilan yeb turgan vaqtida so‘z boshlamaslik kerak. Yaxshilab gapirilgan, jonli va qisqa tilak ziyofatni qizitib, jonlantirib yuboradi. Nutqning qisqa va tushunarli bo‘lishi – asosiy shartdir. Tantanali qabullarda odatda, erkaklar tilakni o‘rinlaridan turgan holda tinglaydilar, ayollarni turishlari shart emas. Agar izhor qiluvchi tilakdan oldin bokal to‘ldirilgan vinoni ko‘krakka qadar ko‘tarib olgan bo‘lsa, unda boshqa erkaklar ham xuddi shu vaziyatda turadilar. Agar izhor qiluvchi tilakdan avval bokalni qo‘lga olmasa, unda boshqa erkaklar ham tinglayotganlarida xuddi shu vaziyatni saqlaydilar, faqatgina tilak nihoyasiga yetgandan so‘nggina, odatda tilak aytuvchi so‘zini tugatgach, bokalni qo‘liga olganda, ular bokallarni qo‘llariga oladilar. O‘z nomiga aytilgan tilakning egasi tilak bilan javob bermog‘i darkor.

Tilakda aytilgan maqtovlarni ayol kishi tabassum bilan qabul qilib, boshqalar turgan bo‘lsalar ham o‘z joyida o‘tiraveradi. Bu paytda u qo‘lida vino to‘ldirilgan bokalni, to izhor tugagunga qadar ushlab turadi. Aslida olganda, tilak aytilgan izhor «egasi» hech qachon to boshqalar ichmagunlariga qadar ichimlikdan ichmaydi, aks holda esa u o‘zi uchun o‘zi qadah ko‘tarib, nokamtarinlik qilgan bo‘ladi. Stol qarshisida o‘tirgan ayol bilan tilak bildirgan kishi uning nigohini «*tutib olib*» qadahni nomiga ko‘tarib bajaradi. U agar boshqalar turmasalar yoki bunga bir asos bo‘lmasa, o‘rnidan turmaydi. Agar juftlik xoli o‘tirishgan bo‘lsalar, tilak sifatida erkak bir-ikki og‘iz yarim hazil so‘zlar bilan, masalan, «*chiroyli ko‘zlaringiz uchun*», «*baxtli daqiqalar uchun*» ichishga taklif qilish bilan kifoyalanadi. Evrupo davlatlarida ba‘zida tantanali tilaklardan keyin ichib bo‘lgan qadahni yerga urib sindiradilar. Bizda esa biror narsani sinishi yaxshilik alomati deb hisoblanmaydi. Rasmiy tushliklarda tanovul tugagunga qadar tilaklar aytilmaydi va ular tantanali nutqlar oldidan aytildi. Ilk tilakni soqiy aytadi, qolganlarini esa – uning ruxsati bilan izhor qilishadi.

### Hadyalar va ularni taqdim yetish etiketi

Biz o‘z xursandchiligidan boshqalar bilan baham ko‘rishga o‘rganib qolganmiz va go‘zal urf odatlarga ergashgan holda bir-birimizga sovg‘alar hadya etamiz. Ularning sababi hayit bayramlari, tug‘ilgan kunlar, 8 Mart, Yangi yil, hovli to‘yi, to‘y (nafaqat yaqin qarindoshlaringiz, balki tanishlaringizni ham bo‘lishi

mumkin) munosabati bilan hadyalar orqali bizga aziz odamlarga nisbatan bo‘lgan muhabbatimizni va e’tiborimizni ta’kidlaymiz. Gul, manzur shirinlik kabi arzimagan narsalar bilan ham insonni xursand qilish mumkin. Hadya qilish istagini yoshlikdan tug‘dirish, sovg‘a bera bilishga va ziyofat qilishga bolalikdan o‘rgatish lozim. Sovg‘alarni tanlashda e’tiborli bo‘lishimiz lozim. Bu yerda sizga kashf qilish qobiliyati va xayolot, izlanuvchanlik hamda zehni o‘tkirlik kerak bo‘ladi – bir so‘z bilan aytganda nimaga qodir ekanligingizni ko‘rsatish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu yerda did, farosat, ijodkorlik va odoblilik talab qilinadi. Sovg‘a izlashni oxirgi daqiqalarga tashlab qo‘yishni maslahat bermaymiz. Shoshilinchda sifatsiz yoki keraksiz narsani olib qo‘yish mumkin.

Sovg‘ani arzon-qimmatini olish har kimning imkoniyatiga bog‘liq. Haddan tashqari saxiylik qilishga hammaning ham qurbi yetavermaganidek, imkoniyat bo‘lgan hollarda xasislik qilish ham bema’ninik hisoblanadi. Bu erda ham kishiga bo‘lgan himmat rol o‘ynaydi.

Bayram kunlari uchun oldindan tayyorgarlik ko‘rilishi lozim: sovg‘a beriladigan odamning didi, qiziqishlarini o‘rgangan ma’qul. Maxsus holatlar uchun: gullar (savatchada yoki qirqilgan), sovg‘aga monand maxsus nashrli kitoblar, billur idish, osma soat, radiopriemnik, qimmati baland konfetlar sovg‘a qilinadi. Gastronomik turdag'i (oziq-ovqat bilan bog‘liq) sovg‘alar: tort, oliv navli choy, kofe, shokolad, uy murabbolari. Pardoz anjomlari: yaxshiodekolon, loson, atir, pudra, pardo idish, ko‘z tepasiga surtiladigan bo‘yoqlar to‘plami, nodir shampun.

Yoshi katta yaqinlarga kiyim-kechak sovg‘a qilsa ham juda o‘rinli bo‘ladi. Masalan, otangizga do‘ppi, onangizga ro‘mol yoki chiroqli kiyimlik v.b. Bu sovg‘alarda nihoyat darajada ehtiyyot bo‘lmoq kerak. Bunda agar siz bunday narsalarni sovg‘a qilmoqchi bo‘lsangiz, avvalo, uning pardoz anjomlariga allergiyasi bor-yo‘qligi hamda qay darajada uning bu sovg‘alardan foydalana olish-olmasligini bilish lozim. Kiyimlar va aksessuarlar: sharf, qo‘lqoplar, erkaklar ko‘ylagi, sumka, shippaklar, paypoqlar, ro‘mol, yengga taqiladigan bezakli tugmachalar, bijuteriya, manikyur to‘plami, kichik hamyon. Jonli sovg‘alar: mushuk bolasi, kuchuk bolasi, qushlar, baliqlar bo‘lajak egalarning roziligi bilan!

Ro‘zg‘orbop sovg‘alar: dazmol, termos, choynak, serviz, sochiqlar to‘plamiga ega dasturxon. Komandirovka yoki sayohatdan qaytishda qarindoshlar va yaqin do‘srlarga suvenir yoki tabriknomalar sovg‘a qilinadi. Sovg‘ani siz tashakkur bildirmoqchi yoki unga bo‘lgan e’tiboringizni ko‘rsatish niyatida qarindosh yoki tanishmi, do‘s st yo begonagami – kim uchun mo‘ljallanganligiga qarab tanlaysiz. Sovg‘ani g‘arazli maqsaddi qilishdan tiyilish darkor. Hadya qilishda o‘zingizni sir saqlamang – ular sovg‘a oluvchilarni uzoq gumonlarda qolib kyetishiga sabab bo‘ladi.

Sovg‘aning qiymati, qoida bo‘yicha ahamiyat kasb etmaydi va u faqat sizning imkoniyatlaringiz bilan bog‘liq. Bunda faqat qimmatbaho sovg‘alarga tegishli bo‘lgandagi imkoniyatlar cheklanishi mumkin: ularni sizga shu qiymat darajasida qaytara olishga qurbi yetmaydiganlarga va bundan o‘zini noqulay his qiladigan odamlarga bilib turib sovg‘a qilmaslik lozim. Boshqa tomondan esa o‘ta arzimas sovg‘a orqali siz o‘zini haddan tashqari tejamkor qilib ko‘rsatib qo‘yish ham mumkin. Yubiley, hovli to‘yi va to‘y tan’tanalarida jamoaviy tarzda qimmatbaho sovg‘alar qilish an’anaviy tusga kirgan. Bolalarni xursand qilish oson – ular har qanday kitob, konfet va o‘yinchoqlarga rozi bo‘laveradilar.

O‘z hadyangiz orqali siz bolaning qiziqishlarini rivojlanishiga yordam berishingiz mumkin: tennis raketkasi yoki rolik bolani sportga nisbatan bo‘lgan qiziqishini paydo qiladi. Qanday hajmdagi sovg‘a bo‘lsa ham uni qog‘oz qutiga gulli sovg‘a o‘ramiga o‘rab berish bolalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday shakldagi sovg‘anigina bolalar sovg‘a deb tan oladilar. Bolalarga pul berishni tavsiya etmaymiz. Agar bu pullar kerakli narsa uchun sarf qilinsa, unda istisno bo‘lishi mumkin.

Yor-do‘stlarga sovg‘a tanlash qiyin emas, chunki ularning didi va istagi oldindan ma’lum. Ularga har xil narsalar – ro‘zg‘or anjomlaridan tortib, pardoz-andoz buyumlarigacha taqdim yetish mumkin.

Uylanishdan oldin hadya qilinadigan sovg‘alar oddiy iltifotlilik belgisinigina bildiradigan bo‘lishi lozim.

Er-xotinlar turli xil sabablar bilan bir-biriga tez-tez sovg‘alar qilishni yoddan chiqarmaliklari lozim. Asosan ular bir-biri bilan foydali sovg‘alar almashadilar, ayniqsa, ularga sovg‘a tanlash oson, chunki bir-birlariga nima zarur ekanini hamda nimadan mamnun bo‘lishlarini yaxshi biladilar Va albatta guldasasiz buni tasavvur qilish qiyin. Universal sovg‘alardan biri – kitob. Uni istagan odamga va har qanday xursandchiliklarda hadya qilish mumkin. Imkoni boricha sovg‘abop, chiroyli bezatilgan, har qanday yangi, yaqin orada nashrdan chiqqan kitoblarni sovg‘a qilish mumkin. Ayol kishini erkak kishiga bo‘yinbog‘ sovg‘a qilishiga maslahat bermaymiz. (Bunday sovg‘a yaqin munosabatdagi kishiga beriladi turmush o‘rtoq, aka–uka, o‘g‘il).

Pardoz ashyolarini sovg‘a qilish niyattingiz bo‘lsa ayol kishi bilan maslahatlashish lozim. Erkaklarga shirinliklar – konfet, tort va b. narsalarni kamdan-kam sovg‘a qilinadi. Bu odat shirinlikka nisbatan garchi, hamma erkaklar ham be’etibor bo‘lmasalar-da, erkak borasidagi tasavvurlar bilan uyg‘un bo‘limgani uchun bo‘lishi mumkin. Siz izlayotgan sovg‘ani tanlashda egasining yoshiga ham e’tibor berish lozim. Bu degani yoshlar va yoshi o‘tganlar uchun maxsus narsalar bor degani emas, ammo yoshi katta odamga yorqin rangdagi bo‘yinbog‘ni sovg‘a qilish bilan uni noqulay ahvolga solib qo‘ymaydigan va ayol kishiga qariyalar kiyadigan

matodan hadya qilib uni xafa qilib qo‘ymaslik uchun o‘zini madaniyatini ko‘rsata bilishi kerak.

Pul berishingiz bu sizni ochiqchasiga ishbilarmonligizdan dalolat beradi. Albatta, bunda sovg‘a foydali bo‘lgani bilan, u qiziqarlilik xususiyatini yo‘qotadi. Bunday usullarni kamdan-kam va faqat yoshlarga nisbatan qo‘llagan ma’qul (masalan, yosh oilalarga to‘yana sifatida). O‘rin-joy (ko‘rpa yostiq uchun) mo‘ljallangan ashylarni (choyshab va b.) faqatgina eng yaqin oila a’zolariga yoki to‘yda sovg‘a qilish mumkin. Yymoristik tabiatdagi sovg‘alarga kelganda ehtiyyotkor va farosatli bo‘lish muhim. Sovg‘alarning ba’zi turlari milliy belgilarga egaligini yoddan chiqarmaslik joiz: Evropoda dastro‘mollar janjal va ko‘z yosh timsoli, o‘zbeklarda yangi kelin sovg‘a qilgan dastro‘mollar tabarruklik kasb etadi, to‘ylarda g‘arbda o‘tkir tig‘li va kesuvchi narsalar sovg‘a qilinmaydi, bizda bu boylik ramzi hisoblanadi. Sovg‘ani berishda ham go‘zallik qoidalariga e’tibor bilan qarab, uni yaltiroq qog‘ozga chiroyli gulli tasmalar bilan o‘rab hadya qilgan ma’qul. Sovg‘adagi chek yoki qiymat narxini olib tashlashni unutmaslik muhim. Chek faqatgina kafolatlangan muddat bilan o‘tkazilgan narsani sovg‘a sifatida hadya qilganida saqlanishi mumkin.

Sovg‘ani qanday tarzda berish ham oson masalalardan emas. Sovg‘ani qay tarzda taqdim yetishingiz uni qabul qilish doirasiga ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsan o‘zingiz yoki boshqalar tomonidanmi taqdim etilishi – uni qanday yetkazishingiz ham ahamiyatga molik. Sovg‘ani o‘z vaqtida yetikazilishini ta’minalashga harakat qilish muhim. Sovg‘ani biron bir joyga olib qo‘ymasdan, kiyimingizni yechgan zahoti egasiga topshirish kerak. Bir og‘iz iliq so‘z bunda katta ahamiyat kasb etadi.

Nafaqat sovg‘a qilishni, balki uni olishni ham bilish kerak. Odobli inson sovg‘aga darhol tashakkur bildirib, uni hadya qiluvchini oldida ochib, minnatdorchilik bildiradi. Olingan sovg‘ani e’tiborsizlik bilan olib qo‘yish o‘ta madaniyatsizlikdir. Sovg‘a sizga yoqmagan taqdirda uning aybini hatto ishora yoki kinoya bilan ham bildirmaslik shartdir. Har qanday sovg‘ani jilmayib olish lozim. Agar ayol kishiga gul sovg‘a qilinsa, uni darhol guldonga qo‘ygani ma’qul, gulni olib shunchaki qo‘yib qo‘yish e’tiborsizlikni bildiradi.

Minnatdorchilikni shunday tarzda ifodalash kerakki, siz xursand bo‘lgan sovg‘adan, unchalik qiymatga ega bo‘limgan sovg‘alarni hadya qilganlar yoki umuman taqdim qilmaganlar o‘zlarini noqulay his qilmasinlar. Agar tort yoki konfet olib kelishsa, o‘tirganlarni mehmon qilish yoddan chiqmasin. Agar ma’lum bir sabab bilan sovg‘ani olishni nomaqbul ish deb bilsangiz, undan ishonchli tarzda voz keching, lekin buni odob doirasida bajarish kerak. Ikkilanib turib, so‘ng sovg‘ani olish noto‘g‘ri bo‘lar edi. Agar kimdandir qarz bo‘lib qolishni istamaganingiz uchun hadyalar olishni qat’iyan rad qilsangiz, uni asosli tarzda sertakalluqlik va odoblilik

bilan bildiring. Ammo bunda sovg‘ani qo‘ldan qaytarish baribir noo‘rinligini nazarda tutish joiz. (Agar bu kasbiy odob bilan bog‘liq bo‘lmasa).

### **Tayanch tushunchalar:**

Uy, uydagi iqlim, uy jihozlari, oilaviy bayram, chaqirilgan mehmon, chaqirilmagan mehmon, mezbon va mehmon etiketi, dasturxon, salfetka-sochiq, oshxona anjomlari, o‘zini tutish, uydagi erkak, uydagi ayol, sovg‘a berish, sovg‘a olish, tasodifiy tashrif, tilak bildirish.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Mehmon kutish paytida qanday etiket qoidalariiga amal qilish zarur?
2. Uydagi iqlim deganda nimani tushunasiz?
3. Uy jihozlarini qanday to‘g‘ri joylashtirish mumkin?
4. Qanday oilaviy bayram turlarini bilasiz?
5. Mehmon va mezbonning etiket qoidalari nimalardan iborat?
6. Mehmon sog‘lig‘i uchun aytilgan tilaklar qanday bo‘lishi lozim?
7. Dasturxon qanday tuzaladi?
8. Dasturxon atrofida o‘zini tutish qoidalari haqida nimalarni bilasiz?
9. Hadya qilish va sovg‘a qabul qilish etiketi qanday amalga oshiriladi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Axmadjon B. Islom odobi va madaniyati. - T., Cho‘pon. 1995.
2. Kaykovus. Qobusnom. - T.: Istiqlol, 1994.
3. Mahmudov Karim. Mehmonnom. - T.: “Yosh gvardiya” nashriyoti. 1989.
4. Sattor M. O‘zbek udumlari. - T., Adolat, 2004.
5. Hoji Muhammad Shoxmurodzoda. Taomlanish odobi.-T., Movorounnahr, 2005.
6. Odob bo‘stoni va axloq guliston. - T., “Fan” 1994.
7. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati. - T., Iqtisod-moliya. 2009.

### **Elektron manbalar va internet ma’lumotlari:**

1. Этикет от А до Я. [www.etiksite.ru](http://www.etiksite.ru). 11. КБ.
2. Правила этикета. [www.etiksite.org](http://www.etiksite.org). 3 КБ.
3. Курсы делового этикета. [www.c-si.ru/group.15.php](http://www.c-si.ru/group.15.php). 17КБ.
4. Про ресторан – основы ресторанных дела. [www.Prorestoran.com](http://www.Prorestoran.com). 23КБ.

## 12-MAVZU. MAROSIMLAR ETIKETI

O‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan marosimlardan biri to‘ydir. To‘y qarindosh-urug‘, tanish-bilish, qo‘ni-qo‘shni, el-yurtga yoziladigan dasturxon, ularni ahillikka, mehr-oqibatli bo‘lishga undaydigan marosim bo‘lib hisoblanadi.

To‘ylarimiz o‘zbeklarning kimligini namoyon etuvchi o‘ziga xos bir ko‘rikdir. To‘y ham, ma’raka ham, marosim ham shaxsiy ish emas, balki ijtimoiy hodisadir, bu birinchidan. Ikkinchidan, esa xalqimizning milliy qiyofasi va harakteri, o‘ziga xos turmush tarzi, salohiyati, dunyoqarashi, tafakkuri, ongi va qalbi, odamgarchiligi, orzu-umidlari, fazilatu kamchiligi bir so‘z bilan aytganda, butun borlig‘i ana Shu to‘y-hashamlarda, oilaviy tantanalarda, ma’raka va marosimlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistondagи har bir viloyat va hududlarda to‘y oldi va to‘y o‘tkazish marosimlari o‘zgachadir. Lekin qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar, to‘y oldi marosimlari va to‘y o‘tkazishning ham o‘z etiketi mavjud.

To‘y marosimlari qiz tanlashninig sovchilik marosimi bilan boshlanadi.

Sovchilikka asosan ayol kishilar yuradi. Ya’ni kuyov bo‘lmishning xolasi yoki ammasi, yon qo‘shnisi, onasi bilan birga yuradi. Sovchilikka borgan ayollar nihoyatda so‘zamol, shirin so‘z, uddaburon bo‘lishlari kerak. Xonadonida bo‘yi etgan qizi bor oilalar sovchi kelishiga doim tayyor turishlari kerak. Uy-joylar doimo toza, tartibli turishi lozim. Kim sovchi bo‘lib kelishidan qat’iy nazar ularni ochiq yuz bilan kutib olish kerak. Sovchilarga o‘sha xonadonning oila a’zolari, oilaviy muhiti, qizning odobi ma’qul kelsa o‘sha xonadonga qayta keladilar. Qiz taraf ham birinchi kelgan sovchilarga aniq javob bermaydilar. Etiket bo‘yicha birinchi marotaba kelgan sovchining yoniga qizni olib kirib ko‘rsatish (hatto sovchilarning iltimosiga binoan) mumkin emas. Bugungi kunda barcha qizlarimiz o‘qiydilar, ishlaydilar – juda bo‘limganda odobli, tarbiyali qiz sahar turib ko‘chalarni supuradi – o‘sha payt qizni tashqi ko‘rinishini ko‘rib olish mumkin.

Birinchi kelgan sovchiga qizni rasmini ko‘rsatish mumkin. Sovchilarning o‘zini tutishi, hatti-harakatlari yoqmagan taqdirda ham, qizning onasi tavoze’ bilan qizini hali uzatmaslik bahonasini aytishi mumkin. Ikkinci marotaba kelgan o‘sha sovchilar kuyov haqidagi aniq ma’lumotlarni tashlab ketadilar. O‘sha ma’lumotlar bo‘yicha kuyov bo‘lmishni mahalla-kuy, ishxonasi, yor-do‘stlari orqali surishtiruv ishlari amalga oshiriladi. Bularni hammasi ham odob qoidalariga binoan olib boriladi.

Ma’lumotlar yig‘ib olingandan so‘ng, o‘rtada turgan amma yoki xola qizning yaqin qarindoshlari orqali yoki telefon orqali javob olish uchun borish mumkinligini haqida rozilik so‘rab, kun belgilanadi. Sahih hadislarda yozilishicha “Qaysi bir

ayolga uylanish dilga tushib qolsa, oldin uni bir ko‘rishlik yomon emas”<sup>43</sup> deyilgan. Demak, qiz tomon to‘plagan ma’lumotlari ma’qul tushsa, qiz bilan yigitni bir marotaba bir-birlariga ko‘rsatishadi. Qiz hamda yigit ham o‘zlarining yaqin qarindoshlari bilan uchrashuvga chiqadilar. Agar qiz bilan yigit uchrarashib, bir-birlariga ma’qul bo‘lgan bo‘lsalar, patir sindirish marosimi o‘tkaziladi. Bu marosim ham kichik-kirim, ya’ni ozchilik o‘rtasida bo‘lib o‘tadi. Bundan so‘ng “oqlik berish” marosimi bo‘lib o‘tadi ya’ni kuyov taraf qiznikiga “oqlik” jo‘natadi. Bu marosimda ham kamchilik qatnashib kuyov tarafdan kelinga atab yuborilgan bиринчи sovg‘a salom, shirinliklar, sarponing ma’lum qismi yuboriladi va o‘sha kuni to’y o‘tkazish muddati begilanadi.

Juda ko‘p joylarda to‘ylar uy sharoitida bo‘lib o‘tadi. Lekin katta shaharlarda to‘ylar restoran va kafelarda o‘tkazilmoqda. Shuning uchun to‘ylardagi dasturxon atrofidagi etiket, o‘zini tutish etiketi, raqs tushish etiketi, kiyinish etiketiga qat’iyyan amal qilinishi lozim. Jamoada yoshi katta onaxonlarni, otaxonlarni borligini unutmaslik kerak. Qonuniy nikohini kechki nikoh to‘yi marosimida qayd yetish urf bo‘lib bormoqda. (Shar’iy nikoh to‘y egalari bilan kelishilgan vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng, masjidning imom-xatibi amalga oshirishi lozim).

Kuyov navkarlar kelinning uyiga karnay-surnay sadolari ostida boradilar. Ma’lumki, karnay-surnay sadosi nikoh to‘yi e’lonidir. Ushbu tadbirda yosh bolalarning qatnashishi etiket bo‘yicha maqsadga muvofiq emas. Ko‘p joylarda ushbu udum to‘y oqshomining ertasi kuni o‘tkazish odatga aylangan. Bu “kelin salom” deb nomlanadi. Kelin salomda faqat yaqin qarindoshlar va yon qo’shnilar qatnashishadi. Buning ham o‘z etiketi bo‘lib, barcha amal qilishi lozim.

Yangi chaqaloq tug‘ilishi munosabati bilan o‘tkaziladigan udum bu “Azon aytish (Shar’iy marosim) Chaqaloq tug‘ilganidan 7-9 kun o‘tgach, mahalla imomi yoki yaqin qarindoshlaridan ilmlisi uning o‘ng qulog‘iga azon (chap qulog‘iga takbir) aytildi. Bu odat go‘dakning bokira Shuuriga Alloh nomini muhrlash mazmunida talqin etilgan”<sup>44</sup>

Aqiba chaqaloq tug‘ilgandan keyin 7, 14, 21 - kunlarning birida bir qo‘yni so‘yib, uni uchga taqsimlab, bir qismini homiladan bo‘shagan ona uchun, bir qismini muhtoj oilalarga tarqatish, bir qismini ziyofatga ishlatish tavsiya etiladi.

Qovurdoq yangi bo‘shangan kelinga onasi tomonidan tayyorlab olib boriladigan taom. O‘zaro mehr-oqibat va do‘slik rishtalarining mustahkam bog‘lanishini nazarda tutib ixcham ko‘rinishda o‘tkaziladigan marosim hisoblanadi. O‘sha kuni beshikka solish marosimini ham o‘tkazib yuborish mumkin. Bundan tashqari, sunnat to‘yi, beshik to‘yi kabi marosimlar ham bo‘lib bularni ham ixcham va yaqin kishilar davrasida o‘tkazish maqsadga muvofiq.

<sup>43</sup>Axloq - odobga oid hadis namunalari. - T. “Fan” 1990. B.24.

<sup>44</sup>Islom ma’rifati. - T., “Toshkent islam Universiteti” 2005. B.25.

## **Ta’ziya marosimlari etiketi**

Ta’ziya bu ko‘ngil so‘rab, yupatish demakdir. Dinimizda ta’ziyani shar’iy odat bo‘lib, u uch kun qilib belgilangan. Ta’ziyaga borish kerak bo‘lgan inson urf-odatlarimizni hurmat qilgan holda etiket bo‘yicha kiyinishi, o‘zini tutishi, muomala qilishi lozim.

Janozada, yani ko‘mish marosimida faqat erkaklar ishtirok etadilar. Urf-odatimizga ko‘ra mayit chiqqan xonadonda 3 kun ovqat pishirilmaydi. Bu oilaning yaqin qo‘ni-qo‘shnilari tomonidan ovqat chiqariladi. Bugungi kunda o‘tkazilayotgan yigirma, qirq, yil oshi kabi marosimlar dinda asli bid’at hisoblanadi. Lekin ota-onani ruhini shod qilib turish biz uchun farz. Buning uchun alohida marosim qilib eslashni o‘zi kifoya qilmaydi.

Hamonki, mazkur odatlarga yillar davomida xalqimiz amal qilib kelayotgan ekan, mazkur sanalarda hayr-ehson, “amri-ma’ruf” (insonlarni yaxshilikka buyurish) sifatida, ixcham shaklda, isrofgarchiliksiz o‘tkazilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ammo barcha marosimlar isrofgarchiliksiz amalga oshirilishi shart. O‘zi «qo‘l uchida kun ko‘rib», butun umri davomida yiqqan molu-davlatni bir kunda «sochib» yuborish hech kimga baxt keltirmaydi. Biroq buning aksi bo‘lishi mumkin. Buning ustiga bunday isrofgarchiliklar iqtisodiy qiyinchilikni «ko‘tarolmay» pul topishning nohalol yo‘llariga undashini unutmaslik lozim.

### **Tayanch tushunchalar:**

Sovchilik, unashtirish, non sindirish, to‘y, kelin salom,challar, beshik to‘y, sunnat to‘y, qovurdoq, azon aytish, aqiba, din, ta’ziya, shar’iy marosim, urf-odat, xayr-ehson, amri-ma’ruf, tilovat, Qur’on.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Sovchilikka borish etiketi haqida nimalarni bilasiz?
2. Unashtirish marosimi u nima?
3. To‘ydagi hamma rioya qilishi lozim bo‘lgan etiketlar haqidagi fikringiz.
4. To‘ydan keyinggi kundagi marosimlar etiketi nimalardan iborat?
5. Ta’ziyada inson qanday etiket qoidalariiga amal qilishi zarur?
6. Ta’ziya marosimlarida qanday tartibda kiyinish etiketiga amal qilinadi?
7. Ta’ziyaizhor qilish qoidalari nimalardan iborat?

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T., Ma'naviyat, 2008.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. O'zbekiston milliy faylasuflari jamiyati. – Toshket, 2010.
3. Axloq - odobga oid hadis namunalari. - T., "Fan" 1990.
4. Haydar Aliqulov. Falsafiy meros va ma'naviy – axloqiy fikr rivoji. – T., Falsafa va huquq instituti, 2009.
5. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T., Universitet, 2009.
6. Sattor M. O'zbek udumlari. - T., Adolat, 2004.
7. Islom ma'rifiati. - T., "Toshkent islom Unversiteti", 2005
8. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati. - T., Iqtisod-moliya, 2009.
9. Javliyev T. An'analar – hayot sabog'i. - T., "O'zbekiston", 1992.

## TEST SAVOLLARI

### 1. Etiket nima?

- A Etiket - takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari yig‘indisi\*
- B Etiket – salomlashish odobi
- S Etiket - majburiy holat
- D Etiket - Gap olib qochish

### 2. Salomlashish odobi nima?

- A Ortiqcha takalluf
- B Salomlashish insonning insonga bildirgan hurmati, odamlarning o‘zaro muomala munosabatlarining boshlanishi, bir – biri bilan suhbatlashayotgan ikki dilning kalitidir\*
- S O‘zini yaxshi ko‘rsatish
- D Majburiy holat

### 3. Individual bahsda asosiy narsa nima?

- A Individual bahsda asosiysi – asos, etika va estetika
- B Individual bahsda asosiysi – asos, psixologiya va ekologiya
- S Individual bahsda asosiysi – asos, mantiq va dalillardir\*
- D Individual bahsda asosiysi – asos, so‘z va gap

### 4. Insonlarning bir – biriga hurmat ehtiromi, xayrixohlik izhori qaysi so‘zlarda o‘z ifodasini topadi?

- A Qalaysiz?
- B “Assalomu alaykum” , “salomat bo‘ling”, “marhamat qiling”, “baraka toping”, “rahmat”, “behad minnatdorman”, “uzr”, “avf etasiz”, “kechiring”\*
- S Tirikmisiz?
- D Bormisiz?

### 5. Aksessuarlarga nimalar kiradi?

- A Taqinchoqlar, ayollar sumkasi, galstuk, zaponka\*
- B Maxsi kalish, oyoq kiyim
- S Ust kiyimlar
- D Kosmetik buyumlar

### 6. Murojaat qilish nima?

- A. Insonni tarbiya ko‘rganligidan dalolat beruvchi harakatlar majmuasidir\*

B Insonning boshqa insonga aytadigan fikri

S Fikr bildirish

D Gap olib qochish

### **7. Nomsiz munosabatda qanday so‘zlardan foydalilanildi?**

A Nomi yo‘q so‘zlar

B Munosabat nomsiz bo‘lmaydi

S “Kechirasiz falonchi ko‘cha qayerda?”, “aytib berolmaysizmi soat necha bo‘ldi?” “ruxsat bersangiz kirsam” Siz – o‘shami?\*

D Nomsiz fikrlar

### **8. Kiyim nima?**

A Kiyim – bu ko‘ylak

B Kiyim – bu ma’lum davr va ijtimoiy sharoitda kishilarning go‘zallik haqidagi qarashlarini mujassamlashtiradigan moda bilan bog‘liq buyum\*

S Kiyim – bu tuqli

D Kiyim – bu ro‘mol

### **9. Sovg‘a qachon berilishi kerak?**

A Xohlagan qulay paytda

B Tantanaga kirish bilan\*

S Kyetish oldidan

D Oldin berib yuboriladi

### **10. Sovg‘a qabul qilish etiketi -**

A Sovg‘ani birovga berib qo‘ying keyin olaman dyeyish ham mumkin

B Olib bir chekkaga qo‘yib qo‘yiladi

S Inson sovg‘aga darhol tashakkur bildirib, uni hadya qiluvchini oldida ochib, minnatdorchilik bildiradi\*

D Hammani ichida ko‘z – ko‘z qilinadi

### **11. Mehmonlarni to‘plashning eng qulay payti qaysi kun?**

A Mehmonlarni to‘plashning eng qulay payti – dushanba yoki payshanba kunlaridir

B Oilangizga qaysi kun to‘g‘ri kelsa o‘sha kunni tanlang

S Mehmonlarni to‘plashning eng qulay payti – juma yoki shanba kunlaridir\*

D Yakshanba. Hamma uyda bo‘ladi

## **12.Qanday qilib tanishish lozim?**

- A Tanishuv uchun o‘rtada ikki taraf uchun ham tanish bo‘lgan vositachi orqali ro‘y beradi\*
- B O‘zingiz murojaat qilib
- S Bahona topib
- D Ayb qidirib

## **13.Tanishtirish qoidalari haqida nimalarni bilasiz?**

- A «Sizni tanishtirsam...», «Tanishtirishga izn bersangiz...», «Falonchi, tanishing...”\*  
B Qani bir tanishsalaring  
S Manga qara kimsan o‘zing?  
D Ey menga qara bir kelishib olaylikchi

## **14.Nechta ro‘molcha olib yurish kerak?**

- A 4  
B 3  
S 2\*  
D 1

## **15.Xushomad nima?**

- A Xushomad – birovga beriladigan ortiqcha baho  
B Xushomad – laganbardorlik belgisi  
S Xushomad – insonning tashqi qiyofasi, chiroyli so‘zlari, hatti harakatidan ta’sirlanib, ma’qullashni ifodalash, maqtovning maxsus shaklidir\*  
D Xushomad – chiroyli gaplar yig‘indisi

## **16.Ustki kiyimning qaysi tugmasi hech qachon qadalmaydi?**

- A Ustki kiyimning eng yuqori qismidagi tugma hech qachon qadalmaydi  
B Ustki kiyimning eng quyi qismidagi tugma hech qachon qadalmaydi\*  
S Ustki kiyimning eng o‘rtasidagi tugma hech qachon qadalmaydi  
D Ustki kiyimning tugmalari umuman qadalmaydi

## **17.Erkaklarga o‘zlari bilan nechta dastro‘mol olib yurishlari kerak?**

- A Erkaklar o‘zlari bilan ikkita dastro‘mol olib yurishlari kerak\*  
B Erkaklar o‘zlari bilan bitta dastro‘mol olib yurishlari kerak  
S Erkaklar o‘zlari bilan uchta dastro‘mol olib yurishlari kerak  
D Erkaklar o‘zlari bilan umuman dastro‘mol olib yurishlari shart emas

**18.Qachon qo‘ng‘iroq qilish mumkin emas?**

A Agar biron-bir odamda baxtsizlik ro‘y bersa, telefonda hamdardlik bildirish mumkin emas\*

B Kechki soat 10 dan keyin

S Yarim kechasi

D Tanimaydigan ayolga

**19.Bashang kiyim qanday odam bilan «chiqishadi»?**

A Bashang kiyim faqat puli ko‘p odam bilan «chiqishadi»

B Bashang kiyim faqat qaddiqomati kelishgan, yaxshi fazilatlarga va chiroyli nutqqa ega odam bilan «chiqishadi»\*

S Bashang kiyim faqat davlat rahbarlari bilan «chiqishadi»

D Bashang kiyim faqat o‘ziga ishongan odam bilan «chiqishadi»

**20.Bo‘yinbog‘ni bo‘yindan olayotib bog‘ichini echish shartmi?**

A Bo‘yinbog‘ni bo‘yindan olayotib bog‘ichini yechish shart emas

B Bo‘yinbog‘ni bo‘yindan olayotib bog‘ichini yechish shart bo‘lsa kerak

S Bo‘yinbog‘ni bo‘yindan olayotib bog‘ichini yechish shart\*

D Bo‘yinbog‘ni bo‘yindan olayotib bog‘ichini xohlasangiz yeching

**21.Necha xil banket turlari mavjud?**

A Rasmiy banket. Norasmiy banket. Furshet – banket. Kokteyl – banket. Choyli– banket. Aralash banket\*

B Sunnat to‘y, nikoh to‘yi, gaplar, choyxonadagi oshlar

S Rasmiy banket. Norasmiy banket.

D Kokteyl – banket. Choyli– banket. Aralash banket

**22.Qanday qilib samimiyl maqtovga javob berish lozim?**

A Muloyim minnatdorchilik bilan cheklaning\*

B Kinoya bilan kulib qo‘ying

S O‘zim bilaman deb javob bering

D Umuman javob bermang

**23.Agar suhbatlashayotgan vaqtda telefon aloqa uzilib qolsa, unda kim qayta qo‘ng‘iroqlashadi?**

A Agar suhbatlashayotgan vaqtda telefon aloqa uzilib qolsa, unda qayta qilmaslik kerak

B Agar suhbatlashayotgan vaqtda telefon aloqa uzilib qolsa, unda raxbaringizga o‘zingiz qiling

S Agar suhbatlashayotgan vaqtdga telefon aloqa uzilib qolsa, unda qo‘ng‘iroq qilgan odam qayta qo‘ng‘iroqlashadi\*

D Agar suhbatlashayotgan vaqtda telefon aloqa uzilib qolsa, unda bir – biringizga qo‘ng‘iroq qilavering

**24.Telefonda so‘zni qanday boshlash lozim?**

A Avvalambor salom berib, so‘ng o‘zingizni tanishtiring\*

B Kim bu?

S Kimsan?

D Bu qayer?

**25.Mehmonga qachon borish kerak?**

A Mehmonga kechroq borish lozim

B Mehmonga aytilgan vaqtga borish lozim\*

S Mehmonga 15 minut kech kelish kerak

D Mehmonga odamiga qarab borish lozim

**26. Chaqirilgan joyga bora olmasangiz necha kun oldin uzr aytib qo‘yish kerak?**

A 3

B 1

S O‘sha kuni

D 2\*

**27.Uyga 5 - 6 kishi mehmonga borsa nima asosida stol atrofida o‘tiriladi?**

A Mansabiga qarab

B Yoshiga qarab

S Uy bekasi ko‘rsatgan joyga o‘tirish kerak\*

D Kim qayerga o‘tirsa joy uniki

**28.Mehmonda taomdan voz kechish mumkinmi?**

A Mehmonda taomdan voz kechish mumkin emas\*

B Mehmonda taomdan voz kechish mumkin

S Mehmonda taomni tanlab yejish mumkin

D Mehmonda diyeta qilish mumkin.

**29. Dasturxon atrofida qisman xizmat ko‘rsatish bilan cheklanadigan banket qanday banket?**

A Yubiley va to‘ylar o‘tkazish

B Kafedagi xizmat turi

S Dasturxon atrofida qisman xizmat ko‘rsatish bilan cheklanadigan basket – do‘stona uchrashuvlar, oilaviy tantanali kechalari, yubiley va to‘ylar o‘tkazish maqsadida keng qo‘llaniladigan basket turidir\*

D Oilaviy tantanali kechalarni o‘tkazish

### **30.Koktyelbasket qachon tashkillashtiriladi?**

A Koktyel basket – bu kokteyl tarqatiladigan bayram

B Koktyel basket – bu issiq ichimliklar (kofe, choy)

S Koktyel basketni xalqaro simpoziumlar, konferensiyalar, kongress hamda boshqa yig‘ilishlar qatnashchilarga xizmat ko‘rsatish uchun tashkillashtiriladi\*

D Koktyel basket – bu aperitiv, keyin sovuq gazaklar beriladigan tadbir

### **31.Choybasket qachon o‘tkaziladi?**

A Choybasket kunning birinchi yarmida soat 9-10 larda o‘tkaziladi

B Choybasket kunning ikkinchi yarmida soat 16-18 larda o‘tkaziladi.\*

S Choybasket kunning birinchi yarmida soat 11-12 larda o‘tkaziladi.

D Choybasket kunning ikkinchi yarmida soat 15-16 larda o‘tkaziladi.

### **32.Biznesmen etiketi - bu nima?**

A Iste’molchi va xaridor o‘rtasidagi muomala

B Biznesmen odobi

S Kommersiyadagi tadbirkorlikning umumqabul qilingan qoidalarini o‘z ichiga olgan mezon\*

D Biznesmenning chiroyli hatti - harakati

### **33.Qabul nima?**

A Mehmonlarni qabul qilish

B Qabul - bu muloqot shakli

S Qabul – bu mehmon kutish

D Qabul – odamlar, davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi muloqot shaklidir.

Uning sabablari va sababchilarining darajasiga qarab qabul rasmiy va norasmiy qabullarga ajratiladi\*

### **34.Xizmat munosabatlarinnning odobi nima?**

A Xizmat munosabatlarinnning odobi bu ishxonadagi takaluflar

B Xizmat munosabatlarinnning odobi bu ishxonada rioya qilinishi kerak bo‘lgan ba’zi qoida va me’yorlar, ba’zida esa udumlar majmuidir\*

S Xizmat munosabatlarinnning odobi bu bir–birini hurmat qilish

D Xizmat munosabatlarinnning odobi bu xizmatdagi qoidalar

**35. Oilada bir - birining xonasiga kirishdan oldin eshikni taqqillatishi shartmi?**

- A Shart
- B Shart emas
- S Ba'zi xonalarga taqqillatib kiriladi\*
- D Oshxonaga shart emas

**36. Erkakning majburiyatiga nimalar kiradi?**

A Doimo ayolingizni kiygan libosi bo'yicha biron-bir munosabatingizni aytin – shirin so'zingizni ayamang. Uning oldida boshqa ayollarga o'grilib qaramang, pishirilgan taomni maqtab eng ba'zida ayolingiz uyda nima ish bilan shug'ullangani qiziqib qo'ying\*

- B Boqish
- S Tarbiyalash
- D Do'q urish

**37. Ayolning majburiyatiga nimalar kiradi?**

A Eringizga narsalar olayotganda, dugonalar engizning emas, eringizning ham didi bilan qiziqing. Eringiz yaxshi ko'rgan taomni ko'proq tayyorlang. Bolalarni oldida uni tanqid qilmang. U yoqtirmagan mehmonlarni taklif qilmang, unga yoqmaydigan joylarga mehmonga bormang

- B Ovqat pishirish
- S Bolalarni boqish
- D Erni ko'nglini olish

**38. Qaynonalar yoshlarning Shaxsiy hayotiga aralashishi shartmi?**

- A Shart emas\*
- B Shart
- S Yaxshi bo'ladi
- D Maslahat beradi

**39. Kelin yoki kuyovni ko'rgani kelgan yoshlar bilan onalarning o'tirishi shartmi?**

- A Ha
- B Yo'q
- S Mumkin emas\*
- D Bo'laveradi

**40.Ish telefoniga necha marotaba qo‘ng‘iroq bo‘lgandan so‘ng javob berilishi kerak?**

- A 3\*
- B 4
- S 5
- D 2

**41.Pul muomalasidagi etiket nima?**

- A Qarzlarni berish va qaytarish odobi\*
- B Pulni to‘g‘ri sarflash
- S Pulni to‘g‘ri sanash
- D Pulni obro‘sini ushslash

**42.Farzandga kim ism tanlashi kerak?**

- A Oilaning kattalari
- B Ota – onaning o‘zi\*
- S Qo‘shnilar
- D Do‘stlar

**43.Kelin ham uy bekalik huquqiga egami?**

- A Ega\*
- B Ega emas
- S Haqqi yo‘q
- D Sharoitga bog‘liq

**44.Yangi oilada kelin nimalarga e’tibor berishi kerak?**

- A Shirinso‘z bo‘lish. Ikkiyuzlamachilik va munofiqlikni ishga solmaslik! To‘g‘ri gapirish, chiroyli gapirish. O‘zini hech qachon yerga urmaslik\*
- B Faqat qaynona va qaynotani ko‘ngliga qarash
- S Faqat erni bilish
- D Hammaga befarq bo‘lish

**45.Xat yozishlar doimo sir saqlanishi lozimmi?**

- A Lozim\*
- B Lozim emas
- S Ba’zida mumkin
- D Bolalarnikini tekshirib turish mumkin

**46. To‘yning necha xil turi mavjud?**

- A 4
- B 5
- S 2 \*
- D 3

**47. Oila etiketi**

- A Er – xotin o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, e’tibor va qadr\*
- B Er – xotinning bir–biriga ko‘nikishi
- S Er – xotinning bir–biriga vafosi
- D Er – xotinning bir–biriga munosabati

**48. Er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar etiketi**

- A Bir–birini qadrlash, e’zozlash, birini kamchiligini ikkinchisini fazilati bilan yopib yurmoq\*
- B Bir–biri bilan yaxshi muomalada bo‘lish
- S Bir–birini sevish
- D Bir–biriga ko‘nikish  
bir–birini.

**49. Oiladagi mojarolar paytida o‘zini qanday tutish lozim?**

- A O‘zini tuta bilish kerak
- B Bir gapdan qolish kerak\*
- S Vazmin bo‘lish kerak
- D Gapdan qolmaslik kerak

**50. Ta’ziya izhor qilishning necha turi bor?**

- A 2\*
- B 3
- S 4
- D 1

**51. Telefon orqali qanday murojaat qilishingiz lozim?**

- A Notanish odamga telefonda «sen»lab murojaat qilish
- B Suhbatdoshni o‘zingizcha «xola», «amaki» deb murojaat qilish
- S «Uzr», «agar malol kelmasa» va boshqa shunga o‘xshash «egasi yo‘q» tushunchalar bilan munosabatda bo‘lish lozim\*
- D Yaxshi qiz, yaxshi yigit

## **52.Diplomatik etiket nima?**

- A Diplomatik etiket - bu diplomatlar va boshqa rasmiy shaxslarning bir- biri bilan so‘rashishi
- B Diplomatik etiket - bu diplomatlar va boshqa rasmiy shaxslarning bir – biri bilan bahslashishi
- S Diplomatik etiket - bu diplomatlar va boshqa rasmiy shaxslarning bir-biri bilan diplomatik tadbirlarda bo‘ladigan muloqotlari chog‘ida amal qiladigan yaxshi xulqdarining qoidalari\*
- D Diplomatik etiket - bu diplomatlar va boshqa rasmiy shaxslarning bir – biri bilan muomala madaniyati

## **53.Rasmiy qabul nima?**

- A Davlat rahbarlari o‘rtasida bayram o‘tkazish
- B Davlat rahbarlari o‘rtasida majlis o‘tkazish
- S Davlat rahbarlari o‘rtasida rasmiy munosabatlarni mustahkamlash uchun o‘tkaziladigan, barcha davlatlarda umumiy qabul qilingan shakllaridan biri\*
- D Davlat rahbarlari o‘rtasida musobaqa o‘tkazish

## **54.Diplomatik hujjatlarga nimalar kiradi?**

- A Diplomatik hujjatlarga davlat arboblarining oilaviy hujjatlari kiradi
- B Diplomatik hujjatlarga yozishmalar kiradi
- S Diplomatik hujjatlarga davlat arboblarining nutqlari, notalar, maktublar va memorandumlar kiradi\*
- D Diplomatik hujjatlarga video, dvd kassetalar kiradi

## **55.“Diplomatik protokol” nima?**

- A “Diplomatik protokol” - Davlatlararo hamkorlikda munosabatlarning asosiy qoidalari, jumladan suverenitetni hurmat qilish, tenglik, erkinlik, barqarorlik, bir-birini ichki ishlariga aralashmaslik kabi talablarga rioya qilish qoidalari\*
- B “Diplomatik protokol” – Davlatlarning hamkorlikdagi munosabatlari
- S “Diplomatik protokol” – Davlatlarning hamkorlikdagi kelishuvlari
- D “Diplomatik protokol” – Davlatlarning hamkorlikdagi rejalari

## **56. Kasbiy odob nima?**

- A Ahloqiy, tamoyil va me’yorlarning kasb-hunar sohasida konkret namoyon bo‘lishi\*
- B Kasbga muhabbat
- S Hamkasabalarga hurmat

D Har kasb egasining o‘z jamoasidagi ahloqiy munosabatlari

**1. Xizmat munosabatlarini odobi nima?**

A Xizmat munosabatlarining odobi bu ishxonada rioya qilinishi kerak bo‘lgan ba’zi qoida va me’yorlar, ba’zida esa udumlar majmuidir\*

B Xizmat munosabatlarining odobi bu ishxonadagi takalluflar

S Xizmat munosabatlarining odobi bu bir–birini hurmat qilish

D Xizmat munosabatlarining odobi bu xizmatdagi qoidalar

**2. Qayerning elchilari xalqaro etiketning bilimdonlari sifatida, maxsus**

**“Germes nishonlari” deb nomlangan vaqillik nishonlarini o‘zlari bilan olib yurganlar?**

A Fransiya

B Qadimgi Rim

S Qadimgi Yunoniston\*

D Misr

**3. Qayerda siyosiy etiket yanada ustunlikka ega bo‘lib, elchilar qabulining**

**avvali ziyofatlar bilan boshlanib, tashrifni tugallanishida esa ikkitomonlama sovg‘a hadya qilish bilan yakunlangan?**

A Fransiyada

V Qadimgi Rimda\*

S Qadimgi Yunonistonda

D Misrda

**60. 1207 yilda “O‘zini tutish qoidalari” deb nomlangan kitob muallifi...**

A Ispaniyalik Petrous Alfonsi \*

B Jan Pol Sartr

S Sigzmund Shloma Freyd

D Abdulla Sher

**61. Jan Pol Sartr aytganidek, odob insonlardagi qaysi jihatlarga qaratilgan?**

A Odob insonlarni ranjitmaslikka qaratilgan

B Erkin jamiyatda erkin bo‘lish, ya’ni boshqalarni erkini ta’minalashga qaratilgan\*

S Odamlarni axloqiylikka, ular orasida munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan

D Odob insonlarni ranjitmaslikka, erkin jamiyatda erkin bo‘lishga, odamlarni axloqiylikka, ular orasida munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan.

**62. Inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, milliy urf-odatlarga**

**asoslangan chiroyli hatti-harakatlarni ifodalovchi tushuncha – bu:**

- A Odob\*
- B Etiket
- S Estetik
- D Ekologik

**63. Qaysi me'yirlarda “muhimi qandayligi emas, balki boshqalar uchun qanday ko‘rinishda” shiori ostida jamoatchilikda ijobiy taassurot qoldiriladi?**

- A Etiket\*
- B Odob
- S Axloq
- D Estetik

**64. Etiket qoidalari nimalarga qaratiladi?**

- A O‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik
- B Aslzodalikning mavjudligini ko‘rsatishga intilish
- S Jamoatchilikda ijobiy taassurot qoldirish
- D O‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik, aslzodalikning mavjudligini ko‘rsatish, jamoatchilikda ijobiy taassurot qoldirish\*

**65. Etiket nimani belgilaydi va qanday namoyon bo‘ladi?**

- A Inson va jamiyat o‘rtasida munosabatlarning qaysi axloqiy mezonlarga asoslanishini belgilaydi\*
- B Siyosat va ijtimoiy voqelikni bir–biri bilan “murosayu–madora” qilishga chaqiruvchi tarbiya vositasi sifatida namoyon bo‘ladi
- S A va V javoblar to‘g‘ri
- D To‘g‘ri javob yo‘q

**66. Abdulla Sher talqinida “Etiket – bu ...**

- A Takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari \*
- B Ijobiy, kishining ko‘zini quvontiradigan muomala hodisasi
- S Asl axloqiy asosini yo‘qotgan majburiy mulozamat
- D Takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari, muomala hodisasi, asl axloqiy asosini yo‘qotgan majburiy mulozamat

**67. Kasbiy etika kategoriylarini belgilang.**

- A Kasbiy burch, vijdon (diyonat), or-nomus (nomus), obro‘\*

- B Etiket, odob, axloq , estetik
- S Vatanparvarliq insonparvarlik
- D Mehr-oqibat

**68.Kishining biron Shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha –**

- A Burch\*
- B Or-nomus
- S Insonparvarlik
- D Mehr-oqibat

**69.Konstitutsiyaning qaysi moddasida «O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish - O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir deb ta’kidlanadi?**

- A 22- moddasida
- B 32- moddasida
- S 42- moddasida
- D 52- moddasida\*

**70.O‘z hatti–harakatlari uchun axloqiy mas’uliyatni anglash –sezish. Bu-**

- A Burch
- B Or-nomus\*
- S Vijdon
- D Mehr-oqibat

**71.Vijdon – bu...**

- A Shaxsning axloqiy jihatdan o‘z –o‘zini nazorat qilaolishi
- B O‘zida axloqiy burchni mustaqil shakllantirish hamda o‘zidan uni ado yetishni talab qilish
- S O‘z hatti-harakatiga hamda yurish-turishlariga baho berish qobiliyatini
- D Shaxsning axloqiy jihatdan o‘z –o‘zini nazorat qilaolishi, o‘zida axloqiy burchni mustaqil shakllantirish, o‘z hatti-harakatiga baho berish qobiliyatini\*

**72.Odamning ichki sudyasi bo‘lib, u odamlarni yomon hatti –harakatlardan saqlabgina qolmasdan, jamiyat qoidalariga ko‘ra harakat qilishga undovchi kuch...**

- A Burch
- B Or-nomus
- S Vijdon\*

D Mehr-oqibat

**73.Odamni baholash va atrofdagi kishilar tomonidan uni hurmat qilish mezoni yoki o'lchovi...**

A Burch

B Or-nomus

S Vijdon

D Mehr-oqibat\*

**74.Or–nomus (nomus) – bu:**

A Kishining boshqa Shaxslarga nisbatan sharm-xayoli munosabatda bo'lishga undovchi his

B O'zining obro'sini ulug'lash va ardoqlash tuyg'usi

S A va V javoblar to'g'ri\*

D To'g'ri javob yo'q

**75.Kishining qadr–qiymatiga, o'z harakatlari oldidagi ahloqiy mas'uliyatlariga bo'lgan qarashlarni ifodalovchi tushuncha – bu...**

A Burch

B Or-nomus\*

S Vijdon

D Mehr-oqibat

**76.Kim «O'zingning obro'yingni saqla, o'zingdan past madaniyatli kishilarga o'xshama. Esingda bo'lsin, sen undan libosing, qaddi-qomating, hatti–harakating va odobing bilan ustun bo'lishga harakat qil» deb yozgan?**

A Abu Rayhon Beruniy\*

B Amerikalik yozuvchi Alisa Stoun

S Suqrot

D Alisher Navoiy

**77.Obro‘ qay tarzda ortib boradi?**

A Shaxsnning xulqi, Vataniga chin sadoqat bilan xizmat qilishi tufayli\*

B Voyaga yetishi bilan

S Mansabi, lavozimi oshishi tufayli

D Insonlarga qilgan yordami tufayli

**78.Ijtimoiy hayotning turli sohalarida biron shaxsning bilimi, tajribasi, tashkilotchiligi kabi axloqiy fazilatlari tufayli orttirgan, ko'pchilik**

**tomonidan e'tirof etilgan ta'siri, nufuzi – bu...**

- A Mas'uliyat\*
- B Obro'
- S Vijdon
- D Mehr-oqibat

**79. Muomala madaniyatini shakllantirishning muhim vositalaridan biri –**

- A Pand-nasihat
- B Suhbatlashish\*
- S Maslahat
- D O'git-hikmatlar

**80. Suhbatlashish etiketi qoidalarni nimalarни taqozo etmaydi?**

- A Suhbatdoshingizga o'zingizga ta'rif-tavsif berish
- B O'z muammo va yutuqlar haqidagi ma'lumotlarga e'tiborni kuchaytirish
- S Suhbat chog'ida o'z "men" ini markaziy joyga qo'yish.
- D Suhbatdoshingizga ta'rif berish, o'z muammo va yutuqlar haqidagi ma'lumotlarga e'tiborni kuchaytirish, suhbat chog'ida o'z "men" ini markaziy joyga qo'yish\*

**81. O'z fikrini uqtirishdan avval, noqulay vaziyatga tushib qolmaslik uchun nimalarни bilib olgan yaxshi?**

- A Suhbatdoshning ijtimoiy kelib chiqishini
- B Aytيلayotgan masala yuzasidan qanday ma'lumotga ega ekanligini
- S Shaxsning so'z erkinligini ta'minlashga intilishini
- D. Suhbatdoshning ijtimoiy kelib chiqishi, aytيلayotgan masala yuzasidan qanday ma'lumotga ega ekanligi va Shaxsning so'z erkinligini ta'minlashga intilishini bilish\*

**82. Odatda, o'zini haddan tashqari erkin, aqli qilib ko'rsatishga intilgan va diqqat markazida bo'lishini istagida qattiq uringanlar, qanday vaziyatga tushib qoladilar?**

- A Noqulay\*
- B Qulay
- S Olqishga sazovor bo'ladilar
- D Hurmat qozonadilar

**83. Karl Gustav Yung ta'rificha «Odamlar tabiatidagi eng tuban illatlar majmui, jamoaviy onglanmaganlik va tuban ruhning – obrazidir». Bu-**

- A Trikster\*
- B Avtoritet
- S Katarsis
- D Evtonaziya

**84. Ruhiy tahlil falsafasi asoschisi Freyd ta'limotga ko‘ra, tubanlikdan ulug‘vorlikka o‘tish natijasi nima deb yuritiladi?**

- A Sublimatsiya\*
- B Iste’dod
- S Daholik
- D Trikster

**85. Muomala etiketida nima juda katta o‘ringa ega?**

- A Soddalik\*
- B Javob
- S Kulgi
- D Hozirjavoblik

**86. «Hozirjavoblik va uning onglanmaganlikka munosabati» asari muallifi –**

- A Freyd\*
- B Imom G‘azzoliy
- S Suqrot
- D Forobiy

**87. Dilini og‘ritmagan holda, ochiqdan-ochiq kurashlarsiz, ... orqali suhbatdoshini «silliqlik» bilan «haqiqatga» yetkazib qo‘yiladi? So‘zni toping.**

- A Qat’iyatlik orqali\*
- B Shirin so‘z orqali
- S Qattiq-qo‘lgulilik orqali
- D Kamsuqumlik orqali

**88. “...Shunday kuchga egaki, suyaksiz bo‘lsa ham “suyakka tegishi” mumkin”**

- A Til\*
- B Hajviya
- S Hozirjavoblik
- D Shirin so‘z

**89.Nimaning boyligi nutqni yanada go‘zallashtiradi?**

- A Dunyoqarashning boyligi
- B Chiroli nutqning boyligi
- S Kinoyaning boyligi
- D So‘zning boyligi\*

**90.Nimalar tilning ko‘rki hisoblanadi?**

- A So‘z, yuz va ko‘z
- B Shirin so‘z, kishining ishonchi va qalbi
- S Kishining odobi, kelib chiqishi, naslu–nasabi, ota–onasi va ustozি
- D To‘g‘ri javob yo‘q\*

**91.Kimning fikricha “yomonga yomonlik bilan qilingan muomala vaqtincha bo‘lsa ham o‘sha yomonning yo‘lida yurishga chorlaydi”**

- A Imom G‘azzoliy\*
- B Donishmandlarning
- S Suqrot
- D Forobiy

**92.Muomala madaniyatida so‘z aqldan..., tildan ... oladi. So‘zlarni o‘rniga qo‘ying.**

- A Kuch, ixtiyor\*
- B Qadr-qimmat, izzat
- S So‘z, nutq
- D Shirinsuxanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe’llilik

**93.Individual bahsda eng asosiy qoida nimalar?**

- A Asos, mantiq va dalillar
- B Imo-ishoralar va hayqirishlar
- S Cho‘zilib ketadigan bahslar
- D Janjallar\*

**94. Nimainsonning suratini emas, balki uning butun ichki dunyosini siyratini ham ko‘rsatadigan omildir?**

- A Kiyim
- B Muomala
- S Ma’naviyat \*
- D Madaniyat

**95. Nimaga qarab insonlarning estetik didi, farosati, oddiy va darajasini, hatto kasbini ham aniqlab olish mumkin?**

- A Kiyinshiga qarab
- B Fikrlashiga qarab
- S So‘zlashishiga qarab\*
- D Sog‘ligiga qarab

**96. Nima kishilarning o‘zaro muomalasiga, bir-biriga bo‘lgan munosabatiga, yurish-turishiga ham ta’sir qiladi?**

- A Kiyinish etiketi.
- B Boyligi
- S Ziyoliligi
- D Muomalasi\*

**97. Insonning tashqi go‘zalligi nima bilan belgilanadi?**

- A Kiyim rangining bir-biriga mosligida
- B Kiyimning tabiiylicha va soddaligida
- S Kiyimning xushbichim va chiroyliligida
- D Kiyimning mosligi, tabiiylicha, chiroyliligida\*

**98. Nima insonni nafaqat kiyinish, yashash umuman turmush tarzini go‘zallashtiradi, balki avvaldan qaysi andoza yoki qaysi ranglar rusm bo‘lishini ilg‘ash qobiliyatini paydo qiladi?**

- A Rivojlangan estetik didi
- B Kiyinish etiketi
- S Badiiy asarlar
- D San’at turlari\*

**99. Zehn bilan tanlangan orasta libos nimani bildiradi?**

- A Uning egasinining didini yaxshiligin\*
- B Ko‘ylak javoni to‘laligini
- S Yangi chiqqan zamonaviy libos ketidan quvishni
- D Zamonaviy moda mato turlarining yangiligini.

**100. Erkaklarga nisbatan ayollar modasi...**

- A Rangdor tuslari va fakturasi turli-tumandir
- V O‘zgaruvchanroqdir\*
- S Turli xil zamonaviy ziynatlidir
- D Salohiyatga ega.

## G L O S S A R I Y

**AXLOQ-** (arab. xulqning ko‘pligi; lot. moralis — xulq-atvor) — ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma’naviy hayot hodisasi, ma’naviyat sohasiga oid tushuncha. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig‘indisi. A. normalari kishilarning hatti-harakatlarida o‘z ifodasini topadi. Bunda ba’zi hatti-harakatlar, xulq-atvorlar A.iy, ba’zilari A.sizlik deb baholanadi. A. ijtimoiy ongning eng qad. shakllaridan biridir. Davr o‘zgara borgan sari har qanday hodisa kabi A. ham o‘zgaradi, rivojlanib, takomillashib, ma’naviy madaniyatning ko‘rinishlaridan biriga aylanib boradi. A.ni alohida fal-iy fan – “Etika” yoki “Axloqshunoslik” o‘rganadi. Ilm, bilim, dunyoqarash, idrok va iymon insonning xulq-atvorida o‘ziga xos tarzda aks etadi. Insoniylik madaniyati esa axloqiy fazilatlar orqali namoyon bo‘ladi. A. ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo‘lgan insonlarning o‘z-o‘zini idora qilish shakllari va me’yori, o‘zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo‘lgan ma’naviy kamolot darajasining namoyon bo‘lishi hamdir.

**ANDISHALIK** - andishalik – insonning eng yaxshi fazilatlaridan biridir. Andishali odam atrofdagilar o‘ziga qaratib oladi, odamlarni u bilan birga yaxshi his qilishlari uchun imkoniyat yaratib bera oladi. Biz andishali odam deb: injiq bo‘lmagan, charchatmaydigan, xafa qilmaydigan, noo‘rin hazillarga yo‘l qo‘ymaydigan odamlarni nazarda tutamiz. U bepisandlik bilan kishini tashqi qiyofasini zimdan qarab chiqib, tanbeh bermaydi. Undan so‘ramaslaridan turib maslahat qilishga o‘tib ketmaydi. U barchani oldida kimnidir qanday vaziyat va sabab bo‘lmasin yerga urib tanqid ostiga olmaydi. Andishali kishi hamisha qay vaziyatda o‘zini qanday tutishi lozimligini yaxshi biladi. Qayerdan biladi? Unga ichki his va tarbiya yordam beradi. Unday odamlarni nozik, mulozamatli va zehnli deb aytaydilar. Har bir kishi andishali bo‘lishni o‘rganishi mumkin. Buning uchun sizga qanday munosabat qilishlarini istasangiz, xuddi shu tarzda boshqalarga nisbatan Shunday munosabatda bo‘lishingizning o‘zi kifoya.

**AKSESSUARLAR** - libosni aksesuarlar – taqinchoqlar, sharf, bosh kiyim, galstuk, zaponka, remen, sumkalar va oyoq kiyimlar «ko‘rsatadi». Ularning turlitumanligi mos variantlarning topilishi va uyg‘unligini osonlashtiradi. Did bilan tanlangan jihozlar uning zamonaviy, bashang ko‘rsatishga imkon berib, uning uslubini ta’kidlab turadi. Shubhasiz, tabiiylik va go‘zallik doimo va bundan keyin ham eng zo‘r bezak bo‘lib qoladi. Yirik, ko‘zga tashlanadigan aksesuarlar, katta sumkalar, kostyumning yirik ziynatlari, silliq va yorqin rangdagi kalta, yirik

kashtalar, to‘g‘ri tanlanmagan gasltuk, katta hajmdagi bosh kiyimlar – bu faqat yirik, «Qalin suyak» insonlarga dir. Sarvqomat, o‘rta bo‘ylik insonlar bunday xunuklashtiradigan narsalardan chetlab o‘tgani ma’qul. Bu ularni bachkalanishtirishi mumkin.

**AXLOQIY IDEAL**-axloq -me’yorlarining yuksak, orzu qilingan darajadagi tasavvufi, barcha eng yaxshi xislatlarga ega, har tomonlama tarbiyalangan inson obrazi.

**AXLOQIY MADANIYAT**-axloqiy tarbiyaga doir asarlar, qarashlar, g‘oyalar, ko‘nikmalar va ularga amal qilinish.

**AXLOQIY ME’YORLAR**-jamiyatda o‘rnatilgan xulq-atvor qoidalari, ular urfat, ko‘nikma, marosim qoidalari sifatida namoyon bo‘ladi, axloqiy qadriyatlar sifatida qaraladi, ularga amal qilmaslik jamoatchilik tomonidan qoralanadi.

**AXLOQIY TARBIYA**-inson tarbiyasining muhim qismi hisoblanib, odamga yoshligidan boshlab to‘g‘rilik, halollik, izzat hurmat, burch-mas’uliyat, sog‘lom turmush tarzi, or-nomus, sharm-hayo, Vatan azizligi, oila muqaddasligi, e’tiqod mustahkamligi xislatlarining singdirib borilish jarayonidir.

**AXLOQIY TAFAKKUR**-axloq masalalariga bag‘ishlangan fikrlar, qarashlar g‘oyalar, har bir insonning axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni anglash, ilmiy mushohada qilish jarayoni.

**AXLOQIY FAZILATLAR** - inson xulq-atvori, yurish-turishidagi eng yuksak, ijobjiy hatti-harakatlар, o‘y-fikrlar va ezgu amallar majmuasi: ezgulikka intilish, yaxshilik qilish, izzat-hurmatli bo‘lish, mehnatsevarlik, or-nomusli bo‘lish, vatanparvarlik, insonparvarlik, saxovatlilik, halollik, pokizalik kabi xislatlarning namoyon bo‘lishi

**AXLOQSIZLIK**-jamiyatda qabul qilingan axloqiy me’yorlardan chetga chiqish: boqimandalik, yolg‘onchilik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, o‘g‘rilik, hasad, g‘iybat, tuhmat, vatanfurushlik, e’tiqodsizlik va shular kabi barcha salbiy xislatlarning namoyon bo‘lishi.

**ADOLAT** — yuksak ma’naviy tushuncha bo‘lib, uning E. va Yo. hamda Ya. va Yo. dan asosiy asosiy farqi shundaki, A. ning o‘zi biror-bir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. Shu

bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; A. da ikki ma’naviy jihat – ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma’lum ma’noda axloq sohasidagi miqdor o‘lchovchi ham dyeyish mumkin: u talab b-n taqdirlashni o‘lchab turadigan tarozidir. A. bor joyda ijtimoiy jabrga, beboslikka yo‘l yo‘q. Eng oddiy, ibtidoiy fazilatlar, m., mehribonlik, shafqat, muruvvat hayvonlarda ham mavjud, lekin hayvonlarda ular o‘z guruhiga, eng avvalo, o‘z surriyotiga qaratilgan bo‘ladi.

**ANDISHA** — yuksak ma’naviyatga xos, axloqiy tarbiya natijasida shakllanadigan ma’naviy-axloqiy tushuncha, Etika fanining me’yoriy tushunchasi, “Ma’naviyatshunoslik”, “Ma’naviyat asoslari” fanlarining asosiy kategoriyalardan biri. Kishilar b-n bo‘lgan munosabatda oqibatini atroflicha o‘ylab munosabatda bo‘lish, mulohaza qilish A.ning o‘ziga xos xususiyatlaridandir. A.li inson o‘z hatti-harakati, ma’naviy-ruhiy qarashlarida yuksak axloqiy tamoyillardan kelib chiqqan holda faoliyat yuritadi. Bunday inson o‘zgalarni olivjanob axloqiy me’yorlarga asoslangan holda qadrlaydi.

**BURCH** — jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U vijdon, e’tiqod, mas’uliyat kabi tushunchalar b-n mustahkam bog‘liq. Umuman, hayotda insonning har bir hatti-harakati zamirida B. ga sadoqat yoki xiyonat yotadi. B. ning insonlik B.i, musulmonlik B.i, nasroniylik B.i, fuqarolik B.i, otalik B.i, onalik B.i, farzandlik B.i singari barcha davrlar uchun umumiyoq bo‘lgan tushunchalari ham, jurnalistlik B.i, shifokorlik B.i, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud. B. tushunchasining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri – uning vaqt va jamiyatda muayyanlashish xususiyati.

**VIJDON** — ma’naviyatdagi ta’sir doirasi nihoyatda keng tushunchalardan biri. V. – Z. Froyd ta’biri b-n aytganda, alo men, men ustidan nazorat o‘rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog‘liqligidan kelib chiqsa, V. uning ichki o‘z-o‘ziga bog‘liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog‘liqlik tashqi bog‘liqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma’lum bir vaqt ichida odamning o‘z nojo‘ya harakati tufayli yuzaga kelgan o‘ng‘aysizligi bo‘lsa, V. azobi, bu oddiy o‘ng‘aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagи odamiylikka e’tiqodning faryodi, talabi; uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to‘xtamaydi.

**BO‘YINBOG‘** - bo‘ynibog‘ doimo egasining didini aks ettirib keladigan aksessuar hisoblanadi. Kostyum-shim bilan kiyish uchun ipak yoki sun’iy ipakdan bo‘lgan yoki sun’iy toladan hamda bir-ikkita sherst bo‘yinbog‘lar xarid qilib olish lozim. Bo‘yinbog‘ni tanlash kostyum fasoni va matosining rangi, rasmiga bog‘liq.

Jiddiy kostyumga tabiiy hamda sun'iy ipakdan bo'lgan bo'yinbog'lar to'g'ri keladi. Kapalaksifat bo'yinbog'lar alohida vaziyatlar uchun mo'ljallangan. Ular odmi va nafis tusda bo'lishlari lozim. Mayda rasmli kostyumga har qanday bo'yinbog' bo'laveradi. Olachipor kostyumga bir tusdagi bo'yinbog' mos tushsa yaxshiroq bo'ladi. Ammo bunda ikkita qoidaga amal qilish lozim: yo bo'yinbog'ni tanlayotganda uni kostyum rangi bilan bir tusda, ammo sal ochroq yoki sal to'qroq bo'lishiga harakat qilish kerak. Chunki bu bilan ular bir-birini to'ldirib turadi, yoki kostyum va bo'yinbog' bir-biriga qarama-qarshi tusda (albatta, uyg'unlashgan holda) bo'lishi lozim. Lekin bundan qarama-qarshilik sizda yagona bo'lishi kerak!

**DASTRO'MOL** – ham aksessuar hisoblanadi. Dastro'molni dazmollangan holda shim cho'ntagi yoki sumkada saqlash kerak. Aksirgandan so'ng uni qoqib o'tirish nojoiz, darrov olib qo'ying. Erkakni kostyumini yoki ayolni nafis bezaydigan dastro'mol – boshqa narsa. Erkaklarnikidan kichikroq bo'lgan bu dastro'mol jamoatda ko'z-ko'z bo'lishga arziydi. Erkaklarning oq rangdagi dastro'moli ustki kiyimning cho'ntagida bir-ikki santimetrik, yoki uchburchak shaklida chiqarib qo'yiladi. Har bir kishida ikkitadan dastro'mol yurishi shart.

**ETIKET** - «Etiket» (odob-axdoqqoidalari) so'zi fransuzcha so'zidan olingan bo'lib, u yoki bu jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor shakli, ehtirom ko'rsatish, va o'zini tuta bilish qoidalarining majmuasini bildiradi. Hamda takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko'zini quvontiradigan muomala hodisasi sifatida jamiyatdagi ma'lum bir mavqega muvvaffaqiyatli erishishning garovi tarzda ish ko'radi. Zero, kishilarning o'zaro munosabati agar u ijobiy tus olsa, har qanday hoh u jamiyat yoki shaxs ravnaqi uchun bo'lsin muvaffaqiyatli kechadi. Insonning ichki dunyosi, shaxsi, aqli va his – tuyg'ulari uning tashqi qiyofasi – ko'zları, chehrasi, shuningdek qaddi – qomati va yurish – turishida to'la aks etadi. Insonning ichki dunyosi qanchalik mukammal bo'lsa, yurish – turishi ham Shunchalik madaniyatli bo'ladi.

**ETIKET BO'YICHA MUOMALA QILISHNI BILISH** - avvalambor suhbatni olib bora olish qobiliyatidir. Bu yerda ham umumqabul qilingan qoidalari mavjud. Suhbatdoshingizni gapini bo'lmasdan uni eshitishni o'rganing. Zero, suhbatdoshingizni hamdardlik, layoqatlilik, yaxshi niyatligingizni ko'rsatib, diqqat va sabr-toqat bilan eshita olishning o'zi - bu iste'dod. Lekin bu iste'dod tug'ma emas – har bir inson uni o'zida hamda farzandlarida mujassam etib, tarbiya toptirishi mumkin. Suhbatdoshingizni tinglayotib iloji boricha uning ko'ziga qarashga harakat qiling. Suhbatdoshingizning gaplariga tasdiq sifatida yo boshingizni silkitib yoxud so'zlar bilan suhbatga bo'lgan jonli qiziqishni ko'rsatishga harakat qiling.

**OHANG** - suhbatning tavsifini belgilab berish uchun so‘z boyligi va so‘zning gramatik qurilishi hali yetarli emas, bu yerda gaplashish ohangi va intonatsiya muhim rol o‘ynaydi. So‘zlashish ohangi iroda va emotsiyal ta’sirni, hissiyotni aks ettiradi. So‘zlashish ohangidan hatto kishining kayfiyatini bilish mumkin. Ohang ma’lum darajada kishining xulqini ham aks ettiradi. Yani suhbatdoshimizning tarbiyali yoki tarbiyasizligini ko‘rsatadi. Yurish – turish vaziyatlari qanchalik ahamiyatga ega bo‘lsa, so‘zlashish ohangi ham shunchalik ahamiyatga ega. Bitta so‘z yoki iboraning o‘zi qanday ohangda aytilganligiga qarab bizga har xil ta’sir yetishi mumkin. Ko‘pincha aytilgan so‘z emas, balki haqoratomuz ohang kishini ranjitadi. Ohangizning chiroyligi yoki ingichkaligi bilan siz bevosita atrofdagilarda og‘ir yoki yengil kayfiyat uyg‘otasiz. Ifodalanayotgan so‘zlarning ma’nosи umuman tinglovchilarga hech qanday ta’sir bermaydi. U suhbatdoshingizning javob berish imkoniyatini yaxshilash darajasida bo‘lsa bas. Haqiqiy ma’lumot so‘z ohangizdadir.

**BAHS** – shaxslar o‘rtasidagi u yoki bu mavzudagi tortishuvni hisoblanadi. Bahs qoidasi: hatto juda qulay vaziyatlarda ham odamlarni fikrini o‘zgartirish juda qiyin masaladir. Agar o‘z qarashlaringizni boshqa birovga o‘tkazishni istasangiz, uning fikrini hurmat qiling. Hech qachon odamga uning nohaqligini aytmang. Xato qilish ehtimolini o‘zingizza bo‘lishiga ham e’tibor bering. Bu barcha turdagи bahslarga yakun yasaydi hamda sizdagi bu fikrlashdagi haqqoniyligini o‘zida ham yaratishga harakat qiladi. Shu bilan hamsuhbatingizni o‘zi ham siz kabi nohaq bo‘lishini tan olishiga imkon beradi.

**KASBIY ODOB** - jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha’n, ornomus, qadr-qimmat kabi hatti-harakatlarning majmui, umumiyl axloqning kishilar kasb-koridagi o‘ziga xos ko‘rinishidir. Odob (arab. adab so‘zining ko‘pligi) – jamiyatda e’tirof etilgan xulq normasi. Shaxs ma’naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o‘zgalar b-n munosabat (oila, mehnat jamoasi, turli marosimlar)da namoyon bo‘ladi. Odob negizida axloqning ba’zi tamoyil va me’yorlari, Shuningdek, maqsadga muvofiqlik va go‘zallik (estetika) talablari yotadi. Odob kishining jamoat orasida o‘zini qanday tutishi, odamlar b-n qay yo‘sinda muomala qilishi, o‘z turmushi, bo‘sh vaqtini qanday tashkil yetishi, inson tashqi qiyoфasi qanday bo‘lishi lozimligiga tegishli qoidalar (masalan, sharm-hayo, kamtarlik, xushmuomalalik kabilar)ni o‘z ichiga oladi.

**KAMTARLIK** – avvalo, o‘z-o‘ziga talabchanlik, o‘z harakatlariga, ishiga, bilimiga tanqidiy qarash, o‘ziga, kuch – quvvatiga ortiqcha baho bermaslikdir.

Kamtarlik kishilarga bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladi. Inson odobli bo‘lsa, u kishilar bilan Shunchalik sodda kamtarona muomala qiladi, o‘z ishlariga va harakatlariga kamtarlik bilan baho beradi. Boshqalarga nisbatan shirinsuxan bo‘ladi. Kamtar inson boshqalardan o‘zini ustun qo‘ymaydi, o‘ziga bino qo‘yib, soxta shuxrat ketidan quvmaydi, yutuqlardan esankiramaydi. Kamtarlik - tortinchoqlik va haddan tashqari andishalilikdan farq qiladi. Ular orqasidan inson o‘z qadr-qimmatini tushirib qo‘yish mumkin. Kamtarlik tabiiylikdan kelib chiqadi. U kishilarga bo‘lgan munosabatda ham yaqqol ko‘rinadi. Kamtarlik inson ichki ma’naviy dunyosining tashqi ifodasi hisoblanadi.

**MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA** (M.a.t.) – yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan tarbiya jarayoni. Ma’naviyat — tarbiyaning eng ta’sirchan quroli va ayni paytda uning natijasi. Axloq — ma’naviyatning o‘zagi. Axloq — bu avvalo, insof vaadolat tuyg‘usi, imon, halollik degani. Qadimgi ajdodlarimiz komil inson tarbiyasi haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, Sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. M.a.t.da axloq bilan ma’naviyat mezonlariga asoslanib, insonda ma’naviyat hamda axloqni shakllantirish va rivojlantirish, takomillashtirish uchun ta’sirni kuchaytirishga e’tibor qilinadi.

**NUTQ-** bu til deb ataluvchi, o‘ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan muhim munosabatda nomoyon bo‘lishidir. Nutq jarayoni - tilning o‘z vazifasini bajarish hamda amalga oshirish jarayonidir.

**MUNOZARA-** biror masala yuzasidan taraflarning bahsini, tortiShuvini anglatadi. Baho jarayonida har bir ishtirokchi o‘zining haq ekanligini isbotlashga intiladi. Munozarada so‘zlanadigan nutq mavzu mazmunini ochuvchi dalillarga hayajonli, tinglovchilarni qiziqtiradigan va muhokamaga tortiladigan bo‘lishi lozim. Munozarada notiq o‘zini vazmin tutadi. Suhbatdoshini hurmat qiladi. Uning shaxsiga tegadigan so‘zlardan foydalanmaydi.

**MUOMALA MADANIYATI** -insonlar, xalqlar, millat va elatlar, qavmlar orasida o‘zaro ma’naviy aloqa, salomlashuv, so‘zlashuv, kelishuv va boshqa insoniy munosabatlardir. Muhim aloqa vositasi-M.m. ikki yoki undan ortiq kishilarning o‘zaro suhbatini, munosabatini ko‘rsatuvchi omil. M.m. nafaqat kishilar orasidagi aloqa vositasi, balki shu bilan birga dunyoning, olamning ma’naviy instrumenti hamdir. Sizning qanday Shaxs ekaningizni, o‘zaro muloqotda o‘z ifodasini topadi.

**MUROJAAT QILISH** - Murojaat qilish (obrashenie) - insondan ko‘p narsani talab qilmaydi. U insonni tarbiya ko‘rganligidan dalolat beruvchi harakatlar majmuasidir. Murojaat qilish har-xil bo‘lib, bu insonni qayerda, kim bilan, qay paytda, suhbatdosh bilan o‘rtalaridagi munosabatdan kelib chiqqan holda bildiriladi. Murojaat qilib aytilayotgan so‘zlar nafaqat unga bo‘lgan hurmat, balki o‘z maqsadiga erishish uchun ham qo‘llanadi. Insoniy munosabatlar asosida aytilayotgan so‘zlar faqat axloq normalariga bo‘y sunadi, bu esa qarindoshlar o‘rtasidagi, sevishganlar o‘rtasidagi, er-xotin o‘rtasidagi, do‘stlar yoki mansabdar shaxs va qo‘l ostidagi inson bilan bo‘ladigan munosabatlarda qo‘llaniladigan so‘zlardan tubdan farq qiladi. Murojaat qilish ham bir necha turlarga bo‘linadi: ular – rasmiy, ishonchli, intim va nomsiz.

**MUHOKAMA**- ma’lum bir masala yuzasidan ko‘pchilikni fikrini to’plashni, ma’lum to‘xtamlariga kelishini anglatadi. Muhokamada bahs predmetining hamma tomonlari nazarga tashlanadi. Xar bir ishtirokchi o‘zining erkin fikrlarini o‘rtaga tashlaydi. Mavzu ishtirokchilarning turli hajmdagi diologlari, monologlari asosida yoritiladi. Muhokamada fikrni og‘zaki bayon yetishning har-xil usullaridan foydalaniladi.

**IJOBIY XISLATLAR** - Odob saqlash, rasm - odat bo‘lib qolagan odob qoidalaridan chetga chiqmaslik hamda etika va estetika talablarini bajo keltirishdir. Odoblilik samimiyatga asoslangan bo‘lib, insonning boshqalarni xijolat qiladigan, ranjitadigan yoki quvontiradigan narsalarning hammasini anglab olishini, boshqalarning ehtiyoj – talablarini va kechinmalarini tushuna bilishini shart qilib qo‘yadi. Farosatli kishi noqulay vaziyat sodir bo‘lishini oldini olishga intiladi. Chirolyi hatti–harakatlar qoidalarini yodlab olib, unga odatlanish mumkin, lekin odob qoidalarikishidan ko‘proq narsani talab qiladi. Odobga o‘rganish uchun inson o‘zini boshqa inson o‘rniga qo‘yib ko‘rishi kerak bo‘ladi. Farosatlilik jamiyatga, insonning o‘ziga yoki birovga xavf tug‘dirmaydigan hollarda boshqalarning ishiga aralashmaslikni talab qiladi.

**KIYINISH MADANIYATI** - Kiyim ma’lum davr va ijtimoiy sharoitda kishilarning go‘zallik haqidagi qarashlari mujassamlashadigan moda bilan bog‘liq. Kishilik jamiyatni rivoji jarayonida bu qarashlar o‘zgara boradi, shu munosabat bilan moda ham uzluksiz o‘zgarib turadi. O‘zbek xalqining milliy madaniyati, urf – odatlari asrlar davomida davr va sharoitga, jamiyat taraqqiyotiga moslashib o‘zgarib kelgan. Inson tug‘ilishidan boshlab yo‘rgaklanadi. Yo‘rgakka kirgan dastlabki kunlardanoq kiyina boshlaydi. Kiyim insonning suratini emas, balki uning butun

ichki dunyosini siyratini ham ko'rsatadigan omildir. Madaniyatlilikning asosiy belgilaridan biri ham, bu – kiyinish odobidir. Kimning qanday kiyinishiga qarab, uning did–farosati, moddiy va ma'naviy darajasini, hatto kasbini ham aniqlab olish mumkin. Kiyinish madaniyati, kiyinish odobi kishilarning o'zaro muomalasiga, bir – biriga bo'lgan munosabatiga, yurish – turishiga ham ta'sir qiladi. Kiyinish shaxsning o'ziga xos xususiyati bo'lib, hamma vaqt go'zallik, uyg'unlik, noziklik, odob, xushmuomalalik, odamshinavandalik haqidagi tushuncha darajasining belgisidir. Insonning tashqi go'zalligi kiyim rangining bir–biriga mosligidir, tabiiylicha va soddaligidadir

**XUSHOMADLAR** - insonning tashqi qiyofasi, chiroyli so'zlari, hatti-harakatidan ta'sirlanib, ma'qullahni ifodalash, maqtovning maxsus shaklidir. Nafis shaklga o'rangan bu ifoda bilan hammamiz ham lazzatlanamiz – har birimizda ozgina miqdorda bo'lsa ham o'zimizga nisbatan muhabbat hamda g'urur mavjud. Xushomadlar jamoatda yoqimli kayfiyat uyg'otadigan hissiyotda asos bo'lib xizmat qiladi. Xushomad yengil, sho'x, oddiy, tabiiy va asosiysi, haqqoniy bo'lishi lozim. Agar xushomadlarni kam, ammo o'tkir va nazokatli qilib aytilsa, unda ular suhbatga ajib bir tarovat qo'shami. Aksincha, agar xushomadlarda bir muncha tayyorgarlik, ta'ma, oshirib yuborishlik bo'lsa, ular kulgulik va yoqimsiz xususiyat kasb etadi. Qo'pol xushomad doimo o'rinsizdir va uni ifodalovchi odam yaxshi ko'rsatmasligi aniq. Uni qabul qilish ham odamni kamsitadi. Xushomad o'z vaqtida va joyida qo'llanishi nur ustiga a'lo nurdir. Bunday nazokatga ko'milgan xushomad hamisha odamga lazzat bag'ishlaydi. U uyatchan odamga ishonch, odamovini ochiq bo'lishiga, xomush odamni kayfiyatini ko'tarishiga sabab bo'ladi.

**DIPLOMATIK ETIKET** - diplomatik etiket - bu diplomatlar va boshqa rasmiy Shaxslarning bir-biri bilan diplomatik tadbirda bo'ladigan muloqotlari chog'ida amal qiladigan yaxshi xulqlarning qoidalari. Diplomatik etiket shakllanish jarayonida umumiy etiket qoidalari tayanadi, shu bilan birga diplomatik normalar va qoidalalar biznes etiketi amaliyotida va umumiy etiket qoidalari o'z aksini topadi. Ushbu qoidalarni buzilishiga yo'l qo'yish mumkin emas, oddiy takallufning munosabatlarda qo'llanmasligi diplomatik etiketda hurmatsizlikka tenglashtiriladi va xalqaro va millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarishga qodir. Diplomatik etiket turli-tumandir. U o'z ichiga uchrashuvlar, o'zaro salom almashish, tabrik yo'llash, qabul marosimlarini o'tkazish, tashriflarni amalga oshirish, suhbat va muzokaralar olib borish etiketi va diplomatik seremonialarni qamrab oladi. Etiket qoidalari ayniqsa, diplomatlar tomonidan rioya qilinishiga katta e'tibor qaratiladi, chunki bu qoidalarning buzilishi yoki bajarilmamasligi mamlakat yoki uning rasmiy vakillari

nu fu ziga putur yetkazishi va buning natijasida mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

**SUHBAT** – ikki yoki bir necha kishilar o'rtasidagi muloqotga aytildi. Barcha holat va narsalarga yuzaki qaraydigan jamiyatga bir oz hazil va yengillik bilan hamma narsalar haqida komil ishonch bilan so'zlash bilan shug'ullanish – bu olim odam ham iste'dodli odam ham emin bo'ladigan san'atdir. Har kimga ham aqlli gaplarni osonlik bilan yetkazish qobiliyati berilmaydi. Suhbat san'atida sergaplikka yo'l qo'y may mashq qilish lozim, odamga moslashish kerak va uzoq tajribaga ega bo'lgandan so'nggina o'z istiqbolini ko'rish mumkin. Suhbatdagi har bir so'z suhbatdosh uchun aniq va tushunarli bo'lmog'i lozim.

**SALOMLASHISH ODOBI** - salomlashish insonning insonga bildirgan hurmati, odamlarning o'zaro muomala munosabatlarining boshlanishi, bir-biri bilan suhbatlashayotgan ikki dilning kalitidir. Salom berilganda sizga yoqimsiz qarab turgan inson ham alik oladi. Salom berish kundalik hayotimizda eng ko'p qo'llaniladigan udum bo'lib, xushmuomalalikni talab qiladi. Assalomu-alaykum, arabcha so'z bo'lib, "Sizga tinchlik tilayman" deganidir, bu so'z to'liq aytilishi kerak. "Assalom-alayka", "Va alayka", "Salom", "Salom alaykum", "Salom berdik", "Alaykum" kabi qisqa so'zlar ishlatilmasligi kerak.

Salomlashish kishilar orasidagi o'zaro hurmat, muomala munosabatlarining avval boshi bo'lgani uchun uning bajarilishida ham alohida qoidalar bor. Salomlashganda yoki xayrashganda aytiladigan "Assalomu alaykum" "salomatmisiz", "omonmisiz", "yaxshimisiz", "salomat bo'ling" dyeyiladi. Bu so'zlarda, insonlarning bir-biriga hurmat ehtiromi, xayriyohlik izhori bilan birga bu so'zlarda chuqur mazmun va mulohaza bor.

**STOL ATROFIDA O'ZINI TUTA BILISH ETIKETI** - stol atrofida o'zini tuta bilish etiketi shartli chekhanishlari bilan emas, balki estetik talablar, qulaylik alomatlari va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlardan kelib chiqadi. Rasmiy tushlik yoki nonushta paytida stol atrofida o'tira turib tashrifnomalar bilan o'zaro almashish mumkin emas. Stol oldida o'zini tutishning qoidalar shundayki, unda kichik doirada qat'iy amal qilish unchalik shart bo'lmagan, lekin ko'pchilik oldida bu qoidalarni buzish mumkin emas. Mehmonga aytilgan vaqtga borish lozim. 5-10 daqiqa vaqtliroq borish esa undan yaxshiroq bo'lardi. Umuman olganda har qanday joyga kechikib borish odobsizlikdir. Agar oldingizga olib kelgingan ovqatni yeyishni istamasangiz, uni olmasligingiz mumkin, lekin bunga odob qoidasiga amalqlig'an holda javob berish kerak bo'ladi. Ovqatni, taomlarni taklif yetish kerak, ammo majburan yegizish yaramaydi.

**TASHRIF** – sizga bo‘lgan iliq munosabati anglatadi. Sizni taklif qilishsayu, siz bormasangiz, bu hurmatsizlikdir. Kechki ovqatdan voz kechishning eng oxirgi muddati – ikki kun avval, ammo keltirgan sababingiz jiddiy bo‘lishi lozim. Bunga yo‘l qo‘ygan taqdiringizda imkon qadar tezroq og‘zaki ravishda uzr so‘rashni unutmang. Mehmondorchilikda ko‘p bo‘lib, ammo javoban o‘zi ham mehmonga chaqirmaslik odobga to‘g‘ri kelmaydi. Agar o‘z uyingizda mehmon qabul qilishga sharoitingiz bo‘lmasa, uning boshqa yo‘llarini qidirib ko‘rish mumkin, masalan, qahvaxona, restoran, teatr, agar mashinangiz bo‘lsa – shahardan tashqaridagi sayrga taklif qilish mumkin.

**XALQARO ETIKET** - xalqaro etiketning asosiy xususiyatlari uning universalligidadir. Turli mamlakatlar vakillarining, siyosiy qarashlar va turli dinlarga e’tiqodning, milliy an’analar va psixologiyaning, turli hayat tarzi va madaniyatlarning bevosita muloqotlari xalqaro etiketning asosini tashkil etadi. Har bir millatning ehtirom qoidalari bu milliy urf~odatlar va xalqaro etiketning murakkab uyg‘unligidir. Bugungi kunda zamонави xalqaro etiket barcha mamlakatlar va o‘tib ketgan avlod-ajdodlar madaniyatining eng qimmatbaho qismini o‘zlashtirib kelmoqda. Uning rivojlanib borish jarayoni davomida u turli mamlakatlar vakillari muloqoti orqali xalqlarda mavjud eng yaxshi ehtirom normalarini mujassam qilgan holda boyitilib bormoqda. Har bir mamlakat o‘z etiket tamoyillariga ega va ular xalqaro etiketning ajralmas qismi hisoblanadi.

**RASMIY QABULLAR** - davlat rahbarlari o‘rtasida rasmiy munosabatlarni keng tarqalgan va umumiy qabul qilingan shakllaridan biri rasmiy qabullarni o‘tkazishdir. Qabullarni tashkil yetish odati bizga o‘tmishdan kelgan bo‘lib, tinchlikparvarlik, yaxshilik belgisi hisoblangan. Mehmondo‘stlik esa, Shu kunga qadar davlatning sha’ni, xalqning to‘kin-sochinlik ko‘rsatkichi bo‘lib kelmoqda. Rasmiy qabul marosimlarida mehmonning an’anaviy taomlarining tortilishi mehmon davlatga bo‘lgan alohida hurmat-e’tibordan dalolat beradi. Hozirgi kunda xalqaro amaliyotda hamma ishtirokchilar uchun bajarilishi shart bo‘lgan va o‘z etiketiga xos bo‘lgan bir nechta rasmiy qabullarning turi mavjud. Diplomatik qabullar chog‘ida suhbat olib boriladi, aniq belgilanmagan muzokaralar, tanishuv va boshqa tadbirlar amalgalashiriladi. Ishtirokchilar bir-birlarining o‘zaro aloqasi, yig‘ilish xarakteri, yoshiga qarab, bir—birlarini to‘liq ism-shariflarini aytib o‘tishlari yoki faqatgina familiyalarini aytish bilan chegaralanadilar. Diplomatik uchrashuv yoki diplomatik qabulning xarakteri o‘zaro muloqotning me’yori va shaklini, salomlashish darajasini belgilaydi.

**HAY'ATLAR (DELEGATSIYALAR) TASHRIFI** - mehmonni qabul qilish hamma xalqlarda oddiy hollarda ham alohida e'tibor bilan o'z o'rniga qo'yiladi. Xalqaro munosabatlar darajasida esa mehmonga bo'lgan e'tibor jiddiy tusga kiradi. Bu holat tashrif darajasi, maqsadi va xarakteriga bog'liq bo'ladi. Bu bilan rasmiy hay'atlarga ko'rsatilayotgan hurmat-e'tibor belgilanadi. Hay'at rahbariga ko'rsatilayotgan hurmat-e'tiborning asosiy sharti u egallab turgan lavozim bilan belgilanadi. Masalan, davlat yoki hukumat rahbariga alohida e'tibor, tashqi ishlar vaziri yoki harbiy vazirga alohida, tegishli tashkilotning departament rahbari yoki boshqa lavozimdagи shaxsga alohida e'tibor shartlari belgilangan.

Kutib olinuvchi mehmonning egallab turgan lavozimidan kelib chiqib, kutib oluvchi mutasaddilar, uchrashuv ssenariysi va tashrif tashkiloti bilan bog'liq boshqa masalalar belgilanadi. Yuqorida qayd etilgan masalalarning barchasi oldindan, tashrif amalga oshirilishidan ilgari ishlab chiqiladi va yuqori darajadagi tashriflarni tayyorlash vaqtida mehmon tomon bilan kelishib olinadi. Tashriflar o'z klassifikatsiyasi bo'yicha bir necha turlarga bo'linadi. Ular: oliy darajada tashkil etiladigan davlat va rasmiy tashriflari, «Sammitlar», amaliy va norasmiy tashriflar.

**DIPLOMATIK YOZISHMALAR** - diplomatik hujjatlarga davlat arboblarining nutqdari, notalar, maktublar va memorandumlar kiradi. Ularda davlatning xalqaro miqyosdagi muammolarga munosabati va hukumatning ularga nisbatan tutgan mavqeい bayon qilinadi. Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarda biror-bir davlatni tan olish va diplomatik aloqalarni o'rnatish, aktual xalqaro muammolarni hal yetish bo'yicha takliflar, davlat suverenitetini yoki xalqaro huquq prinsiplarini buzish harakatlariga qarshiliklar kabi ma'lumotlar bayon qilingan bo'lishi mumkin. Xalqaro diplomatik amaliyatda quyidagi hujjat turlari yuritiladi: shaxsiy notalar, eslatma yozuvlari, memorandumlar, shaxsiy yarimrasmiy xatlar. Shaxsiy nota birinchi shaxs nomidai tuzilib, ikki tomonni qiziqtiruvchi biror-bir hodisa haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi.

**TASHRIFNOMALAR (VIZIT KARTOCHKALARI)** – u yoki bu inson haqidagi ma'lumotlar berilgan narsa. Kelib berilgan tashrifnomalarning o'ng burchagi uning egasi tomonidan bukib qo'yiladi. Bu shaxsiy tashrif ma'nosini anglatadi. Yuborilgan tashrifnomalarning burchagi esa bukilmaydi. Olingan va qabul qilingan tashrifnomalarga 24 soat ichida javob berish qabul qilingan. Tashrifnomalarning kesmasi tilla rangda bo'lishi tavsiya qilinmaydi. Ular yozuvi qora rangda bo'lishi kerak. Tashrifnomalar shaxsiy guvohnoma o'rnini egallaydi. Ular odatda ingliz tili yoki yashab, xizmat qilinayotgan davlatning rasmiy tilida chop etiladi. Tashrifnomalar ism, familiya, lavozim, ish manzili va telefon raqami kabi

ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi. Tashrifnomalarni boshqa kishiga bera turib ovoz chiqarib ismi-sharifini aytib, o'zini tanishtirish lozim.

**DIPLOMATIK PROTOKOL** - davlatlararo hamkorlikda munosabatlarning asosiy qoidalari, jumladan, suverenitetni hurmat qilish, tenglik, erkinlik, hududiy barqarorlik, bir-birini ichki ishlariga aralashmaslik kabi talablarga rioya qilmasdan turib to'laqonli kelishuvni amalga oshirolmagan bo'lar edilar. Bunday talablarni bajarish uchun bu boradaga tajribadan tashqari ma'lum bir dasturamal ham lozim. Bunday dasturamal diplomat (muzokara) bayonnomasi dyeyiladi. Ushbu bayonnomada davlatning vujudga kelishidan tortib, hozirgi davrgacha bo'lgan o'zaro hamkorlik munosabatlarining qayta ishlangan, yillar davomida tahrir va tajribadan o'tgan, zamonaviy talablarni ham o'z ichiga qamrab olgan qoidalalar majmuidir. Diplomatik protokol – xalqaro munosabatlarda rasmiy shaxslar, vakillar tomonidan hukumatlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan umumqabul qilingan an'ana, tartib, rasm-rusmlar qoidasining majmuidir. Muzokara bayonnomasining mohiyati o'zaro munosabatlarida davlatlarning kelishuvlarini axloqiy madaniyat doirasida kechishi – ya'ni davlatlarning kelishuvlarini chiroyli tarzda – axloqiy me'yordan chiqmagan holda olib borishdan iboratdir.

**DIPLOMATIK MARTABA** - O'zbekiston Respublikasi Diplomatik vakolatxonalari va Tashqi ishlar vazirligi xodimlarining diplomatik martabalari to'g'risidagi nizomga muvofiq, Diplomatik vakolatxonalarining boshliqlariga, elchixonalar, missiyalar va konsullikkarning diplomatik xodimlariga, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi markaziy apparati xodimlariga quyidagi diplomatik martabalar beriladi:

- Favqulodda va Muxtor Elchi
- Birinchi darajali favqulodda va Muxtor vakil
- Ikkinci darajali favqulodda va Muxtor vakil
- Birinchi darajali maslahatchi
- Ikkinci darajali maslahatchi
- Birinchi darajali birinchi kotib
- Ikkinci darajali birinchi kotib
- Birinchi darajali ikkinchi kotib
- Ikkinci darajali ikkinchi kotib
- Uchinchi kotib
- Attashe

Diplomatik martabalar elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlar va konsulliklar huzuridagi doimiy vakolatxonalar, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi markaziy apparati xodimlariga ijobiy attestatsiyaga, oliy ma'lumotga

ega bo‘lingan taqdirda, ularning malakasiga, egallab turgan lavozimiga hamda ish stajiga muvofiq, shuningdek malaka unvonlarini va boshqa farqlovchi belgilarini hisobga olgan holda tadrijiy tartibda beriladi.

**QABUL** - kimdir yoki nimadir uchun nishonlanadigan yig‘ilish qabul deb ataladi. Qabul – odamlar, davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi muloqot shaklidir. Uning sabablari va sababchilarining darajasiga qarab qabul rasmiy va norasmiy qabullarga ajratiladi. Chet el vakillari uchun yoki ularning ishtirokida tashkil qilinadigan qabullar odatda diplomatik qabul deb atashadi. Bu qabullarning turli usullari mayjud. «Shampan bokali» - qabuli milliy bayram yuzasidan, delegatsiya sharafiga, elchining kyetishi va h.k.da uyuştililadi. Qabulda mehmonlarga shampan vinosi, qovurilgan yong‘oqlar, shokolad, ba’zida esa mayda pirojniylar tarqatiladi. «Vino bokali» qabulida mehmonlarga vino, turli kanape, tartaletkalar, mevalar tortiladi. «Jurfiks» fransuzchadan olingen aniq vaqt deb tarjima qilinadigan qabulda ma’lum bir paytda va kunda qish yoki kuz fasli davomida o‘tkaziladi. «Jurfiks» tipiga qarab odatda simpozium, konferensiyalar o‘rtasidagi tanaffusda xizmat ko‘rsatiladi. Mehmonlarga gazaklar, sharbat, suv va issiq ichimliklar tarqatiladi. «Barbekyu» nomli qabulda esa yoz paytlarida, ochiq havoda (odatda yakshanba kunlari) o‘tkaziladi. Mehmonlarga aylanma sixda qovurilgan go‘sht, vino va salqin ichimliklar tortiladi. Bu qabul odatda 12 – 13 soatlarda o‘tkaziladi.

**XIZMAT TELEFONI** - telefonning ahamiyati kattadir. Uning effektiv qo‘llanishi imijdning asosiy komponentiga aylanadi. Keyingi suhbatlarning davomiyligi va ko‘p narsalarning ijobiy tus olinishi telefondagi odamni qanday qabul qilinishiga bog‘liq. Telefonda muzokalar olib bora olishi qobiliyatiga ega bo‘lish kishining nufuzini va u vakili bo‘lgan firmanın obro‘sini belgilaydi. Telefon suhbatlari mazmuni maxsus talablar mavjud. Ular o‘zida oddiy telefon etiketi va biznesni administratsiyalashning xususiyatini mujassam etadi.

**XIZMAT MUNOSABATLARNING ODOBI** - ishlab chiqarish munosabatlarining odobi degan tushuncha ham mavjudki – u ishxonada hamkasblar bilan kunda ko‘rishib, ko‘p vaqtingizni o‘tkazar ekansiz unda rioya qilinishi kerak bo‘lgan ba’zi qoida va me’yorlar, ba’zida esa udumlar majmuidir. Ish kuningiz qachon boshlanmasin, uning boshlang‘ich asosi uy sharoitidan: sizning kayfiyatizingiz, o‘zingizni qanday his qilishingiz ko‘proq qanday hordiq chiqarib, oiladagi munosabatlarga va h.k. bog‘liqdir. Chiroyli tabassum va ertalabki salom alik kuchli ta’sirga ega. Har qanday sharoitda o‘z hatti - harakatingizni boshqarishga intiling. Xushmuomalali, tavoze’li bo‘ling. Odamlarga tabassum qiling. Ham o‘zingizda, ham boshqalarda yaxshi kayfiyatni ushlab turishga harakat qiling. Majlislar, yig‘ilishlar –

agar uning ishtirokchilari behuda chiqishlar bilan boshqalarning vaqtini olmasa, foydalidir. Tor doiradagi majlisda, agar begonalar bo‘lmasa bir - biringizga «sen» lab murojaat qilsangiz bo‘ladi (agar siz u bilan do‘stona munosabatda bo‘lsangiz). Majlis paytida o‘g‘rincha konfet so‘rish yoki esnash mumkin emas. Erkaklar faqat rais ustki kostyumini yechgandagina, o‘zlarining kostyumlarini yechishlari mumkin. Yon verida o‘tirgan kishi bilan bir og‘iz gap bilan so‘zlashib olish mumkin, ammo suhbat olib borish yaramaydi.

**OILA** - tarixan tarkib topgan o‘ziga xos va mos ijtimoiy guruh bo‘lib, uning a’zolari bir-birlari bilan nikoh, qon-qarindoshlik, umumiy turmush va o‘zaro huquqiy, axloqiy va boshqa munosabatlar bilan bog‘langandir. Oila nikoh zaminida vujudga keladi. Nikoh esa erkak va ayol orasidagi munosabatlarning jamiyat tomonidan tan olingan, ma’qullangan ifodasi hisoblanadi. Jamiyat nikoh vositasida erkak va ayol orasida tabiiy munosabatlarni tartibga solib turadi. Oila tufayli er-xotin, ota-oni va farzandlar orasida axloqiy, huquqiy munosabatlar qaror topadi. Oila va jamiyatning mavjud bo‘lishi hamda rivojlanishining bиринчи va asosiy sharti oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ishlab chiqarish hisoblansa, ikkinchisi kishilarning yangi avlodni bunyodga keltirishdan iboratdir.

**OILA MADANIYATI** – jamiyatning muhim ijtimoiy instituti bo‘lgan oilaning to‘laqonli va mukammal faoliyat yuritishi uchun uning a’zolari (er va xotin, ota-oni va farzandlar) o‘rtasida birgalikda hayot kechirish va zarur munosabatlar o‘rnatish ko‘nikmalarining majmuasi.

Oila madaniyati - Oilaning tarbiya muhiti sifatidagi xususiyati, uning o‘ziga xosligi va tamoyilan muhimligi, undagi munosabatlarning bevositaligi va mustahkamligini umumiy muhitning emotSIONALLIGI bilan uyg‘unlikda ekanligi bilan sharhlanadi. Faqat oilada farzandlar kattalardan malaka, bilimlarni o‘zlashtiradilar, kattalar esa o‘z hayotlarida bosib o‘tgan yo‘llarini farzandlari orqali qayta barpo etadilar. Oilaviy muhit o‘ziga xos, unikal bo‘lib, uning har bir a’zosi yangi avlodda mustahkam va barqaror sog‘lom oilani barpo yetishga mas’uldir.

**OILADA FARZAND TARBIYASI** - oila baxti, farzandlarning tarbiyali yetuk inson bo‘lib yetishidagi ota-onaning sa’y-harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo‘lib yetishishida muhim o‘rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko‘radi, bo‘lajak fuqaroning tabiat, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib boradi. Axloqiy tarbiyaning mohiyati kishini hayotga tayyorlashdan iborat.

**OILANING MUSTAHKAMLIGI** – oiladagi tinchlik, xotirjamlik, bir- biriga bo‘lgan samimiy munosabat hisoblanadi. U oila a’zolarining axloqiy tarbiyasiga ham bog‘liq. Xalqimizda bejiz “Sog‘lom turmush tarzi mustahkam oilaning garovidir” debaytilmagan. Sog‘lom turmush tarzi deganda biz nafaqat oiladagi er va xotinning bir – biriga bo‘lgan munosabati balki, ulardagi axloqiy fazilatlar, imonlilik, poklik, halollik, rostgo‘ylik, shirinso‘zlik, kabi axloqiy me’yorlarga amal qilgan holda urf – odatlarga asoslangan, zamonaviy oiladagi iqlimni tushunamiz. Bunday iqlimda tarbiya topgan bola ma’naviy va axloqan yetuk inson bo‘lib shakllanadi.

**SAMIMIYLIK**- “boshqalar gapini tinglaydigan, hamfikr bo‘la oladigan, xabardor” degan ma’noni anglatadi. Samimiylilik to‘g‘riligiga o‘zi ishongan, bu haqda o‘ziga va boshqalarga iqror bo‘la oladigan narsalarni qiladigan odamning ma’naviy ijobiy sifati. Samimiyl, samimiyat bilan ish tutuvchi, muomala qiluvchi, sidqidillik bilan chin qalbdan qilingan, dildan chiqqan. Samimiyat kishilarga qalban xayrixohlik, pokdillik, samimiylilik, sidqidillik. Samimiylilik insondagi eng yaxshi xislat, oliv insoniy fazilatlardan biri bo‘lib, axloqning muhim me’yorlaridan hisoblanadi.

**DASTURXON** - taom iste’mol qila boshlanibdiki dasturxon bor. Dasturxon aziz, muqaddas, rizq – ro’z manbai sifatida ko‘zga surtilgan. Dasturxon odobi, taom yemak qonun – qoidalari ham xalqimizda azaldan mavjud. Uydami, mehmondam, kuniga uch – to‘rt mahal dasturxon yoziladi. Dasturxonlar ham joyi, odami, mavsumi, ma’rakasi, xonasiga qarab, katta – kichik, rang – barang, odmi – ohorli bo‘lishi mumkin. Dasturxon – taomi bilan ulug‘. Dasturxon ustiga odatda birinchi bo‘lib non qo‘yiladi. O‘zbeklar tandir nonni ko‘proq iste’mol qilishadi, u dasturxonga juft qo‘yiladi. Dasturxon etiketi ham qadimiy bo‘lib, kishidan muayyan an’analarni yaxshi bilishni talab qiladi. Dasturxonga hamma qo‘lini yuvib keladi. Dasturxon yozilganda nonni, taomni birinchi bo‘lib oilaning kattasi boshlab beradi. Dasturxon atrofida chiroyli gaplarni gapirib o‘tirish kerak. Dasturxon did bilan yasatilgan va o‘tiradigan joy qulay bo‘lsagina ovqatdan lazzat topasiz. Yozilgan dasturxon doimo ozoda bo‘lishi kerak. Dog‘li dasturxon ishtahani bo‘g‘adi. Dasturxonga idish – tovoqlarni qo‘yishda ularning rangi dasturxon rangiga mos tushishiga ham e’tibor bering.

**OSHXONA JIHOZLARI** - taomlar xilma-xilligiga qarab asosiy oshxona jihozlari turlicha bo‘lishi mumkin. Stolda albatta, umumiy taomlardan olinadigan ovqatlarni servirovka uchun mo‘ljallangan jihozlaridan tashqari oshxona jihozlari bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: Alovida qoshiqlar, sanchqilar, qisqichlar. Ovqat

vaqtida foydalaniladigan asboblar pichoq, sanchqi, qoshiq va boshqalardan eng ko‘p ishlatiladigani pichoq, sanchqi, sho‘rva qoshig‘ti, disert qoshiq va choy qoshig‘idir.

**SALFETKA** - salfetka – shak-shubhasiz stol servirovkasidir. Axir ularsiz stoldagi ozodalik hamda batartiblikni ushlab bo‘lmaydi. Bundan tashqari, yaxshi dazmollangan, chiroylik taxlangan sochiqlar hatto stolga ziynat qo‘sadi. Sochiqlarning o‘rashning turli usullar mavjud, lekin biz qo‘limiz kamroq tegishi mumkin bo‘lgan va yozilganda g‘ijim ko‘rinish kasb etmagan, oddiy hamda qulay usulubni ko‘proq tavsiya etamiz. Stolni nonushtaga yoki tushlikka taylorlashda, odatda salfetkalarni to‘rtga bo‘lib, uchburchak shaklida yarmidan buklab, so‘ng ruletga o‘xshab o‘raladi, bu esa unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi, tantanali kechki ovqat yoki tushlikka esa nisbatan murakkabroq taxlashlar – yelkan, qalpoqcha, sham va b. shakllarda o‘raladi. O‘ralgan sochiqlarni har bir mehmonning gazak uchun mo‘ljallangan kosasiga qo‘yib chiqiladi. Sochiqlarni qog‘oz salfetkalar bilan almashtirish mumkin.

**RAHBAR** - (f. «yo‘lboshchi – sardor, yetakchi») – jamiyat, davlat, tashkilotga doimiy va hal qiluvchi ta’sirga ega bo‘lgan shaxs. Rahbar ishning ko‘zini biladigan, jamoa, soha manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yuritadigan boshqaruvi xodimidir.

Rahbarlik aql-farosat, kuch-g‘ayrat, izlanish va topqirlilikni, o‘z ustida tinmay ishlashni, tadbirkorlikni talab qiladi. Rahbar tushunchasining quyidagi jihatlari ahamiyatlidir:

1. Rahbar ijtimoiy shaxs sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish resurslarini birlashtirib, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchini boshqaruvchi sifatida omilkorlik b-n ish yurituvchi shaxs.
2. Rahbar har qanday ishni amalga oshirish uchun, avvalo, mustaqil qaror qabul qiladi. Bu qaror rahbarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyati maqsadlarini belgilaydi.
3. Rahbar o‘z sohasiga yangi g‘oya, yangi tashabbus, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi tadbirkor shaxs hisoblanadi.
4. Rahbar mehnati, ayni vaqtda, tadbirkorlikka asoslangan mashaqqatli faoliyatdir. Unga sarflangan kuch, mablag‘ ba’zan vaqtincha foyda emas, zarar keltirishi, muassasa foyda o‘rniga zarar ham ko‘rishi mumkin. U bunday holatlarni oldindan ko‘ra olishi va bunga tayyor turishi, zarur bo‘lganda, faoliyatini qayta boshlashi, o‘zida bunga kuch-g‘ayrat topa bilishi lozim.

**RAHBAR SHAXSINING AXLOQIY MADANIYATI** - individ tomonidan axloqiy ong orqali jamiyat madaniyatini idrok yetish darajasi; axloq talablari inson

hatti-harakatlari jamiyatning shakllantiruvchi ta'siri ostida qay darajada chuqur va uyg'un ekanligi ko'rsatkichidir.

**RAHBAR SHAXSINING MA'NAVIY FAZILATLARI** - deganda uning tilida aytilib, dilida, va barcha hatti-haraktlarida namoyon bo'ladigan barcha ijobiy ko'rsatgichlari tushuniladi. Rahbar shaxs ma'naviy fazilatlari unda mavjud bo'ladigan iste'dod, izlanish, zamonaviy bilimlilik, vatanparvarlik, imon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, e'tiqod, poklik, halollik, vafodorlik kabilarni tashkil qiladi.

**RAHBAR SHAXSINING MADANIYATI** -madaniyat, avvalo, ma'naviy boylik hosilasidir. Siyosiy madaniyati yuksak rahbar millat, davlat, xalq manfaati nuqtai nazaridan ish tutadi, umum manfaatini o'z shaxsiy ehtiyoj va manfaatlaridan ustun qo'yadi.

**RAHBAR SHAXSINING MAS'ULIYATI** - mas'uliyat – rahbar madaniyatining asosiy belgilaridan biri bo'lib, uning ma'lum sohaga javobgarligini aks ettiradi. Alovida Shaxs, xodim mas'uliyatidan farq qilib, ko'لامi kengligi ushbu mas'uliyatni unutish oqibatlari salmog'i bilan ajralib turadi. Shu bois, rahbar mas'uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas'uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iyemoni, qolaversa, o'zgalar oldiga, jamoa, jamiyat, Vatan, millat oldidagi burchini teran anglashdir.

**RAHBAR SHAXSINING MA'NAVIYATI** - rahbarning ma'naviy madaniyati bu – rahbarda shakllangan (ichki) ruhiy quvvatdir. Rahbar shaxs ma'anviyati qanday bo'lishi kerak? Uning asosini qanday g'oyalar tashkil qiladi? Prezidentning har bir chiqishlarida ana shu masalalar ham o'z aksini topa boshladi. Davlatimiz rahbari deydi: "Kuchli ijroiya hokimiysi bo'lmasa, hatto eng demokratik yo'l bilan qabul qilingan qarorlar ham bajarilmasligi mumkin". Demak, rahbar shaxs ma'naviyatida, avvalo, mas'uliyat hissi yuksak bo'lishi lozim. Bu hisni nimalar tashkil qiladi? Uni "inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlarini oliy qadriyat" deb bilish tashkil qiladi. Shu ma'noda rahbar shaxs ma'naviyati g'oyasining birinchi elementi insonni qadrlashdir. Bu ulkan mas'uliyat hissini paydo qiladi.

**RAHBAR SHAXSINING MAHORATI** – rahbarning boshqaruv san'ati sirlarini bilishi, xodimlarni tanlashdan tortib, ular b-n bog'liq ziddiyatli vaziyatlarda optimal yechim topa bilishi, o'zi mas'ul jabhada undan foydalangan holda, yuksak mehnat samaradorligiga erishish uchun jamoasining bunyodkorlik kuchlarini safarbar eta olishi, tashkilotchilik qobiliyatining namoyon bo'lishi.

**TO‘Y** - O‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan marosimlardan biri to‘ydir. To‘y qarindosh – urug‘, tanish – bilish, qo‘ni – qo‘shni, el – yurtga yoziladigan dasturxon, ularni ahillikka, mehr – oqibatli bo‘lishga undaydigan marosim bo‘lib hisoblanadi. To‘ylarimiz o‘zbeklarning kimligini namoyon etuvchi o‘ziga xos bir ko‘rikdir. To‘y ham, ma’raka ham, marosim ham Shaxsiy ish emas balki ijtimoiy hodisadir bu birinchidan. Ikkinchidan esa xalqimizning milliy qiyofasi va xarakteri, o‘ziga xos turmush tarzi, salohiyati, dunyoqarashi, tafakkuri, ongi va qalbi, odamgarchiligi, orzu - umidlari, fazilatu kamchiligi bir so‘z bilan aytganda, butun borlig‘i ana shu to‘y – hashamlarda oilaviy tantanalarda ma’raka va marosimlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbekistondagи har bir viloyat va hududlarda to‘y oldi va to‘y o‘tkazish marosimlari o‘zgachadir. Lekin qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar, to‘y oldi marosimlari va to‘y o‘tkazishning ham o‘z etiketi mavjud.

**TA’ZIYA** - ta’ziya bu ko‘ngil so‘rab, yupatish demakdir. Dinimizda ta’ziyani shar’iy odat bilib, u uch kun qilib belgilangan. Ta’ziyaga borish kerak bo‘lgan inson urf – odatlarimizni hurmat qilgan holda etiket bo‘yicha kiyinishi, o‘zini tutishi, muomala qilishi lozim. Janozada yani ko‘mish marosimida faqat erkaklar ishtirok etadilar. Urf – odatimizga ko‘ra mayit chiqqan xonadonda 3 kun ovqat pishirilmaydi. Bu oilaning yaqin qo‘ni – qo‘shnilari tomonidan ovqat chiqariladi.

**TAKABBUR(LIK)** - Takabbur – o‘zini katta oladigan, kibr-havoli. Takabburlik – 1. Takabbur bo‘lish. 2. Takabbur odamlarga xos hatti-harakat. T.lik – salbiy axloqiy sifat bo‘lib, boshqalarga kibr-havolik b-n munosabatda bo‘lish, ularning tajribasi va ma’naviy boyliklarni mensimaslik, o‘zining jamiyatda tutgan o‘rnidan, millatidan mag‘rurlanishni anglatadi. T.lik – manmanlikning bir ko‘rinishi bo‘lib, kishining o‘zini yaxshi ko‘rish va imkoniyatlariga ortiqcha ishonishi asosida boshqalarga behurmatlikda bo‘lishini ifodalovchi salbiy axloqiy sifat. T.lik – illat. T.lik kamtarlik va odamlarga hurmat sifatlariga ziddir. T.lik kibr, manmanlik, mag‘rurlik, maqtanchoqlik, kekkayish, kaltabinlik, jamoadan o‘zini yuqori qo‘yish, boshqalardan ustunligini namoyon yetish kabi illatlar yig‘indisidan iborat.

**TARBIYA** – insonning shaxs bo‘lib yetishuvini ta’minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Go‘zal fazilatlar insonga xos narsa, faqat uning mulki emas. Yaxshi fazilat jamiyatning boyligi, umuminsoniy ma’noga ega. Ijobiy fazilatga ega bo‘lgan kishilar jamiyatga ta’sir qiladi, uning rivojlanishini tezlashtiradi. Inson bolasi ham bu yorug‘ olamga shunchaki kelmaydi. Hazrat Navoiy ta’biricha, inson olamga

kamolotga erishish uchun keladi. Inson to‘g‘ri tarbiya topmasa, uning hatti-harakatlari jamiyatga zarar keltiradi.

**ERKAK VA AYOL** - ayolni kuzatib ketayotgan erkak chekmaydi. Taksi to‘xtatgan erkak avval orqa o‘rindiqning eshigini ochib, ayolni o‘tkazadi, keyin o‘zi uning yoniga o‘tiradi. Mashinadan avval erkak chiqadi va ayolga yordam beradi. Agar mashinani erkakning o‘zi haydasa, rulga o‘tirishdan avval oldingi o‘rindiqqa ayolni o‘tkazadi. Biron joyga kirishdan avval eshikni erkak ayolga ochib beradi, so‘ng o‘zi kiradi. Zinapoyadan ko‘tarishda erkak oldinda, tushishda ayoldan orqada bo‘ladi. Biron joyga kirganda ayoldan avval erkak o‘tirmaydi.

**CHEKISH** - ko‘chada, kinodan, teatrda chiqqanda, sayr paytida chekishi mumkin. Birovning uyida uy egasi sigaret taklif qilgan taqdirdagina ruxsat so‘rab chekish mumkin. Har qanday kashandani yonida o‘z sigaretasi bo‘lishi lozim. Ayol erkakka gugurt tutmaydi. Bizga olov yoqmoqchi bo‘lgan odamning qo‘lidan gugurt yoki zajigalka olinmaydi. Kim birinchi gugurt yoki zajigalka yondirgan bo‘lsa, o‘sha boshqalarga ham olov tutadi. Olov uzatayotganimizda, og‘zimizdagи sigaretni qo‘limiz olamiz va kuldonga qo‘yib turamiz. Kulni faqat kuldonga tashlang! Na idishga, na gazonga, na batareyalar tiriqishiga va na yasatilgan vazalarga tashlamang. Agar kuldon bo‘lmasa, olib kelishlarini iltimos qiling. Cho‘g‘i bor sigaretni mebelda qoldirmang. Og‘izda sigaret bilan salomlashish yoki gaplashish yaramaydi. Hattoki tasodifan ham sigaret tutunini ham yoningizdagiga burqsitib yubormang.

**SHAXSNING AXLOQIY MADANIYATI**- individ tomonidan axloqiy ong orqali jamiyat madaniyatini idrok yetish darajasi; axloq talablari inson hatti-harakatlari jamiyatning shakllantiruvchi ta’siri ostida qay darajada chuqur va uyg‘un ekanligi ko‘rsatkichidir. Turli omillar ta’siri ostida: hayotiy tajriba va tarbiya; bilim va san‘at shaxs jamiyatning axloqiy madaniyati yutuqlarini turli darajada o‘z ongi va hatti-harakatlarida jamlaydi. Sh.a.m. murakkab dastur bo‘lib, o‘z ichiga insoniyatning Shunday tajribasini oladiki, unga ko‘ra inson an‘anaviy vaziyatlarda axloqan ish yuritadi, hamda ongning ijodiy elementlarini –axloqiy aql, intuitsiyani ham o‘z ichiga oladi va ular yordamida muammoli vaziyatlarda axloqiy qarorlar qabul qila oladi.

**HAYO** – shaxsning axloqiy o‘zini-o‘zi anglashi ko‘rinishlaridan biri; hayo tuyg‘usida insonning o‘z hatti-harakatlarini, axloqiy sifatlari va motivlarini anglashi tushuniladi. Inson o‘z hatti-harakatlarining axloqqa zid ekanligini mustaqil ravishda yoki bo‘lmasa atrofdagilarning qoralashi natijasida anglab yetishi mumkin. Hayo vijdon bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Vijdonsiz odamlarda hayo bo‘lmaydi. Shu bilan birga, hayoning vijdondan farq qiluvchi jihatlari ham mavjud. Hayo qo‘proq tashqi

muhit bilan bog‘liq bo‘ladi. Hayo tuyg‘usi insonning o‘z hatti-harakatlarini boshqalar nuqati nazaridan baholashi bilan bog‘liq bo‘ladi. Hayo tuyg‘usi ma’naviyatli va ma’naviy yuksak insonlarga xos axloqiy fazilatdir.

**OHANG-** so‘z va gapning libosi bo‘lib, bu til va nutq birliklari qanday ifoda etilishiga ko‘ra, uning ma’nolari ham o‘zgarib turadi. Shuning uchun ham “*gap so‘zda emas, ohangda, qaysi so‘zning qanday talaffuz etilishida*”- deydi taniqli so‘zshunos V.G.Belinskiy.

**QADR – QIMMAT** - Insonda kamtarlik va tabiiylik bilan bir qatorda o‘ziga hurmat bilan qarash, izzat – nafs tuyg‘ulari ham bo‘lishi shart. Izzat – nafs kishini o‘z kuchi va qobiliyatiga ishonishga hamda o‘zini jamiyat uchun kerakli, foydali inson deb bilishga majbur etadi. O‘z qadrini bilgan, or-nomusli kishi hech qachon vijdonsizlik, pastkashlik yoki haqoratli ish qilmaydi. Qadr-qimmatini biladigan kishi boshqalarni ham taxqirlamaydi. U hamisha muloyim, vazmin bo‘ladi.

## TARQATMA MATERIALLAR

### BIZNESMEN ETIKETI

80-YILLARDA BIZNES  
ETIKETI

3 TA ASOSIY YONALISHGA  
AJRATILGAN

Filantriya etiketi - yaxshi o'tadigan va biznesni xayrli harakatlarni amalga oshirishga turtki beradigan yaxshi natijalarga erishishini ta'minlaydi.

Adolatlilik etiketi - firma hamkorlari o'rtasida ishonchlilik va tenglikni ta'minlaydi.

Shaxsiy avtanomiya etiketi - boshqa sub'ektlar - biznes bo'yicha hamkorlar, klient va konkurentlar huquqlarini hisobga oladigan asosiy axloqiy qoidalarga yo'naltirilgan

DEYL  
KORNEGI

"U yoki bu insonning uning iqtisod bilan bog'liq ishlarining 15 foizi uning professional bilimlariga, 85 foizi esa odamlar bilan muloqot qila olish qobiliyatiga bog'liq"

**PITER KOOSTENBAUM**  
**“BIZNES FALSAFASI” KITOBIDA**

Biznesning yuragi – etiket, xokimiyat va falsafa” deb yozgan edi va quyidagilar firmaning uzoh muddatli yutuqlarga erishishiga turki bo’ladi deb hisoblaydi.

Foyda

Odamlar  
(moral)

Tovarva  
xizmatlar

Pristij

**BIZNES OLAMIDA O’ZINI  
TUTISHNING**

**5 TA ASOSIY PRINTSIPLARI**

Pozitivlik


Idrokli egoizm

Oldindan ko’ra bilish  
(bashorat qila olish)


Mavqeidagi farq

O’rinli harakat

**BIZNES HAMKORIDA YAXSHI TAASSUROT  
QOLDIRISHNING ESA 4 QOIDASI MAVJUD:**



**BIZNESMENNING HAMKORIGA DASTLABKI  
YOMON TAASSUROT QOLDIRISHINING 7 TA ASOSIY  
TOMONLARI MAVJUD. BULAR:**



## **KOSTYUM KIYISH QOIDALARI:**

**1-qoida:** Bir vaqtning o'zida kostyum bilan birgalikda sportiv oyoq kiyimlarni kiymaslik. Masalan: kostyum shim bilan birga oyoqda krasofka yoki barsofkalarni kiymaslik lozim



**2-qoida:** Kostyum kiygan holda sportiv sumkalarni ko'tarmaslik. Kerakli qog'ozlar va boshqa buyumlarni diplomatda, portfelda yoxud papkada ko'tarish kerak.



**3-qoida:** Agar kostyum kiyilsa, unda galstukni ham unutmaslik. Chunki galstuk kostyum kiyganda juda kerak. Ishbilarmon insonlar kostyumin ni galstuksiz kiymaydilar.



**4-qoida:** Rasmiy uchrashuvlarda kostyum tugmalari o'tkazilgan bo'lishi kerak. Teatr kreslosida o'tirgan vaqtida yoki ovqatlanish vaqtini mobaynida kostyum tugmalarini butunlay ochib qo'yish mumkin. Stoldan turish vaqtida kostyumin ni tugmalarini pastdan yuqoriga qarab o'tkazishni unutmaslik lozim



**5-qoida:** Moda ketidan quvmaslik: zamonaviy, xunuk kiyimdan ko'ra, chiroylar va mos kiyimni kiyish kerak.

# QABUL



**Odamlar, davlat va jamoat tashkilotlari o’rtasidagi muloqot shaklidir.**  
**Uning sabablari va sababchilarining darajasiga qarab qabul rasmiy va norasmiy qabullarga ajratiladi.**

## DIPLOMATIK QABULLARNING USULLARI



**Shampan  
bokali**



**Vino  
bokali**



**Jurfiks**




**Barbekyu**


**Bu qabullarning har biri ikki qismdan iboratdir.**

**Birinchisi – uchrashuv, ko’rishuv hamda mehmonlarning yig’ilishi, shaxsiy va umumiyl suhbatlar, kelganlarni basket stolidagi o’z joylari bilan oldindan tanishtirish, aperitiv.**  
**Ikkinchisi – basket (ko’p hollarda to’liq xizmat bilan).**

**ERKAKLAR TOMONIDAN  
ISHXONADA YO'L QO'YILIB  
KELINADIGAN XATOLAR**



**Ayol xodimlarga “azizam”, “go’zalim”  
kabi so’zlar bilan murojat qilish**



**Ayollarga qo'l tegizishga harakat  
qilish yoki ularning elkasiga urib-urib  
qoyish, ayollar xohlamagan holda ular  
bilan qo'l berib ko'rishishga harakat  
qilish**

**Turistik safarda ishtirok etishga qaror qilar  
ekanmiz, quyidagi qoidalarni nazarda  
tutishimiz lozim:**

**Uchrashuv belgilangan joyga  
kechikmaslik;**

**«Og’ir yuk» bo’lgani uchungina o’zingiz bilan olishga  
erinib, boshqalar elkasida tashib kelgan o’rin-  
ko’rpalarga da’vogarlik qilmaslik;**

**Vaqtinchalik olib turgan idishlarni  
yuvmasdan qaytarmaslik;**

**Gulxan yoqish yoki boshqa narsa qilish  
kerak bo’lganda gimnastika bilan  
shug’ullanishga o’tib ketmaslik;**

**Kiyimini «dardida» boshqalarga «yuk»  
bo’lmaslik: «bu erda o’tirmayman –  
shimimning rangi och» – ahvolingiz,  
chanqoq va boshqa narsalardan nolib  
injioqlik qilmaslik**

**Meva terish yoki tabiat go’zalligini  
tomosha qilish uchungina boshqalarni  
yo’ldan to’xtatish nojoiz. Faqat safar  
boshigina to’xtash, dam olishning  
vaqtini belgilaydi**

Sayoxat etiketi.

Turizm

Sayohat vaqtida

Tarbiyali kishi ko'chada


Do'sti bilan gaplashish uchun  
yo'lni o'rtaida turib olmaydi;

Bolalarga baqirmaydi;

Gazonlar bo'ylab yurmeydi, eyilgan  
qoldiqlarni tashlamaydi, danaklarni  
tuflamaydi

Pista chaqmaydi, radio  
yoki magnitofonni baralla  
ovozga qo'yib yubormaydi.

## OILA VA TURMUSH ETIKETI



**“Oila uch jihatni: o’zining bevosita ko’rinishi bo’lmish nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g’amxo’rlikni; bolalar tarbiyasini o’z ichiga oladi”.  
“Bolalarni kattalarning aytadigan so’zlari emas, ularning oilgan amallari tarbivalavdi**

**Iflos qilmaydi, tuflamaydi,  
qo’li bilan ko’rsatmaydi;**

**Oilada o’zini tutish etiketi erkaklar:**

**Doimo ayoli kiygan libosi bo'yicha biron-bir munosabatni bildirish lozim.**  
**Rafiqasining oldida boshqa ayollarga o'grilib qaramaslik joiz;**  
**«Seni boqyapman» deb da'vo qilish noo'rin – bu erkak burchidir;**  
**Uyda yarim yalang'och holatda yurmaslik;**  
**ishga bormaydigan vaqtida uydan chiqishdan oldin ayoliga qaerga**  
**borayotganini aytish «erkaksiz yashashga o'rganib qolishning» oldini oladi;**  
**pishirilgan taomni tanqid qilish yaramaydi, kezi kelsa boshqa biron**  
**vaziyatda gap orasida aytish mumkin;**  
**ayolingiz uyda nima ish bilan band ekanligiga ba'zan qiziqib qo'yish kerak;**  
**rafiqasi bilan ro'zg'or masalalaridan tashqari boshqa mavzular bo'yicha**  
**ham suhbatlashib turish munosabatlarni mustahkamlaydi, ziddiyatlarni**  
**oldini oladi.**

## Ayollarga maslahatlar

**1.Turmush o'rtog'iga narsalar olayotganda, dugonalarning emas, uni o'zining ham didi bilan qiziqqan ma'qul;**

**2.Eringiz yaxshi ko'rgan taomni ko'proq tayyorlash uning kayfiyatini yaxshilaydi:**

**3.Uni maqtab turish, uning maslahatini qabul qilib turish lozim;**

**4.Uning uchun qadrli o'lgan narsalardan foydalish munosabatlarni suiste'mol qilish bilan baravardir;**

**5.U yoqtirmagan mehmonlarni taklif qilish, unga yoqmaydigan joylarga mehmonga borish tavsiya etilmaydi;**

**6.Onasiga bo'lgan tabiiy bog'lanishini tanqid qilish noto'g'ri. Bu uni mustaqil erkak sifatida yerga uradi.**

**7.Nazorat va tekshiruv o'rtasiga olish yaramaydi. Bu uni xafa qilishi mumkin. Juda zaruriyat tuq'ilsva va bu tez-tez takrorlanadigan taqdirda bolalarni shirin tillaridan foydalangan ma'qul.**

**8.Davrada barcha uchun allaqachon ma'lum bo'lgan voqeani aytib berayotganda ham, uning so'zlarini kiprik oqmasdan diqqat bilan eshitish kerak. Uning gapini bo'lman. So'zlariga ishonchsizlik bildirish uni yerga uradi;**

**9.Bolalarni oldida otani tanqid qilish nafaqat eringizni sizga bo'lgan munosabatini yaxshilamaydi, balki bolalarni ham uy boshlig'iga nisbatan hurmatini yo'qotadi. Bunda bolalar ota-onani omadsiz oila a'zolariga qaragandek munosabat qilishlariga olib kelishi mumkin.**

## Marosimlar, mehmon va mezbon etiketi

Sharqni deyarli barcha allomalarining axloqiy-tarbiyaviy pandnomalarida xalq turmush tarziga oid o'gitlar, kundalik faoliyatiga doir nasihatlar davr nuqtai-nazaridan taxlil qilingan.

“Qutadg'u bilig”, “Devoni lug'atit turk”, “Qobusnama”, “Axloqi Muxsiniy”, “Makorim ul-axloq”, “Guliston”, “Bo'ston”, “Mahbub ul-qulub” kabi pandnomalarda insonning jamiyatdagi o'rni, turmushdagi kechmishi, kundalik faoliyatidagi harakatlar axloqiy-estetik tizim orqali ifodalanadi.

### Mehmondorchilikdagi illatlar

quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Huda-behuda kulaverish;

Mehmonlar oldida xonodon a'zolariga (xotini, farzandlari va xizmatkorini) tanbeh berish, ularni so'kish va haqoratlash


Mehmonga ta'na qilish, dasturxonadagi ne'matlar va taomlarni maqtayverish

Mehmondan avval mast bo'lib olish

Choy va qaxva uchun piyola yoki qahva idishdan tashqari tamaddi uchun likopcha sanchqi va pichoqlar zarurat nuqtai nazaridan beriladi

Ochko'zlik qilib, oldidagi narsalarni eb tugatish

**Shu jihatdan ham, mehmon hamda mezbon oldiga  
etiket quyidagi talablarni qo'yadi:**



**Mehmon uchun joyni to'g'ri bu – ularni kamroq bezovta  
qiladigan hamda ular uchun qulay bo'lgan joydir. Ya'na  
e'tiborli joy uy egasini chap yoki o'ng tomonida ham  
bo'lishi mumkin.**



**Uy bekalari stol chekkasida, ba'zi-ba'zida oshxonadan  
xabar olib kelish uchun chiqishga qulay bo'ladigan joyda  
o'tiradi.**



**Uchrashuv tashkilotchisi va uy egasining vazifasi  
mehmonlarda do'stona munosabat va yaxshi kayfiyatni  
vujudga keltirishdir.**



**Stolga o'tirgach gavdani tog'ri tutishga harakat qilmoq  
lozim. Stulda cho'zilmasdan, bir oz suyangan holda  
o'tirgan ma'qul.**

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.:O‘zbekiston, 2017.
2. Ta’lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. –T.:O‘zbekiston, 1997.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.:Sharq, 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O‘zbekiston. 2016.
5. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O‘zbekiston. 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va Shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., O‘zbekiston. 2017.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari tasdiqlash to‘g‘risida” (O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 9-son, 94-modda)lex.uz
8. Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari. Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 martdaggi 62-son Qarori. www.lex.uz
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo‘nalishlari” ga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. www.gov.uz
10. Karimov I.A. Asarlar to‘plami.1-23 jildlar. - T., “O‘zbekiston”, 1996-2015.
11. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayat haqiqatini aks ettirish. -T., O‘zbekiston. 2009.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning BMT Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan Sammiti yalpi majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2010 yil 22 sentyabr.
13. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
14. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.T.: “O‘zbekiston”, 2011– 440 b.
15. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O‘zbekiston, 2015.

### **Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar:**

1. Muhammadjonova L.A. Abidjanova F.A. Etiket. o‘quv qo‘llanma. –T., Universitet. 2012.
2. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. O‘quv qo‘llanma – T.: Universitet, 2014.
3. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik.–T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
4. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2009.
5. Umarov E., Zagirtdinova F. Etika. Prikladnaya etika. – T.: Noshir, 2012.
6. Muhammadjonova L. Amaliy etika. Uslubiy qo‘llanma – T.: Universitet. O‘zMU, 2014.

### **Maxsus adabiyotlar:**

1. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma’naviy-axloqiy fikr rivoji. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2009.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2011.
3. Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliy. Kimiyoi saodat. Ruh haqiqati. – Toshkent: Adolat. 2005.
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 tomlik. T.2. –Toshkent: Ma’naviyat, 1998.
5. Axloq - odobga oid hadis namunalari. - T. “Fan” 1990.
6. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. Yangi asr avlodni, - Toshkent, 2003.
7. Islom ma’rifati. - Toshkent: “Toshkent islom Unversiteti” 2005.
8. Kaykovus. Qobusnama. - Toshkent: O‘qituvchi. Matbaa ijodiy uyushmasi, 2006.
9. Komilov N.. Komil inson haqida to‘rt risola. - Toshkent: Ma’naviyat. 1997.
10. Mahmudov Karim. Mehmonnoma. - Toshkent: “Yosh gvardiya” nashriyoti. 1989.
11. Muhammadiev N.E. Ichki ishlari idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati - Toshkent, 2005.
12. Sartr J.P. Ekzistensializm to‘g‘risida. A.Sher tarjimasi. «Jahon adabiyoti jurnali». – Toshkent, 2011, 2-soni. 26-bet.
13. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1996.
14. Sharq donishmandlari hikmatlari. –Toshkent: Sharq, 2006 .

15. G‘oziev E. Rahbar faoliyatidagi nuqsonlarni bartaraf yetish. // “Xalq ta’limi” jurnali, 2000. № 3. -B. 18-23.
16. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. - Toshkent: Yangi asr avlodi. 1998.
17. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy/N.Komilov tarjimasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
18. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati.- Toshkent: Iqtisod – moliya.- 2009.

## **MUNDARIJA:**

Kirish.....	3
1-mavzu. “Professional etika va etiket” faniga kirish,fanni o‘rganishning maqsadi, predmeti va vazifalari.....	5
2-mavzu.Professional etika va kasbiy etiketning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari. Etiketning kelib chiqishi, maqsadi va zamonaviy ahamiyati.....	16
3-mavzu. Professional etikaning kategoriyalari.....	25
4-mavzu.muomala madaniyati, tanishish va tanishtirish etiketi. muomalada yuzaga keladigan ziddiyatlar va ularni bartaraf yetish yo‘llari.....	30
5-mavzu. Kiyinish madaniyati.....	53
6-mavzu. Biznesmen etiketi.....	76
7-mavzu. Rahbar xodimlarning etikasi va etiketi.....	101
8-mavzu. Diplomatik etiket.....	111
9-mavzu. Sayohat etiketi. Turizm.....	134
10-mavzu. Turmush etiketi.....	143
11-mavzu. Mehmon va mezbon etiketi.....	167
12-mavzu. Marosimlar etiketi.....	199
Testlar.....	203
Glossariy.....	221
Tarqatma materiallar.....	242
Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	254

## ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение.....	3
Тема 1. Введение в предмет “Профессиональная этика и этикет”, основные цели и задачи.....	5
Тема 2. Возникновение этикета и основные этапы развития профессионального этикета.....	16
Тема 3. Категории профессионального этикета.....	25
Тема 4. Культура общения, знакомства, правила представления .....	30
Тема 5. Культура одежды.....	53
Тема 6. Этика бизнесмена.....	76
Тема 7. Этикет руководителя.....	101
Тема 8. Дипломатический и этикет.....	111
Тема 9. Этикет туризма.....	134
Тема 10. Этикет семейной жизни.....	143
Тема 11. Правила поведения в гостях.....	167
Тема 12.Этикет обычаев.....	199
Тесты.....	203
Глоссарий.....	221
Раздаточные материалы.....	242
Список использованной литературы .....	254

## TABLE OF CONTENTS

<b>Introduction</b> .....	3
<b>Theme 1.</b> Introduction to the subject "Professional ethics and etiquette", main goals and tasks.....	5
<b>Theme 2.</b> The emergence of etiquette and the main stages of the development of professional etiquette.....	16
<b>Theme 3.</b> Categories of professional etiquette.....	25
<b>Theme 4.</b> Culture of communication, dating, presentation rules.....	30
<b>Theme 5.</b> Culture clothes.....	53
<b>Theme 6.</b> Ethics of a businessman.....	76
<b>Theme 7.</b> Manager's etiquette.....	101
<b>Theme 8.</b> Diplomatic and etiquette.....	111
<b>Theme 9.</b> Etiquette of tourism.....	133
<b>Theme 10.</b> Etiquette of family life.....	143
<b>Theme 11.</b> Rules of conduct at a party .....	167
<b>Theme 12.</b> Etiquette of customs.....	199
<b>Test</b> .....	203
<b>Glossary</b> .....	221
<b>Distributing materials</b> .....	241
<b>The used literatures</b> .....	254

**L.A. Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Obidjanova, G.K.Masharipova**

**PROFESSIONAL ETIKA VA ETIKET**

Darsligi

Toshkent - “Adabiyot uchqunlari” - 2018

Texnik muharrir:

D.Ortiqova

Kompyuterda sahifalovchi:

G.Masharipova

Bosishga ruxsat etildi 05.05.2018. Bichimi 60x84 .

«Times New Roman» garniturasi. Rezografiya usulida chop etildi.

Shartli bosma tabog’i 16,38. Nashr bosma tabog’i 16,25.

Tiraji 100 . Buyurtma № 293.

“Toshkent to’qimachilik va engil sanoat instituti bosmaxonasi”da chop etildi.

100100, Toshkent shahri, Shohjahon ko’chasi, 5-uy.